

B. HAMDAMOV

AUDIT IQTISODI

Toshkent – 2005

Audit iqtisodi/ B.Hamdammov. –T.: TMI, 2005. 251 bet.

Hozirgi kunda O'zbekiston iqtisodini g'arb va AQSh iqtisodi bilan uyg'unlashtirish mumkin emas. Bu yo'nalishda katta ishlarni amalga oshirish zarur. Shu sababli rivojlangan mamlakatlar bozor iqtisodining turli elementlari, shu jumladan auditni o'rganish va tadqiqotlar olib borish o'ta muhimdir. Mavzuning dolzarbligi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan buxgalteriya hisobi va nazorat sohasidagi islohotlar tufayli ham ahamiyatlidir.

Ushbu monografiyada auditning metodologik asoslarini o'rganish va aniq metodik takliflar ishlab chiqish borasida ilmiy izlanish jarayonlari va natijalari aks ettirilgan. Asosiy e'tibor auditorlik hisobotlari va xulosalarini tayyorlash, auditorlar mehnat unumdorligini oshirish, tashqi iqtisodiy aloqalar hamda operatsion audit masalariga qaralgan.

Monografiya buxgalteriya hisobi va audit sohasida ilmiy ish olib borayotgan izlanuvchilar, oliy o'quv yurti o'qituvchilari, korxonalar, firma, aksionerlik jamiyatlari rahbarlari va mutaxassislariga mo'ljallangan.

Monografiya «Buxgalteriya hisobi va audit» kafedrasi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. 2004 yil 13 aprel 10-son majlis bayoni.

Monografiya Toshkent Moliya instituti qoshidagi Oliy o'quv yurtlaridagi ilmiy-uslubiy Kengash majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. 2004 yil 20 avgust 1-son majlis bayoni

Taqrizchilar:

**i.f.d., prof M.M. To'laxo'jaeva
i.f.n., prof A.A. Karimov**

KIRISH

Respublikamiz iqtisodida bozor munosabatlariga o'tish jarayonlari bir maromda amalga oshmoqda. Bunda bosqichma-bosqich, ya'ni evolyutsion yo'l bilan borish to'g'risidagi yagona davlat siyosatiga amal qilinib, qonunlar majmui takomillashtirilmoqda.

Iqtisod taraqqiyotdagi ko'tarishdagi yirik qadamlardan xususiy mulkni himoya qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish, nazoratning auditorlik shakllarni kengaytirishga qaratilgan qator qonun va farmonlar bo'lib, bular mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, yopiq shakldagi aksionerlik jamiyatlarini ochiq shaklga o'tkazish, ko'chmas mulkning respublika birjasini barpo etish, fond birjasini tuzish va unda xususiylashtirilayotgan korxonalar aksiyalarini birlamchi joylashtirish kabi bozor infrastrukturasi yaratishga keng yo'l ochdi.

Bozor iqtisodi qurilmalarining yaratilishi chet mamlakatlar sarmoyalarining kirib kelishiga zamin bo'lib, ko'plab yangi mahsulotlar ishlab chiqishga va ish joylari tashkil qilishga asos bo'lmoqda. Shu bilan birga kapitalini O'zbekiston iqtisodiga joylashtirmoqchi bo'lgan chet el firmalari oldida ishonchli sherik tanlash va ularning moliyaviy holatini aniq baholash masalalari ko'p jabhalarda muammoli bo'lib turibdi.

Iqtisodi yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, korxonalar moliyaviy faoliyatiga to'la baho beruvchi maxsus ma'lumotlar keng ommaga tushuntirilib borilishi lozim. Shu bilan birga, moliyaviy hisobotning haqqoniyligi xolis auditorlar tomonidan tekshirilishi va tasdiqlanishi talab qilinadi. Albatta, bu shartlar O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonunda ko'rsatib o'tilgan. Lekin amalda bu shartlarga to'la rioya qilinayotgani yo'q. Shuningdek, respublikamiz hududida tashkil qilingan auditorlik firmalarining ko'rsatayotgan xizmatlaridan chet el sarmoyadorlari juda oz foydalanmoqdalar, negaki mahalliy auditorlik firmalari to'la xalqaro andozalarga mos ravishda o'z ishini yo'lga qo'ya olmayotirlar.

Buning bir necha sabablari bor, birinchidan tashkil qilinayotgan auditorlik firmalari hajmi jihatidan kichkina bo'lib, ularning mablag'i ham etarli emas, ikkinchidan, mahalliy auditorlik firmalari to'la metodologik jihatdan etarli manbalar bilan ta'minlanmagan, uchinchidan, davlat tomonidan ishlab chiqilayotgan normativ hujjatlar bilan ta'minlanish yaxshi yo'lga qo'yilmagan va nihoyat to'rtinchidan, bu firmalarga ishga qabul qilinayotgan auditorlarning malakasi etarli emas, ular kompyuterlarda hisobni yuritish sharoitlarida ishlash tajribasidan, ayrim hollarda, hatto, oddiy buxgalteriya qoidalaridan ham xabardor emaslar.

Shuni qayd etib o'tish maqsadga muvofiqki, korxonaning moliyaviy faoliyatiga malakali baho berish uchun auditor faqatgina unga oldindan ma'lum bo'lgan buxgalteriya hujjatlari va hisobotlarini tekshirishdan tashqari hozirgi kunda barcha taftishchilar uchun yangi bo'lgan moliyaviy tahlil to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtirishi kerak.

Yangi sharoitda moliyaviy tahlil metodikasi xalqaro tajriba ta'siri ostida bir qator o'zgarishlarni boshidan kechirmoqda, jumladan, korxonalarining to'lov qobiliyati va mablag'larini pulga aylanishi tezligi, inflyatsiya sharoitida debitorlik va kreditorlik qarzlarini haqqoniy va asoslangan holda aniq baholash va hokazo. Bundan tashqari tadbirkorlik faoliyatini daromadlari va foydalilik darajasini tahlil qilishda bir qator muammolar ko'ndalang bo'lib turibdi. Ya'ni qabul qilingan «Mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizom foydani aniqlashda, soliqqa tortish bazasini belgilashda bir qator tub o'zgarishlarni amalga oshirishga olib keldiki, bular, o'z navbatida, buxgalteriya schyotlari va ularning aloqalarini ham shu Nizomga moslashtirishni taqozo etdi.

Iqtisodni boshqarishdagi bunday tez o'zgarishlar auditorlardan o'z malakalarini doimo oshirib borishni talab qilmoqda, aks holda auditorlik tavakkalchilik darajasini yuqori bo'lishiga va moliyaviy hisobot to'g'risida noto'g'ri ma'lumot berish hollariga olib kelishi mumkin. Bu o'z navbatida, auditorlik firmalarining bo'yniga xato ma'lumot berganligi sababli moddiy javobgarlikni yuklaydi. To'g'ri auditning bu bosqichi, ya'ni tavakkalchilikka asoslangan audit evolyutsiyasining so'nggi bosqichidir. Bunga etib kelish uchun bir nechta bosqichlarni bosib o'tish lozim.

Bu rivojlanish davri chet mamlakatlarda yaqin 25 yilni o'z ichiga olgan bo'lib, bizning respublikamiz esa bozor munosabatlariga o'tganiga endigina o'n uchinchi yil ketayapti, buni inobatga olish kerak.

Audit taraqqiyotining birinchi bosqichida faqat buxgalteriya hujjatlari va hisobotlarini tekshirish bilan chegaralangan bo'lib, bizning iqtisodimizda hozir aynan shu bosqich amal qilmoqda. So'ng audit tizimli-yo'naltiruvchi tavsifga ega bo'lgani holda amal qila boshladi, bu ikkinchi bosqich edi. Bu holda kamchiliklarning oldini olish maqsadida ichki nazorat tizimi samaradorligini oshirishga katta e'tibor qaratildi. Auditorlik firmalari ko'proq maslahatlar berish bilan shug'ullanardilar. Bu audit muolajalarini nomigagina o'tkazishga olib keldi.

Nihoyat, audit taraqqiyotining uchinchi bosqichi mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan tavakkalchilikka asoslangan bo'lib, iloji boricha kamchiliklarga yo'l qo'ymaslikni va xatoliklarni oldini olishni o'z ichiga oldi. Auditorlik tavakkalchiligi yuqori bo'ldi degani bu xato xulosaga yo'l qo'yish ehtimoli katta bo'lib, o'z navbatida, quyidagi oqibatlariga sabab bo'lishi mumkin:

- birinchidan, auditorlik firmasi tomonidan mijozlarning yo'qotilishi;
- ikkinchidan, katta miqdorda moddiy javobgarlikning oshib ketishi;
- uchinchidan, litsenziyani yo'qotish va umuman bu faoliyat bilan shug'ullanishdan chetlatilishi.

Xalqaro auditorlik amaliyotida auditorlar kasbiy tavakkalchiligini sug'urta qilish keng tarqalgan bo'lib, O'zbekiston iqtisodida ham bunday ishlarni amalga oshirish va rivojlantirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Negaki, tez orada audit taraqqiyotining uchinchi bosqichi rivojlanadi. Tavakkalchilikka asoslangan audit, bu darajani qay miqdorda bo'lishni aniq hisoblab chiqishni taqozo etadi. Buning uchun quyidagi usullardan foydalansa bo'ladi:

- tizimli modelni yaratish, ya'ni statistik tanlab olish uslubiyotidan foydalanish;
- tavakkalchilik yuqori, o'rta va past bo'lgan bo'g'inlarni tahlil yo'li bilan ajratib olish usuli.

Birinchi usul ancha murakkab bo'lib, unda tanlab olish oraliqlarini belgilash va shu orqali ishonch mezonini aniqlab olish zarur bo'ladi. Bunda auditni rejalashtirish davrida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xato pul miqdorida aniqlab olinadi va kamchilik shu miqdordan oshmasligiga ma'lum foizda kafolat beriladi.

Ikkinchi usuldan ancha keng foydalaniladi. Hozirgi kunda mahalliy audit tekshirishlarida ma'lum miqdorda formal holda bu usul qo'llanib kelinmoqda. Bunda yuqori tavakkalchilik bo'g'ini aniqlanib, shu bo'g'inni tekshirishga kuchliroq e'tibor qaratiladi. Bunday usuldan rejali iqtisodiyot davrida o'tkazilgan taftishlarda ham qo'llanilgan.

Audit tavakkalchiligini to'g'ri baholashdan va unga to'g'ri yondoshishdan nafaqat auditorlik firmalarning o'zlari, balki shu hisobotdan foydalanuvchi tashqi guruhlar ham manfaatdordirlarki, bu ma'lumot ularning iqtisodiy ahvoriga katta ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan masalalarning echimi xalqaro hisob va auditorlik andozalarini O'zbekistonda qo'llash va ularni milliy sharoitlarga moslashtirish bilan birga amalga oshadi. Auditorlik andozalari auditorga taftish o'tkazishda ko'maklashib, asosiy qo'llanma hisoblanadi. Audit andozalarining har biri keng muhokamadan o'tgandan so'ng qo'llash uchun qabul qilinadi. Andozalar to'la qabul qilingach, har bir auditor ularga so'zsiz rioya qilishi shart. Hozirgi kunda xalqaro auditorlik andozalari eng umumiy jabhalar bo'yicha O'zbekiston auditorlari faoliyatida qo'llab kelinmoqda. Navbatda turgan vazifalardan asosiysi auditorlik mezon va andozalarini maxsus qonunlar shaklida ishlab chiqish va tadbiiq qilishdir.

Ma'lumki, tashqi audit tekshiruvchi va tekshiriluvchi o'rtasida xolis shartnoma tuzish orqali amalga oshiriladi. Shartnomani tuzishda qabul qilingan auditorlik andozalaridan chetlashmagan holda jami muammoli masalalarni kelishgan va yozma shartnomada aks ettirgan holda tuzish kerak. Shartnoma tuzishda quyidagi xususiyatlarni, albatta, hisobga olish zarur:

1. Pudrat shartnomasi - konsensual shartnomadir, ya'ni tomonlarning shartnomaning har bir bo'g'ini bo'yicha kelishuvidan so'ng kuchga kiradi;

2. Pudrat shartnomasi doimo individual tavsifga egadir, ya'ni pudratchining mehnat mahsulidir;

3. Shartnomada ko'rsatilgan vazifalarni bajarishda pudratchi o'z mustaqilligini saqlab qoladi, o'z ishini o'zi rejalashtiradi va usullarni belgilaydi;

4. Shartnomada kutilmagan holatlar oqibatida ishni to'xtatish hollari ko'rsatilishi kerak;

5. Ijrochi va buyurtmachining huquq hamda burchlari aniqlashtirilib olinishi kerak va hokazo.

O'zbekiston iqtisodiy tizimida nazorat munosabatlarini rivojlantirish, auditorlik tekshirishlarini kengaytirish va ularni sof bozor qoidalariga mos holda olib borish amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning samara berishida muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Moliyaviy nazorat tizimiga kiruvchi auditorlik nazorati metodologiyasi va metodikasini O'zbekiston iqtisodiy tizimiga mos ravishda barpo qilishdagi muammolar echimi ilmiy asoslanishi kerak. Bu borada O'zbekiston Respublikasi olimlari tomonidan ham bir qator ilmiy izlanishlar olib borildi. Ular chet el va MDH davlatlari olimlarining ilmiy yondoshishlariga va mahalliy tajribaga tayanib, ish ko'rishdi, jumladan B.T.Bayqunusov, S.V.Voxidov, S.Sh.Yo'ldoshev, E.F Gadoev, T.J.Jo'raev, Yu.I.Itkin, N.F.Karimov, A.X.Pardaev, A.R.Rizaqulov, N.S.Sanaev, M.M.To'laxo'jaeva va boshqalar.

MDH mamlakatlarida islohotlar munosabati bilan moliyaviy nazorat tizimi har bir mustaqil davlatda turli mulk shakllarining vujudga kelishi va xususiylashtirish darajasini uni qanday usulda amalga oshirilishiga qarab tashkil qilina boshlandi. Auditorlik nazoratini rivojlantirish masalalari ham mavjud tizimni, ya'ni taftish o'tkazish metodikasini rivojlantirish nuqtai nazaridan ko'rib chiqildi. Bunday ko'rish rossiyalik olimlar D.A.Aloxverdyan P.S.Bezrukix, I.A.Belobjetskiy, N.G.Belov, N.T.Beluxa, E.A.Voznesenskiy, Yu.A.Danilevskiy, S.K.Egorova, N.P.Kondrakov, L.M.Kramarovskiy, I.A.Lamikin, V.F.Paliy, V.P.Suyts, A.D.Sheremet, S.O.Shoxin va boshqalarning tadqiqotlarida tadqiq etilgan.

Albatta, g'arb davlatlari va AQSh iqtisodi MDH davlatlari, jumladan, O'zbekiston iqtisodi bilan uyg'unlashishi murakkabdir. Shu sababli bu yo'nalishda katta ishlarni amalga oshirish kerak, ya'ni bozor iqtisodining ilg'or texnologiyalarini elementi bo'lgan audit ustida ilmiy izlanish olib borish, uning O'zbekiston iqtisodiga, mentalitetiga xos ravishda metodologik asoslarini yaratish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Audit asoslarini yaratish va bu borada fundamental izlanishlar olib borgan rivojlangan chet mamlakatlarining olimlari E.A.Arens, R.Dodj, Dj.Lobbek,

R.Montgomeri va boshqalarning fikrlarini o'rganish mazkur monografiyada muhim o'rin egallaydi.

I BOB. AUDIT EVOLYUTSIYASI VA MIQDORIY MA'LUMOT IZLANISH PREDMETI SIFATIDA

Bozor iqtisodi turli mulkchilik asosida vujudga keladi. Bunday sharoitda ish yuritish uchun sifatli, aniq va hisoblashga moyil ma'lumot o'ta muhimdir. Umuman olganda, XXI asr bu ma'lumotlar asri bo'lishi muqarrar. Ya'ni bu omilga iqtisodiy barqarorlik, samaradorlik va sifatli ish yuritish ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Iqtisodiy ma'lumotga baho berish, uni kelib chiqish manbalarini tekshirish uchun auditorlik nazoratining o'rni ajralib turadi.

1.1. Audit evolyutsiyasining bosqichlari va mohiyati, miqdoriy ma'lumot

Audit mohiyati, maqsadi va vazifalarini chuqurroq anglab etish uchun audit taraqqiyoti tarixiga nazar tashlash zarur.

Agarda auditga moliyaviy nazorat sifatida qaralsa, birinchi bo'lib auditorlik tizimini Xitoy yaratgan. Eski Xitoy yozuvlarining ma'lumot berishicha, eramizdan avvalgi 700 yilda davlat puli va mulkidan foydalanish huquqiga ega bo'lgan hokimiyat amaldorlarini nazorat qilish uchun Bosh auditor lavozimi mavjud bo'lgan. Hokimiyat auditorlarining majburiyati, huquqi va shakllari suloladan-sulolaga qarab o'zgarib turgan. 1983 yil Xitoy yangi Konstitutsiyasining 91-moddasiga asosan Davlat auditorlik ma'muriyati tashkil qilindi.

O'rta asrlardan boshlab Evropada hokimiyat shartnomalarini turli javobgarlar tomonidan tasdiqlab, qayd etish odat tusiga kirdi va shu yo'sinda asta-sekin buxgalteriya hisobi va nazorat shakllana boshladi, XIV asrda ikki yoqlama yozish usuli paydo bo'ldi va mulk yo'nalishi ustidan nazorat kuchaydi.

Ko'plab mamlakatlar iqtisodida aktsionerlik jamiyatlari paydo bo'la boshladi. Albatta, bunday sharoit moliyaviy inqirozlarni ham chetlab o'tmadi va investorlar manfaatlarini himoya qila oladigan buxgalteriya-eksperimentlariga talab oshdi. Angliya parlamenti variantni nazorat qilib turish uchun zarur qonunlar to'plamini qabul qildi. Bularning hammasi auditorlar buxgalteriya hisobi va hisobotlarning haqqoniyligini nazorat qilishga qaratdi.

Qo'shma korxonalarining vujudga kelishi audit taraqqiyotida muhim rol o'ynadi.

Auditor mulkdor oldida javobgar bo'lib, balans bog'liqligi qonun va qoidalarga mosligini tasdiqlab, haqqoniy baho berishi kerak edi. Shu davrlarda konsolidatsiyalashgan balanslar ham vujudga keldi va ichki audit lavozimlari paydo bo'ldi. Ularning asosiy faoliyati buxgalteriya xizmatini nazorat qilish bo'lib, asosiy e'tibor pul mablag'lariga qaratildi. Shu sababli XIX asr oxiri va XX asr boshlarida tashqi auditorlar tanlab olinib, tekshirish usullarini qo'llash rivoj topdi.

Auditning gurgirab rivojlanishi 1930 yildagi chuqur iqtisodiy tanglikdan so'nggi davrlarga to'g'ri keladi. Masalan, AQShda 1932 yilda «Qimmatli qog'ozlar haqiqiyliigi to'g'risida Dalolatnoma (AKT)» qabul qilindi. Bu aktsiya va obligatsiyalar chiqarib, turli shtatlarda faoliyat ko'rsatadigan xususiy korporatsiyalarni mustaqil auditdan o'tkazishni tartibga soluvchi birinchi federal qonun edi. 1939 yildan boshlab buxgalterlarning Amerika instituti izlanishlar byulleteni va audit muolajalariga taalluqli hisobotlarni chop eta boshladi - bu auditni standartlashtirishga tegishli birinchi rasmiy hujjat edi.

Ikkinchi Jahon urushidan so'ng butun jahonda iqtisodiy faoliyatni auditsiz tasavvur qilib bo'lmay qoldi. Albatta, umumiy qabul qilingan buxgalteriya hisobi va audit tamoyillari to'ldirildi. Buxgalterlarning Amerika Instituti «Umumiy qabul qilingan

audit standartlari» ni tasdiqladi va Ichki taftishchilar instituti «Ichki taftishchi majburiyatlarini»ni chop etdi.

AQShda 1973 yildan boshlab moliyaviy hisob standartlari bo'yicha kengash tashkil qilindi. Amerika diplomlangan auditorlar instituti a'zolari soni 70 ming kishidan oshdi va auditorlarning javobgarligi ham kengaydi. Standartlarga rioya qilmagan auditorlarni diplomlangan auditorlar

safidan chiqarish choralari ko'rildi. Masalan, Amerika xolis buxgalterlar instituti auditorlik xulosalarining haqiqiylikini tekshirib, alohida a'zolari institut tarkibidan chiqarish bo'yicha qarorlar qabul qilish huquqiga ega edi. Auditorlarning kasbiy etik me'yorlari ishlab chiqildi. Hozirgi kunda AQSh da 100 mingdan ortiq diplomlangan auditorlar faoliyat ko'rsatmoqda.

1960 yillardan boshlab hisob vazifalarini bajarish uchun hisoblash texnikasidan foydalanila boshlandi. 1976 yildan auditor kasbida «Ma'lumot tizimi auditori» ixtisosligi paydo bo'ldi. Bu sohada birinchi standart 1987 yilda chop etildi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng auditorlik firmalarining baynalminallashuvi boshlandi va bunga asosiy sabab AQSh sanoatining kengayishi bo'ldi. Bu jarayon davomida milliy va baynalminal korxonalar birgalikda shartnomalar asosida ish ko'ra boshladi. Birinchi navbatda Amerika va Britaniya korxonalari birlashdi. «Katta sakkizlik» deb nomlangan bu auditorlik kompaniyalari audit xizmati bozorida asosiy o'rinni egallaydi.

Keyinchalik birlashuvlar oqibatida, ya'ni 1980 yillarning oxiri va 1990 yillarning boshlarida, «Ernest va Vinni» ning «Artur Yang va Ko» bilan, «Delayt Xasnins va Sellz» ning «Tach Ross va Ko» kompaniyalari bilan qo'shilishi «Katta oltilik»ni vujudga keltirdi. Bu integratsiyalashuv katta iqtisodiy samara keltirish bilan birga transnatsional kompaniyalarni tekshirish imkoniyatini yaratdi.

Shu sababli 1987 yil sentyabr oyida «Kupers va Laybrend» va «Prays Vaterxaus» kompaniyalari bazasida yangi auditorlik xoldingi tashkil bo'ldi. «KPMG» va «Ernst end Yang» kompaniyalari ham qo'shildi va natijada 1996 yilda ularning umumiy daromadi (15.9 mlrd. dol.) «Kupers va Laybrand» va «Prays Vaterxaus» xoldingi daromadlaridan (11.8 mlrd. dol.) oshib ketdi.

Sobiq oltilik tarkibiga kirgan firmalar ichida o'zgarishlardan «Artur Andersen» va «DTT» firmalari chetda qoldi. Hozirgi kunda «Artur Andersen» firmasi 9,5 mlrd dollar foyda olmoqda va peshqadamlik qilmoqda.

Shuni alohida qayd etish kerakki, auditorlik xizmatlari bilan birga maslahatlar berish bozori ham uzviy bog'liq, 90-yillarda bu sohada daromadlar 10 dan 125 mlrd. dollar o'rtasida tebrangan. Katta auditorlik firmalari yirik ishbilarmon maslahatchilar hamdir. Sof auditorlik daromadi 50-55% tashkil qildi, qolgan qismi asosan soliq va tadbirkorlik sohasidagi maslahatchilarga to'g'ri keladi.

1.1.1. Jadval

Turli mamlakatlarda auditning tashkiliy tavsiflari

Ma mla kat	Ko'rsatkich		
	Auditning asosiy maqsadi	Auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi organlar	Auditor kadrlar tayyorlash tizimi
Angliya	Buxgalteriya hisobining haqqoniyligini nazorat qilish, hisobot tizimi va korxonalar moliyaviy hisoboti to'g'risida fikr bildirish	Diplomlangan buxgalter va auditorlar qo'mitasi	Diplomlangan buxgalter va auditorlar qo'mitasi
Frantsiya	Iqtisodning nodavlat sektorida moliyaviy hisobotlar haqqoniyligining tashqi moliyaviy nazorati	1. Buxgalter-ekspeditor organi 2. Taftishchilar milliy palatasi	1. Buxgalter- ekspeditor organi 2. Taftishchilar milliy palatasi
AQSh	Xolis auditorlar tomonidan moliyaviy hisobotni tekshirish va ekspert-konsultativ faoliyat	1. Auditorlar uyushmasi federatsiyasi 2. Ichki taftish-chilar instituti 3. Buxgalterlar instituti	1. Diplomlangan auditorlar instituti 2. Ichki auditorlar instituti
Shvetsiya	Kompaniyalar, korxonalar, banklar, tashkilotlar moliyaviy hisobotini va xo'jalik muomalalarini buxgalteriya schyotlarida aks ettirilishini tekshirish	1. Auditorlik faoliyati komissiyasi 2. Auditorlarning Shvetsiya jamiyati (SRS)	1. Auditorlik faoliyati bo'yicha komissiya 2. Auditorlar malakasini oshirish instituti (UPEB) 3. Auditorlarning Shved jamoasi
Rossiya	Buxgalteriya hisobotlarini RF qonunchiligiga mosligini mustaqil buxgalteriya ekspertizasi orqali aniqlash	RF prezidenti qoshidagi auditorlik faoliyati bo'yicha kommissiya, TsALA MF va RF MB, Rossiya auditorlar palatasi	TsALAK MF va RF MB o'quv-metodik markazi
O'zbekiston	Moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborot to'g'riligi hamda qonun hujjatlariga mosligini aniqlash maqsadida xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisobotini va u bilan bog'liq moliyaviy axborotni tekshirish	1. Buxgalterlar va auditorlar assotsiatsiyasi 2. O'zbekiston Respublikasi auditorlar palatasi	1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 2. Buxgalterlar va auditorlar assotsiatsiyasi 3. O'zbekiston Respublikasi auditorlar palatasi

Hozirgi kunda konsalting faoliyati ko'proq ma'lumot texnologiyalari va ma'lumot menejmentiga qaratilgan.

Umuman turli mamlakatlarda, shu jumladan O'zbekistonda ham audit amaliyoti va tashkil qilinishi o'z xususiyatlariga ega. 1.1.1 jadvalda turli davlatlarda auditning tashkil qilinishini taqqoslashga harakat qildik.

Auditorlik faoliyatini tashkil qilish har bir mamlakatning xususiyati, davlat tuzilishi, iqtisodiy darajasi va boshqa omillarga bog'liq holda amalga oshadi.

Audit - bu jarayon bo'lib, unda etarli bilimga ega vakolatli mustaqil shaxs miqdoriy baholashga moyil va xo'jalik tizimiga tegishli ma'lumot haqida dalillar yig'ib, ularning belgilangan mezonlarga mosligini aniqlaydi va o'z fikrini bildiradi.

Bu ta'rifda chuqurroq ahamiyat berilishi lozim bo'lgan tushunchalar bo'lib, ularga alohida to'xtalamiz.

Miqdoriy baholashga moyil ma'lumot - audit uchun ma'lum andozalarga mos va son ko'rsatkichlari bilan ifodalangan, sifat jihatdan tavsifnoma berish uchun zarur ma'lumotlar kerak bo'ladi.

Miqdoriy o'lchash mumkin bo'lgan ma'lumot turli shaklda bo'lishi mumkin. Masalan, moliyaviy hisobot, xo'jalik mablag'lari va ularning ish jarayonidagi harakatlarni natura holda ifodalash, ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt birligi, alohida shaxsning soliq deklaratsiyasi, kontraktlarning summalari va hokazo.

Bu ma'lumotlarni baholash mezonlari ham turlicha bo'ladi. Masalan, qayta ro'yxat qilish usuli bilan moddiy boyliklarning saqlanishini aniqlash yoki g'azna hisobotlar auditi yordamida pul mablag'larining o'z vaqtida kirim qilinishi, samarali va maqsadga muvofiq ishlatilishini tekshirish mumkin. Foydalaniladigan mezonlar auditning maqsadidan kelib chiqadi.

Xo'jalik tizimi - xo'jalik tizimiga ko'p hollarda yuridik shaxslar, ya'ni korporatsiya, davlat muassasasi, jamiyat-birlashma, xususiy korxonalar kiradi. Ayrim hollarda xo'jalik tizimini bo'linma, sektor, tsex va ayrim olingan shaxslar ham ifodalashi mumkin.

Auditorlar javobgarligi chegaralarini belgilashda xo'jalik tizimini aniqlash bilan birga audit davrini ham aniqlab olish zarur bo'ladi. Ko'p hollarda bu davr 1 yilga teng bo'lishi yoki undan ham oshishi mumkin. Tekshirish davrini belgilashda oxirgi o'tkazilgan xolis audit xulosasi berilgan hisobot davridan tekshirilishi kerak bo'lgan hisobot davrigacha oraliq olinadi.

Dalillarni yig'ish va baholash - dalillar bu son ko'rsatkichlari bilan ifodalangan ma'lumotni belgilangan mezonlarga mosligini aniqlash uchun auditor foydalanadigan manbalardir. Dalillar turli shaklda bo'lishi mumkin, jumladan mijozlarning og'zaki javoblari, kontraktlar, auditorning shaxsiy kuzatishlari. Muhimi audit oldidagi maqsadga erishish uchun dalillar sifatli va etarli darajada to'planishi shart bo'lib, bu auditning asosiy qismlardan hisoblanadi.

Etarli bilimga ega vakolatli shaxs - auditor belgilangan mezonlarni to'g'ri tushunishi uchun etarli bilimga ega, dalillarning shakli va miqdorini bilish uchun vakolatli ma'sul shaxs bo'lishi kerak. Shu bilan birga auditor mustaqil bo'lmog'i darkor.

Mutloq mustaqillikka erishish qiyin, albatta, lekin unga harakat qilinadi. Hatto auditorning xizmatlari tekshirilayotgan kompaniya tomonidan to'lanayotganiga qaramay, u to'la mustaqilligini saqlab qoladi va tekshirish natijalariga ishonch hosil qilishi mumkin. Lekin auditor shu kompaniyaning boshqaruv tizimiga kirsa yoki shu kompaniyaning xizmatchisi bo'lsa - bu ichki audit bo'lib, mustaqillik chegaralangan bo'ladi.

Fikrlar berish - tekshirish natijalari auditorlik xulosalarida o'z aksini topadi. Xulosalar turlicha bo'lishi mumkin, lekin doimo ular foydalanuvchiga miqdoriy ma'lumot belgilangan mezonlarga qay darajada mos kelishini yoritib berishi kerak. Xulosalar shakli jihatidan ham farq qiladi, ya'ni moliyaviy hisobot bilan bog'liq bo'lgan texnik xulosalardan tortib, ma'lum shaxslar uchun tayyorlangan oddiy og'zaki xulosalargacha. Auditorlik xulosalarini tayyorlash bu tekshirish jarayonining so'nggi bosqichidir.

Yuqorida keltirilgan tushunchalar audit nima degan savolga to'la javob beradi. Buni aniqroq ochib berish uchun quyidagi jadval (1.1.2 jadval)da umumlashtirib ko'rsatish mumkin.

Auditga berilgan bu umumiy ta'rif bo'lib, mulkning turli ko'rinishlari mavjud sharoitda auditning turlarini aniqroq o'rganib chiqish zarurligini uqtiradi.

Auditning quyidagi turlari farqlanadi: operatsion audit, moslik auditi va moliyaviy hisobot auditi.

Operatsion audit - iqtisodiy samaradorlik va uning mezonini bo'lgan to'la mehnat unumdorligiga baho berish maqsadida xo'jalik tizimi bo'g'inlari faoliyatini tekshirishni o'z ichiga oladi. Audit tugatilgandan so'ng boshqaruvchiga aksariyat hollarda xo'jalik muomalalarini takomillashtirish borasida yo'l-yo'riqlar ko'rsatiladi.

1.1.2 Jadval

Auditning asosiy tushunchalari

Tushuncha	Mohiyati
Miqdoriy baholashga moyil ma'lumot	Auditning maqsadidan kelib chiqib tekshirish uchun olinadigan ma'lumot
Xo'jalik tizimi	Audit o'tkazish chegaralari
Dalillar yig'ish va baholash	Audit o'tkazish usullarini qo'llash va etarli isbot olish
Etarli bilimga ega, vakolatli mustaqil shaxs	Tekshirish o'tkazayotgan shaxsning bilimi va o'z kasbi ustasi ekanligi
Fikrlar berish	Olingan natijalar haqida ma'lumot berish

Boshqaruv samaradorligi xo'jalik tizimining turlicha bo'lishiga bog'liqligi sababli aniq operatsion auditni ifodalash mushkul. Masalan, biron-bir tashkilotda qimmatli qog'ozlarni sotib olgandan ko'ra ko'chmas mulk xarid qilish samaraliroqligi aniqlanib, tegishli maslahatlar berilsa, boshqa korxonada umumiy mehnat unumdorligiga ta'sir qiluvchi omillar o'rganilib, ishlatilmayotgan zahiralardan foydalanish yo'llari ko'rsatiladi.

Operatsion auditda tekshirish faqatgina buxgalteriya hisobi bilan chegaralanmaydi, balki boshqaruv tizimi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilish, kompyuter muomalalari algoritmini takomillashtirish, marketing va umuman auditorning mutaxassisligidan kelib chiqib, turlicha sohalarni qamrab olishi mumkin.

Operatsion auditning mushkulligi shundaki, uning ma'lumotlarini ob'ektiv baholash qiyin. Masalan, moliyaviy hisobot auditida hisobotni belgilangan buxgalteriya andozalariga mos ravishda tuzilganligini aniqlab baho berishda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni ko'rsatish bir muncha engildir. Shuning uchun operatsion audit mohiyati jihatidan ko'proq ma'muriyat uchun maslahatlar berish, ya'ni konsaltingdan iborat, desa ham bo'ladi. Oxirgi yillar ichida bu audit turi rivojlangan mamlakatlarda ko'payib bormoqda. Bu audit turi haqida to'laroq keyingi boblarda to'xtalamiz.

Moslik auditi - yuqori boshqaruv (ma'muriyati) tomonidan belgilangan ko'rsatma va qoidalarni xo'jalik tizimida bajarilishi darajasi ustidan o'tkaziladigan nazorat moslik auditining maqsadini tashkil qiladi. Masalan, boshqaruvchilar tomonidan o'rnatilgan, bajarilishi shart bo'lgan muolajalarga buxgalteriya xodimlari tomonidan amal qilinishi, diy boyliklarning saqlanishining ta'minlanishi va ularning sarflanishini belgilangan chegaralardan chiqmasligiga rioya qilish darajasi yoki kreditorlar va banklar bilan tuzilgan bitimlarga korxonalar tomonidan amal qilinishini nazorat qilish va boshqalar.

Byudjet tomonidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar nazorat qilinganda ham asosan moslik auditi o'tkaziladi, chunki bunday tashkilotlarda bajarilishi lozim bo'lgan qoidalar aniq ko'rsatiladi.

Moslik auditining natijalari auditni belgilagan bo'g'ini uchun ma'lum qilinadi, negaki bu audit natijalari hisobotdan keng foydalanuvchilarga taalluqli bo'lmaydi. Ayrim hollarda bir tashkilot o'ziga bo'ysunishi kerak bo'lgan tashkilotni nazorat qilish uchun ham moslik auditini

belgilashi mumkin. Masalan, hukumat tomonidan soliq to'lovchilarning deklaratsiyasini tekshirish uchun auditorlarni jalb qilish mumkin.

Moliyaviy hisobot auditi - bu auditning asosiy turi bo'lib, moliyaviy hisobot belgilangan mezonlar asosida tayyorlanganligini aniqlaydi. Belgilangan mezonlar bu asosan umumiy qabul qilingan buxgalteriya shartlaridir. Moliyaviy hisobotga buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot, xususiy kapital to'g'risidagi hisobot va shu hisobotlarga taalluqli bo'lgan tushuntirishlar kiradi.

Moliyaviy hisobot auditi natijalaridan turli guruhlar, turli maqsadlar uchun foydalanadi. Albatta, har bir foydalanuvchi o'zi audit o'tkazgandan ko'ra iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan bitta auditor hamma uchun xulosa tayyorlab berganligi ma'qul. Agar foydalanuvchini umumiy audit natijalari qoniqtirmasa, u qo'shimcha ma'lumotlar olishi mumkin. Masalan, korxonaga ssuda berish yoki bermaslik masalasini hal qilish uchun bankka umumiy audit natijalari etarli bo'lsa, ikkita korxonaning qo'shilishi masalasini hal qilish uchun kengroq ma'lumotlar zarur bo'ladi. Bunday hollarda korporatsiyalar qo'shimcha audit o'tkazish uchun shaxsiy auditorlardan foydalanishi mumkin.

Rivojlangan mamlakatlarda auditorlar asosan to'rtta guruhga ajratiladi. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlarida bularga bosh hisob xizmati auditorlari, soliq inspektorlari, ichki xo'jalik auditorlari va xolis buxgalterlar kiradi.

Bosh hisob xizmati auditorlari - federal hukumat xizmatlari tarmog'iga kiradi va faqat kongress oldida hisobot berib, kongressning auditorlik vazifalarini bajaradi, mohiyati jihatidan to'la moslik auditi funksiyalari asosida ish yuritadi. Bundan tashqari federal hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan turli rejalarining unumdorligi va samaradorligini baholaydi.

Soliq inspektorlari - federal soliq qonunlarining bajarilishini nazorat qilishadi. Audit qilinadigan soliq tushumlari oddiy, ya'ni jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlardan tortib, murakkab, ya'ni yuridik shaxslarning, jumladan yirik kompaniyalarning foydalarini aniqlash bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday auditorlarga soliq qonunchiligini mukammal bilish talab qilinadi.

Ichki xo'jalik auditorlari - ichki audit korxonasi, birlashma yoki tashkilotning boshqaruv tizimiga kirib, menejerlar uchun nazorat funksiyalarini bajarishda yordam beradi. Ichki xo'jalik auditorlarining malaka darajasi shu korxonaning boshqaruv tizimi talablariga binoan belgilanib, mustaqilligi chegaralangan.

Bu toifadagi audit korxonasi ma'muriyatini zarur ma'lumotlar bilan ta'minlab, buxgalteriya xizmati va boshqa funksional tizimlar bilan hamkorlikda ish yuritadi. So'nggi davrlarda ichki xo'jalik auditorlari operatsion audit bilan shug'ullanib, o'z bilimlarini kompyuterlar tizimini o'rganish borasida oshirishmoqda.

Xolis buxgalterlar - auditorlik firmalarning asosiy vazifasi bu ochiq chop etiladigan moliyaviy hisobotlarni tekshirish va to'g'riligini tasdiqlashdir. Bunday hisobotlardan yuqorida ta'kidlanganidek, har xil toifadagi guruhlar foydalanadi. Shu sababli hozirgi kunda iqtisodiyotda «Auditdan o'tgan moliyaviy hisobot» degan jumla keng ishlatilmoqda. Bu, o'z navbatida, «Xolis auditor» degan iboraning ishlatilishini taqozo etdi.

Xolis buxgalterlarni tayyorlash va bu nomga sazovor bo'lish yo'llari turli mamlakatlarda turlicha, lekin har birida ham «buxgalteriya hisobi» bo'yicha maxsus diplom, buxgalteriya sohasida ma'lum ish staji va maxsus imtihonlarni topshirish talab qilinadi. Ayrim davlatlarda, masalan, xolis auditor bo'lish uchun xolis buxgalterlar qayta tayyorlanib, audit faoliyati bilan shug'ullanish uchun ruxsatnoma beriladi.

Audit faoliyatini olib borish uchun ruxsatnomalar berish ham turlicha amalga oshiriladi. Ayrim davlatlarda bu faoliyat davlat tomonidan amalga oshirilsa, boshqalarida kasbiy uyushmalar ruxsatnoma beradi.

O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonunining 21-moddasida ta'kidlanishicha, O'zbekiston Respublikasi hududida auditorlik faoliyatini olib borish uchun ruxsatnoma berish Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Shunday qilib, auditorlar va audit haqidagi tushunchalarni umumlashtirib quyidagi (1.1.3 jadval) shaklida ifodalashga harakat qilamiz. Shuni nazarda tutish kerakki, operatsion auditda mezonlarni belgilash, moliyaviy audit yoki moslik auditiga nisbatan bir muncha murakkabdir.

1.1.3 Jadval

Auditorlik nazoratining turlari va auditorlarning toifalari

Audit	Auditor	Misol
Boshqaruv auditi	Bosh hisob xizmati auditorlari ichki xo'jalik auditorlari	Umumiy mehnat unumdorligiga tashkil qilingan hisoblash markazi faoliyatining ta'siri
Moslik auditi	Bosh hisobchi xizmati auditorlari, soliq inspektorlari, ichki xo'jalik auditorlari, mustaqil auditorlik firmalari	Kreditorlar va banklar bilan tuzilgan bitimlarga amal qilinishi
Moliyaviy audit	Mustaqil auditorlik firmalari, xolis auditorlar	Moliyaviy hisobotning yillik auditi

1.2. Auditorlik firmalarining tarkibiy tizimi va audit iqtisodi

Hozirgi kunda MDH da audit mohiyati to'g'risida uch fikr mavjud:

- audit - bu taftish faoliyati;
- audit - bu ekspert-konsultatsiya faoliyati;
- audit - bu taftish va ekspert-konsultatsiya faoliyatining birligi.

Audit bu taftish faoliyati degan nuqtai nazarni A.F.Aksyonenko, Yu.A.Danilevskiy, V.M.Rodionov, A.Ya.Ruf, A.K.Solodov, K.L.Ugolnikov bildirishgan.

Professor A.F.Aksyonenkoning fikricha, audit buxgalteriya hisobini yuritish jarayonini va turli mulkchilik sharoitida xo'jaliklar moliyaviy hisobotini belgilangan qonunlarga mosligini tekshirishdir.

Bizning fikrimizcha, auditning maqsadi - turli mulkka asoslangan korxonalar moliyaviy hisobotlarini va hisobotni yuritishni tekshirishdir. Shuningdek audit faqat hisobot va hisobni yuritilishini tekshirish bilan chegaralanmaydi. Audit korxonalar faoliyatining alohida taraflarini o'rganishga, hisobni yuritishda ko'maklashishga, xo'jalik faoliyatining tahlili, qabul qilinayotgan boshqaruv qarorlarining asoslanganligiga qaratiladi.

Yu.A.Danilevskiy auditni yillik moliyaviy hisobotni tekshiruvchi mustaqil nazorat sifatida va uni qay darajada belgilangan qonunlarda mosligini aniqlab, aktivlar, majburiyatlar va xususiy mablag'larni aks ettirilishining to'laligi, aniqligini belgilab beruvchi vosita sifatida talqin qiladi.

Professor V.M.Rodionov auditga mustaqil moliyaviy nazorat sifatida qaraydi. Moliyaviy nazorat moliya va u bilan bog'liq muomalalar majmuasini spetsifik usul va shakllar yordamida tekshirish ekanligini uqtiradi.

Ko'rinib turibdiki, keltirilgan ta'riflar, birinchidan, moliyaviy hisobot audit va amalga oshirilgan muomalalar haqqoniyligining taftishi bir xil tushuncha sifatida ko'rsatilgan, ikkinchidan, audit davlat moliyaviy nazoratining ko'rinishi sifatida berilgan. Bizning fikrimizcha, bunday yondoshishni konstruktiv deb hisoblab bo'lmaydi, chunki bu MDH davlatlarida audit amaliyotini juda soddalashtirib ko'rsatadi va shu bilan birga O'zbekiston iqtisodidagi amalga oshirilayotgan yirik tashqi iqtisodiy aloqalar talabiga javob bermaydi. Shu bilan birga tahlil qilinayotgan audit to'g'risidagi fikrlar - qonuniy jarayondir, chunki hozirgi kunda O'zbekistonda audit chet davlatlardagi audit taraqqiyoti evolyutsiyasining birinchi bosqichidagi nazariy fikrlar ta'siri ostida va sobiq Ittifoqning nazorat va taftish tajribasida rivojlanmoqda.

Auditni ekspertiza-konsultatsiya faoliyati sifatida talqin qiluvchi olimlar qatoriga E.A.Stoyanov, E.S.Stoyanova, P.I.Kamishanovlarni kiritish mumkin. E.A.Stoyanov va E.S.Stoyanova chet el tajribasini o'rgangan holda auditni kompleks iqtisodiy tahlil bilan taqqoslashmoqda.

Professor P.I.Kamishanov auditni biznesni ekspertiza qiluvchi vosita sifatida talqin qiladi.

Albatta, bu fikrlar auditning to'la mohiyatini ochib bera olmaydi. Bu talqindan kelib chiqib qaralsa, audit yangi ma'lumotni olib o'rganib, uni baholashi ko'rinadi, lekin audit jarayonida asosan o'tgan davr tekshirilishi kerak. Shuning uchun ekspertiza auditning tarkibiy qismiga kirishi mumkin, ammo unga ekvivalent emas.

Bir qator mualliflar fikricha, audit bu taftish va ekspert-konsultatsiya faoliyatining birligi deb ko'rsatiladi (V.D.Golishev, Yu.M.Itkin, V.A.Lugovoy, V.N.Nitetskiy, S.A.Stukov, M.M.To'laxo'jaeva va boshqalar).

S.A.Stukov va V.D.Golishev auditga korxonalar faoliyatiga amaliy yordam beruvchi, konsultatsiya o'tkazuvchi, huquqiy yordam beruvchi va boshqa xizmatlarni amalga oshiruvchi yangi nazorat shakli sifatida qarashadi.

Professor Yu.M.Itkin auditda taftish, konsalting va xo'jalik faoliyati tahlilining birligini ko'radi va audit uning klassik tushunishda tashqi mustaqil nazorat, deb biladi. Bu talqinda faqat auditning mustaqilligi va tashqi yo'nalishiga urg'u berilgan.

V.A.Lugovoy auditni korxonaga erishgan moliyaviy natijasi, buxgalteriya hisobini tasdiqlab beruvchi taftish va xo'jalik faoliyatini tahlili, deb biladi.

Bu borada M.M.To'laxo'jaeva o'zining izlanishlarida auditga to'la ta'rif berishga harakat qilgan va buni xorijiy adabiyotlarga asoslanib izohlaydi. Uning fikricha, «audit - bu mustaqil izlanish bo'lib, moliyaviy hisobot va u bilan bog'liq moliyaviy ma'lumotni shunga mas'ul kvalifikatsiyalangan mutaxassislar tomonidan o'tkazilib, asosiy maqsadi auditorlik xulosasida moliyaviy va xo'jalik muomalalarining belgilangan qonun va me'yoriy hujjatlarga mosligi haqida fikr berishdan iborat»¹.

Keltirilgan fikrlar audit mohiyatini ochib berishga yordam berib, bu nazorat turining iqtisodini o'rganishda asos bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi kunda auditni rivojlantirish uning iqtisodini tashkil qiluvchi omillar haqida fikr yuritishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Audit iqtisodining asoslarini o'rganish auditning zarurligi va ayrim auditorlik muammolarni tushunishiga yordam beradi. Misol tariqasida bank tomonidan korxonaga ssuda berish masalasini hal qilish ustida to'xtalamiz. Buning uchun bank shu korxonaga bilan avvalgi aloqalarga e'tibor beradi va moliyaviy hisobotda aks ettirilgan korxonalarining iqtisodiy ahvoli to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanadi. Ssuda uchun foizlarni belgilashda bank asosan quyidagi 3 ta omilga asoslanadi:

1. Tavakkalchiliksiz foiz miqdori, ya'ni hech qanday xatarsiz kredit, foizlari bilan qaytib keladigan darajadagi miqdor. Bu miqdor uncha katta bo'lmay, sinalgan mijozlarga beriladi.

2. Iste'molchining xo'jalik tavakkalchiligi. Turli iqtisodiy va xo'jalik sharoitlari tufayli mijozning olgan qarzini uza olmasligi tavakkalchiligi. Bu sharoitlarga ishlab chiqarish darajasining turli sabablarga ko'ra tushib ketishi va hokazolar kiradi.

3. Ma'lumot tavakkalchiligi. Bu tavakkalchilik xo'jalik tavakkalchiligini hisobga olishda foydalanilgan ma'lumotni aniq emasligi yoki noto'g'ri ekanligidan kelib chiqadi. Ma'lumot tavakkalchiligining sababi bu mijozning moliyaviy hisobotini xatodan xolis emasligidadir.

Audit birinchi va ikkinchi omillarga ta'sir qilmaydi, lekin ma'lumot tavakkalchiligiga kuchli ta'sir o'tkazishi mumkin. Agar bank boshqaruvchisi ma'lumot tavakkalchiligi yo'qligiga ishonch hosil qilsa, u foiz miqdorini kamaytirishi mumkin.

Ma'lumot tavakkalchiligining sabablari. Jamiyat tizimi va vazifalarining murakkablashib borishi qarorlar qabul qiluvchi shaxslar tomonidan ishonchsiz ma'lumotlar berishligi ehtimolini kuchaytiradi. Bu bir necha sabablar oqibatida vujudga keladi: ma'lumot manbalarining olisligi, mol etkazib beruvchining istagini yuqoriligi, ma'lumot miqdorining ko'pligi va murakkabligi.

Ma'lumot manbalarining olisligi - iqtisodiy aloqalar murakkab tizimli bo'lgan sharoitda qarorlar qabul qiluvchi shaxs birlamchi manbalardangina etarli ma'lumot olishi mumkin, deb o'ylashi xato bo'ladi. Ma'lumot boshqa turli manbalardan ham olinishi mumkin, lekin bu ma'lumotlar ishonchli bo'lishi kerak. Albatta, bunday sharoitda ma'lumotning buzib ko'rsatilishi ehtimoli yuqori bo'ladi.

Mol etkazib beruvchi xohish-istagingining yuqoriligi - agarda ma'lumot beruvchi bilan qaror qabul qiluvchining maqsadlari mos bo'lmasa, unda ma'lumot noaniq. Yoki mol etkazib beruvchining maqsadlarini ko'zlagan holda tayyorlanishi mumkin. Masalan, ssuda berish bo'yicha ijobiy qaror qabul qilinishini ko'zlab, qarz oluvchining moliyaviy hisoboti o'z foydasiga moslashtirib keltirilishi natijasida bir qator xato xulosalarga olib keladi.

Ma'lumot miqdorining ko'pligi va murakkabligi - tashkilotning kengayib borishi uning aloqalarini kengaytiradi, bu o'z navbatida hisob hujjatlariga noto'g'ri ma'lumot qayd etishiga olib kelishi mumkin. Kichik miqdordagi xatoni aniqlash, albatta qiyin, lekin shuni nazarda tutish kerakki, kichik xatolar yig'ilib borgach, uning miqdori oshib boradi, ya'ni faoliyatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

So'nggi yillar davomida tashkilotlar o'rtasidagi aloqalarning murakkablashib borishi ularni to'g'ri hisobga olishni ham qiyinlashtirmoqda. Masalan, kapital diversifikatsiyasi turli tarmoqlarni o'zlashtirishga va qaram korxonalarining tashkil qilinishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitda umumlashgan hisobotlarning haqqoniyligini tekshirish har bir qaram korxonada alohida audit

¹ Tqlaxo'jaeva M.M. Korxonaga moliyaviy ahvolini auditi. T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1996.

o'tkazish zaruriyatini tug'dirib, bir qator muammolarni hal qilishni taqozo etadi. Ijara munosabatlari ham kengayib bormoqda, bu ham o'z navbatida to'g'ri va aniq hisob olib borishni murakkablashtiradiki, audit oldidagi vazifalarni yanada oshiradi.

Ma'lumot tavakkalchiligini pasaytirish - ma'muriyat va moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar doimo ma'lumot tavakkalchiligini yuqori deb hisoblab, ish yuritishlari mumkin, lekin bu tavakkalchilikni pasaytirish borasida qilingan xarajatlar ko'proq samara berishi hozirgi kunda o'z isbotini topmoqda. Ma'lumot tavakkalchiligini pasaytirishning quyidagi uch usuli bir-biridan farqlanadi:

Foydalanuvchi ma'lumotni tekshiradi, ya'ni foydalanuvchi hisobotlarning haqqoniyligiga shaxsan hisob yozuvlari va birlamchi hujjatlarni tekshirish orqali ishonch hosil qiladi. Ammo bu usul katta xarajatlar talab qilganligi uchun amalda kam qo'llaniladi. Aksariyat soliq organlari tuzilgan deklaratsiyalarning haqqoniyligini tekshirish uchun bu usuldan foydalanadi.

Foydalanuvchi ma'lumot tavakkalchiligini ma'muriyat bilan birga taqsimlaydi, ya'ni ma'muriyat xato ma'lumot bersa, foydalanuvchi ko'rgan moliyaviy zararini qoplashi kerak bo'ladi.

Auditdan o'tgan moliyaviy hisobot taqdim etish - ishonchli ma'lumot olishning odatiy usuli bu - xolis audit o'tkazishdir. Albatta, foydalanuvchilar ko'pchilikni tashkil qilgan sharoitda audit o'tkazish qulay va arzon tushadi.

Qoida bo'yicha auditorlarni ma'muriyat moliyaviy hisobotlarini to'g'riligiga xulosa berib, foydalanuvchilarga kafolat berish uchun yollaydi. Agarda moliyaviy hisobot noto'g'ri tuzilgan bo'lib chiqsa, auditorlar foydalanuvchilar tomonidan ham, ma'muriyat tomonidan ham javobgarlikka tortilishi mumkin.

Xo'jalik yuritish amaliyotida yuqorida keltirilgan uch usul ham ma'lumot tavakkalchiligini pasaytirish uchun qo'llaniladi. Jamiyat taraqqiyoti murakkablashib borishi ma'lumot tavakkalchiligini pasaytirishda auditning o'rnini oshirmoqda.

Auditorlik firmalari o'z hajmi jihatidan turlicha bo'ladi. Xodimlarning soni 25 kishidan kam firmalar ham mavjud. Yirik auditorlik firmalari bir qator davlatlarda o'z mahkamalarni ochib, ish olib borishadi. Xodimlarning soni 1000 kishidan yuqori bo'ladi va yillik daromadi 500 mln.dollardan oshib ketadi. Auditorlik firmalarning o'rtasida doimo raqobat mavjud bo'lib, amalga oshiriladigan xizmatlar sifatining yuqori bo'lishini ta'minlaydi.

Amerika Qo'shma Shtatlarining eng yirik oltita firmasi «Katta oltilik» deb ataladi. Bu auditorlik firmalari AQShning eng yirik kompaniyalariga xizmat ko'rsatadi. Dunyoning boshqa mamlakatlarida ham o'z bo'g'inlariga ega bo'lgan firmalar katta transnatsional korporatsiyalarning yig'ma moliyaviy hisobotlar auditini o'tkazish imkoniyatiga ega.

Auditorlik firmalari to'rtta katta toifadagi xizmatlarni amalga oshiradi: tasdiqlash xizmatlari, soliq xizmatlari, ma'muriyat uchun maslahatlar berish va buxgalteriya xizmatlari.

Tasdiqlash xizmatlari- har qanday yozma bayonotni yozma xulosa berish orqali tasdiqlash xizmatlari auditorlik firmalari tomonidan amalga oshiriladigan asosiy xizmatlar toifasiga kiradi. Bunday xizmat ko'rsatishda auditorlik firmasi o'z fikrini bildirish bilan chegaralanib, yozma bayonotning haqqoniyligiga shu bayonotni tuzuvchi tomon javobgar bo'ladi.

Tasdiqlash xizmatlarining uch turi farqlanadi: tugallangan moliyaviy hisobot auditi, tugallangan moliyaviy hisobotni umumiy kuzatish va boshqa tasdiqlash xizmatlari.

Tugallangan moliyaviy hisobot auditi auditorlik firmalari ko'rsatadigan asosiy xizmat turidir. Yirik auditorlik firmalari ko'rsatadigan xizmat turlarining 50%dan oshig'ini tugallangan moliyaviy hisobot auditi tashkil qiladi.

Tugallangan moliyaviy hisobotni umumiy kuzatish. Ko'pchilik kompaniyalar foydalanuvchilarga moliyaviy hisobot taqdim etishni xohlashadi, ammo auditorlik xulosasi uchun xarajat qilishni xohlashmaydi. Bunday sharoitda umumiy kuzatish usulidan foydalangan ma'qul. Bu usulda audit o'tkazgandagidan farqli uncha yuqori bo'lmagan o'rtacha ishonch mezoniga erishiladi, xolos. Bu xizmatlarni auditorlik firmalari past narxga amalga oshirishadi.

Boshqa tasdiqlash xizmatlari. Mijozlarning xohish istagidan kelib chiqib, ayrim xo'jalik muammolarining haqqoniyligini tasdiqlab berish, kompyuterlar uchun dasturlarni baholash va boshqalar.

Soliq xizmatlari. Auditorlik firmalari soliq deklaratsiyalarini tayyorlab berish, aholiga soliqlar bo'yicha maslahat berish, kichik firmalarga soliqlarni hisoblab berish borasida va boshqa soliqlar bilan bog'liq masalalarni hal qilish bo'yicha xizmatlarni amalga oshirishadi.

Ma'muriyat uchun maslahatlar berish. Auditorlik firmalarining aksariyat o'z mijozlariga samarali ish yuritish borasida maslahatlar berish bilan shug'ullanishadi. Bu toifadagi xizmatlar turlicha bo'lishi mumkin - oddiy buxgalteriya tizimini mukammallashtirishdan tortib, marketing strategiyasini yaxshilash masalalarigacha. Ko'pchilik auditorlik firmalarida hozirgi kunda auditorlik va soliq bo'limlaridan tashqari konsalting bo'limi ham tashkil qilinmoqda. Ish yuritish, biznes borasida to'g'ri maslahatlar yuqori foyda olishning garovi ekanligini, albatta, rad etib bo'lmaydi.

Buxgalteriya xizmatlari. Auditorlik firmalari tomonidan buxgalteriya hisobini tiklash, olib borish va moliyaviy hisobot tayyorlab berish borasida ham xizmatlar amalga oshiriladi. Ayrim kichik korxonalarda buxgalteriya hisobi auditorlik firmalari yordamida olib boriladi, chunki bu to'la buxgalteriya apparatini saqlashdan ko'ra bir muncha arzon tushadi. Auditorlik firmalari tomonidan buxgalteriya xizmatlari amalga oshirilganda bu hech qanday auditorlik xulosalari berish to'g'risida yoki tayyorlangan hisobotlarga kafolat to'g'risida, ishonchli xatolardan xoli bo'lgan moliyaviy hisobot ekanligidan dalolat bermaydi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi auditorlik firmalari tomonidan buxgalteriya xizmatlarini amalga oshirishga keng e'tibor qaratilmoqda, lekin buxgalteriya hisobini olib borish va moliyaviy hisobot tayyorlash ishlarini amalga oshirish uchun bir qator masalalarni hal qilishi zarur. Masalan, buxgalteriya hisobi auditorlik firmasi tomonidan olib borilganda bosh buxgalter vazifasi kimning zimmasiga yuklanadi yoki umuman bunday lavozim shart bo'lmas, u holda ikkinchi imzo qo'yish huquqiga kim ega bo'ladi va hokazo.

Auditorlik firmalarining tashkiliy shakllari, xususan, korxonalar, o'rtoqlik-jamoa tashkiloti yoki mutaxassislar korporatsiyasi ko'rinishida bo'lishi mumkin. Amaliyotda xususiy korxonalar shaklidagi auditorlik firmalari uncha ko'p bo'lmay, asosan, o'rtoqlik jamoa tashkiloti shaklida tuziladi. Boshqacha qilib aytiladigan bo'lsa, bir necha xolis buxgalterlar uyushib, sherikchilik asosida o'z xizmatlarini taqdim etishadi. Sheriklar ishda yordam berish uchun boshqa mutaxassislarni jalb qilishlari mumkin. Bu yordamchilar, yoki xolis buxgalter, yoki bu nomni olishni xohlovchilar bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, oddiy auditorlik firmasining tashkiliy tizimiga sheriklar, menejerlar, nazoratchilar, katta auditorlar va yordamchilar kiradi. Yangi xizmatchi ko'pincha yordamchi vazifasida ish boshlaydi va ikki-uch yil davomida har bir bosqichda ishlaganidan so'ng sherik maqomini olishi mumkin. Lavozimlarning nomlanishi turli firmalarda turlicha bo'lishi mumkin, lekin uning tashkiliy tizimi asosan o'zgarishsiz qoladi.

Auditorlik firmalarining menejerlari mijozning ish faoliyatini o'rganib chiqib, audit qadamlarini belgilab beradi. Umumiy ish rejalarini tuzadi va ish hajmini aniqlaydi. Bu vazifalar ko'pchilik auditorlik firmalarida ham yuqori baholanadi va menejerlar auditorlardan bir pog'ona yuqori o'rinda turadi.

Yuqorida aytganimizdek, auditorlik firmasida ishlash uchun xolis buxgalter bo'lishi shart emas, lekin sherik mavqeiga erishish uchun bunday nomni olish talab qilinadi. Aksariyat auditorlik firmalari o'z xodimlarining tezroq xolis buxgalter nomiga sazovor bo'lishni xohlaydi va rag'batlantiradi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida «Amerika xolis buxgalterlari instituti» (AICPA) tomonidan bir yilda ikki marta - may va noyabr oylarida imtihonlar tashkil qilinib o'tkaziladi va baholanadi. Yozma imtihonlar ikki yarim kun davom etadi. Sinov 4 ta yo'nalish bo'yicha o'tkazildi, ya'ni: audit, buxgalteriya amaliyoti, buxgalteriya hisobi nazariyasi va xo'jalik huquqi. Bu yo'nalishlarning tarkibiy qismlari sifatida quyidagi predmetlardan bilimlar tekshiriladi: kasbiy etika, auditorlarning yuridik javobgarligi, federal soliqlar va buxgalteriya hisobining miqdoriy schyotlar yurgazish metodlari. Imtihon topshiruvchilarning 10 foizi bir martada imtihondan o'tishadi.

Imtihon topshirish uchun kvalifikatsion talablar turli shtatlarda turlichadir. Asosiy talablarga kollejning oxirgi kursida beriladigan ilmiy unvon hisoblanadi. Ayrim shtatlarda qisqa buxgalteriya kurslarini o'qib chiqish talab qilinadi va ish tajribasi bo'lishi talab qilinmaydi.

Amerika xolis buxgalterlari instituti milliy kasbiy tashkilot bo'lib, xolis buxgalterlar uchun kasbiy talablarni ishlab chiqadi, ilmiy izlanishlar olib boradi va buxgalteriya hisobi, audit, konsalting, soliqlar bo'yicha materiallar chop etadi.

AICRA a'zolari hozirgi kunda 318000 kishidan ko'p bo'lib, ularning hammasi ham xolis auditor sifatida faoliyat ko'rsatmaydi. Xolis buxgalter bo'lish uchun AICRAGA a'zolik shart emas.

AICRANing uchta asosiy funktsiyasi mavjuddir: andoza va qoidalarni belgilash, ilmiy izlanishlar va ularning natijasini chop etish, uzluksiz o'qishlarni tashkil etish.


AICRA to'rtta asosiy bo'g'in bo'yicha qoida va andozalar belgilash huquqiga ega: audit andozalari, hisobot tuzish andozalari, tasdiqlash bo'yicha boshqa xizmatlarni tartibga solish, kasbiy etika kodeksi.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi kunda bir nechta milliy buxgalteriya va audit andozalari qabul qabul qilindi. Bu andozalar xalqaro talablarga asoslangan bo'lib, buxgalteriya hisobini isloh qilishdagi yirik qadamlardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Buxgalterlar va auditorlar uyushmasi TESIS Evropa Komissiyasi ko'magida buxgalterlarni qayta tayyorlab, ular faoliyatini sertifikatsiyalash dasturini ishlab chiqishdi. Bu dastur muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. O'qitish uch modulli chizma asosida tashkil qilingan bo'lib, har bir modul test bilan yakunlanadi (1.2.1. chizma).

Chizmadan ko'rinib turibdiki, har bir modul imtihon bilan yakunlanadi va imtihondan o'tgan o'quvchi keyingi modulga kiritiladi. Agar o'quvchi biron moduldan testni topshira olmasa, (bu chizmada "yo'q" deb ko'rsatilgan), u qayta o'qishga jo'natiladi. O'qishni muvaffaqiyatli yakunlangan buxgalterlarga sertifikat beriladi hamda u buxgalterlar va auditorlar uyushmasi a'ziligiga qabul qilinadi. Sertifikat O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan va xalqaro talablarga javob beradigan darajaga egadir.

Shunday qilib, O'zbekistonda ham buxgalterlarni tayyorlash borasida xalqaro usullarni keng qo'llashga o'tilmoqda.




1.2.1-chizma. O'zbekistonda korporativ buxgalteriya hisobiga o'qitish.

1.3. Audit andozalari, sifat nazoratining zarurligi va tashkiliy asoslari

Audit andozalari - bu umumiy materiallar bo'lib, ular auditorlarga tugallangan moliyaviy hisobotning auditini o'tkazishda ko'maklashadi. Andozalarda mustaqillik va mas'uliyatlilik kabi kasbiy sifat belgilari, auditorlik xulosalari va tasdiqnomalariga qo'yiladigan talablar keltirilgan.

Auditning umumiy qabul qilingan andozalari



1.3.2-chizma. Auditning umumiy qabul qilingan andozalari.

To'la boshqaruvchi materiallar qatoriga Amerika xolis buxgalterlar instituti tomonidan 1947 yilda tayyorlangan o'nta umumiy qabul qilingan andozalar kiradi (1.3.2 chizma).

Umumiy andozalar.

1. Tekshiruv maxsus texnik tayyorgarlik va auditorlik kasbiy sifatiga ega shaxs yoki shaxslar tomonidan bajarilishi kerak.

2. Topshiriq bilan bog'liq bo'lgan har qanday savolda auditor yoki auditorlar mustaqilligini saqlab qolishi kerak.

3. Tekshiruv o'tkazish va xulosa berishda kasbiy sinchkovlikni namoyon etishi zarur.

Ob'ektda ishlash andozalari.

1. Ish puxta rejalashtirilishi va yordamchilar mavjud bo'lsa, ular ustidan to'la nazorat o'rnatilishi kerak.

2. Tekshirish hajmini belgilashda, vaqt chegaralarini aniqlashda va audit rejasini tuzish uchun auditor ichki nazorat tizimini to'la o'rganib chiqishi zarur.

Auditdan o'tkazilayotgan moliyaviy hisobot bo'yicha fikr berish uchun tekshirish, kuzatish, so'roqlar o'tkazish yo'li bilan hujjatlar to'plab, zaruriy asos yig'ish kerak.

Xulosalar andozasi:

1. Xulosada moliyaviy hisobot umumiy qabul qilingan buxgalteriya printsiplariga amal qilingan holda tuzilganligi to'g'risidagi ma'lumot bo'lishi kerak.

2. Xulosada bu printsiplardan chetga chiqish sharoitlari belgilanishi va tartibi aniqlanishi kerak.

3. Xulosada moliyaviy hisobotdagi ma'lumotni xatolardan xoli deb qarash, agar xatolar mavjud bo'lsa, ularga umumiy sharh berish kerak.

Xulosa moliyaviy hisobot bo'yicha to'la fikrlar majmuidan iborat bo'lishi yoki umuman fikr bildirish mumkin emasligini ma'lum qilish kerak. Agar fikr bildirish mumkin bo'lmasa, uning sabablari keltirilishi shart. Xulosa auditorlik tekshiruvchi xarakterini ham ifodalab, auditorlar javobgarligi darajasi haqida ham ma'lumotlarni berishi zarur.

Etarli tayyogarlik va tajriba. Auditor oldiga qo'yilgan vazifani bajarishi uchun etarli darajada tajribaga, buxgalteriya hisobi va audit bo'yicha kvalifikatsiya darajasiga ega bo'lishi kerak. Shu bilan birga o'z kasbi bo'yicha doimo bilim darajasini yuqori bo'lishiga intilishi zarur.

Xolislik. Albatta, bozor iqtisodi sharoitida xolislik bo'lmasa, hech qanday auditning keragi bo'lmaydi. Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar tekshiruv har qanday ma'muriy-buyruqbozlik illatlaridan xoli bo'lgani uchungina audit xulosasiga ishonib ish ko'radilar. Kasbiy etik kodeksda ham xolislikning zarurligi haqida to'xtalib o'tilgan.

Zarur kasbiy sinchkovlik. Auditor bajarayotgan ishning sifati uchun doimo javobgardir. Zarur sinchkovlik bu ish hujjatlarini to'liq ko'rikdan o'tkazish, yig'ilgan isbotlarning to'laligi va oxiriga etkazilganligi, auditorlik xulosasining haqqoniyligidan iboratdir. Lekin auditoridan mutloq to'g'ri bo'lgan echimlarni hech kim talab qilmaydi, chunki audit tavakkalchilik asosida o'tkaziladi.

To'g'ri rejalashtirish va nazorat. O'tkazilgan auditga to'la kafolat berish uchun, u avvalambor to'g'ri rejalashtirilishi kerak. Bundan tashqari katta texnik ish hajmini yordamchilar bajarishi sababli ular ustidan etarli darajada nazorat o'rnatilishi shart.

Ichki nazorat tizimini kerakli darajada bilish. Audit nazariyasi va amaliyotida keng qo'llaniladigan asoslardan biri - bu etarli isbot va ma'lumotlar to'plash uchun ichki nazorat tizimi ishidan keng foydalanishdir. Shu sababli ichki nazorat tizimini to'la o'rganish, uning samaradorligini aniqlash va ma'lumotlarning haqqoniyligini tekshirib ko'rish talab qilinadi. Ayrim hollarda ichki nazorat tizimi shu qadar haqiqatdan uzoq bo'lgan ma'lumot berishi mumkinki, bu samarali audit o'tkazishga to'siq bo'ladi.

Etarli darajada isbotlar va ma'lumotlar yig'ish. Har qanday tekshirish va uning xulosasi isbotlar va ma'lumotlarga asoslanadi. Asoslar qanchalik ko'p bo'lsa, xulosa shu darajada kafolatlanadi. Audit o'tkazish metodikasida asosan isbot va ma'lumotlar yig'ish ustida fikrlar boradi. Bir tomondan bu ish auditorning tajribasi va bilimiga ham bog'liqdir.

Natijalarni ma'lum qilish andozalari. Auditor xulosasida tekshirilgan moliyaviy hisobot to'la umumiy qabul qilingan buxgalteriya andozalariga mos holda tuzilganligi ko'rsatilishi kerak.

Auditorlik firmalari uchun sifat nazorati firma mijozlar oldidagi o'z kasbiy majburiyatlarini to'liq bajarishi kafolatini ta'minlash usullari yordamida amalga oshiriladi. Bu auditorlik firmalarining tashkiliy tizimi va ular o'rnatadigan muolajalarga taalluqli. Sifat nazorati umumiy qabul qilingan audit andozalari bilan uzviy bog'liq, ammo ulardan farq qiladi. Auditorlik firmasi har bir audit o'tkazishda umumiy qabul qilingan audit andozalariga rioya qilinganligini kafolatlashi kerak. Sifat nazorati - bu auditorlik firmasi bir auditga joriy qilish kerak bo'lgan andozalar chegarasidan chiqmaslikka yordam beruvchi muolajalardir. Bundan kelib chiqib, sifat nazorati jami auditorlik firmasi uchun kiritiladi, umumiy audit andozalari esa aniq ish hajmiga qo'llash uchun mo'ljallangandir.

Sifat nazorati elementlari. Auditorlik firmalari uchun maxsus sifat nazorati muolajalari belgilanmagan. Qanday muolajalar belgilash firmaning hajmi, ofislarining soni va amaliyot ko'rinishidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Sifat nazorati andozalari

Andoza	Asosiy talablar	Namunaviy muolaja
Mustaqillik	Auditda qatnashayotgan har bir xodim kasbiy etik kodeksida keltirilgan mustaqillik talablariga rioya qilishi kerak	Har bir auditor va auditorlik firmasiga ishga olinayotgan audit xodimi har yili «mustaqillik anketasi»ning savollariga javob berishi kerak
Xodimlarni muayyan ishga belgilash	Auditda ishtirok etayotgan har bir xodim etarli texnik tayyorgarlik va tajribaga ega bo'lishi kerak	Har bir xodim bosh auditor tomonidan belgilanadi va bu ish 2 oy oldin amalga oshiriladi
Maslahat berish	Bosh auditor va auditda qatnashayotgan xodimlar o'rtasida texnik muammolar vujudga kelsa, masalani malakali shaxs hal qiladi	Auditorlik firmasining direktori bilan maslahat qilish mumkin va u har bir ishni nihoyasidan oldin ko'rib chiqishi kerak
Nazorat	Birlamchi tekshirishlar davomida sifatga kafolat beruvchi siyosatni har bir bo'g'inda olib borish kerak	Audit dasturi firma sheriklari tomonidan ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishi kerak
Ishga qabul qilish	Jami yangi xodimlar o'z ishini sifatli bajarishi uchun yuqori malakaga ega bo'lishi kerak	Har bir nomzod katta auditorlar tomonidan o'rgatilishi va kafolatlanishi kerak
Kasbiy mahoratni oshirish	Jami xodimlar o'z ishini kompyuterda bajarishi uchun mahoratini oshirishi kerak	Har bir mutaxassis bir yilda kamida 80 soat malakasini oshirish bo'yicha ta'limdan o'tishi zarur
Lavozimidan ko'tarilish	Lavozimga tayinlash siyosati, xodim yangi vazifasini bajarish uchun etarli malakaga egaligini kafolatlashi kerak	Har bir mutaxassis o'tkazilgan tekshirishlardan so'ng baholanishi zarur va bu natija tekshirish hisobotida keltirilishi kerak
Mijozni tanlash	Jami mijozlar kamida yomon ma'muriyat bilan ishlashdek ehtimol bilan baholanishi kerak	Har bir tekshirishni boshlashdan avval tekshirilayotgan ma'muriyat bo'yicha mijozni baholash blanki tuzishi kerak
Inspeksiya	Yuqorida keltirilgan andozalarni bajarilishini kafolatlovchi siyosat yoki muolaja bo'lishi kerak	Auditorlik firmasida sifat nazorati andozalarini bajarilayotganligini tekshiruvchi mutaxassis bo'lishi kerak va u har yili bu andozalarni o'z firmasi tomonidan bajarilishini tekshirishi zarur.

Xalqaro amaliyot tajribalari va Amerika qo'shma Shtatlari xolis buxgalterlar instituti tomonidan tashkil etilgan sifat nazorati andozalari qo'mitasi ishlab chiqqan sifat nazorati elementlariga asoslangan holda O'zbekiston iqtisodi nazorat tizimida auditorlik firmalari uchun qo'llash tavsiya etilgan namunaviy sifat nazorati andozalarini keltirish mumkin (1.3.4 jadval).

Jadvalda har bir element uchun qisqacha talab va sifat nazorati muolajasi misol tariqasida keltirilgan. Shuni qayd etish kerakki, auditorlik firmalarining ish faoliyatini yaxshilash va sifat nazorati andozalariga to'la amal qilinishini ta'minlash uchun ularni toifalarga ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun ikki seksiya tashkil qilish tavsiya etiladi:

1. Qimmatbaho qog'ozlar va birja muomalalari bo'yicha audit seksiyasi.
2. Kompaniyalarning auditi seksiyasi.

Bunday seksiyalar o'z-o'zini boshqarishda va nazorat qilishda katta rol o'ynaydi. Seksiyalarga a'zo bo'lish uchun auditorlik firmalariga, albatta, ma'lum talablar qo'yiladi va

bunday sektsiyaga a'zo auditorlik firmalarining mavqei ham oshib boradi. Auditorlik firmalari sektsiyalar ichida bir-birini tekshirish huquqiga ega bo'ladi va faqat tekshiruvdan muvaffaqiyatli chiqqan firma sektsiya a'ziligida qolishi mumkin. Bunday tekshiruvlar firmaga ham auditorlarga ham foydali bo'lib, ularga bo'lgan ishonchni oshirib boradi.

Quyida sektsiyalarga a'zo bo'lish uchun zaruriy talablarni keltirishga harakat qilindi:

Sifat nazoratini amalga oshirish. Auditorlik firmasi keltirilgan sifat nazorati andozalarini qabul qilishi va unga amal qilishi kerak.

Sheriklarni almashtirib borish. Agarda auditorlik firmasidagi sherik tekshirishlarga besh yil uzluksiz boshchilik qilgan bo'lsa, yangi sherik belgilanishi zarur va eski sherik ikki yilgacha tekshirishlarga javobgar bo'la olmaydi.

Uzluksiz o'quv. Har bir mutaxassis uch yilda 240 soat kasbiy tayyorgarlikdan o'tishi shart.

Majburiy tekshiruv. Auditorlik va buxgalterlik ishlari boshqa teng auditorlik firmasi tomonidan tekshirib turilishi kerak.

Kelishmovchiliklarni ma'lum qilish. Auditor doimo audit qo'mitasiga yoki direktorlar kengashiga ma'muriyat bilan bo'lgan kelishmovchiliklarni bildirib turishi kerak.

Yuqorida keltirilgan muammolar bozor iqtisodi sharoitida mulkchilikning turli xil shakllari mavjud bo'lgan holatda nazoratni to'g'ri tashkil qilish uchun o'z echimini topishi, keltirilgan takliflarga amal qilinishi esa bu echimni hal qilishda muhim omil bo'ladi, deb o'ylaymiz.

II BOB. AUDITORLIK XULOSASI, UNING TURLARI VA AUDIT NATIJASINING MAHSULI SIFATIDA

Auditorlik xulosasini tayyorlash va taqdim etish audit jarayonining muhim bosqichi hisoblanadi, chunki aynan xulosada auditor bajargan ishlarini va qanday natija olganligini bayon qiladi. Shuning uchun foydalanuvchi nuqtai nazaridan auditorlik xulosasi audit faoliyatining mahsuli, deb qaraladi.

Audit andozalarida ko'rsatilishicha, har safar moliyaviy hisobot bilan bog'liq ishlarni amalga oshirganda auditorlik firmasi tomonidan xulosa berilishi kerak. Agarda firma o'z mijozlariga moliyaviy hisobotni tayyorlashda ko'maklashsa va audit o'tkazmasa, unda hisobot tayyorlanganligi haqida xulosalar yoki umumiy kuzatish olib borilganligi haqida ma'lumotnoma berishi mumkin.

Auditorlik xulosasi tuzishda qo'yiladigan asosiy talablar umumiy andozalarda keltirilgan. Bu haqda oldingi bobda fikrlar bildirilgan edi. Asosan bu oxirgi andozalarga taalluqli. Umuman auditorlik xulosalari shakli jihatdan bir xil bo'lishi kerak. Bu auditorlik xulosasidan foydalanuvchilar uchun zarur, negaki auditorlar o'z xulosalarini asar sifatida keltirganlarida, uni tushunish birmuncha murakkab bo'lar edi. Shu sababli kasbiy auditorlik andozalarida moliyaviy hisobotni kuzatib boruvchi auditorlik xulosalarining turlari haqida batafsil to'xtalamiz.

2.1. Qo'shimcha sharh berilmagan shartsiz auditorlik xulosalar

Ma'lumki, rejali iqtisodiyot davrida nazorat-taftish boshqarmalarining ish sifati mezoni bo'lib, taftishlar davomida aniqlangan kamomadlarni aybdorlar tomonidan to'lanish darajasi hisoblangan. Bu ko'rsatkich bevosita taftishning ob'ektivligi, taftish apparatining maqsadga intilishi va printsiptialligiga bog'liq bo'lgan.

Ammo shuni qayd etish kerakki, umumiy talqin bo'yicha iqtisodiy samara bu ijtimoiy xarajatlar va olinadigan naf o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiradi. Ko'rinib turibdiki, boshqaruvdek ko'p qirrali faoliyatda auditning iqtisodiy samarasini aniqlashga umumiy tushunchalarda baho berish mushkul, chunki har doim ham audit natijalari miqdoriy baholashga moyil emas. Albatta, profilaktika, noqonuniy ishlar, ko'zbo'yamachiliklarni har doim ham o'lchab bo'lmaydi.

Yuqorida aytib o'tilgandek, audit umumiy qabul qilingan buxgalteriya qoidalariga asosan o'tkaziladi. Bu esa ob'ektiv xulosa berish uchun keng qamrovli mezon hisoblanadi. Auditning maqsadi ham taqdim etilgan moliyaviy hisobotni qay darajada buxgalteriya qoidalaridan chetlanish mezonini aniqlashga qaratilgan. Auditorlik xulosasida ham, albatta, bu mezon qay darajada ekanligi keltiriladi.


Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga qaraganda, 90% auditorlik natijalari qo'shimcha tushuntirishsiz shartsiz auditorlik xulosalari bilan rasmiylashtiriladi. Bizning fikrimizcha, quyidagi shartlar bajarilgandagina bunday standart xulosalar berilishi mumkin:

1. Jami hisobot shakllari belgilangan tartibda tuzilgan va moliyaviy hisobotga kiritilgan bo'lsa;
2. Audit jarayonida umumiy qabul qilingan andozalarga barcha jabhalarda rioya qilingan bo'lsa;
3. Etarli darajada isbot va dalillar to'plangan hamda auditor o'z vazifasini to'liq bajarganligi haqida ishonch hosil qilsa;
4. Moliyaviy hisobot umumiy qabul qilingan buxgalteriya asoslariga amal qilgan holda taqdim etilgan bo'lsa;
5. Alohida yoritib ko'rsatish yoki sharh berish kerak bo'lgan holatlar aniqlanmagan bo'lsa;
6. Moliyaviy hisobotga etarli darajada tushuntirishlar va ilovalar qilingan bo'lsa.

Standart auditorlik xulosasini 2.1.3. chizmada keltirishga harakat qilindi. Standart auditorlik xulosalari turli auditorlar tomonidan turli shaklda yozilishi mumkin, lekin uning mazmuni doimo bir xil bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida 1992 yil 9 dekabrda «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonun qabul qilingach, yangi nazorat shakli sifatida audit ma'sul maqomga ega bo'ladi. Tarixan qisqa davr ichida Respublikada 2001 yilga qadar 400 ga yaqin firma Moliya vazirligining ruxsatnoma-litsenziyasini olgan va Adliya vazirligida ro'yxatga olingan bo'lib, shulardan 215 tasi jismoniy shaxslar tomonidan ta'sis etilgan.

Qo'shimcha izohsiz standart auditorlik xulosasining sxematik ko'rinishi



2.1.3-chizma. Qo'shimcha izohsiz standart auditorlik xulosasining sxematik ko'rinishi.

Shuni qayd qilib o'tish kerakki, hozirgi kunda bu auditorlik firmalari tomonidan tayyorlanayotgan xulosalar yuqorida aytib o'tilgan xalqaro andozalar darajasidan ancha past. Chunki hali ham tekshirishlar natijasi bo'yicha dalolatnoma (AKT) tayyorlash tushunchasini auditorlik xulosasi bilan chalkashtirish hollari mavjud yoki albatta dalolatnoma tuzmay turib, xulosa berish mumkin emas, degan fikrlar ham yo'q emas. Ammo dalolatnoma bu «mutloq nazorat matni» bo'lib, uning natijalari bo'yicha jinoiy ish ham ochish mumkin.

Tekshirish dalolatnomasi bu ikki yoqlama hujjat hisoblanadi, ya'ni ham tekshiruvchilar, ham tekshiriluvchilar tomonidan imzolaniadi. Rus tilida «AKT» so'zi faoliyat tugallanganlik ma'nosini anglatadi yoki boshqacha qilib aytganda yozma aktda har bir harf ma'lum bir ma'noni

beradi: aktdagi: a - absolyut, k - kontrol, t - tekst ma'nosini anglatadi. O'zbek tiliga tarjima qilinsa, akt - bu «mutloq nazorat matni» deganidir va hozirgi kunda «akt» so'zi O'zbekistonda dalolatnoma tariqasida tarjima qilinib, ishlatilmoqda.

Yu.A.Danilevskiyning fikricha, «Auditorlik tekshirish natijasi auditorlik dalolatnomasi bilan rasmiylashtirilishi va o'z ichiga moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha umumiy baho, hisob va hisobotning yuritilishini baholash, tahliliy ishlarning holati va hisobni yurituvchi kadrlar tavsifini olishi kerak.

Bundan tashqari kamchiliklar qayd etilishi va auditor ular bo'yicha o'z fikrini, bartaraf etish usullarini ko'rsatishi zarur.

Auditorlik dalolatnomasi korxonada rahbari, bosh buxgalteri va auditor tomonidan imzolanadi.

Agar qayd etilgan kamchiliklar buxgalteriya hisobotiga muhim tarzda ta'sir etmasa, auditor auditorlik xulosasini tuzishga kirishishi mumkin. Aks holda auditor hisobning to'g'riligini tasdiqlash va hisobotga baho berishdan bosh tortishi kerak. Faqat kamchiliklar bartaraf etilgach tekshiruvchi ishini davom ettirib, xulosa beradi»¹.

Ammo bu fikrlar jahon audit amaliyotida bajarilayotgan audit ishlari va uning natijalarini rasmiylashtirish tartibiga bir muncha zid keladi.

Yuqorida aytilgandek, umumiy audit natijalarini ma'lum qilish auditning umumiy qabul qilingan andozalarida o'z aksini topgan. Albatta, bu xulosalar shartli auditorlik xulosalari bo'lishi mumkin. Bunday xulosalar to'g'risida keyingi paragrafda batafsil to'xtalamiz.

¹ Danilevskiy Yu.A. Audit: organizatsiya i metodika provedeniya// Moskva: «Buxgalterskiy uchets»-1992.- 79 s.

Qo'shimcha izohsiz auditorlik xulosasi

1	Huquqiy auditorlik firmasi «Huquqiy madad» Xolis buxgalterlar Ofis: Toshkent viloyati, Qibray tumani Guliston qishlog'i, Chimkent trakti: tel.: 60-39-06, 60-30-18
2	Mustaqil auditor xulosasi
3	«Davlat» XIF aksionerlari uchun
4	Biz «Davlat» XIFi 199X va 199Y yillar uchun taqdim etgan «Buxgalteriya balansi»; «Moliyaviy natijalar to'g'risida»gi hisobot; «Asosiy vositalar harakati to'g'risida»gi hisobot; «Pul oqimlari to'g'risida»gi hisobot va «Xususiy kapital to'g'risida»gi hisobotlarining auditini o'tkazdik. Moliyaviy hisobot uchun javobgarlik fond ma'muriyati zimmasidadir. Biz o'tkazgan auditimizga asoslanib, moliyaviy hisobot bo'yicha bergan fikrimiz uchun javobgarmiz.
5	Audit umumiy qabul qilingan andozalar asosida o'tkazildi. Bu andozalar bizda moliyaviy hisobot muhim noaniqliklardan xoli ekanligiga etarli ishonch hosil qilish uchun auditni aniq rejalashtirish va o'tkazishni talab qiladi. Audit tanlab olish usuli bilan o'tkazilgan holda moliyaviy hisobotdagi summalarni tasdiqladi. Shu bilan birga audit qo'llanilgan buxgalteriya uslublarini, ma'muriyat dasturlarini baholadi. O'tkazilgan audit fikr berishimiz uchun to'liq asos bo'la oladi, deb hisoblaymiz
6	Bizning fikrimizcha, yuqorida qayd etilgan moliyaviy hisobot barcha muhim jihatlari bo'yicha XIF moliyaviy holatini 31 dekabr 199X va 199V yillari uchun to'g'ri aks ettirgan. Kompaniya faoliyati va pul mablag'larining harakati ham umumiy qabul qilingan buxgalteriya uslublari asosida yoritilgan.
7	Huquqiy auditorlik firmasi "Huquqiy madad". O'zbekiston Respublikasi sertifikatlangan buxgalteri Musaxoniy Alisher
8	Audit 18 fevral 199X yilda tugatildi.
9	20 fevral 199X yil.

2.1.4-chizma. Qo'shimcha izohsiz auditorlik xulosasi.

Aytib o'tilgan fikrlardan kelib chiqqan holda 2.1.3 chizmadan foydalanib, qo'shimcha izohsiz auditorlik xulosasini keltiramiz (2.1.4 chizma).

Hisobotning mazmunidan qat'iy nazar 9 ta bo'g'in o'zgarishsiz qoladi. Ular quyidagilardir:

1. Auditorlik kompaniyasining nomi va manzili.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida auditorlik firmasi Adliya Vazirligidan ro'yxatga olinishi uchun to'liq ofisi joylashgan manzil va ofisda ish sharoitlari mavjudligi haqida to'liq ma'lumotnoma berishi kerak. Bu yuridik manzil kerakli hujjatlarda aks ettiriladi va doimo auditorlik firmasini qidirib topish mumkin.

2. Hisobotning nomlanishi. Audit andozalari qo'ygan talabga ko'ra auditorlik xulosasi, albatta, nomlanishi va nomlanishda «mustaqil» yoki «xolis» degan so'z bo'lishi shart. Masalan: «Mustaqil auditorlar xulosasi» yoki «xolis buxgalter fikri». Bu talab foydalanuvchilarga audit hamma jabhalari bo'yicha ob'ektiv o'tkazilganligini ko'rsatib turadi.

3. Hisobotni oluvchilar. Hisobotni oluvchi kompaniya, uning aksionerlari yoki direktorlar kengashi bo'lishi mumkin. Umuman olganda hisobotni oluvchilar aksionerlar bo'lmog'i lozim, chunki audit kompaniyaga ham, uning direktorlar kengashiga ham tobe emas.

4. Kirish: 1-xat boshidan 2-xat boshigacha bo'lgan matn. Bu qismda uchta funktsiya bajariladi: *Birinchidan*, auditorlik firmasi tomonidan audit o'tkazganligi qayd etiladi. Negaki bajarilgan ish bu umumiy kuzatish yoki tasdiqlash xizmatlari emasligini ko'rsatish kerak. *Ikkinchidan*, bu erda auditdan o'tkazilgan hisobotlar sanab o'tilgan va bu hisobotlarni qaysi sanaga tuzilganligi keltirilgan. *Uchinchidan*, bu erda moliyaviy hisobot uchun javobgarlik ma'muriyat zimmasida ekanligi, auditorlar esa faqat hisobot yuzasidagi fikrlari uchun javobgarligi keltirilgan. Bu jumalarni yozishdan maqsad, zarur buxgalteriya asoslarini tanlashda va bu asoslar bo'yicha qarorlar qabul qilishda kompaniya ma'muriyatining javobgar ekanligini ko'rsatishdir. Bundan tashqari, bu jumla kompaniya ma'muriyati va auditorlar o'rtasidagi vazifalarni aniqlashtirib beradi.

5. Chegara. 2-xat boshidan 3-xat boshigacha bo'lgan matn. Bu erda audit davomida auditorning bajargan ishlari keltirilgan. Avvalambor, bu matnda auditor umumiy qabul qilingan andozalarga asoslanib, ish ko'rilganligi qayd etilgan. So'ng auditning asosiy jihatlari ko'rsatilgan.

Bu abzatsda o'tkazilgan audit chegaralari yoritilib, unda hisobot muhim xatodan xoli bo'lishiga etarli darajada ishonch hosil qilish auditning maqsadi ekanligi ko'rsatilgan. «Muhim» degan so'zning ko'rsatilishi auditor faqat muhim, ahamiyatli xatolarni ko'rsatishga javobgarligini anglatadi. «Etarli darajada ishonch» degan so'zlar auditorni mutlaq xatolarni aniqlab topadi, degan ma'noni anglash xato ekanligini ko'rsatib, ahamiyatli xatolar, me'yorlardan chetlash ehtimoli bo'lishi mumkinligidan dalolat beradi. Boshqacha qilib aytilganda, audit yuqori darajada ishonchni ta'minlaydi, lekin mutlaq kafolat bermaydi.

Abzatsning qolgan qismida yig'ilgan auditorlik dalillari haqida fikr boradi. Auditor yig'gan ma'lumotlar fikr berish uchun etarli ekanligini va dalillarni yig'ish tanlab olish yo'li bilan o'tkazilganligini qayd etadi. Agar kirish qismida auditor moliyaviy hisobotni tayyorlash va mazmuni uchun ma'muriyat javob berishini tasdiqlagan bo'lsa, bu abzatsda u qo'llanilgan buxgalteriya asoslari va taqdim qilish tartibining baholanganligini bildiradi. Yuqoridagilar asosida audit davomida fikr berish uchun etarli muolajalar qilinganligidan dalolat berish ta'kidlanadi.

6. Fikr - 3-xat boshidan 4-xat boshigacha bo'lgan matn. Qo'shimcha tushuntirish berilmagan shartsiz xulosaning so'nggi qismida auditorning xulosasi keltiriladi. Bu qism shunchalik muhimki, ko'pincha auditorlik xulosasi «auditor fikri» deb yuritiladi. Umuman «bizning fikrimizcha» degan so'zlar mutlaq ishonch hosil qilish mumkinligini rad etadi, ya'ni xulosalar mutaxassisning fikrlashi mahsuli ekanligidan dalolat beradi. Bundan tashqari auditdan o'tgan hisobotda doimo ma'lumot tavakkalchiligi mavjud ekanligini qayd etish kerak.

Fikrni ma'lum qilish abzatsi birinchi va to'rtinchi umumiy qabul qilingan audit andozalari bilan bevosita bog'liq (2.1.2 chizmaga qaralsin). Auditorning oldiga qo'yilayotgan talab shundan iboratki, u moliyaviy hisobot bo'yicha to'la fikr berishi va tekshirilayotgan kompaniya umumiy qabul qilingan buxgalteriya asoslariga rioya qilishini aniqlashi kerak.

Auditorlik xulosasining ziddiyatli tomonlaridan biri - bu «to'g'ri aks ettirgan» degan so'zlardir. Agar kompaniya umumiy qabul qilingan buxgalteriya uslublariga to'la rioya qilgan

bo'lsa, uning moliyaviy hisoboti har doim ham to'g'ri, haqqoniy bo'ladimi yoki bu so'zlar ko'proq va chuqurroq ma'noni anglatadimi? Shuni qayd etish kerakki, rivojlangan mamlakatlarda audit natijalari bo'yicha sudlashilganda sudlar ko'pincha auditorlarni umumiy qabul qilingan buxgalteriya uslublaridan chuqurroq tekshirish olib borishadi, degan xulosaga keladi. Ko'pchilik auditorlar esa moliyaviy hisobot umumiy qabul qilingan buxgalteriya uslublariga mos bo'lsa, u korxonada ish faoliyatini to'g'ri aks ettiradi, deb hisoblashadi. Ma'lumotda xato yo'qligiga ishonch hosil qilish uchun, bizning fikrimizcha, chuqurroq xo'jalik muomalalarini tekshirish, uning mazmuniga e'tibor berish kerak.

7. Auditorlik kompaniyasining nomi va xolis auditorlar imzosi. Bu erda auditorlik firmasining nomini keltirish muhimdir, chunki audit uchun kasbiy va yuridik javobgarlik auditorlik firmasi zimmasidadir.

8. Audit xulosasi imzolangan sana.

9. Ob'ektda audit tugatilgan sana ko'p hollarda ma'lum bir kun bo'ladi. Bu sananing muhimligi shundaki, shu kungacha auditor javobgar bo'ladi. Masalan, balans 31 dekabr 2004 yil bilan tugatilgan bo'lsa va auditorlik xulosasi 20 fevral 2005 yil bilan imzolangan bo'lsa, auditor 20 fevral 2005 yilga qadar tekshirish o'tkazishga harakat qilinganligini anglatadi.

Shunday qilib, audit natijasi bo'yicha beriladigan xulosaning qismlarini bo'g'inlarga ajratib, tahlil qilishni va qisqa shaklda katta mazmun berishni audit natijalari bo'yicha to'la hisobotni oshkor bo'lmasligi, ya'ni audit ma'lumotlarining konfidentsialligi taqozo etiladi.

O'zbekiston iqtisodining hisob va hisobot tizimida, auditorlik faoliyatida, hozirgi kunda yuqorida keltirilgan takliflar asosida ish yuritish va xulosa tayyorlash o'ta muhim, deb hisoblaymiz.

2.2. Qo'shimcha sharh berilmagan, tushuntirish qismi mavjud yoki shakli o'zgargan auditorlik xulosalari

Moliyaviy-xo'jalik faoliyatining auditi bu juda murakkab jarayon bo'lib, unda har doim ham ijobiy natijalarga erishilavermaydi. Chunki kishilik jamiyati mavjud ekan, unda ko'zbo'yamachiliklar, aldashlar, ma'lumotni buzib ko'rsatish natijasida foydalanuvchilarda noto'g'ri xulosa keltirib chiqarish hollari, bulardan tashqari yanglishish, ma'lum me'yorlarni bilmaslik oqibatida noto'g'ri echimlar qabul qilish mavjud bo'ladi. Shu sababli audit jarayonida aniqlangan kamchiliklarni xulosada qisqa, aniq va maxfiy tomonlarini oshkor qilmay keltirish zarur bo'ladi. Bu zaruriyat o'z aksini audit standartlarida ham topgan.

Qo'shimcha sharh berilmagan, tushuntirish qismi mavjud yoki shakli o'zgargan auditorlik xulosalari auditor qo'shimcha ma'lumot berish zarur, deb topganda yoki buni qonun talab qilganda tayyorlanadi.

Agar auditor talab darajasidagi natijaga kelmasa yoki moliyaviy hisobot kompaniya ish faoliyatini to'g'ri aks ettirmagan deb hisoblasa, unda tushuntirish qismi keltirilgan xulosa beradi.

Tushuntirish abzatsi kiritish yoki hisobotning shaklini o'zgartirishga sabab bo'ladigan holatlarni keltirib o'tishga harakat qilamiz:

1. Muhim noaniqliklar mavjud bo'lsa.
2. Hisobni yuritishda mantiq bo'lmasa va tartib buzilgan bo'lsa.
3. Umumiy buxgalteriya uslublariga rioya qilinmagan bo'lsa.
4. Alohida o'ziga xos holatlar mavjud bo'lsa.
5. Auditorlik xulosasi boshqa auditorlarga taalluqli bo'lsa.

Bu holatlarning mohiyatini to'laroq ochib, ularni o'rganib chiqishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Muhim noaniqliklar mavjud bo'lsa, moliyaviy hisobot tayyorlash paytida kompaniya ma'muriyati ma'lum miqdordagi prognoz baholashlarini amalga oshiradi. Shu jumladan, ayrim aktivlar bo'yicha amortizatsiya muddatlarini belgilash, debitorlik qarzlarni uzish muddatlarini aniqlash, tovar-moddiy boyliklarning likvidligi kabilar va boshqalar. Ko'pincha bu savollarga mos javob topish oson.

Ammo ayrim hollarda auditor shunday holat bilan to'qnashishi mumkinki, hisobot tuzish paytida u yoki bu savol bo'yicha ob'ektiv prognoz qilish mushkul bo'ladi. Bunday holat «noaniqliklar holati» deb ataladi. Misol tariqasida kelgusi davr xarajatlarini hisobdan chiqarish mumkinligi imkoniyati, sud qaroriga ko'ra olish yoki to'lash mumkin bo'lgan summalar mavjudligi, debitorlik qarzini qoplash imkoniyati mavjudligi va zaruriy moliyalashtirishga yo'l hamda uning mavjudligini keltirish mumkin. Ayrim hollarda korxonaning kelgusida faoliyat yurgizishi mumkinligi haqida gumon tug'ilishi mumkin. Bu holatni quyidagi omillar vujudga keltiradi:

1. Xo'jalikda doimo takrorlanib turuvchi ahamiyatli zararlar mavjud bo'lsa yoki doimiy aylanma mablag'larining taqchilligi kuzatilsa;
2. Kompaniya o'z qarzlarni belgilangan muddatda to'lash imkoniyatiga ega bo'lmasa;
3. Yirik mijozlardan mahrum bo'lganda, kutilmagan favqulodda holatlar vujudga kelganda yoki xodimlar bilan munosabatlarda muammolar yuzaga kelganda;
4. Sudlashuvlar, yuridik muammolar va boshqa firmaning kelajakda ish yuritishiga to'siq bo'lishi mumkin bo'lgan holatlar mavjud bo'lsa;
5. Davlat siyosati yoki qonunchiligi o'zgarib qolsa va hokazo.

Agar yuqoridagi holatlar mavjud bo'lsa, auditor kompaniya yaqin kelajakda faoliyat qilishi mumkinligini aniqlashi kerak. «Yaqin kelajak» deganda ko'p rivojlangan mamlakatlarda audit qilingan moliyaviy hisobot sanasidan keyingi bir yil tushuniladi. Agar auditor kompaniyaning yaqin kelajakda faoliyat ko'rsatishiga gumon qilsa, unda «Muhim noaniqlik holati» qayd etiladi.

«Muhim noaniqlik holati» aniqlansa, auditor avvalambor uni moliyaviy hisobotda va shu jumladan, ilovalarda aks ettirilganligini yoki yo'qligini aniqlashi kerak. Masalan, mijozga qarshi sudlashuv olib borilayotgan bo'lsa va bu summa sug'urta yo'li bilan qaytarib olinishi mumkin bo'lgan summadan katta bo'lsa, bu holat, albatta, ilovalarda aks ettirilishi kerak.

Agarda holat ilovalarda etarli darajada aks ettirilgan bo'lsa ham, auditor o'z xulosasida qo'shimcha «noaniqlik holati» mavjudligi haqida abzats kiritishi kerak. Buning uchun quyidagi holatlar bajarilishi kerak.

I.«Noaniqlik holati» bo'lsa:

1. Noaniqlik ehtimoldan xoli emas va ahamiyatli;
2. Noaniqlik juda ham ehtimolli va;
 - a) Noaniqlik ehtimoli kichik emas, balki katta yoki
 - b) noaniqlikning ahamiyatliligi katta.

II. «Muhim noaniqlik holati» bo'lsa. Kompaniya o'z faoliyatini yaqin kelajakda davom ettirishi to'g'risida katta gumon bo'lsa.

Noaniqlik holati mavjud paytdagi tushuntirish abzatsi

1 } 2 } 3 } 4 } 5 } 6 }	2.1.4 чизма каби
7	Молиявий ҳисоботга қилинган 19-иловада кўрсатилишича, компания суд олдида жавобгар экан, яъни унга авторлик ҳуқуқларини бузганликда айб қўйилган. Даъвогарлар зарарни қоплашни ва муаллифлик тўловларини ундириш устидан суд иши очишган. Компания ҳам, ўз навбатида, қарши суд иши кўзгаган. Ҳозирги пайтда бирламчи суд тергови амалга оширилмоқда. Айни даврда бу судлашувдан қандай натижа чиқиши номаълум. Тақдим этилган молиявий ҳисоботда суд қарори бўйича тўлаш зарур бўлса, захиралар
8 } 9 }	2.1.4 чизма каби

2.2.5-chizma. Noaniqlik holati mavjud paytdagi tushuntirish abzatsi.

Qo'shimcha abzats kiritishdan maqsad foydalanuvchilarni noaniqlikdan ogoh qilishdir. Bu ish noaniqlik moliyaviy hisobotda bevosita aks ettirilgan bo'lishidan yoki moliyaviy hisobotni chuqur tahlil qilish yo'li bilan topilishi mumkinligidan qat'iy nazar bajarilishi lozim (2.1.6 chizma).

Shakli o'zgartirgan tushuntirish qismi mavjud auditorlik xulosasida ham izohsiz standart auditorlik xulosasi kabi 1 dan 6 qismga qadar (2.1.3 chizma) shakl bir xil bo'ladi. Tushuntirish abzatsi 6-«fikt» qismdan so'ng qo'shiladi. Masalan, (2.2.5 chizma).

Kompaniya o'z faoliyatini davom ettirishi haqida muhim noaniqlik mavjud sharoitidagi tushuntirish abzatsi

1 } 2 } 3 } 4 } 5 } 6 }	2.1.4 чизма каби
7	Молиявий ҳисобот «Давлат» ХИФи қз фаолиятини давом эттириши муқаррар эканлигига асосланган ҳолда тайёрланган. Аммо молиявий ҳисоботга қилинган 8-иловада компания барқарор зарарлар кқрганлиги ва бқш маблағлар тақчиллиги мавжудлигини кқрсатган. Бу нарса компаниянинг келажакда фаолият кқрсатишини гумон остига ққяди. Компания маъмуриятининг режалари ҳам 8-иловада келтирилган. Молиявий ҳисобот бу ҳолатдан чиқиш вариантларини тартибга солиш йқлларини қзида акс эттирмаган.
8 } 9 }	2.1.4 чизма каби

2.2.6-чизма. Kompaniya o'z faoliyatini davom ettirishi haqida muhim noaniqlik mavjud sharoitidagi tushuntirish abzatsi.

Hisobotni yuritishda mantiq bo'lmasa va tartib buzilgan bo'lsa. Auditor buxgalteriya uslublarini qo'llashda qo'yilgan xatolar, ya'ni tartib, ketma-ketlik mavjudligini ham aniqlashi kerak. Boshqacha qilib aytganda, oldingi hisobot davridagi qo'llashlar hozirgi hisobot davridagiga mos kelish-kelmasligidir. Umumiy qabul qilingan buxgalteriya andozalariga asosan, buxgalteriya usublari iloji boricha yaxshiroqlari tomon o'zgartirilishi mumkin va bu o'zgartirishning sabablari batafsil tushuntirilishi kerak. Agarda bunday o'zgarishlar bo'lgan bo'lsa, auditor o'z xulosasini o'zgartirishi kerak. «Fikr» abzatsidan so'ng tushuntirish abzatsi qo'shiladi va bu o'zgartirish qaysi ilovada aks ettirilganligi ko'rsatiladi. Bu abzats auditorning amalga oshirilgan o'zgarishga roziligini ko'rsatadi. Agarda auditor bu o'zgarishlarni o'rinsiz deb topsa, unda umumiy buxgalteriya printsiplari buzilgan deb qaraladi va auditorlik xulosasida qo'shimcha sharh beriladi (2.2.7 chizma). Bu haqda keyingi paragraflarda to'xtalamiz.

Hisob printsiplari o'zgargandagi tushuntirish abzatsi

1 } 2 } 3 } 4 } 5 } 6 }	2.1.4 чизма каби
7	Молиявий ҳисоботга қилинган 7-иловада кўрсатилишича, компания 199X йилда ўзининг амортизация ҳисоблаш усулларини ўзгартирган.
8 } 9 }	2.1.4 чизма каби

2.2.7-чизма. Hisob printsiplari o'zgargandagi tushuntirish abzatsi.

Tartib va taqqoslash. Auditor doimo hisobdagi tartiblilikka ta'sir etuvchi o'zgarishlarni, taqqoslashga ta'sir etuvchi o'zgarishlardan ajrata bilishi kerak (2.2.5 jadval).

Agar taqqoslashga ta'sir etuvchi o'zgarishlar o'z muhimligi bo'yicha qo'shimcha abzats talab qilmasa, unda zarur tushuntirishlar moliyaviy hisobot ilovalarida aks ettirilishi kerak. Lekin mijoz ilovalarda tushuntirish berishni xohlamasa, unda auditorlik xulosasiga qo'shimcha abzats kiritish zarur bo'ladi.

Tushuntirish abzatsi talab qiladigan tartib va taqqoslashlarga ta'sir qiluvchi holatlar

Buxgalteriya printsiplarining tartibligiga ta'sir etuvchi o'zgarishlar	Abzats shart yoki shart emas	Taqqoslashga ta'sir etuvchi o'zgarishlar	Abzats shart yoki shart emas
1	2	3	4
1. Buxgalteriya printsiplarini qo'llashdagi o'zgarishga tovar moddiy boyliklarini baholashda FIFO metodidan AVEKO metodiga o'tish	shart	1. Baholash siyosatining o'zgartirilishi - aktivlar amortizatsiyasi davrining qisqartirilishi	shart emas
2. Korxonaning o'zidagi o'zgarish - yana bir korxonaning konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotga qo'shilishi	shart	2. Xatolarni tuzatish - Buxgalteriya printsiplarini qo'llashga taalluqli bo'lmagan xatolar, masalan, o'tgan yillardagi arifmetik xatolar	muhim xato bo'lmasa shart emas
3. Ayrim xatolarni, ya'ni buxgalteriya printsiplarini qo'llashdagi xatolarni umumiy qabul qilinmagan buxgalteriya printsiplaridan umumiy qabul qilingan buxgalteriya printsiplariga o'tish orqali tuzatish, shu jumladan natijaviy xatoni tuzatish	muhim xato bo'lmasa shart	3. Moliyaviy ma'lumotni shakli va taqdim etish tartibi o'zgartirilgan bo'lsa	shart emas
		4. Muhim xo'jalik muomalalari bilan bog'liq o'zgarishlar - qaram korxonani sotish yoki tadqiqot ishlarining yangi turlari	Agar mijoz tushuntirish bermasa shart

Shuni qayd etib o'tish kerakki, buxgalteriya printsiplarida tashkilot tarkibiga korxonani birlashtirganda nazorat va hisob usuliga o'zgarish kirishi mumkinligi qayd etilmoqda. Bizning fikrimizcha, bunday o'zgarishlar 50 foizdan oshiq aktsiyaga egalik qilinganda amalga oshadi. Ya'ni buxgalteriya hisobi nuqtai nazaridan nazorat to'la amalga oshiriladi. Boshqacha qilib aytganda, nazorat paketi aktsiyalariga egalik qilinganda korxonalar o'rtasida bosh korxonalar va qaram korxonalar munosabatlari vujudga keladi.

Bunday holatlarda har bir kompaniya yuridik shaxs maqomini saqlab qoladi va har biri alohida moliyaviy hisobot tayyorlaydi, lekin ular bir xo'jalik ob'ekti sifatida qaraladi. Shu sababli ular konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tayyorlashlari ham kerak.

Shunday qilib, aktsionerlik kapitaliga uzoq muddatli investitsiyalar qilinganda, auditor e'tibor qaratishi kerak bo'lgan holat - bu necha foiz aktsiya egasi bo'linganligidir va qay holatda buxgalteriya printsiplarining tartibligiga ta'sir etuvchi o'zgarishlar vujudga kelishidadir.

Bizning fikrimizcha, bu foizlarni quyidagi jadvalda bo'lib chiqilishi va egalik qilish darajasiga qarab hisob usullarining belgilanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Jadvalni ishlab chiqishda xalqaro tajribalar nazarda tutilgan (2.2.6 jadval).

Aksionerlik kapitaliga qo'shilgan hissaga qarab nazorat darajasi

Egalik darajasi va nazorat	Aktsiyalar miqdori, %	Hisob usuli
Ta'sir qilmaydigan va nazorat olib borilmay digan holat	20 dan kam	Sotib olish bozor qiymati bo'yicha tartibga solinadi: investitsiyalar avval boshlang'ich qiymatida hisoblanib, so'ng bozor qiymati bo'yicha tartibga solinadi
Ta'sir o'tkazadigan, lekin nazorat olib borilmaydigan holat	20 va 50 oralig'ida	Hisob metodi shaxsiy kapital hisobi kabi: investitsiyalar avval boshlang'ich qiymatida hisobga olinadi, so'ng investorning foydadagi ulushi qo'shiladi (zarar bo'lsa ayirib tashlanadi) va dividendlar ayirib tashlanadi
Nazorat olib boriladigan investitsiyalar	50 dan oshiq	Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuziladi

Kompaniyaning 20 foizdan oshiq aksiyasiga egalik qilish, unga ta'sir qilish uchun etarli, deb hisoblaymiz. Bunday holda kompaniya aksiyalarini olgan korxonaning omadini ham, yo'qotishlarini ham proporsional holda o'ziga oladi. Bunday holda uning o'zi kompaniya ustidan nazorat olib bora olmaydi va xolis auditorlarga, ularning hisobotlariga ishonishi mumkin, xolos. Shuni qayd etish kerakki, 20 va 50 foizlar oralig'ida aksiyalarga egalik qilish bu aksioner kompaniyasining to'la faoliyat siyosatiga ta'sir qilish demakdir. Albatta, 50 foizdan oshiq, ya'ni aksiyalarni nazorat paketiga egalik - bu buxgalteriya hisobi nuqtai nazaridan nazorat degani. Bunday holda auditorlik nazorati va uning xulosasida qo'shimcha abzats kiritilishi shart va zarur bo'lsa, qaram korxonalarda ham tekshirish o'tkaziladi.

Auditorning umumiy qabul qilingan buxgalteriya printsiplaridan chetlatish holatini tasdiqlash. Kasbiy etik kodeksda ko'rsatilishicha, ayrim nostandart hollarda umumiy qabul qilingan buxgalteriya printsiplaridan chetlash hollarida qo'shimcha tushuntirish abzatsi yoki salbiy xulosa talab qilinmaydi.

Ammo tushuntirish abzatsi kiritilmaganligini auditor asoslab berish kerak va u qo'shimcha abzatsda umumiy qabul qilingan buxgalteriya printsiplaridan chetlashilmasa, salbiy natijaga olib kelishini keltirib berishi shart, deb hisoblaymiz.

Alohida o'ziga xos holatlarning mavjudligi. Ayrim hollarda auditor moliyaviy hisobot bilan bog'liq bo'lgan u yoki bu konkret holatlarni tushuntirishsiz xulosa bermog'i shart bo'lmaganligidan qat'iy nazar ajratib ko'rsatishi kerak. Bunday tushuntiruvchi ma'lumot alohida abzatsda keltirilishi zarur. Misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin:

- nostandart xo'jalik muomalalari;
- balans tuzilgandan so'ng bo'ladigan muhim voqealar;
- moliyaviy hisobotlarni yillar bo'yicha taqqoslashga ta'sir qiluvchi hisobdagi o'zgarishlar.

Auditorlik xulosasi boshqa auditorlarga taalluqli bo'lsa. Ayrim hollarda tekshirilayotgan kompaniya keng tizimli bo'lib, bir necha filial yoki bo'g'inlari mavjud bo'ladi. Bunday hollarda auditning bir qismi boshqa auditorlik firmalarining ko'magida amalga oshirilishi mumkin. Bunda audit natijalari qanday rasmiylashtirilishi kerak? Bunday holatning bir necha ko'rinishi ustida to'xtalamiz:

1. Auditorlik xulosasida ko'rsatma keltirilmaydigan holat. Bunda yordamchi auditorning ish ko'lamini bosh auditorning kuzatuvchi ostida bo'lsa yoki yordamchi auditor tomonidan hisobotning

muhim jabhalari tekshirilmagan bo'lsa. Ammo boshqa auditor doimo o'z xulosasi va bajargan ishi uchun javobgar bo'ladi.

2. Auditorlik xulosasida ko'rsatma berilishi. Bunday xulosalar hamkorlikdagi xulosalar deyiladi va boshqa auditor tomonidan bajarilgan ishni ko'rib chiqish samarasiz yoki u tomonidan tekshirilgan moliyaviy hisobotning qismlari muhim bo'lsa tuziladi. Hamkorlikda tayyorlanadigan xulosani keltirishga harakat qilamiz (2.2.8 chizma).

Bunday hisobotlarda aksariyat boshqa auditorlar tomonidan tekshirilgan moliyaviy hisobot mutlaq kattalik sifatida keltiriladi. Quyida bunday xulosaga misol keltiramiz:

Standart hamkorlikdagi auditorlik xulosasi	
	1
2.1.3. chizma	2
kabi	3
4-	o'zgargan shaklda
5-	o'zgargan shaklda
6-	o'zgargan shaklda
	7
2.1.3. chizma	8
kabi	9

2.2.8-chizma. Standart hamkorlikdagi auditorlik xulosasi.

Huquqiy auditorlik firmasi «Huquqiy madad».

Xolis buxgalterlar.

Ofis: Toshkent viloyati Qibray tumani Guliston qishlog'i.

Chimkent trakti.

tel.: 60-39-06, 60-39-18.

Mustaqil auditor xulosasi.

«Davlat» XIFi aksionerlari uchun.

Biz «Davlat» XIFi 2004 va 2005 yillar uchun taqdim etgan konsolidatsiyalashgan buxgalteriya balansi va muvofiq konsolidatsiyalashgan «Moliyaviy natijalar» to'g'risidagi hisobot; «Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi» hisobot; «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot» va «Xususiy kapital to'g'risidagi» hisobotlarining auditini o'tkazdik. Moliyaviy hisobot uchun javobgarlik fond ma'muriyati zimmasidadir. Biz faqat o'tkazgan auditimizga asoslanib, moliyaviy hisobot bo'yicha bergan fikrimiz uchun javobgarmiz. Biz «Davlat» XIFning Farg'ona viloyati bo'yicha qaram korxonasining moliyaviy hisobotini auditdan o'tkazmadik. Bu qaram korxonada 31 dekabr 2004 yilga «Davlat» XIFi 75 foiz nizom kapitalida ulushga ega. Hisobotda ko'rsatilishicha, umumiy aktivlar miqdori 31 dekabr 2004 va 2005 yillar uchun 1.732.000 va 1.916.000 so'mni, yalpi foyda 1.016.000 va 1.200.100 so'mni tashkil qilgan. Bu filial hisoboti boshqa auditorlar tomonidan tekshirildi va bizga xulosalari taqdim etildi. Shu sababli «Davlat» XIFi Farg'ona viloyati filiali bo'yicha bizning fikrimiz boshqa auditorlar fikriga asoslangan holda berildi.

Audit umumiy qabul qilingan andozalar asosida o'tkazildi. Bu andozalar bizdan moliyaviy hisobot muhim noaniqliklardan xoli ekanligiga etarli ishonch hosil qilish uchun auditni aniq rejalashtirish va o'tkazishni talab qiladi. Audit tanlab olish usuli bilan o'tkazilgan holda moliyaviy

hisobotni tasdiqlaydi. Shu bilan birga audit qo'llanilgan buxgalteriya uslublarini, ma'muriyat dasturlarini baholadi. O'tkazilgan audit va boshqa auditorlar tomonidan taqdim etilgan xulosa fikr berishimiz uchun to'liq asos bo'la oladi, deb hisoblaymiz.

Fikrimizcha, o'tkazilgan audit va boshqa auditorlar xulosasiga asoslangan yuqorida qayd etilgan konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot barcha muhim jihatlari bo'yicha «Davlat» XIFI moliyaviy holatini 199X va 199Y yillar uchun to'g'ri aks ettirgan. Kompaniyaning faoliyati va pul mablag'larining harakati ham umumiy qabul qilingan buxgalteriya printsiplari asosida yoritilgan.

Huquqiy auditorlik firmasi «Huquqiy madad».

O'zbekiston Respublikasi sertifikatlangan.

buxgalteri Musaxoniy Alisher.

20 fevral 2005 yil.

Audit 18 fevral 2005 yilda tugatilgan.

Qo'shimcha sharh berilgan xulosa taqdim etish. Bosh auditor o'z fikrini qo'shimcha sharh bilan taqdim etishga qaror qilishi mumkin. Bunday fikr berish yoki umuman fikr berishdan bosh tortish muhimlik darajasiga bog'liq bo'lib, bosh auditorni boshqa auditor bajargan ishi qoniqtirmasa va u o'ziga javobgarlikni olishni xohlamasa, amalga oshiriladi. Agarda boshqa auditor o'z fikrini qo'shimcha sharh bilan taqdim etsa, bosh auditor ham qo'shimcha sharh berish yoki bermaslikni hal qilishi kerak. Yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirib, quyidagi jadvalda keltirishga harakat qilamiz (2.2.7 jadval).

2.2.7. Jadval

Bosh auditor boshqa auditorlar xizmatidan foydalanganda tayyorlanadigan auditorlik xulosalarining turi

Bosh auditorning javobgarlik darajasi	Auditorlik xulosasining turi
Bosh auditor boshqa auditorning ishi uchun javobgarlikni o'z bo'yniga olsa	Qo'shimcha sharh berilmagan shartsiz auditorlik xulosasi
Bosh auditor javobgarlikni boshqa auditorlar bilan teng bo'lsa	Shakli o'zgartirilgan qo'shimcha sharh berilmagan hamkorlikdagi auditorlik xulosasi
Bosh auditor boshqa auditorning ishi uchun hech qanday javobgarlik olmasa yoki boshqa auditor o'z xulosasida muhim qo'shimcha sharh bergan bo'lsa	Qo'shimcha sharh berilgan shartli auditorlik xulosasi yoki fikr berishdan bosh tortish

2.3. Qo'shimcha sharh berilmagan xulosalar taqdim etishdan chetlashish shartlari va muhimlik darajasini belgilash

Audit natijalari bo'yicha har doim ham oldingi boblarda qayd etilgani kabi ijobiy xulosalar bo'lavermaydi. Qanday hollarda standart auditorlik xulosalari berishdan chetlashish hollari bo'ladi? Bu savolga javob berish uchun quyidagi sharoitlarni ko'rib chiqamiz:

1. Moliyaviy hisobot umumiy qabul qilingan buxgalteriya printsiplaridan chetlashgan holda tuzilgan. Masalan, asosiy vositalar va tovar-moddiy boyliklarni baholash noto'g'ri amalga oshirilgan bo'lsa.

2. Auditor mustaqil shaxs bo'lmasa. Mustaqillik shartlari «kasbiy etik kodeksda» belgilangan.

3. Auditorlik nazoratining ko'lami chegaralab qo'yilgan bo'lsa.

Audit ko'lamining chegaralanib qolishi auditor moliyaviy hisobotni umumiy qabul qilingan buxgalteriya printsiplariga mosligini tasdiqlash uchun etarli dalillar to'play olmagan bo'lsa, ro'y beradi. Bunday holat ikkita sabab oqibatida vujudga keladi: chegaralash mijoz tomonidan bo'lishi yoki ma'lum holatlar oqibatida mijozga ham auditorga ham bog'liq bo'lmasligi mumkin. Mijoz tomonidan chegaralanishga misol tariqasida ma'muriyatning muhim debitorlik qarzlari bo'yicha auditorga ma'lumotning haqqoniyligini tasdiqlash borasida tekshirish olib borish uchun imkoniyat bermasligini yoki tovar-moddiy boyliklar qoldig'ining haqqoniyligini aniqlash uchun inventarizatsiya o'tkazishga ruxsat bermasligini keltirish mumkin. Hozirgi kunda bunday holatlar O'zbekiston iqtisodidagi auditor va mijozlar oldida juda ko'p uchramoqda hamda ochiqdan-ochiq shartnoma tuzishda chegara belgilab olinmoqda. Bizning fikrimizcha, bunday holat audit umumiy printsiplariga zid bo'lib, sifatli tekshirish olib borishga to'sqinlik qiladi.

Bunday holatlardan birontasi uchrasa ham qo'shimcha sharh berilmagan xulosa taqdim etishdan chetlashiladi. Bu sharoitda quyidagi tipdagi xulosalar tayyorlanadi: *salbiy xulosa; fikr berishdan bosh tortish va sharhlangan xulosa*. Bundan tashqari ayrim hollarda auditdan o'tkazilmagan moliyaviy hisobot to'g'risidagi xulosa ham berish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, bunday xulosalar auditorlik xulosasi hisoblanmaydi. Faoliyatning ayrim jabhalarini tekshirish, ichki xo'jalik tizimining tahlili kabi ishlar amalga oshirilganda maxsus turdagi auditorlik xulosalari tayyorlanadi. Bunday xulosalar haqida keyingi qismlarida batafsilroq to'xtalamiz.

Salbiy xulosalar. Auditor moliyaviy hisobot shu qadar buzib ko'rsatilganki, u foydalanuvchini faqat chalg'itadi va kompaniya moliyaviy faoliyatini umumiy qabul qilingan buxgalteriya printsiplariga asoslangan holda to'g'ri aks ettirmagan, deb hisoblasa tuziladi. Salbiy xulosa auditor zarur tekshirish muolajalari o'tkazib, moliyaviy hisobot talabga javob bermasligiga to'la ishonch hosil qilgandan so'ng beriladi. Bunday holat amaliyotda kam uchraydi va salbiy xulosalar ham kam yoziladi.

Fikr berishdan bosh tortish. Auditor moliyaviy hisobot faoliyatni aniq aks ettirishga ishonch hosil qilmasa, fikr berishdan bosh tortishi mumkin. Bunday holat audit ko'lami chegaralab qo'yilgan bo'lsa yoki auditor va mijoz bir-biridan ma'lum jabhalarda bog'liq bo'lib qolsa, vujudga keladi. Kasbiy etik Kodeksda aks etgan bunday holat auditorga fikr berishga qarshilik qiladi. Salbiy xulosadan farqli fikr berishdan bosh tortish auditorda ma'lumot taqchilligi sababli vujudga keladi.

Sharhlangan auditorlik xulosalari. Bunday xulosalar audit ko'lami chegaralangan bo'lsa yoki umumiy qabul qilingan buxgalteriya printsiplaridan chetlashish hollari mavjud bo'lsa tayyorlanadi. Sharhlangan xulosa auditor moliyaviy hisobot faoliyatni umuman to'g'ri aks ettirgan, deb hisoblasagina taqdim etiladi. Fikr berishdan bosh tortish yoki salbiy auditorlik xulosalari auditor ko'rilayotgan holatlarni yuqori darajada muhim, deb hisoblagan taqdiridagina taqdim etiladi.

Sharhlangan auditorlik xulosalarida sharh audit chegarasi yoki auditor fikriga taalluqli bo'g'inlarda keltirilishi mumkin. Ya'ni auditor zarur, audit andozalarida talab qilingan darajagacha etarli ma'lumot to'play olmagan bo'lsa, bunday xulosa beradi (2.3.9 chizma). Shuning uchun sharhlangan auditorlik xulosalari mijoz tomonidan audit ko'lami chegaralab qo'yilgan yoki auditni

to'laqonli o'tkazishga to'siq bo'luvchi omillar vujudga kelganda ishlatiladi. Sharh auditor fikriga taalluqli bo'lsa, moliyaviy hisobot umumiy qabul qilingan buxgalteriya printsiplariga mos emasligidan dalolat beradi.

Auditor sharhlangan xulosa beradigan bo'lsa, u har doim fikr berish abzatsida «hisobga olmaganda» degan iborani qo'llashi kerak. Bundan auditorni umuman moliyaviy hisobot ma'lumotlari qoniqtiradi, lekin ayrim jabhalarni hisobga olmagan holda, degan fikr chiqadi. Sharhlanmagan xulosalarda «hisobga olmaganda» degan iborani ishlatish mumkin emas. Sharhlangan xulosa berishga olib keladigan sharoitlarni 2.3.8 jadvalda keltiramiz.

Shunday qilib, xulosa uchta abzatsdan iborat bo'lsa, audit davomida muhim kamchilik aniqlanmaganidan dalolat beradi.

Xulosada uchta abzatsdan ko'proq abzats mavjud bo'lsa, sharh berilganligidan va tushuntirish amalga oshirilishi kerakligidan dalolat beradi. Sharhlangan xulosaga misol keltiramiz.

Ayrim hollarda auditor fikr berishdan bosh tortishi mumkin, ya'ni audit chegara ko'lami etarli darajada keng bo'lmasa. Bunda auditor fikr berish uchun etarli muolajalar amalga oshirish imkoni bo'lmasa yoki boshqa har xil ob'ektiv va sub'ektiv sabablar mavjud bo'lsagina, hisobot yuzasidan fikr berishdan bosh tortadi.

2.3.8 Jadval

Sharhlangan auditorlik xulosalari berishni taqozo etadigan sharoitlar

Sharoit	Sharh mazmuni
1. Audit ko'lami mijoz tomonidan yoki sharoit tufayli chegaralangan bo'lsa	Xulosaning chegara ko'lami va fikr berish bo'g'inlarida «hisobga olmaganda» jumlasini ishlatiladi
2. Hisobot umumiy qabul qilingan buxgalteriya printsiplariga mos bo'lmasa	Xulosaning faqat fikr berish bo'g'inida «hisobga olmaganda» jumlasini ishlatiladi

Shuni qayd etish kerakki, faqat fikr berishdan bosh tortib, xulosa berilganda ham qo'shimcha izohsiz auditorlik xulosasi kabi uchta abzats mavjud bo'ladi. Ya'ni 4-5-6 (2.3.10 chizma).

Audit chegara qo'llashi va fikr berish bo'g'inlariga taalluqli sharhlangan auditorlik xulosasi

1 } 2 } 3 }	2.1.4 chizma kabi
4 -	Keyingi abzatsda keltirilganlarni hisobga olmaganda, biz «Davlat» XIFi 2004 va 2005 yillar uchun taqdim etgan buxgalteriya balansi. . . (qolgan qismi 2.1.3 chizma kabi)
5 -	Biz fond tomonidan 2.750 ming so'm miqdoridagi summani boshqa viloyatdagi filialiga investitsiya qilganligini tasdiqlovchi va shu filialning 1.640 ming so'm miqdordagi foydasidan fond ulushini tasdiqlovchi auditdan o'tgan hisobotni olishga musharraf bo'lmadik. Biz boshqa turli audit muolajalari yordamida bu investitsiya va foydadagi ulush miqdori haqida bizni qoniqtiruvchi xulosaga kelmadik.
6 -	Boshqa viloyatdagi filialga qilingan investitsiyalar va shu filial foydasidagi ulush miqdoriga taalluqli haqiqiy ma'lumotlarni tekshirish bilan bog'liq auditni murakkablashtiruvchi muolajalar bo'yicha kiritilishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni chetda qoldirgan holda, fikrimizcha, yuqorida qayd etilgan moliyaviy hisobot. . . (qolgan qismi 2.1.3 chizma kabi).
7 } 8 } 9 }	2.1.4 chizma kabi

2.3.9-chizma. Audit chegara qo'llashi va fikr berish bo'g'inlariga taalluqli sharhlangan auditorlik xulosasi.

Shakli o'zgargan xulosalar berish uchun auditorga yuqorida keltirib o'tilgan shart-sharoitlarning birontasi mavjud bo'lib qolgan taqdirda kirishiladi. Yana shuni qayd etib o'tish kerakki, agar auditor o'z mustaqilligini «Kasbiy etik Kodeks» talablari darajasida ta'minlay olmasa, fikr berishdan bosh tortishi kerak, hatto u etarli audit muolajalarini o'tkazgan bo'lsa ham.

Bu auditor xulosasi faqat bitta abzatsdan iborat bo'ladigan yagona holatdir.

Audit chegara ko'lamini etarli bo'lmagan sharoitda fikr berishdan bosh tortish

1 } 2 } 3 }	2.1.4 chizma kabi
4 -	Biz «Davlat» XIFI 2004 va 2005 yillari uchun taqdim etgan. . . (2.1.4 chizmaning kirish abzatsi kabi) . . . hisobotlarining auditini o'tkazishga shartnoma tuzdik. Moliyaviy hisobot uchun javobgarlik. . . (2.1.4 chizmaning kirish abzatsi kabi)
5 -	2.3.9 chizma kabi (2-abzats)
6 -	Boshqa viloyatdagi filialga qilingan investitsiyalar summasi va shu filial foydasidagi ulush miqdori haqida auditdan o'tgan moliyaviy hisobotini olmaganligimiz va boshqa audit muolajalarini qo'llash orqali etarli ma'lumot to'play olmaganligimiz sababli, audit chegara ko'lamini ushbu moliyaviy hisobot bo'yicha fikr berishimiz uchun to'liq, deb hisoblay olmaymiz. Shu sababli fikr berishdan bosh tortamiz.
7 } 8 } 9 }	Chizma 2.1.4 kabi

2.3.10-chizma. Audit chegara ko'lamini etarli bo'lmagan sharoitda fikr berishdan bosh tortish.

Auditorning xulosasiga har qanday qo'shimcha mulohaza kiritish taqiqlanadi. Masalan, fikr berishdan bosh tortish keltirilgan xulosada «ammo moliyaviy hisobotning to'g'riligiga ishonch hosil qilishimiz uchun to'siq bo'luvchi holatlarni kuzatmadik» degan jumlaning qo'shishi noo'rin va audit andozalariga ziddir. Bunday mulohazalar moliyaviy hisobot va audit natijasiga tayanib ish ko'ruvchi mijozlarni chalg'itadi va auditorning javobgarlik darajasini belgilashni murakkablashtiradi.

Auditorlik xulosalari turini belgilashda «muhimlik» asosiy omillardan hisoblanadi. Masalan, moliyaviy hisobotga nisbatan aniqlangan kamchilik muhim bo'lmasa va kelajakda hech qanday ta'sir ko'rsatmasa, qo'shimcha izohsiz auditorlik xulosasi tayyorlanadi. Masalan, kantselyariya mollarini hisobdan chiqarishda ayrim oluvchilarning imzosi bo'lmasa yoki umuman tarqatish ro'yxati qilinmagan bo'lsa. Og'zaki so'rovlar korxonaga ma'muriy boshqarishida kantselyariya mollariga taqchilik bo'lganligini tasdiqlamasa va hokazo.

Agar noaniqlik summasi juda muhim va umumiy moliyaviy hisobotga jiddiy ta'sir qilsa, salbiy xulosa yoki umuman xulosa berishdan bosh tortish mumkin. Ayrim hollarda noaniqlikning muhimlik darajasi uncha katta bo'lmasa, sharhlangan xulosa keltirish ham mumkin.

Muhimlik tushunchasiga quyidagicha ta'rif bersa bo'ladi:

Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar qabul qiladigan echimlarga o'z ta'sirini o'tkazadigan ushbu moliyaviy hisobotdagi noaniqlik muhim noaniqlik, deb qaraladi. Auditorlik xulosasining turini belgilash uchun muhimlik darajasi shartlarini keltirishga harakat qilamiz.

1. Summa muhim emas. Agar moliyaviy hisobotda 2.3.8 jadvalda keltirilgan sharoitlardan biri mavjud bo'lsa, bu kamchiliklar qaror qabul qiluvchi echimga ta'sir qilmaydi va summa muhim hisoblanmaydi. Masalan, kompaniya ma'muriyati kelgusi yil xarajatini joriy yilda hisobdan chiqardi va umumiy qabul qilingan buxgalteriya printsiplariga rioya qilmadi. Agar bu summa uncha katta bo'lmasa, unda bu noaniqlik muhim hisoblanmaydi va sharhsiz standart auditorlik xulosasi beriladi.

2. Summa muhim, ammo umumiy moliyaviy hisobot natijalarini buzib ko'rsatmaydi. Muhimlikning ikkinchi darajasi bu moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar echimiga ta'sir qiladi, lekin moliyaviy hisobot umuman korxonada faoliyatini to'g'ri aks ettiradi va shuning uchun u zarurdir. Masalan, tovar-moddiy boyliklar hisobida mavjud muhim noaniqlik haqidagi ma'lumot foydalanuvchilar echimiga ta'sir qilishi va kredit berish masalasi salbiy hal bo'lishi mumkin, lekin bunday kamchilik pul mablag'lari hisobi, debitorlik qarzlari hisobi va boshqa moliyaviy hisobot bo'g'inlari muhim jabhalarida noto'g'ri degani emas.

Muhimlik darajasi yuzasidan echim qabul qilish va sharhsiz auditorlik xulosalari berishdan chetlashish hollari mavjud sharoitda auditor aniqlangan kamchilikni moliyaviy hisobotga qay daraja ta'sir qilishini aniqlashi kerak. Masalan, auditor u yoki bu turdagi auditorlik xulosasini tanlashi uchun, hisobda tovar-moddiy boyliklar zaxirasi etarli to'g'ri ko'rsatilganligi haqida aniq bir fikrga erisha olmagan bo'lsa va bu kamchilik boshqa schetlarga, hisobot qoldiqlariga ta'sir qilsa, auditor bu kamchilikni umumiy aktivlar summasiga qay darajada ta'sir o'tkazganligini aniqlashi kerak. Bundan tashqari bu kamchilikning tannarxga va soliq to'lovlariga, yalpi va sof foydaga o'tkazgan ta'sirini ham aniqlash zarur.

Agar auditor kamchilik muhim, lekin u umumiy moliyaviy hisobotga hal qiluvchi darajada katta ta'sir qilmasligini aniqlasa, u holda sharhlangan auditorlik xulosasini taqdim etadi.

3. Summa juda muhim va shu qadar ko'p takrorlanadiki, moliyaviy hisobot umuman to'g'riligi haqida shubha ostiga olinadi. Moliyaviy hisobotga tayanib ish ko'ruvchi-foydalanuvchilar noto'g'ri xulosa qabul qilishlari va xato echimga kelishlari mumkin bo'lsa, shu moliyaviy hisobotda juda muhim bo'lgan kamchilik bor, deb qaraladi. Agar yuqorida keltirilgan misolga qaytsak va tovar-moddiy boyliklari hisobidagi kamchilik katta summani tashkil qildi deb qaralsa, auditor o'z xulosasida moliyaviy hisobot kompaniya faoliyatini to'g'ri aks ettirmaganligini ko'rsatib, salbiy fikr berishi yoki umuman fikr berishdan bosh tortishi mumkin.

Juda muhim kamchilik mavjud bo'lsa, bunday holat qay darajada moliyaviy hisobot moddalariga ta'sir qilganligi aniqlanishi kerak. Bu ish «kamchilikning tarqoqligi» tushunchasini beradi. Agar kamchilik tarqoq bo'lsa, auditorlar, albatta, salbiy xulosa berishi kerak va biron-bir sharhlangan xulosa bu erda o'rinsiz, deb hisoblaymiz. Muhimlik darajasi va auditorlik xulosasi turi o'rtasidagi bog'liqlikni 2.3.9 jadvalda keltiramiz.

2.3.9 Jadval

Muhimlik darajasi va auditorlik xulosasi turi orasidagi bog'liqlik

Muhimlik darajasi	Foydalanuvchi echimiga ko'rsatadigan ta'sir	Auditorlik xulosasi turi
Muhim emas	Noaniqlik foydalanuvchi qabul qiladigan qaror va echimga ta'sir o'tkazishi gumon	Sharhsiz xulosa
Muhim	Agar ma'lumot aniq spetsifik echim qabul qilish uchun taalluqli bo'lsa va undagi kamchilik muhim bo'lsa, lekin umumiy moliyaviy hisobot ob'ektiv deb qaralsa	Sharhlangan xulosa
Juda muhim	Hisobotdan foydalanuvchi echimining ko'p qismiga yoki umuman foydalanuvchi qarorlariga ta'sir o'tkazadigan kamchilik	Fikr berishdan bosh tortish yoki salbiy auditorlik xulosasi

Umuman muhimlik chegarasini to'g'ri aniqlash keyinchalik qaysi turdagi xulosa berish bilan bog'liq. Amaliyotda har qanday vaziyatda ham muhimlik darajasi haqida qaror qabul qilish birmuncha murakkab.

Auditor o'z ishini shunday rejalashtirishi kerakki, ish oxirida u yo'l qo'yilgan xato muhimlik chegarasidan o'tib ketmaganligiga to'la ishonch hosil qilsin. Bu chegara har bir tekshirilayotgan korxonaga uchun alohida va auditorning malakasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Albatta, bir korxonaga uchun muhim bo'lgan ko'rsatkich boshqa korxonaga uchun muhim bo'lmasligi mumkin, chunki ularning hajmi, faoliyati turlicha bo'lishi mumkin. Ya'ni muhimlik chegarasi korxonaga hajmidan, foyda ko'rsatkichlaridan, joriy aktivlar hajmidan joriy majburiyatlardan, kapital hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bu ko'rsatkichga batafsilroq keyingi boblarda qaytamiz.

Yuqorida aytib o'tilganlarga asoslangan holda, keltirilgan sharoit va shartlardan kelib chiqib, qo'shimcha sharh berilmagan xulosalar taqdim etishdan chetlashish holatlarini quyidagi 2.3.10 jadvalda umumlashtirishga harakat qilamiz.

Shuni qayd etib o'tish kerakki, auditdan o'tgan moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar standart xulosa berilmagan sharoitda yana qo'shimcha tekshirish belgilashlari yoki o'z fikrlari, echimlari, qarorlarini o'zgartirishlari mumkin. Bozor iqtisodi sharoitida audit natijasini to'g'ri rasmiylashtirish katta rol o'ynaydi. Chunki ma'lum holatlarda bunday natijalar sudlar tomonidan qayta ko'rib chiqiladi.

2.3.10 Jadval

Muhimlik darajasini inobatga olib va sharhlanmagan auditorlik xulosalaridan chetlashga sabab bo'luvchi sharoitlar uchun auditorlik xulosasining turi

Chetlashishga sabab bo'luvchi sharoitlar	Muhimlik darajasi		
	Muhim emas	Muhim, ammo umumiy moliyaviy hisobotni buzmaydi	Juda muhim va umumiy moliyaviy hisobotni buzib ko'rsatdi
1	2	3	4
Auditorga bog'liq			
Audit ko'lami mijoz tomonidan yoki tashqi sharoitlar ostida chegaralangan	Sharhlanmagan xulosa	Sharhlangan xulosa	Fikr berishdan voz kechish
Boshqa auditorlar ish natijasidan foydalanish	Sharhlanmagan xulosa	Sharhlanmagan yoki tushuntirish qismi mavjud shakli o'zgargan xulosa	Qabul qilinmaydi
Buxgalteriya hisobiga taalluqli			
Moliyaviy hisobot umumiy qabul qilingan buxgalteriya printsiplaridan chetlashsa	Sharhlanmagan xulosa	Sharh fikrga taalluqli bo'ladi (hisobga olmaganda)	Salbiy xulosa
Hisob printsiplari tartib bilan qo'llanilmasa	Sharhlanmagan xulosa	Tushuntirish abzatsi qo'shiladi	Tushuntirish abzatsi qo'shiladi
O'zgacha sharoitlar	Qo'llanilmaydi	Tushuntirish abzatsi qo'shiladi	Tushuntirish abzatsi qo'shiladi
Noaniqlik moliyaviy hisobotga taalluqli	Sharhlanmagan xulosa	Tushuntirish abzatsi qo'shiladi	Tushuntirish abzatsi qo'shiladi
Noaniqlik auditorga bog'liq, ya'ni u mustaqil emas		Muhimlik darajasidan qat'iy nazar salbiy xulosa	

Umuman auditor xulosasiga qarab ahamiyatli iqtisodiy echimlar qabul qilinadi va bu albatta, audit uchun sarf-xarajatlarni oqlaydi.

III BOB. AUDITNING MAQSADI VA UNGA ERISHISHDAGI TADQIQOT BOSQICHLARI

Mazkur bobda auditorlik dalillari yig'ish jarayonini o'rganishni maqsad qilib qo'ydik. Buning uchun avvalambor audit maqsadi va vazifalarini to'g'ri anglab olish kerak. Bizning fikrimizcha, auditorlik dalillarini yig'ish jarayoni bozor iqtisodi talablaridan kelib chiqqan holda quyidagi bosqichlarda namoyon bo'ladi:

- moliyaviy hisobot haqqoniyligini baholash, ya'ni asosiy maqsad shu bahoni berish uchun etarli dalil yig'ish.
- moliyaviy hisobotni qismlari bo'yicha baholash, ya'ni audit balansning har bir bo'g'ini bo'yicha o'tkaziladi va ma'lumotlar umumlashtiriladi.
- ma'muriyaning hisobot qismlari bo'yicha tasdiqlari va tushuntirishlarini tekshirish.

- qismlar bo'yicha auditning asosiy maqsadini belgilash.

Birma-bir bu bosqichlardan o'tar ekan, auditor o'z izlanishlarini chuqurlashtiradi va audit oldiga qo'yilgan maqsadga erishadi.

3.1. Umumiy maqsad va auditni segmentlarga ajratish

Moliyaviy hisobotni mustaqil auditor tomonidan tekshirishdan asosiy maqsad shu hisobotni kompaniya faoliyatini qay darajada haqqoniy aks ettirganini aniqlab, fikr berishdan iborat. Bundan tashqari mablag'larning harakati umumiy qabul qilingan buxgalteriya printsiplariga mosligini ham tekshirish kerak. Bu tushuncha O'zbekiston Respublikasi audit andozasida keltirilgan bo'lib, unda moliyaviy hisobot tuzishda bajarilishi kerak bo'lgan talablar ham qayd etilgan, ya'ni moliyaviy hisobot:

- a) foydalanuvchilarning, asosan, aktsiya egalarining ma'lumotga bo'lgan va moliyaviy talablarni qondirishi kerak;
- b) tekshirilgan va haqqoniy ma'lumotlar asosida tayyorlanishi kerak;
- v) asosiy foydalanuvchilar manfaatiga ziyon etkazish mumkin bo'lgan xatolardan xoli bo'lishi kerak;
- g) qonun talablariga javob berishi kerak;
- d) O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan buxgalteriya printsiplari asosida tayyorlanishi kerak.

Yuqoridagilarni tasdiqlash maqsadida auditor dalillar yig'ishi va xulosa tayyorlashi zarur. Agarda etarli darajada dalillar yig'ilib, ular moliyaviy hisobot foydalanuvchisini chalg'itmasligiga ishonch hosil qilinsa, auditor shu moliyaviy hisobot bilan o'z nomini bog'lashi va shu hisobotning haqqoniyligi to'g'risida xulosa berishi mumkin, va aksincha, agarda moliyaviy hisobotgacha va u tuzilgandan so'ng aniqlangan kamchiliklar hisobotdagi ma'lumotlarni buzib ko'rsatsa, auditor foydalanuvchilarni o'z hisoboti orqali ogohlantirishi zarur.

Kompaniya ma'muriyatining javobgarligi.

Yuqorida qayd etilganidek, hisob siyosatining to'g'riligi, xo'jalik tizimida ichki nazoratni tashkil qilib ishlatish va moliyaviy hisobot tuzishning to'g'riligi uchun auditor emas, balki mijoz kompaniyaning ma'muriyati javobgardir.

Bizning fikrimizcha, moliyaviy hisobotga kompaniya ma'muriyatining majburiyatlari va ularning auditorlik firmalari bilan munosabati to'g'risidagi xulosa ham ilova qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday xulosa uch abzatsdan iborat bo'lgan holda tayyorlangani ma'qul. Birinchi abzatsda - moliyaviy hisobotni to'g'ri tuzishdagi ma'muriyat javobgarligi, ikkinchi abzatsda - kompaniya "Korxonalar to'g'risida"gi qonun talablariga

amal qilganligi va uchinchi abzatsda korxonada auditorlik qo'mitasining roli va uni mustaqil auditorlik firmasi bilan munosabati aks ettirilishi kerak. Kompaniya ma'muriyatining javobgarligi to'g'risidagi xulosani 3.1.10 chizmada keltirishga harakat qilamiz.

Moliyaviy hisobotning to'g'riligiga ma'muriyatning javobgarligi haqida gapirganda moliyaviy hisobotdagi qaysi ma'lumotni ilovalarda ochib ko'rsatish kerakligini ham ma'muriyat hal qilishni nazarda tutish kerak. Agar ochib ko'rsatishi kerak bo'lgan ma'lumot yuzasidan auditor bilan ma'muriyat o'rtasida kelishmovchilik yuzaga kelsa, auditor salbiy xulosa yoki sharhlangan xulosa berishi yoki umuman topshiriqni bajarishdan voz kechishi ham mumkin.

Auditorning javobgarligi.

Auditning umumiy qabul qilingan andozalari talab qilishicha, audit moliyaviy hisobotdagi muhim noaniqliklarni topishni ta'minlash darajasida o'tkazilishi kerak. So'ng, audit shunday rejalashtirilishi kerakki, u topshiriqning barcha jabhalarini qamrab olishi va ma'lum darajadagi kasbiy sinchkovlik bilan olib borilishi zarur. Shuni qayd etish kerakki, kompaniya ma'muriyati, albatta, hammani aldamoqchi degan fikr auditorlardan yiroq bo'lishi va shu bilan birga u bunday hol mavjud bo'lishi ehtimolini ham nazarda tutishi kerak.

Kompaniya ma'muriyati javobgarligi to'g'risidagi xulosa

I. Hisobot-ning to'g'riligi yuzasidan javobgarlik	“Davlat” XIFi ma'muriyati yillik moliyaviy hisobot mazmuni va undagi ma'lumotlar uchun javobgardir. Moliyaviy hisobot va unga taalluqli bo'lgan ma'lumot umumiy qabul qilingan buxgalteriya qoidalariga asosan tuzilgan bo'lib, aniq o'lchash mumkin bo'lmagan holatlar yuzasidan ma'muriyatning malakali hisob-kitoblari keltirilgan.
II. “Korxonalar to'g'risidagi” qonun talablari ning bajarilishi	Kompaniya ichki xo'jalik auditining dasturi, ichki xo'jalik nazoratining etarliligi va samaradorligini baholashga asos bo'ladi. Audit belgilangan muolajalar va nazorat bosqichlarining bajarilishini aniq nazorat qiladi. Ishlab chiqilgan korxonada siyosati yuqori etik me'yorlarga amal qilishni ta'minlaydi.
III. Korxonada auditorlik qo'mitasining roli	Direktorlar kengashining auditorlik qo'mitasi a'zolari asosan kompaniyada faoliyat qilmaydigan direktorlardan tashkil topgan. Bu qo'mita doimiy ravishda ma'muriyat, ishchi nazorat mutaxassislari va mustaqil auditorlar bilan muloqot qilib, taraflarni o'z majburiyatlarini bajarishlarini nazorat qiladi XIF prezidenti: _____ (imzo)

3.1.10-chizma. Kompaniya ma'muriyati javobgarligi to'g'risidagi xulosa.

Albatta, yuqoridagi fikrlarimiz ta'kidlashicha, auditor moliyaviy hisobotning mutloq to'g'riligi haqida kafil bo'la olmaydi. Agarda auditor moliyaviy hisobotning barcha bo'g'inlari bo'yicha mutloq kafolat berishni bo'yniga olganda, zarur auditorlik isbotlari va audit narxi shu darajada yuqori bo'lar ediki, iqtisodiy jihatdan audit keraksiz bo'lib qolar edi. Shu sababli audit jarayonida muhim noaniqlik topilmasa, auditorga u umumiy qabul qilgan auditorlik andozalari asosida ish olib borilganligini isbot qilish etarli bo'ladi.

Auditorlik amaliyotida ikki xil turdagi noaniqliklar farqlanadi: xato va me'yorlardan chetlashish. Xato - bu moliyaviy hisobotning o'zi bilmagan holda buzish holati, me'yorlardan chetlashish - bu moliyaviy hisobotni ataylab buzish holatidir.

Me'yorlardan chetlashish bu, aktivlarning o'g'rilanishi, ya'ni xizmatchilarning nopokligi va boyliklarni shaxsiy manfaati yo'lida sarflab yuborishi bo'lsa, moliyaviy hisobotning buzib ko'rsatilishi esa ma'muriyat nopokligi oqibatidir.

Aktivlarning o'g'irlanishiga misol tariqasida omborlardagi kamomadlar yoki xizmatchi tomonidan sotilgan mahsulot uchun naqd pul tushumini kassaga kirim qilmasligini (yoki kassa apparati orqali o'tkazilmasligini) keltirish mumkin. Moliyaviy hisobotning buzib ko'rsatilishiga misol qilib esa, balans topshirish sanasiga, yaqin kunlarda foydani oshirib, e'lon qilish maqsadida realizatsiya ko'rsatkichini oshirib ko'rsatishni misol qilish mumkin.

Auditorlarga ko'pincha me'yorlardan chetlashish hollarini aniqlash xatoni aniqlashga nisbatan qiyinroqdir, chunki me'yorlardan chetlanishni bilib turib, noto'g'ri xulosa berish, yolg'on va buzib ko'rsatish bilan vujudga keladi. Me'yorlardan chetlashish holini aniqlash auditoridan o'ziga xos sinchkovlikni talab qiladi.

Ma'muriyat nopokligi. Mohiyati jihatidan ma'muriyat nopokligi shunday holatki, uni aniqlash mushkul vazifadir, chunki bitta yoki bir necha yuqori mansabdagi rahbarlarga ichki nazorat tizimini chetlab o'tish engildir. Ko'p hollarda me'yorlardan chetlashish hollarini hisobda niqoblab ko'rsatishga harakat qilinadi. Shu sababli ham auditorlarga xatoni aniqlab topishdan ko'ra ma'muriyat nopokligini aniqlash qiyindir. Lekin auditorlar ma'muriyat nopokligini aniqlashda ahamiyatli darajada javobgardirlar. So'nggi yillarda kompaniya ma'muriyatining nopokligini aniqlab, uni tahlil qilishda auditorlar javobgarligiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Xizmatchilar nopokligi. Shuni qayd etish kerakki, ma'muriyat nopokligini aniqlashdagi auditor javobgarligidan ko'ra xatoni aniqlashdagi javobgarlik doimo yuqori bo'ladi. Agarda auditor jami xizmatchilar nopokligini aniqlashi zarur bo'lganda edi, audit chegaralarini shu darajada kengaytirishga to'g'ri kelar va bunda audit tannarxi shu darajada oshib ketar ediki, nopoklikni aniqlashdan olingan naf uni aniqlash uchun ketgan xarajatlarni qoplama edi. Chunki bir necha xizmatchilar kelishib, ularga ma'lum hujjatni qalbakilashtirsa, bunday xatoni topish oddiy audit chegaralaridan chiqib ketadi va bir qancha murakkabliklarni o'z ichiga oladi.

Auditor xizmatchilar nopokligi mavjudligi ehtimolini xuddi ma'muriyat nopokligi mavjudligi ehtimolini baholaganicha baholashi kerak. Ko'pincha bunday baholash audit muolajalarining asosiy bo'g'ini sifatida ishning boshlang'ich davrida amalga oshirilib, mavjud xo'jalik tizimidagi ichki nazorat tizimini o'rganish va shu nazorat bilan bog'liq tavakkalchilik darajasini aniqlashga yo'naltiriladi. Shu bilan birga auditor, zarur nazorat tizimi mavjud emasligini yoki xizmatchilarning zarur nazorat bosqichlarini chetlab o'tish hollari mavjudligini aniqlasa, auditorlik isbotlari hajmini oshirib, bu hol muhim darajadagi me'yorlardan chetlashishga olib keladi, deb hisoblaydi.

Qonundan tashqari bo'lgan holatlar. Bu tushunchaga "me'yorlardan chetlashish" guruhiga tushadigan mavjud qonunchilikni buzish va davlat yo'riqnomalariga rioya qilmaslik holatlari kiradi. Misol tariqasida soliq qonunchiligi yoki tabiat muhitni muhofaza qilish bo'yicha qonunlarga rioya qilmaslikni keltirish mumkin.

Audit andozalarida keltirilishicha, auditor jami qonundan tashqari bo'lgan holatlarni aniqlashni kafolatlashi mumkin emas. Mohiyati jihatidan ko'pchilik qonundan tashqari bo'lgan holatlar moliyaviy hisobot ko'rsatkichlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatmaydi. Shu sababli auditoridan jami qonundan tashqari bo'lgan holatlarni aniqlashni talab qilish noto'g'ri bo'lar edi. Auditorlarda qonunlar yuzasidan maxsus bilim yo'q, chunki u advokat emas.

Me'yorlardan chetlashish va xatoni aniqlash borasida amalga oshirilgan ko'pchilik auditorlik muolajalari qonundan tashqari bo'lgan holatni ochishga yordam beradi. Quyida qonunlardan tashqari bo'lgan holat yuzasidan auditor vazifalarini ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

Qonundan tashqari holat mavjudligi haqida sabablar yo'q bo'lganda auditorlik dalillari to'plash.

Auditor direktorlar kengashi majlisining bayonnomasi bilan tanishishi va sudlanuvchilar yuzasidan mijoz advokatlari bilan suhbatlar o'tkazishi mumkin. Ma'muriyatdan qonundan tashqari holatlarni bartaraf etish yuzasidan bajarilayotgan ishlar ko'lami bilan tanishtirishni talab qilishi

mumkin bo'lib, shu muolajalardan tashqari qo'shimcha qadamlar qo'yish auditorga tavsiya etilmaydi.

Qonundan tashqari holatlar mavjudligi haqida sabablar bor paytda auditorlik dalillarini to'plash.

Auditor qonundan tashqari bo'lgan holatning mavjudligi nishonalarini bir necha xil usul bilan aniqlashi mumkin. Masalan, auditor majlis bayonnomasidan ma'lum bir davlat tashkiloti tomonidan tergov olib borilayotgani haqida yoki maslahatlar olish uchun katta miqdorda sarf xarajatlar qilinayotganligi yuzasidan ma'lumotlar olishi mumkin.

Agarda auditor qonundan tashqari holat mavjudligi haqida asos topsa, quyidagi qadamlarni amalga oshirishi kerak bo'ladi. Birinchidan, tekshirilayotgan ma'muriyatdan yuqori bo'lgan ma'muriyat bilan maslahatlashib olishi kerak. Ikkinchidan, auditor yurist-konsultant bilan yoki aniqlangan holatni qonundan tashqari ekanligini kasbiy asoslab beruvchi boshqa mutaxassislar bilan maslahatlashib olishi kerak. Uchinchidan, qo'shimcha auditorlik dalillarini yig'ish ustida o'ylab ko'rish kerak, chunki haqiqatda qonun buzilganligini to'la isbotlash zarur bo'ladi. Shu uchta qadam auditorga qonundan chetlashish holati mavjud yoki yo'qligi haqida to'la ma'lumot beradi.

Qonundan tashqari holat mavjudligi haqida to'la ishonch hosil bo'lganda auditorning majburiyati.

Qonundan tashqari holatni aniqlagach, auditor avvalambor bu holatni moliyaviy hisobotga qay darajada ta'sir etganligini aniqlashi kerak. Bu vazifa bir qancha murakkabdir. Agarda moliyaviy hisobot shu holat tufayli kompaniya faoliyatini to'g'ri aks ettirmasa, auditor o'z xulosasini o'zgartirishi kerak bo'ladi. Bu holatda ham, albatta, yurist-konsultant bilan maslahatlashish maqsadga muvofiqdir.

Auditni segmentlarga ajratish.

Audit moliyaviy hisobotni nisbatan kichik segmentlar yoki elementlarga ajratib olib amalga oshiradi. Bu moliyaviy hisobot bilan bo'lgan ishlarni engillashtiradi va auditorlar jamoasi a'zolarining vazifalarini aniq taqsimlab beradi. Bizning fikrimizcha, balansning ayrim bo'g'inlarini alohida segmentlar, deb qarash maqsadga muvofiq bo'lib, har bir segment alohida auditdan o'tkazilgani ma'qul. Audit tugatilgandan so'ng natijalar umumlashtiriladi va moliyaviy hisobot yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi.


Albatta, har bir schyot bo'yicha qoldiqni alohida segment deb olish mumkin, lekin bu ko'p hollarda samarasiz ish bo'ladi. Shuning uchun bosqichlar bo'yicha, ya'ni bir-biri bilan bog'liq xo'jalik muomalalari va ularni aks ettiruvchi schyotlar guruhi bo'yicha audit o'tkazilgani ma'quldir. Bu yondoshish bosqichli yondoshish deyiladi va uning mantiqiyiligi xo'jalik muomalalarini hisob qaydnomalariga yozish, so'ng bosh kitobda natijalarining umumlashtirilishi va moliyaviy hisobotda aks ettirilishi jarayonida yaqqol ko'rinadi. Shunday jarayonni 3.1.11 chizmada ko'rsatamiz.

Quyida jadval shaklida bosqichli yondoshishdagi audit jarayonini ko'rsatishni harakat qilamiz.

3.1.11 jadvaldan ko'rinib turibdiki, ayrim jurnallar va bosh kitobdagi schyotlar bir necha bosqichda ishtirok etmoqda va bu bosqichlar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi.

Xo'jalik muomalalarining bosqichlari audit o'tkazish uchun juda muhimdir. Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shunday xulosa qilish mumkinki, auditor xo'jalik muomalasining har bir bosqichini alohida tekshirar ekan, bu falsafa dialektik bog'liqlik qonuniyatini inkor etmasligi kerak. Ma'lumki, ishlab chiqarish jarayoni bosqichlari bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli tekshirish jarayonida doimo bosqichlar o'rtasidagi bog'liqlikni nazardan chiqarmaslik shart. Bosqichlar o'rtasidagi bog'liqlik 3.1.11 jadvalida ko'rinib turibdi.

Ma'lumotni jurnallardan moliyaviy hisobotga o'tkazish



3.1.11-chizma. Ma'lumotni jurnallardan moliyaviy hisobotga o'tkazish.

Balansni tekshirishda ma'lum bir bosqich chegarasida auditning aniq maqsadlari bo'ladi. Auditning maqsadi umumiy audit maqsadiga yoki kompaniya ma'muriyatining tasdiqlashlariga tayanishi mumkin.

3.1.11 Jadval

Audit bosqichlarining segmentlari

Bosqich	Bosqichda foydalaniladigan jurnallar	Bosqichda foydalaniladigan bosh kitobdagi qoldiq	
		Balans	Foyda va zararlar to'g'risida hisobot
Realizatsiya va tushum	Realizatsiya jurnali. Pul tushumlar bo'yicha jurnal. Aylanish vedomostlari.	Bankdagi pul. Olish uchun tovar schyotlar. Olish uchun boshqa schyotlar. Dargumon qarzlari bo'yicha chegirmalar.	Realizatsilardan tushum. Realizatsiya bo'yicha qaytarib topshirish va chegirmalar. Muddati o'tgan qarzlari bo'yicha xarajatlar.
Tovar va hisob-kitob muomalalari	Tushum va xaridorlar jurnali. Pul to'lovlari jurnali. Aylanish vedomostlari.	Bankdagi pul. Materiallar. Er. Avans bilan to'langan xarajatlar. Binolar. O'rnatish uchun moslamalar. Mebel va boshqa ko'char mulk. Hisoblangan eskirish. To'lash uchun tovar schyotlari. Boshqa hisob-kitoblar. Daromad solig'i bo'yicha hisob-kitoblar. Kechiktirilgan soliq to'lovlari.	Reklama xarajatlari. Safar va vakillik xarajatlari. Kadrlarni tayyorlash va instruktaj xarajatlari. Reklamali nashrlar uchun xarajatlar. Boshqa realizatsiya xarajatlari. Ma'muriy boshqaruv xarajatlari. Kantselyariya va boshqa xarajatlar. Pochta xarajatlari.
			Telefon-telegraf xarajatlari. Soliqlarni to'lash bo'yicha xarajatlar. Binolarning eskirishi. Ijara xarajatlari. Yurist-konsulnlarning gonorarlari. Audit xarajatlari. Boshqa umumiy xarajatlar.
Mehnatni tashkil qilish va unga haq to'lash	Hisob-to'lov vedomostlari, aylanish vedomostlari.	Bankdagi pul mablag'lar, mehnatga haq to'lash bo'yicha hisob-kitoblar, mehnatga hisoblangan haq bo'yicha soliqlar.	Asosiy faoliyat bo'yicha ishchilarning mehnat haqi va boshqa to'lovlar. Asosiy ishchilarning ish haqi bo'yicha soliqlar. Ma'muriyat va boshqaruvchilarning ish haqlari. Ma'muriyat va boshqarma hodimlarining ish haqi bo'yicha soliq

Tovar-materiallar qiymat miqdori bo'yicha ma'lumotlar	Tushum va xaridorlar jurnali. Realizatsiya jurnali. Aylanish vedomosti.	Materiallar.	Realizatsiya qilingan tovarlar tannarxi.
Kapitalni tashkil qilish va uning daromadligi.	Tushum va xaridorlar jurnali. Kassa kitobi. Aylanish vedomostlari.	Bankdagi pul mablag'lari. Berilgan veksellar. To'lash uchun foizlar. Oddiy aktsiyalar. Taqsimlanmagan foyda. Dividendlar. To'lash uchun dividendlar.	Foizlarni to'lash bo'yicha xarajatlar.

Audit maqsadlarini aniq belgilash uchun “ma'muriyat tasdiqlashlari nima?” degan savol qo'yamiz va uni ko'rib chiqamiz.

Ma'muriyatning tasdiqlashlari - moliyaviy hisobotning u yoki bu elementining qismi sifatida ma'muriyat tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlardir.

Ma'muriyat tasdiqlashlari umumiy qabul qilingan printsiplar bilan bevosita bog'langan bo'ladi. Bu tasdiqlashlar ma'muriyatning buxgalteriya yozuvlarini amalga oshirishi va moliyaviy hisobot taqdim etish uchun foydalanilgan mezonlar qatoriga kiradi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, elementlar bo'yicha ma'muriyat tasdiqlashlari auditorlik dalillarini yig'ish jarayonining uchinchi bosqichiga kiradi.

Ma'muriyat tasdiqlashlarini kategoriyalarga ajratamiz:

- Haqiqatda mavjudlik.
- Yakuniylik va to'lalilik.
- Huquq va majburiyatlar.
- Baholash va joylashtirish.
- Taqdim etish va ochib berish.

Haqiqatda mavjudlik to'g'risida ma'muriyat tasdiqlashi. Bu tasdiqlashlar balans tuzilgan sanaga unda ko'rsatilgan kapital, aktivlar va majburiyatlarning haqiqatda mavjudligini yoki foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda ko'rsatilgan xarajat va daromadlar haqiqatda amalga oshganligi yoki oshmaganligini ko'rsatadi. Boshqacha qilib aytganda bu tasdiqlashlarni tekshirganda auditor hisobotga kiritilishi kerak bo'lmagan, lekin unga kiritilgan ma'lumotni aniqlaydi.

Yakuniylik va to'lalilik bo'yicha tasdiqlashlar. Ma'muriyatning bu tasdiqlashlari jami xo'jalik muomalalari va schyotlar hisobotga kiritilganini anglatadi. Haqiqatda mavjudlik to'g'risidagi ma'muriyat tasdiqlarini tekshirishidagidan farqli yakuniylik va to'lalilik bo'yicha tasdiqlashlarni tekshirganda auditor hisobotga kiritilishi kerak bo'lgan, lekin unga kiritilmagan ma'lumotlarni aniqlaydi.

Huquq va majburiyatlar bo'yicha tasdiqlashlar. Bu toifadagi tasdiqlashlarning mohiyati shundan iboratki, hisobotda ko'rsatilgan jami aktivlarga haqiqatda kompaniyaning huquqi bor yoki yo'qligini va passivlar haqiqatda kompaniya majburiyatlarini xarakterlashini anglatadi.

Baholash va joylashtirish - moliyaviy hisobotdagi qo'llanilgan baholashlarning to'g'riligini tasdiqlash aktivlar, passivlar, shaxsiy kapital, daromad va xarajatlarni qaysi usul bilan baholash qulayligini belgilaydi.

Taqdim etish va ochib berish. Bu toifadagi tasdiqlashlar moliyaviy hisobot elementlarini balans bo'limlari bo'yicha to'g'ri taqsimlanganini belgilab beradi.

Shunday qilib, auditorning maqsadi ma'muriyat tasdiqlashlari oshishi bilan vujudga keladi va u bilan uzviy bog'liq. Bundan kelib chiqib, auditning umumiy maqsadini belgilash mumkin, ya'ni "Korxonada ma'muriyatining moliyaviy hisobot bo'yicha tasdiqlashlarini to'g'riligini belgilash auditning umumiy maqsadini tashkil qiladi" deyishimiz mumkin.


Auditorning umumiy maqsadini belgilash auditor uchun zarur ma'lumotlar to'plashda yordam beruvchi tizim barpo etish bilan bog'liq. Bu jarayon ya'ni, ma'lumotlarni to'plash ob'ektda ishlash andozalari bilan belgilab qo'yiladi. Umumiy tizim yordamida aniq holat uchun qanday ma'lumotlar zarurligi belgilanadi va audit jarayonida aniqlanadi. Har xil tekshirishlarda maqsad o'zgarmaydi, lekin umumiy maqsadga erishish uchun zarur, aniq holatlarda ma'lumotlar turlicha bo'lishi mumkin.

Auditning asosiy maqsadi va aniq maqsadini farqlash zarur. Auditning asosiy maqsadi har bir balans schyotiga taalluqli va umumiy so'zlar bilan izohlanadi. Har bir balans schyoti bo'yicha auditning aniq maqsadini belgilash mumkin, lekin ular aniq masalani qamrab olishi kerak. Auditning asosiy maqsadi belgilab olingach, uning aniq maqsadini belgilashda foydalaniladi.

3.2. Auditning maqsadini aniqlash va unga erishish

Auditor tomonidan qo'yilgan maqsadlar ma'muriyatning qismlar bo'yicha tasdiqlashlarini olishi bilan aniq shakllanadi va ular bir-biri bilan bog'liqdir, negaki auditorning asosiy vazifasi moliyaviy hisobotga taalluqli bo'lgan ma'muriyat tasdiqlashlarining qay darajada haqiqatga yaqin ekanligini aniqlashdir.

Audit maqsadining mazmuni auditorga ob'ektda ish olib borish standartlarida ko'zda tutilgan dolzarb tasdiqlash va guvohliklarni to'plash bo'lib, aniq sharoitda haqiqiy ma'lumotlar zaruriyat miqdorini belgilaydi. Turli tekshirishlarda maqsad bir xil bo'lgani bilan haqiqiy ma'lumotlar miqdori sharoitlardan kelib chiqib turlicha bo'ladi.



3.2.12-chizma. Auditning bosh maqsadlari.

Balansning har bir moddasi uchun auditning bosh va aniq maqsadlarini ajratish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bu erda tahlil qilinayotgan auditning bosh maqsadi har bir balans schyotiga taalluqli, lekin ular umumiy tarzda izohlangan. Har bir balans schyoti bo'yicha auditning aniq maqsadlarini ajratish mumkin, lekin ular har bir aniq vazifa uchun moslashtiriladi. Auditning bosh maqsadi aniq bo'lgach, uni aniq maqsadlarni belgilashda ishlatish mumkin. Auditning bosh maqsadlarini 3.2.12-chizmada ko'rsatishga harakat qilamiz.

Yuqorida keltirilgan maqsadlarni quyidagicha izohlash mumkin:

1. Xoslik - Auditning bosh maqsadlari ishi kategoriyaga ajraladi: umumiy xoslik darajasi va boshqalar. Umumiy xoslik darajasini aniqlashdan maqsad shuki, bu auditorga unga ma'lum bo'lgan

xo'jalik faoliyatiga taalluqli schyotlar qay darajada shu faoliyatga mosligini aniqlashda yordam beradi. Agar auditor ma'lumot va balans xos emas deb hisoblasa, shu holda u auditning bir necha bosh maqsadi yoki bittasiga e'tiborni qaratishi lozim bo'ladi.

Umumiy xoslik darajasini tekshirish, schyotlar bo'yicha qoldiqlar muhim xatoga moyilligi to'g'risida auditor tasavvur uyg'otishda yordam beradi. Shu kabi tekshirishlar auditning boshqa maqsadlarga erishish ehtimoli yuqoriligini aniqlashga ko'maklashib, faoliyatni rejalashtirish, aniq faktlar to'plashga yo'naltirilgan.

2. Kiritilgan summalar haqiqiyli - auditor moliyaviy hisobotda qayd etilgan summalar haqiqatda ham kiritilishi kerakligini aniqlaydi. Bu holda haqiqatda amalga oshirilmagan muomalani hisob registri va bosh kitobda aks ettirilishi xato hisoblanadi. Auditning bu maqsadiga erishish ma'muriyat tasdiqlarini tekshirish orqali amalga oshadi.

3. Tugallanish - hamma summalar kiritilgan. Bu maqsadda yuqoridagisining aksi, ya'ni moliyaviy hisobotga kiritilishi kerak bo'lgan summalar haqiqatda shu hisobotda aks ettirilganligi aniqlanadi. Auditor ikki maqsadni ko'zlaydi va erishishga harakat qiladi, demak u haqiqatda bo'lmagan muomalaning aks ettirilishi yoki haqiqatda bo'lgan muomalaning niqoblanishi holatlarini topish kerak.

4. Mulk huquqi - kiritilgan summalar bo'yicha tekshirish - Balans aktivining katta qismi nafaqat mavjud bo'lishi, balki kimlargadir tegishli bo'lishi kerak. Xuddi shu kabi majburiyatlar ham kimlargadir tegishli bo'lishi zarur. Shu maqsadda auditor huquq va majburiyatlar to'g'risidagi ma'muriyat tasdiqlarini tekshiradi.

5. Baholash - kiritilgan summalar to'g'ri baholangan - Umumiy balansning alohida jamlamalarini arifmetik tekshirishdan o'tkazish zarur. Ma'muriyat tasdiqlashlarini baholashdan farqli bunday baholash audit maqsadi uchun kamroq umumiydadir.

6. Korrespondentsiyalar va summalarning schyotlarda aks ettirilishining to'g'riligi - auditor summalarining schyotlar bo'yicha to'g'ri aks ettirilganligini va ularni moliyaviy hisobotda to'g'ri keltirilganligini tekshiradi. Schyotlar korrespondentsiyasi va ularni o'z vaqtida aks ettirilishini tekshirish bu asosiy maqsadga erishishdagi muhim bosqichdir.

7. Xo'jalik muomalalarini kiritish - xo'jalik muomalalarini vujudga kelish davrlari bo'yicha aks ettirilishi tekshiriladi. Ko'p hollarda hisobot davrining oxiriga yaqin amalga oshgan muomalalarni aks ettirishda chalkashliklar vujudga keladi. Bunday holatlar balans schyotlarini tekshirish jarayonida aniqlanadi.

8. Arifmetik aniqliklar - albatta, balans mijoz tomonidan tayyorlangan va tekshirilgan registrlar bosh kitob asosida tuziladi. Arifmetik tekshirish jarayonida balansning har bir moddasi bosh kitob jamlamalariga to'g'ri kelishi aniqlanadi. Ya'ni:

REGISTR = BOSH KITOB = BALANS

kabi tenglik doimo amal qilishi shart. Boshqacha qilib aytganda, sintetik hisobning analitik hisobga mosligi tekshiriladi.

Ochib berish - schyotlar va moliyaviy hisobot ma'lumotlarini ochib berish. Auditor balansning hamma moddalari va ular bilan bog'liq bo'lgan axborotlar moliyaviy hisobotda aniq ko'rsatilgan hamda to'g'ri ochib berilganligiga ishonch hosil qilishi kerak.

Asosiy maqsad aniqlangach, har bir moliyaviy hisobot va har bir schyot bo'yicha aniq maqsadlarni aniqlab olish mumkin. Agar auditor berilgan sharoitda ushbu maqsad muhim, degan xulosaga kelmasa, u holda har bir asosiy maqsad ichida oxirgi chora sifatida aniq maqsad bo'lishi kerak. Bitta asosiy maqsadga bir nechta aniq maqsadlar kirishi mumkin. Shunday qilib tovar-moddiy qiymatliklarini baholashda mulkchilik huquqi asosiy maqsadiga quyidagi aniq maqsadlar kiradi:

Barcha ko'rsatilgan tovar-moddiy qiymatliklar bo'yicha mulkchilik huquqiga kompaniya yoki korxonaning ega ekanligini tekshirish.

Tovar-moddiy qiymatliklarning garovda emasligini, agar bu narsa aniq ko'rsatilmagan bo'lsa, tekshirish.

Rezyume:

Auditning asosiy maqsadlari miqdori ma'muriyat tasdiqlari sonidan ko'p. Bu esa, auditor tomonidan guvohnomalar yig'ilishi kerakligi bilan tushuntiriladi. qanday guvohnomalarni yig'ish kerakligini auditorning o'zi hal qiladi.

3.2.12 Jadval

Tovar-moddiy qimmatliklar bo'yicha tasdiqlar va maqsadlar


Ma'muriyat tasdiqlari	Auditning asosiy maqsadlari	Tovar-moddiy qimmatliklari bo'yicha auditning aniq maqsadlari
	Maqsadning umumiy mazmuni	Umuman tovar-moddiy qimmatliklarni baholash mumkin hisoblanadi
Barcha boshqa maqsadlar		
Mavjudlik va paydo bo'lish	To'g'riligini tekshirish	Barcha tovar-moddiy qimmatliklar balans muddatiga mavjud
Tugallanish	Tugallanish	Barcha mavjud tovar-moddiy qimmatliklar yakunga kiritilgan va hisobga olingan
Huquq va majburiyatlar	Mulkchilikni tekshirish	Tekshirilayotgan korxonaning barcha ko'rsatilgan tovar-moddiy qimmatliklar bo'yicha egalik huquqi bor. Tovar-moddiy qimmatliklar garovga qo'yilmagan.
Baholash yoki joylashtirish	Baholash	Yakunga kiritilgan tovar-moddiy qiymatliklar haqiqatda mavjud. Tovar-moddiy qimmatliklarni baholash uchun foydalangan baholar barcha muomala-larda to'g'ri. Vaqt o'tishi bilan narxning o'sishi to'g'ri, barcha yakunlar to'g'ri
	Tasniflash	Tovar-moddiy qimmatliklarni xom-ashyo, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulotga taqsimlanishi to'g'ri
	Ajratish	Yil oxirida kirimlar hisobini tekshirish. Yil oxirida realizatsiya hajmini tekshirish.
	Arifmetik aniqlik	Tovar-moddiy qimmatliklarning jamlan-masi bosh kitob ma'lumotlariga mos.
Ochib berish va aks ettirish	Ochib berish	Tovar-moddiy qimmatliklarning asosiy gu-ruhlari va ularning manbai to'g'ri ochib berilgan. Barcha tovar-moddiy qimmatliklarning garovga qo'yilgani ham ochib berilgan.

Yuqoridagi 3.2.12 jadvalda tovar-moddiy qimmatliklarni baholash misolida ma'muriyat tasdiqlari bilan auditning asosiy va aniq maqsadlari o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rish mumkin.

Auditning maqsadlariga qanday erishiladi?

Moliyaviy hisobotning har bir elementi uchun auditning aniq maqsadlarni belgilab, haqqoniy ma'lumotlarni yig'ishni auditorning o'zi aniqlaydi. Audit uni tashkil qilishning ma'lum turdagi usullariga tayanib, auditorga etarli darajadagi ma'lumotlarni to'plashga yordam beradi. Audit qilish jarayoni to'rt bosqichdan iborat bo'lib, ular quyidagi 3.2.13 chizmada ko'rsatilgan.

Auditning to'rt bosqichi



3.2.13-chizma. Auditning to'rt bosqichi.

Auditorlik yondoshishni ishlab chiqish va rejalashtirish. Auditda auditor oldida turgan maqsadga erishishi uchun zarur ma'lumotlarni to'plashga ko'maklashuvchi ko'plab usullar mavjud. Auditor tekshirishga qanday yondoshishni ikki muhim tasavvurga asoslanib aniqlashi zarur:

1) auditor o'ziga mutaxassislik javobgarligini olishi uchun ishga taalluqli bo'lgan ma'lumotlarni etarli miqdorda to'plashi zarur;

2) va bundan tashqari, to'plangan ma'lumotlar qiymati minimal darajada bo'lishi lozim. Birinchi shart ko'proq muhim, lekin auditorlik firmasi raqobatga layoqatli va daromad keltirishni istasa, ikkinchi shart ham zarurdir. Agar muhim zarurat mavjud bo'lmasa, auditorlik ma'lumotlarining qiymatini tekshirish qiyin bo'lmaydi. Bu holatda auditorlar muhim noaniqliklar yo'qligiga ishonch hosil qilgunlariga qadar (samaradorlik haqida qayg'urmasdan), bir ma'lumotga ikkinchisini qo'shib borishadi.

Auditorlik ma'lumotlarining mavjudligi va minimal qiymati to'g'risida o'ylash ishni rejalashtirish zarurligini shart qilib qo'yadi. Audit rejasini ishlab chiqish va rejalashtirish bir nechta bosqichlarga bo'linishi mumkin. Ulardan ikkitasini biz hozir ko'rib chiqamiz.

1. Mijoz faoliyatiga doir ma'lumotlarni to'plash. Audit natijasida olingan ma'lumotlarning ahamiyatini to'g'ri sharhlash uchun mijoz faoliyati va uning tarmoqlari xususiyatini tushunish zarur. Moliyaviy hisobot u yoki bu faoliyatning o'ziga xos jihatlari aks ettiradi. Masalan, sug'urta faoliyati auditini, bu faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini to'la tushunmay turib, aniq bajarib bo'lmaydi. Qurilish bilan shug'ullanuvchi mijoz auditini, qurilish xususiyatlarini bilmay turib, tasavvur qilib bo'lmaydi.

2. Ichki xo'jalik nazorat tizimi bilan tanishish va nazorat tavakkalchiligini baholash. Yuqorida aytib o'tilganidek, mijozning ichki xo'jalik nazorat tizimi aktivlar va hisob yozuvlarining saqlanishini ta'minlab, ishonchli moliyaviy ma'lumot berishi mumkin. Bu esa audit nazariyasi va amaliyotida birgalikda qo'llaniladigan asosiy kontseptsiyalardan biri hisoblanadi. Agar mijozning ichki xo'jalik nazorat tizimi yuqori darajada bo'lsa, u holda nazorat tavakkalchiligi oz bo'ladi, auditorlik ma'lumotlar miqdori esa ichki xo'jalik nazorati zaifdagiga nisbatan kam bo'lishi mumkin.

Auditning umumiy qabul qilingan andozalari auditorning rejalashtirish va auditorlik ma'lumotlarni to'plashi uchun ichki xo'jalik nazorati tizimini tushunishi lozimligini talab qiladi. Bu talabga esa tashkiliy tuzilmani o'rganish, mijozning instruktiv-metodik qo'llanmalarini o'rganish, mijoz kompaniya xodimlari bilan suhbatlar o'tkazib, anketalar va hujjatlar aylanmasining blok-sxemasini tuzish hamda mijoz faoliyatini kuzatib javob berish mumkin.

Ichki xo'jalik nazorat tizimini tamoman tushungach, auditor xatolarning oldini olishi, topishi va normadan og'ishini baholaydi. Bunday baholash nazoratning aniq vaqtlarini aniqlashni o'z ichiga oladi. Bu vaqtlar esa xatolar va normadan og'ishlar vujudga kelishi ehtimolini pasaytiradi, lekin xatolar topilmaydi va o'z vaqtida to'g'rilanmaydi. Bu muolaja nazorat tavakkalchiligini baholash deyiladi.

Nazorat vaqtlarini testdan o'tkazish va xo'jalik muomalalarini tekshirish. Auditor fikriga ko'ra, nazorat tavakkalchiligi ahamiyatsiz bo'lsa, u holda nazorat vaqtlariga bevosita taalluqli bo'lgan moliyaviy hisobot ma'lumotlarining aniqligiga ishonchsizligi kamayishi mumkin, boshqacha qilib aytganda, uni auditorlik ma'lumotlarni yig'ish yo'li bilan tekshirish kerak bo'ladi. Lekin, nazorat tavakkalchiligi ahamiyatsiz ekanligi haqidagi fikrini asoslab berish uchun, auditor nazorat vaqtlarining samaradorlik darajasini tekshirishi lozim. Bunday tekshirishda qo'llaniladigan muolajalarni - nazorat vaqtlarini testdan o'tkazish deyiladi.

Asosan nazorat vaqtlarini testdan o'tkazish, xo'jalik muolajalarini tasdiqlovchi birlamchi hujjatlarni tekshirishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, auditorlar tomonidan to'planadigan ma'lumotlarning asosiy qismi xo'jalik muomalalariga taalluqli bo'lgan hujjatlardir. Odatda, har safar xo'jalik muomalalari bo'yicha hujjatlarni maqsadlarning biri yoki ikkala maqsad nuqtai nazaridan o'rganilganda, xo'jalik muomalalarini tekshirish haqida gap boradi.

Balans moddalarini tekshirish.

Balans hamda foyda va zarar to'g'risidagi hisobotning yakuniy jamlanmalari bilan bog'liq aniq maqsadlarga turli xil auditorlik ma'lumotlar to'plash jarayonida erishiladi. Misol tariqasida, debitorlik qarzlari haqida bevosita xodimlarning yozma so'rovnomasini, tovar-moddiy qimmatliklarni inventarizatsiya qilish materiallarini o'rganishni ko'rsatish mumkin. Yakuniy balanslarni bunday tekshirish auditda zarurdir, chunki ma'lumotlarning ko'p qismi mijozga bog'liq bo'lmagan manbalardan kelib tushib, o'z navbatida, bu manbalarni ishonchli, deb hisoblash mumkin.

Mijozning ichki nazorat tizimini tushunish va mijozning faoliyat darajasini umumiy baholash bilan nazorat tavakkalchiligini baholash hamda moliyaviy hisobotni tashkil qiluvchi balansning alohida moddalarini tekshirish o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Agar auditor, moliyaviy hisobotning etarli darajada ob'ektivligiga shubhasi bo'lmasa va uning ishonchi ichki xo'jalik nazorat tizimini tushunishiga, nazorat tavakkalchiligini baholashga, nazorat vaqtlarini testdan o'tkazishga asoslangan bo'lsa, u holda balansning alohida moddalarini tekshirishni qisqartirishi mumkin. Biroq, moliyaviy hisobotning (balansning belgilangan moddalarini) ba'zi tekshirishlarni barcha hollarda o'tkazish lozim.

Auditni tugallash va xulosa chiqarish.

Auditor tomonidan barcha muolajalar tugallanganidan so'ng moliyaviy hisobot etarli darajada ob'ektiv tuzilmaganligi to'g'risidagi umumiy xulosaga kelish uchun, olingan ma'lumotlarni birlashtirish zarur. Bu yuqori darajadagi sub'ektiv jarayon bo'lib, auditorning to'g'ri mutaxassislik fikrlash qobiliyatiga asoslanadi. Amaliyotda auditor to'plagan va olingan ma'lumotlarni beto'xtov solishtiradi. Yakuniy umumlashtirish - shning bajarilganligi to'g'risidagi oxirgi xulosadir. Shundan so'ng auditor auditorlik xulosasini taqdim qilib, bu xulosa mijozning nashr qilinadigan moliyaviy hisobotga

qo'shimcha qilinadi. Bu xulosa aniq belgilangan talablarga javob berishi lozim. Bunday auditorlik xulosalarini biz 2-bobda batafsil yoritgan edik.

3.3. Ichki nazorat tizimini baholash

Barcha korxonalar uchun sifatli va doimiy nazorat zarur. Nazoratning yo'lga qo'yilgan tizimi ish faoliyati davomida yuzaga keladigan xatolarga to'sqinlik qilishi va shundan kelib chiqib noto'g'ri, foydasiz echimlarni qabul qilish va zararlar kelib chiqishining oldini olishi mumkin.

Ko'pchilik mutaxassislar fikricha, ichki nazorat tizimi qachonki korxonada ichki nazorat ichki audit xizmati tomonidan amalga oshirilsagina, yaxshi ishlaydi va aksincha taftish komissiyasiga yuklatilganda yomon ishlaydi. Boshqa mutaxassislar esa - ichki audit - bu ichki nazorat tizimining bir bo'g'ini, deb hisoblaydilar.

Ichki nazorat - doimiy, kundalik faoliyat bo'lib, o'z navbatida, buxgalteriya hisobini to'g'ri olib borish, korxonada resurslaridan boshqarma rejalariga mos ravishda foydalanish imkonini beradi.

Bizning fikrimizcha, yaxshi tashkil qilingan ichki nazorat tizimini quyidagilar ta'riflab berishi mumkin:

- ma'lumotlar to'plash tizimi mavjud xatolarni o'z vaqtida aniqlash imkonini beradi;
- javobgarlikning amaldagi tizimi korxonada xodimlariga har qanday shartnomani boshidan oxirigacha yakka o'zi, ya'ni o'zboshimchalik bilan amalga oshirishiga yo'l qo'yilmaydi;
- har qanday muomalalarni kelishtirish tizimi mavjud;
- qimmatliklar va asosiy vositalarni ro'yxatdan o'tkazish doimo olib boriladi;
- buxgalteriya hisoboti va rejadani og'ishlar tahlil qilinadi.

Ichki nazorat tuzilishi turlicha bo'lib, u korxonaning faoliyati ko'lamidan, EHM bilan ta'minlanganlik darajasidan, rahbariyatning shaxsiy nazoratni amalga oshirish imkoniyatidan hamda ko'plab boshqa sabablarga bog'liq bo'ladi.

Ichki nazorat tizimini baholashda auditor ikkita asosiy omildan kelib chiqadi:

1. Ichki nazorat maqsadidan, ya'ni buxgalteriya hisobotining haqqoniy va ob'ektivligini ta'minlashdan;
2. Auditorlik xulosalarining tahliliy qismida ichki nazorat holati ekspertizasining natijalarini ko'rsatish zarurligidan.

Korxonada ichki nazorat tizimini baholashdan asosiy maqsad - auditorlik dasturida o'z ko'rinishini topadigan auditni rejalashtirish hamda auditorlik muolajalarining turini, o'tkazish vaqtini va ko'lamini aniqlash uchun asos yaratishdir.

Auditorlik dasturi qilinishi lozim bo'lgan ishlarning aniq tasavvuriga ega bo'ladi.

Auditorlik dasturi - moliyaviy hisobotda mavjud ma'lumotlarning haqqoniyligini tasdiqlashga qaratilgan muolajalar majmuini o'zida aks ettiradi. Har bir muolaja uchun uning turi, o'tkazish vaqti va ko'lamini aniqlangan bo'lib, ular moliyaviy hisobotning bir yoki bir necha ko'rsatkichlari bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Auditorlik muolajalarining ettita asosiy turi mavjud: qayta baholash, kuzatish, tasdiqlash, og'zaki so'rov, hujjatlarni tekshirish, skanerlash va tahliliy muolajalar. Muolajalarni o'tkazish vaqti turlicha bo'lishi mumkin: balans tuzilguncha yoki balans tuzilgan sanadan so'ng. Muolajalar ko'lamini esa bu muolajalarni amalga oshirish jarayonida bajarilishi lozim bo'lgan ishlar miqdoriga bog'liq bo'ladi.

Ichki nazorat tizimini baholashdan yana bir maqsad shuki, tizimni takomillashtirishga qaratilgan tavsiyanomalar ishlab chiqishdir.

Ichki nazorat tuzilmasi uchta tashkiliy muhitga bo'lingan:

- nazorat muhiti - korxonada nazorat uchun qulay sharoit yaratadigan o'zaro munosabatlarni aniqlovchi tavsiyanomalar yig'indisi;
- korxonada hisob tizimi - xo'jalik muolajalariga muvofiq yozuvlarga taalluqli muolajalar va siyosat;
- nazorat muolajalari - korxonada xodimlari tomonidan amalga oshiriladigan maxsus tekshirishlar.

Bu uchta bo'g'in o'zaro bog'liqlikda ma'lumotlar bo'yicha xatolarning oldini olib, ularni aniqlash va buzib ko'rsatilganini to'g'rilashni ta'minlaydi.

Nazorat muhitini, o'z navbatida, quyidagi bo'g'inlarga ajratish mumkin:

- boshqarish uslubi va siyosati;
- korxonaning tashkiliy tuzilmasi;
- auditorlik qo'mitasining faoliyati;
- boshqarish funktsiyalari va javobgarlikni taqsimlash uslubi;
- ichki auditning uslubi;
- xodimlar bo'yicha siyosat va amaliyot;
- tashqi ta'sirlar, masalan bank yoki soliq idorasi tomonidan tekshirishlar.

Korxonalar ichki nazorat tizimining asosiy xususiyati nazorat funktsiyalarini amalga oshiruvchi xodimlarning yuqori malakaliligi bilan belgilanadi. Korxonaning xodimlari bo'yicha muammosi ichki nazorat tizimida ham o'z aksini topadi. Masalan, agar hisobotchilar tez-tez almashtirib turilsa, hisob funktsiyasi va o'z navbatida, uning nazorati bu sohada etarli tajriba va bilimga ega bo'lmagan xodimlar tomonidan amalga oshirilib, shu bilan birga ko'plab xatolarga yo'l qo'yilishiga olib keladi. Yangi tayinlangan boshliq va mansabdor shaxslar ko'pincha korxonaning buxgalteriya hisobi tizimi bilan etarli darajada tanish bo'lmaganlari sababli, texnik va boshqa xatolarga yo'l qo'yishlari mumkin. Ba'zan buxgalteriya xodimlari yuqori boshqaruv zvenosi tomonidan belgilangan hisobotning qo'pol xatoli muolajalariga amal qilishni istamaganliklari tufayli ishdan bo'shashga majbur bo'ladilar. Shu sababli biz, buxgalteriya xodimlarining tez-tez almashib turishini xatarli omil, deb hisoblaymiz.

Ichki nazorat tizimining samarali bo'lishi uchun funktsional javobgarlik yoki majburiyatlarning to'g'ri taqsimlanishi juda muhimdir. Bu nazorat muolajalarining samaraliligi uchun zarur shart hisoblanadi. Ularga quyidagilar kiradi:

- xo'jalik muomalalarini sanktsiyalash. Bu majburiyatni xo'jalik muomalalarining yozuvini yuritish huquqiga ega bo'lgan xodimlarga bajaradilar;
- xo'jalik muomalalarini qayd etish, ko'plab korxonalarda muomalalar hisobi va qayd etilishi (hisobot yuritish) asosan kompyuter tizimida bajariladi;
- xo'jalik muomalalarini yuritishda aktivlar saqlanishini ta'minlash. Bu erda korxonaga qarashli aktivlar ustidan nazorat tushuniladi;
- mavjud aktivlar summasini schyotlardagi yozuvlar bilan davriy solishtirish. Bunda doimiy inventarizatsiya va agar farq aniqlanadigan bo'lsa, chora ko'rish nazarda tutiladi.

Majburiyatlar zidligi - bu ularning shunday kombinatsiyasiki, bunda xatoga yo'l qo'ygan yoki axborotni buzib ko'rsatgan xodim, o'z faoliyatida bu haqiqatni berkitishi mumkin. Majburiyatlar shunday taqsimlanishi kerakki, xodimlardan hech biri ikki yoki undan ortiq yuqorida ko'rsatilgan to'rt vazifalarni bajarmasliklari kerak.

Bu vazifalardan birinchi va to'rtinchisi - boshqaruvchilik hisoblansa, ikkinchisi - hisobchilik, uchinchisi esa saqlash funktsiyasi hisoblanadi.

Bu funktsiyalarning turli bo'lim va xodimlar o'rtasida taqsimlanishi ikkita ustunlikka egadir:

- 1) xarajatlarni muvofiqlashtirish, ya'ni aynan bir xo'jalik muomalasini turli nuqtai nazardan ko'rib chiqish hisobiga bexosdan qilingan xatolarni topish va tuzatish;
- 2) ma'lumotni ataylab buzib ko'rsatish qiyin, chunki bu o'z navbatida, ikki yoki ko'proq xodimning til biriktirishini talab qiladi.

Buxgalteriya hisobi tizimida xo'jalik muomalalari to'g'risidagi ma'lumotlar qayta ishlanib, ular bosh kitob va jurnallarda qayd qilingach, moliyaviy hisobot tuziladi. Bu erda 100% aniqlik bo'lmasa ham, shunga qaramay hisob siyosati va muolajalari nazorat tizimining muhim elementlarini tashkil qiladilar. Masalan, schyot-faktura faqatgina mahsulot ortib berilgandan so'ng yoziladi - bu esa nazorat muolajasining bir qismi ham hisoblanadi.

Nazorat muolajalari - bu buxgalteriya hisobi tizimida ma'lumotlarni buzib ko'rsatish, xatolarni topish, tuzatish va ularning oldini olishga qaratilgan muolajalardir. Masalan, yuqorida ko'rsatilgan muomalaning nazorat muolajasi quyidagicha bo'ladi: «har kunning oxirida nazoratchi har bir hisobga nakladnoy nusxasi borligiga ishonch hosil qilishi uchun barcha schyot-fakturalarni birma-bir ko'rib chiqadi».

Nazorat nuqtai nazaridan, hisob tizimi uchun minimal talablar quyidagilarni o'z ichiga oladi: schyotlar rejasi hamda xo'jalik muomalalarining tasnifiga taalluqli bo'lgan ba'zi yozma aniqliklar va qo'llanmalar. Bunday materiallar kompyuter tizimida, dasturlarda, turli qo'llanmalarda, hisob ma'lumotlarini qayta ishlovchi blok-sxemalarda va boshqa hujjatlarda bo'lishi mumkin. Korxonaning ichki auditorlari va axborotni qayta ishlash tizimi uchun javobgar xodim bu hujjatlarni tez-tez ko'rib chiqib, baholaydilar. Tashqi auditor esa bu vazifani qaytadan bajarish o'rniga, bu faoliyat natijalarini o'rganib chiqishi mumkin.

Buxgalteriya hisobi bo'yicha qo'llanmada hisobning maqsadlari, siyosati qayd etilgan va hisob muolajalari aks etgan bo'lishi kerak. Menejerlar nazoratning o'ziga xos yo'nalishlarini belgilab, unga mos muolajalarning o'tkazilishini ta'minlashlari zarur. Nazorat yo'nalishlari qismlarga bo'lingan va o'ziga xos bo'lishi mumkin. Buni biz quyidagi 3.3.13 jadvalda ko'rib chiqamiz.

3.3.13 Jadval

Nazoratning yo'nalishlari

№	Nazorat yo'nalishlari	Umumiy	Aniq misol
1	2	3	4
1.	Haqiqiylik	Qayd etilgan muomalalar haqiqiy va berilgan hujjatlar bilan tasdiqlangan	Kayd etilgan oldi-sotdi, mijoz buyurtmasi, ortilganlik hujjati va schyot-faktura bilan tasdiqlangan
2.	To'liqlik	Barcha haqiqatda amalga oshirilgan muomalalar hech biri qoldirilmasdan qayd etilgan	Barcha yuklash hujjatlari nomerlanib, hisob-fakturalarga ilova qilingan
3.	Ruxsat olganlik	Barcha muomalalar korxonaga siyosatiga mos ravishda echim topgan	1000\$ dan yuqori summadagi kreditga amalga oshirilgan savdo oldindan kredit bo'yicha menedjer ruxsatiga ega
4.	Aniqlik	Barcha summalar kerakli darajada hisoblab chiqilgan	Schyot-fakturalarda miqdorlar to'g'ri aks ettirilgan, arifmetik xatolar yo'q
5.	Tasniflash	Muomalalar mos schyotlarda olib borilgan	Filiallar tomonidan amalga oshirilgan savdolar korxonaning ichki muomalalaridek tasniflangan
6.	Hisob yuritish	Muomalalar hisobini yuritish tugallangan	Barcha kreditga amalga oshirilgan savdolar mos buyurtmachilar hisobiga olib borilgan
7.	Davriylashtirish	Muomalalar mos davrlarda aks ettirilgan	Joriy davr savdolari joriy davrda aks etgan, keyingi davr savdolari esa keyingi davrda aks ettirilgan

Shunday qilib, barcha xo'jalik muomalalari ettita asosiy yo'nalish bo'yicha nazorat qilinishi lozim. Haqiqiylik - bu erda nazorat muolajalarini muomalalar haqiqatdan ham qayd etilganligini tekshirish uchun qo'llaniladi. Bu muolaja hujjatlar bilan tasdiqlanmagan oldi-sotdi muomalasi qayd etilishining oldini olishni nazarda tutadi.

To'liqlik. Nazorat muolajasi vositasida haqiqatda amalga oshirilgan xo'jalik muomalalari qayd qilinmay qoldirib ketilganligi tekshiriladi. Agar mahsulot yuklangan bo'lsa, u holda yuklanganlik haqidagi barcha hujjat schyot-faktura bilan solishtiriladi. Muomalani tasdiqlovchi hujjatlar ko'pincha nomerlangan bo'ladi. Nomerlar ketma-ketligining hisobi esa - nazoratning yana bir mos muolajasidir.

Ruxsat olinganlik - nazorat muolajalari yordamida xo'jalik muomalalarining hisobga olinishidan oldin ruxsatga ega ekanligi tekshiriladi. Menejerlar muomalalarning boshqarma tomonidan ruxsat etilganligi va hisob tizimida muomalalar

qayd etilishining aniq mezonlarini belgilashlari zarur. Nazorat tizimi hisob tizimida ruxsatsiz muomalalarning qayd etilishining oldini olishga qaratilgan.

Aniqlik - yozilgan summalarning to'g'ri hisoblanib chiqilganligini tekshirishga qaratilgan nazorat muolajalari qo'llaniladi. Yukxatda aks ettirilgan ortilgan mahsulot miqdori, donasining bahosi va jami summaning to'g'riligini tekshirish - bunday nazorat muolajasiga misol bo'la oladi.

Tasniflash - muomalalarning mos schyotlarda olib borilganligini tekshirishga qaratilgan muolajalar qo'llaniladi. Tasniflashni ba'zida aniqlik bilan chalkashtirishadi, biroq ularning farqi shundaki, aniqlik faqatgina yozilgan summalar to'g'riligiga taalluqlidir.

Hisob yuritish - bu yo'nalish berilgan muomalaning hisobga olish jarayoni to'liq tugallanganligi va u umumqabul qilingan buxgalteriya andozalariga mosligini tekshirishga qaratilgan nazorat muolajalaridan tashkil topadi.

Davriylashtirish - bu yo'nalish muomalalarning amalga oshirilgan davrida hisobga olinib, qayd etilganligini tekshirishni nazarda tutadi.

Shunday qilib, yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagicha xulosaga keldik:

Nazorat amalga oshirilayotgan sharoit boshqaruvning mos tizimi mavjudligini o'z ichiga oladi. Bu tizim yuqori malakali xodimlar bilan, tashkilot faoliyatini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar bilan ta'minlangan bo'lsa va xodimlar o'rtasida majburiyat hamda javobgarliklarning taqsimlanishini, nazorat talablarining buzilishiga qarshi tura olishni nazarda tutsagina, samarali hisoblanilishi mumkin. Quyidagi funktsiyalarni taqsimlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- korxonada va tashkilot aktivlaridan bevosita foydalanish;
- aktivlar bilan amalga oshiriladigan muomalalar uchun ruxsat berish;
- xo'jalik muomalalarini amalga oshirish;
- xo'jalik muomalalarini yuritish.

Buxgalteriya hisobi tizimi o'z ichiga korxonada xo'jalik muomalalarini to'plash, tahlil qilish va hujjatlashtirishni olganligi sababli, bizning fikrimizcha quyidagi talablarga javob bersa, samarali bo'ladi:

- hisob yuritishda muomalalar ular amalga oshirilgan davrni to'g'ri aks ettirsa;
- hisob yuritishda muomalalar aniq summalarda qayd etilsa;
- hisob siyosatiga mos ravishda muomalalar buxgalteriya hisobining schyotlarida to'g'ri aks ettirilsa;
- hisob va hisobot uchun ahamiyatli bo'lgan barcha muomalalar qayd etilsa;
- mansabdor va javobgar shaxslar tomonidan o'ylab qilingan suiiste'molchiliklarning imkoni cheklangan bo'lsa.

Nazoratning tadbirlar tizimi:

- xo'jalik muomalalarini korxonaning ma'muriyati tomonidan qo'llab-quvvatlanganidan so'ngina amalga oshirish;
- barcha muomalalarni buxgalteriya hisobida to'g'ri va aniq summalarda tegishli bank hisob schyotlarida, kerakli vaqt davrida, hisob siyosatiga mos holda qayd etish;
- ma'muriyat ruxsatsiz korxonada aktivlaridan foydalanishning cheklanganligi;
- buxgalteriya hisobida qayd etilgan aktivlarning haqiqatda mavjudligi bilan mos kelishiga qaratilgan muolajalarni nazarda tutadi.

Bunday muolajalar:

- hisob yozuvlarining to'g'riligini arifmetik tekshirish;
- hisob-kitoblarni solishtirish;
- hujjatlar aylanishining amalga oshirilishi to'g'riligini va rahbar xodimlarda ruxsat beruvchi yozuvlarining mavjudligini tekshirish;
- doimiy ravishda reja asosida yoki bexosdan kassa pul mablag'lari, qat'iy hisobda turuvchi blanklar, qimmatli qog'ozlar va tovar-moddiy boyliklarning buxgalteriya hisobidagi ma'lumotlar va haqiqatdagi mavjudligi bilan mosligini tekshirish;

- nazorat maqsadi uchun iqtisodiy sub'ektdan tashqari joylashgan manbalarning ma'lumotlaridan foydalanish;
 - xo'jalik ko'rsatkichlarini rejadagi va haqiqatdagisi bilan solishtirish, agar muhim farq bo'lsa, uning sababini aniqlash bo'lishi mumkin.

Agar auditor ichki nazoratning barcha muolajalari amalga oshirilayotganligiga ishonch hosil qilsa ham, u ichki nazorat qay maqsadda tashkil qilingan bo'lsa, o'sha maqsadga erishildi deb, hech qaysi bir tizim haqida tasdiqlay olmaydi. Chunki buning bir qancha sabablari bor:

- nazoratni ta'minlash uchun qilingan xarajatlarning undan olinadigan iqtisodiy samaradan yuqoriligining maqsadga muvofiqligi;
 - xodimlarning qo'llanmalarini tushunmasliklari;
- korxonada xodimlarining o'zaro til biriktirishi; rahbariyatning o'z manfaati yo'lida amaldan foydalanishi va shu kabilar.

Ichki nazorat tizimini baholash hamda unga suyanish mumkin yoki yo'qligini hal qilish uchun auditor mos uslub va usullardan foydalanishi lozim. Bularga maxsus tekshiruv qog'ozlari va testlari, blok-sxemalari, korxonada mutaxassislar uchun savollar va boshqalar kirishi mumkin. Auditor quyidagicha nazorat qog'ozini yuritishi mumkin.

Ichki nazoratni baholash

Mijoz

Auditorlik tekshirish o'tkazilgan vaqti

So'roqlangan xodimlar

Auditor (F.I.Sh.)

To'lg'azgan vaqti

Tekshirildi

Tekshirilgan vaqti

Savollar	Javoblar		Ilova
	Yo'q	Ha	
Nazorat muhiti			
1. Kredit bo'limi marketing bo'limiga bog'liqmi?			
2. Quyida ko'rsatilgan savdo turlarining nazorati uchun bir xil muolaja qo'llaniladimi: xodimlarga sotish; kreditga sotish; mol-mulkni sotish; naqd pulga sotish?			
3. Xodimlarga moliyaviy siyosat va ichki nazorat muolajalarini o'z vaqtida etkazish yo'lga qo'yilganmi?			
4. Korxonra rahbariyati tomonidan ichki nazorat tizimini tekshirish amalga oshiriladi?			
Hisob va hisobot			
1. Jurnallardagi jami summalar bosh kitobga kiritilgunga qadar tekshiriladimi?			
2. Xodimlarning kasalligi yoki ta'tildaligi sababli yo'qligida majburiyatlar taqsimlanishiga amal qilinadimi?			
3. Hisobot topshiriq grafigiga amal qilinadimi?			
4. Hisob siyosatiga oid buyruq mavjudmi?			
Haqiqiylik			
1. Hisob-faktura blankasiga kirish chegaralanganmi?			
2. Nakladnoylar yoki boshqa yuklab borilganlik to'g'risidagi hujjatlar nomerlab olib boriladimi?			
Muomalalarni qayd etishning to'liqligi			
1. Schyot-faktura blankasi nomerlanadimi?			
2. Yo'qolgan nakladnoylarni topish maqsadida hujjatlar nomerining ketma-ketligi tekshiriladimi?			
Qayd etishning to'g'riligi			
1. Yuklangan miqdor schyot-fakturada aks ettirilgan miqdor bilan taqqoslanadimi?			
2. Statistika tahlil yoki mahsulot assortimenti bo'yicha tahlil yo'li bilan ma'lum davrdagi savdolar haqidagi ma'lumotlar tekshiriladimi?			
3. Debitorlik qarzlardan qat'iy nazar davrdagi savdolar to'g'risidagi ma'lumotlar bevosita bosh kitobga kiritiladimi?			
Muomalalarni tasniflash			
1. Savdolar tasnifi haqidagi nizom buxgalteriya yo'riqnomalarida mavjudmi?			
Davriylashtirish			
1. Schyot-fakturalar ortilgan sana bilan qayd etilishi lozimligi haqidagi nizom buxgalteriya yo'riqnomalarida mavjudmi?			
2. Quyidagi mezonlar xodimlarning malaka darajasini aks ettirishi mumkinmi: kamdan-kam ichki xatolar, rahbariyat aralashuvini talab qiluvchi xatolar miqdorining kamligi, avvalgi yillarda o'tkazilgan tekshirishlarda kiritilgan auditorlik tuzatishlarining past foizi.			

Shunday qilib, ichki nazorat tizimini baholash muolajalarini amalga oshirgandan so'nggina auditor uning ishonchligi xususida qaror qabul qiladi va mos auditorlik muolajalarini rejalashtirish imkoniga ega bo'ladi.

IV BOB. AUDITNI AVTOMATLASH TIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Hozirgi kunda ko'pchilik iqtisodiy sub'ektlar buxgalteriya va TMB hisobini yuritishda turli xildagi kompyuter tizimini qo'llashmoqda. Buxgalteriya hisobida kompyuterlarning qo'llanilishi, o'z navbatida:

- a) hisob-kitoblarning vaqtida o'tkazilishini ta'minlaydi;
- b) operativ boshqaruv ma'lumotlarini olishni tezlashtiradi;
- v) moliyaviy tahlil imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tashqi mustaqil va ichki audit ma'lumotlarini kompyuterni qo'llash orqali tahlil qilganda o'zining maqsadi va vazifalarini o'zgartirishsiz saqlaydi.

Oddiy hamda kompyuterlashtirilgan buxgalteriyani tekshirish metodikasi o'rtasidagi farqni aniqlash, korxonalaridagi kompyuter tizimidagi hisobini audit qilish metodi va aniq usulini topish, rejalashtirish metodikasini ishlab chiqish zarur.

Ushbu mavzuning dolzarbligi, kompyuter tizimlari auditining ishlab chiqilmaganligidan kelib chiqadi. Buxgalteriya hisobi uchun yaratilayotgan dasturlarning shiddat bilan rivojlanishiga qaramay, oxirgi paytda chop etilgan adabiyotlarda yuqoridagi mavzu umuman ko'tarilmagan.

Bu bo'limda biz kompyuter tizimida ishlashning ichki tekshirishini tashkil qilish bo'yicha nazariy ko'rsatmalar berishga harakat qilamiz.

4.1. Kompyuter tizimi muhitida auditorlik nazorati

Kompyuter tizimini audit qilish metodikasi, uning kompyuter tizimi ishlarining samaradorligini baholash uchun qo'llanilishi, ichki nazoratni takomillashtirish uchun aniq ko'rsatmalar ishlab chiqish tadqiqot predmeti uchun asos qilib olindi.

Olingan natijalarni davlat va nodavlat korxonalaridagi kompyuterlashtirilgan hisobni audit qilishni rejalashtirishda qo'llash mumkin.

Mavzuning bugungi kundagi holati.

Bugungi kunga kelib auditorlik standartlari bo'yicha xalqaro qo'mita tomonidan 33 ta standart ishlab chiqilgan. Bu standartlarni auditorlar faoliyatini nazorat qilishning milliy andozalari uchun qo'llash taklif qilinadi. Ulardan 3 tasi aynan kompyuter tizimida tekshirish o'tkazishga tegishli:

2.12. Auditning kompyuterli metodi.

2.11. Ma'lumotlarni elektron tahlil qilish sharoitida audit o'tkazish.

2.16. Ma'lumotlarni elektron tahlil qilishning hisob tizimini baholash va ichki nazoratga ta'siri.

Asosan yirik korxonalarda majburiy auditorlik tekshirishi o'tkaziladi. Ish yuritishning hozirgi sharoitida buxgalteriya hisobining kompyuter tizimini qo'llamay olib borishning iloji yo'q. Turli firma va xo'jalik sub'ektlarida hisob yuritish tizimida avtomatlashtirishni qo'llash o'ziga xos ko'rinishga ega bo'ladi. Masalan, kompyuterni oddiy kalkulyator sifatida qo'llashdan, to hisobni butunlay avtomatlashtirish uchun yuqori darajadagi kompyuter tizimini yaratishgacha. Bugungi kunga kelib bir-biridan farq qiluvchi juda ko'plab buxgalteriya dasturlari paketlari mavjud.

Kompyuterlar qo'llanilgan buxgalteriya hisobi «qo'lda» yuritilgan buxgalteriya hisobidan farq qilgani kabi, kompyuter tizimi muhitidagi audit ham «qog'ozli» buxgalteriyadan farq qiladi.

Korxonalarda hisobning kompyuter tizimi mavjudligi audit qilish usuliga o'z ta'sirini o'tkazadi. Auditorlik andozalarning 2.5. «Auditorlik isbotlari» loyihasiga ko'ra, auditorlar tekshirish o'tkazish jarayonida oddiy buxgalteriya hisobi yuritishda bo'lgani kabi kompyuterli buxgalteriya hisobi yuritishda ham bir xil bo'lgan quyidagi muolajalarini qo'llashlari lozim:

- mijozning turli aktivlarini inventarizatsiya qilishda ishtirok etish yoki kuzatish;

- uchinchi tomondan mijoz hisob raqamlaridagi qoldiqlarining, hisobotning ma'lum bir bo'limlari buyicha haqqoniyligini va xo'jalik operatsiyalarining to'g'riligini tasdiqlovchi ma'lumotlarni yozma ravishda olish;

- mijozning uchinchi shaxslardan olgan hujjatlarini tekshirish.

Tekshirish o'tkazish uslubida asosiy farqlar quyidagi muolajalarda kuzatiladi:

- korxonalar rahbari va ishchilarni og'zaki so'rovdan o'tkazish. So'rov natijalariga tayanib, auditorlik tekshirishi rejalashtiriladi.

- mijozning arifmetik hisoblarini tekshirish.

- ba'zi-bir xo'jalik va buxgalterlik operatsiyalarining bajarilishini kuzatish.

Kompyuter tizimi auditning asosiy maqsadi - bu kompyuter tizimini buxgalteriya hisobining bir bo'g'ini sifatida qarab, shu asosida ma'lumotlar yig'ish va ularga ob'ektiv baho berishdir.

Hozirgi zamon auditorlariga asosan kompyuterlashtirilgan buxgalteriya hisobi bilan ish yuritishga to'g'ri keladi. Ma'lumotlarni tahlil qilishning xarajat talab qilishi, kompyuter xizmatlari ko'rsatish markazlarining rivojlanishi, va nihoyat, qimmat bo'lmagan mikrokompyuterlarning paydo bo'lishi, hatto kichik ish yurituvchilar tomonidan ham ma'lumotlarni olib keladi.

Kompyuter tizimining keng tarqalishi auditda «Kompyuter muhitida audit» hamda «Kompyuterli audit» degan sohalarning paydo bo'lishiga olib keldi. Quyida biz kompyuter tizimi muhitida auditorlik nazorati uslubiyotini ishlab chiqish ustida to'xtalamiz. Bu mavzu audit sohasida AQShda taniqli bo'lgan, Texas shtatidagi Ostin universiteti professori Dj.Robertsonning «Audit» nomli monografiyasida to'la yoritilgan.

Dj.Robertsonning tasdiqlashicha, kompyuter tizimi auditning 3 ta aspektiga o'z ta'sirini ko'rsatadi:

- Rejalashtirish;

- Ichki nazorat tizimini o'rganish;

- Nazorat tizimi, xo'jalik operatsiyalarining bo'laklari, hisob schetlaridagi qoldiqlar to'g'risidagi haqqoniy ma'lumotlarni yig'ish.

Mana shu tartibda biz auditorlik tekshirish o'tkazishning xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

Uslubiyotni ishlab chiqish jarayonida biz quyidagi savollarni aniqlab olishimiz zarur:

- buxgalteriya hisobini avtomatlashtirilgan va avtomatlashtirilmagan tizimida yuritish orqali;

- kompyuterlashtirilgan muhitda audit tekshirish o'tkazishni rejalashtirishda hisobga olinadigan qo'shimcha omillarning mavjudligi;

- nazoratning umumiy va ustama uslublari o'rtasidagi farq;

- nazoratning nosamaradorligini baholash fazasida ma'lumotlarni elektron tahlil qilishning ta'siri;

- funktsional majburiyatlarni taqsimlash, dasturli faylar va ma'lumotli fayllarga kirishni nazorat qilish, apparat mablag'larini nazorat qilish tizimlarni tushuntirish va aynan o'xshatish.

- nazoratning ustama uslublarining ro'yxati va ularning izohlanishi.

- minikompyuterlarga asoslangan tizimlar nazoratining o'ziga xosligini muhokama qilish.

Kompyuter tizimi muhitida auditorlik tekshirish o'tkazishning asosiy maqsadi - shu muhitda tayyorlangan ma'lumot tavakkalchiligini eng kam darajaga yaqinlashtirishdan iborat.

Dj.Robertson kompyuter tizimi muhitida auditorlik tekshirishi o'tkazishning quyidagi uslubiyotini taklif qiladi.

Auditorlik tekshirishini rejalashtirish. Maqsad - ma'lumotlarni avtomatik ravishda tahlil qilishning moliyaviy hisobot auditga ta'sirini baholashdir:

- Avtomatlashtirish darajasini baholash;

- Avtomatik operatsiyalar darajasini baholash;

- Ma'lumotlarni kompyuterlarda tahlil qilishning tashkil qilinganligini baholash;

- Ma'lumotlarning hammabopligini baholash;

- Auditning avtomatlashgan uslublarini qo'llash imkoniyatini baholash;

- Maxsus tayyorgarlik zarurligini baholash.

Kompyuter tizimini o'rganish.

Birinchi bosqichning maqsadi - audit tekshirishi muolajalarining mazmunini va chuqurligini rejalashtirishga asos sifatida ichki nazorat bo'g'inlaridan foydalanish imkoniyatlarini topish uchun nazorat muhiti, buxgalteriya hisobi tizimi va nazorat muolajalari to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni yig'ishdan iborat:

Nazorat muhiti: Tashkiliy tuzilma;

Nazorat muhiti: majburiyat va vakolatlarni topshirish tizimi;

Nazorat muhiti: tizimni nazorat qilish uchun ma'muriyat tomonidan qo'llaniladigan uslublar;

Buxgalteriya hisobi tizimini o'rganish.

Nazoratning nosamaradorlik tavakkalchiligini baholash.

Maqsad - audit tekshirishning umumiy va ustama muolajalaridan foydalanish zarurligini aniqlash uchun ichki nazorat nosamaradorlik tavakkalchiligini baholashdan iborat.

Kompyuter tizimi: nazorat yondoshish va uning tavsifi.

Nazoratning umumiy muolajalari tavsifi.

Nazoratning ustama muolajalari.

Oddiy kompyuterlashgan tizimda nazorat nosamaradorlik tavakkalchiligini baholash.

Ma'lumotlar umumiy tahlil qilinadigan oddiy tizimlarda kompyuterli nazorat muolajalarini testdan o'tkazish.

Maqsad - kompyuter tizimi muhiti haqida aniq ma'lumotlarni yig'ish.

Nazorat muolajalarini testdan o'tkazish uchun qo'llaniladigan kompyuter texnikalariga umumiy yondoshish.

Nazorat ma'lumotlarining uslubi.

Parallel modellashtirish uslubi.

Aniq ma'lumotlardan foydalanishga asoslangan nazorat uslubi.

Operatsiyalarni belgilash.

Auditorlik fayllari.

Darhol tayyor bo'ladigan fotosurat.

Tizim ish yuritishining doimiy nazorati.

Kengaytirilgan yozuvlar.

Korxonalarining soliq idoralari hisobot topshiruvchi va ma'lumotlarni tahlil qilish uchun javob beruvchi bo'g'inlari nazoratning ob'ekti hisoblanadi.

Kompyuter tizimining mohiyatini to'g'ri tushunish uchun tashkil etuvchi barcha bo'g'inlarni ko'rib chiqish zarur.

Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirilmagan tarzda yuritishda xo'jalik operatsiyalarni kuzatish engil kechadi va bu, o'z navbatida, ma'lumotlarni qog'ozda ifodalaydigan hujjatlar bilan olib borilishini talab qiladi. Bu hujjatlarga - ko'rsatmalar, to'lov qog'ozlari, hisob schetlari va hisob registrlari kiradi. Ayni shunday hujjatlar kompyuter tizimida ham bor, lekin ko'p hollarda ular faqat elektron shaklda mavjud bo'ladi.

Kompyuter tizimi o'z ichiga quyidagi elementlarni oladi:

Apparat vositalari: kompyuterni tashkil qiluvchi qurilma va vositalar;

Dasturli vositalar:

a) Tizimli dasturlar - bu operatsion tizim, ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi.

b) Ustama dasturlar - o'ziga xos vazifalarni hisobga olgan holda mustaqil ravishda ishlab chiqilgan yoki sotib olingan avtomatik dasturlar.

Hujjatlar - ma'lumotlarni kiritish, tahlil qilish va xulosa chiqarish bilan bog'liq tizim va boshqaruv tuzilmalarining yozma izohlanishi;

Personal - tizimni boshqaruvchi, loyihalashtiruvchi hamda dasturlar bilan ta'minlovchi, ma'lumotlarni tahlil qilish tizimini nazorat va ekspluatatsiya qiluvchi ishchilardir;

Ma'lumotlar - tizimga kiritiladigan, tahlil qilinadigan va saqlanadigan xo'jalik operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar;

Nazorat muolajalari - operatsiyalar bajariganligini yozma ta'minlaydi, xatolarning oldini olish imkonini beradi va xatolarni registratsiya qiladi.

Ma'muriyatning asosiy majburiyatlaridan biri - ichki nazoratning ish bilan ta'minlangan tizimini yaratishdir. Bu tizimga kompyuter tizimining nazorat muolajalari va nazorat siyosati kabi bo'g'inlari kiradi. Auditorning majburiyatiga kompyuter muhitida nazoratning nosamaradorligi tavakkalchiligini baholash kiradi. Ma'muriyat esa, o'z navbatida, quyidagilarni ta'minlashi lozim:

- kompyuter tizimida ma'lumotlarning to'raligi va o'z vaqtida yangilab turilishini;
- ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonida bajarilgan operatsiyalarning nazorat yozuvlarini saqlaydigan tizimlaridan foydalanishni;
- auditorlarning tizimiga kirishini va ularga tizim ishi uchun javobgar bo'lgan mutaxassislardan yordam sifatida berishi.

Ma'lumotlarni kompyuterlarda qayta ishlashning o'ziga xos xususiyatlari.

Buxgalteriya hisobi yuritishda ma'lumotlarning qay usulda qayta ishlanishi, o'z navbatida, firmaning tashkiliy tuzilishi hamda ichki nazorat uslubi va muolajalariga ta'sirini o'tkazadi. Kompyuter texnologiya nazoratining muolajalari va shartlarini baholashda hisobga olinadigan bir qator xususiyatlar bilan xarakterlanadi:

Nazorat yozuvlari. Ba'zi kompyuter tizimlarida operatsiyalarning bajarilganligi haqida muhim nazorat yozuvlari ma'lum bir vaqtgacha saqlanadi yoki bu yozuvlar faqat mashina o'qiydigan shaklda bo'ladi.

Bajariladigan operatsiyalarning bir xildaligi. Ma'lumotlarni kompyuterda qayta ishlash jarayon buxgalteriya hisobi yuritishda o'xshash operatsiyalarni bajarish uchun bir xilda bo'lgan komandalarni ishlatishni ko'zda tutadi. Bu esa, o'z navbatida, ma'lumotlarni qo'lda qayta ishlash paytida ro'y berib turadigan xatolarning umuman qaytarilmasligini ta'minlaydi. Dasturiy xatolar esa bir xil sharoitda o'xshash operatsiyalarning barchasini noto'g'ri qayta ishlanishiga olib keladi

Vazifalarning taqsimlanishi. Bunda har bir mutaxassisning vazifasi aniq chegaralangan bo'lib, bu dasturlardan har bir mutaxassisning foydalanish huquqini himoyalash imkoniyati bor.

Noaniqlik va xatolarni aniqlashning potentsial imkoniyatlari. Avtomatlashtirilmagan buxgalteriya hisobi solishtirilganda kompyuterli tizimdan, hatto, nazoratchilarning ham noqonuniy foydalanish huquqidan mahrum ekanligini ko'rish mumkin. Bundan tashqari bu texnologiyada aktivlar haqidagi har qanday ma'lumotni olish va ma'lumotlarni o'zgartirish uchun foydalanish mumkin.

Ma'muriyat tomonidan nazoratni kuchaytirish imkoniyatlari. Kompyuter tizimida ko'plab tahliliy dasturlarning borligi ma'muriyatga korxonaga yoki firmaning faoliyatini nazorat qilish va baholash imkonini beradi.

Kompyuterda bajarilgan operatsiyalarning qayd etilishi. Ba'zi bir bajarilgan muomalalar kompyuter tizimida avtomatik ravishda hujjatlarsiz bajarilishi mumkin, lekin muomalalar avtomatlashmagan buxgalteriya hisobida majburiy ravishda hujjatlarda qayd etiladi.

Auditorlik tekshirishni amalga oshirishda auditorlik xulosasini berish uchun tizimning kuchli va zaif tomonlarni ko'rsatib, to'la ma'lumot olishga imkon beradigan aniq uslubiyotga amal qilish zarur.

Auditorlik tekshirishni rejalashtirish.

Rejalashtirish tekshirish o'tkazishning boshlang'ich bosqichi hisoblanadi. Korxonaga va firmalar tomonidan turli xildagi kompyuter tizimlarining qo'llanilishi buxgalteriya hisobini yuritishning tuzilishiga va ichki nazorat uslubining xarakteriga katta ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumotlarni qayta ishlashning avtomatlashtirilganlik darajasi, o'z navbatida, auditorlik mulojalarning mohiyatiga hamda ularning vaqt ichida taqsimlanishiga, qamrab olish darajasiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Moliyaviy hisobot auditida ma'lumotlarni elektron qayta ishlashning ta'sirini baholashda quyidagilarni hisobga olish zarur:

Avtomatlashtirish darajasi. Tekshirishni rejalashtirishda moliyaviy hisobotga ta'sir qiladigan ma'lumotlarni qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan har bir vazifani bajarish uchun qo'llaniladigan kompyuterli texnologiyalardan foydalanish darajasini hisobga olish darkor.

Mashinaviy muomalalarning murakkabligi. Mashinaviy muomalalarning murakkabligini baholab, auditor o'zining tayyorgarligini firmaning ma'lumotlarini qayta ishlash uchun qo'llaydigan uslublari bo'yicha malakasini solishtirishi kerak.

Ma'lumotlarni kompyuterda qayta ishlashni tashkil qilish. Tekshirishni rejalashtirishda ma'lumotlarni kompyuterda qayta ishlash jarayonining tashkil qilinganligi muhim ahamiyatga ega. Turli firmalarda bu narsa markazlashtirish darajasi bo'yicha katta farq qilishi mumkin.

Markazlashtirish darajasining yuqoriligi markazlashgan boshqarish va muhim ma'lumotlar bo'yicha bajariladigan barcha muomalalar ustidan amalga oshiriladigan nazorat bilan xarakterlanadi. Nazoratning holati, apparat va dasturli vositalar firmaning barcha bo'g'inlari uchun bir turda bo'lishi mumkin. Aksincha, ma'lumotlarni markazlashgan tarzda qayta ishlanishi hududiy jihatdan yiroq bo'lgan bo'limlarni boshqarish va nazoratni mustaqil ravishda amalga oshirishlariga imkon beradi. Bu sharoitda apparat va dasturiy vositalar turli xilda bo'lishi mumkin va nazorat paytida kerakli ma'lumotlarni olish uchun ko'p miqdordagi kompyuterlarni ko'rib chiqishga to'g'ri keladi. Ma'lumotlarni kompyuterda qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan mutaxassislarining miqdorini va ularning kompyuter texnologiyasidan xabardorlik darajasini ham baholash zarur.

Ma'lumot olishning qulayligi. Tekshirishni rejalashtirishda birlamchi hujjatlarning taqdim etilishini ta'minlash haqida kelishib olinishi lozim. Chunki ba'zi firmalarda ma'lumotlar to'g'ridan-to'g'ri, yozma nusxasiz kiritilishi yoki ma'lumot qisqa vaqt ichida saqlanishi mumkin.

Nazorat jarayonida ma'muriyat tomonidan ichki nazorat uchun tayyorlangan ma'lumotlardan foydalanish mumkin.

Avtomatlashtirilgan audit uslublarining qo'llanilishi. Avtomatlashtirilgan audit uslublarining qo'llanilishi audit muolajalarning samaradorligini oshiradi hamda barcha umumiy bo'lgan hisob operatsiyalarini tekshirish uchun alohida audit muolajalarining tadbiq qilinishini ta'minlaydi. Bu uslublarning qo'llanilishini perspektiv rejalashtirishni hamda shu soha mutaxassislarining bo'lishini talab qiladi.

Maxsus tayyorgarlikning zarurligi. Tekshirish jarayonida ma'lumotlarni kompyuterlarda qayta ishlashning auditga ta'sirini baholash uchun, buxgalteriya hisobi operatsiyalarining bajarilish yo'lini aniqlash hamda auditorlik muolajalarni ishlab chiqish va bajarish uchun mutaxassislarni jalb qilish mumkin. Ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha, dasturlar tillari bo'yicha, dasturlar paketi bo'yicha mutaxassislar talab qilinishi mumkin.

1-bosqich. Kompyuter tizimini o'rganish.

Bu bosqichning maqsadi - audit muolajalarini rejalashtirishga asos sifatida ichki nazorat elementlaridan foydalanish imkoniyatlarini topish uchun nazoratning muhiti, buxgalteriya hisobi tizimi va nazorat muolajalari to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni to'plashdir.

Nazorat muhiti: tashkiliy tuzilma.

Firmaning tashkiliy tuzilmasini tushunishi deganda unda kompyuter tizimining o'rnini qay darajada ekanligini aniqlash tushuniladi. Tashkiliy tuzilmani tushunish - umuman nazorat nosamaradorlik tavakkalchiligini baholashning ajralmas qismidir. Kompyuter tizimi tuzilishini tahlil qilganda auditorlar ma'lum bir maqsadni ko'zlashadi:

- firmaning kompyuter resurslari, apparat vositalari, turli markazlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar hamda kompyuter tizimiga kirish imkoni bo'lgan qismlarining ro'yxati va ularning izohlanishi.

- hisoblash bo'limi xodimlarining ish faoliyatining kompyuterlashtirilishi qay darajada tashkil qilinganligini izohlash.

Yuqoridagilar kompyuter tizimining faoliyatini tahlil qilish, kompyuter tizimiga kirish imkoniga ega bo'lgan qismlarni aniqlash, firmaning kompyuter tizimiga kirishini nazorat qilish bo'yicha olib borayotgan siyosatini ochib berish imkonini beradi.

Tizimlar bo'yicha mutaxassislar, dasturchilar va operatorlar o'rtasida majburiyatlarning taqsimlanishini o'rganib chiqish zarur.

Nazorat muhiti: majburiyat va vakolatlarni topshirish tizimi.

Auditor majburiyat va vakolatlarni topshirishning firma tomonidan qabul qilingan tizimini tahlil qilganda;

- buxgalteriya hisobini yuritish va kompyuter tizimini ekspluatatsiya qilish bo'yicha qo'llanmalar;
- hisoblash markazi xodimlari uchun vazifalarning izohi mavjudligi haqidagi ma'lumotni olishi zarur.

Nazorat muhiti: tizim nazorati uchun ma'muriyat qo'llaydigan uslublar.

Ichki nazorat uslublarini o'rganishda quyidagi masalalar yuzasidan tasavvurga ega bo'lish kerak:

- tizimlar va hujjatlarni ishlab chiqish andozalari va ulardan foydalanish darajasi;
- muolajalarning mavjudligi va sifati, dasturlar va tizimning turli shakldaligi, ma'lumot kiritishning har xil ko'rinishlari;
- miqdoriy ma'lumotlar, xususan, miqdoriy tijorat ma'lumotlariga kirishni cheklovchi muolajalar;
- moliyaviy va boshqa hisobotlarga kirishning qulayligi, masalan, ma'muriyatga taqdim etiladigan «xarajatlar-samaradorlik» tahlillari.

Ichki auditning va nazorat muolajalarining mavjudligi va uning kompyuterda qayta ishlangan buxgalteriya ma'lumotlarini tahlil qilish jarayonida ishtirok etishi.

Buxgalteriya hisobi tizimini o'rganish.

Amaliy natija beradigan auditorlik muolajalarini ishlab chiqish uchun buxgalteriya hisobi tizimida amalga oshiriladigan muomalalarning ketma-ketligini o'rganish zarur. Buxgalteriya hisobining ma'lumotlar bilan bog'liq bo'lgan, har bir vazifasi uchun muomalalar ketma-ketligi zanjirini aniqlash shu vazifalarning firma tomonidan taqdim qilingan yozma izohini ko'rib chiqishdan boshlanadi. Ma'lumotlarni qayta ishlashning kompyuter tizimidan foydalanilganda yozma izoh o'z ichiga foydalanuvchilar uchun qo'llanma va ko'rsatmalarni, fayllar tuzilmasini, sxemalar blokini va sharhlarni olishi kerak. Ichki audit uchun javobgar shaxslardan buxgalteriya hisobi tizimini tushunish uchun foydali bo'lgan, muomalalar bajarilishining ketma-ketligiga taalluqli bo'lgan tayyor hujjatlarga ega bo'lish mumkin. Shu sababli, tekshirishni rejalashtirishning avvalida shunday hujjatlar mavjudligini aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

2 bosqich. Nazoratning nosamaradorlik tavakkalchiligini baholash.

Birinchi va ikkinchi bosqichlarning chegaralanishi auditning mazmunini tushunish nuqtai nazaridan foydalidir. Auditni rejalashtirish uchun zamin yaratish hamda auditorlik muolajalarining turi, o'tkazilish vaqti va miqdorini aniqlash ichki nazorat tizimini baholashning asosiy maqsadidir.

Kompyuter tizimida tavakkalchilikni baholash quyidagi harakatlarni o'z ichiga oladi:

- amaldagi buxgalteriya ma'lumotlarida uchraydigan turli xildagi xatolarning tahlili asosida nazoratning aniq maqsadlarini moslashtirish;
- muomalalar ketma-ketligi zanjirida ma'lum bir turdagi xatolarning paydo bo'lish ehtimoli bor joylarni moslashtirish;
- nazoratning aniq maqsadini amalga oshirilishini ta'minlaydigan, maxsus muolajalarni moslashtirish;
- nazorat asosiy muolajalarining bajarilish samaradorligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan yordamchi muolajalarni moslashtirish;
- nazorat muolajalari ta'minlaydigan nosamaradorlik tavakkalchiligi darajasini aniqlash maqsadida nazorat muolajalari tuzilmasini baholash.

Nazoratning aniq maqsadlarini moslashtirish berilgan holatda ma'lumotlarni avtomatlashtirilmagan tizimda qayta ishlash holatdagi vazifadan umuman farq qilmaydi, shu bilan birga kompyuter tizimida xatolar paydo bo'lishi ehtimoli bor joylarni moslashtirish jarayoni, avtomatlashtirilmagan tizimdagi ayni shu jarayonda bir qancha farq qiladi. Kompyuterlar qo'llanganda quyidagi holatlarda xatolar paydo bo'lishi mumkin:

- tizimni ishga tushirishga ruxsat olish bo'yicha vazifalar zanjiri bilan bog'liq boshlang'ich ma'lumotlarni tayyorlashda;
- ma'lumotlar mashinasiz qayta ishlanganda, masalan buxgalteriya ma'lumotlari qo'lda hisoblab chiqilganda;
- boshlang'ich ma'lumotlarni mashina o'qiydigan shaklga keltirganda;
- qayta ishlashda foydalanish uchun kirish fayllari moslashtirilganda;
- ma'lumotlarni bir dasturdan ikkinchi dasturga o'tkazishda;
- alohida keluvchilar bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar olish uchun fayllar so'ralgand;
- chiqish fayllarini yaratish yoki asosiy fayllarga tuzatish kiritish;
- kompyuter tomonidan muomalalar qayd etilishida;
- chiqish fayllari va hisobotlarning yuzaga kelishida;
- nazorat muolajalarini amalga oshirganda aniqlangan xatolarni tuzatgandan;
- xodimlar tomonidan chiqish ma'lumotlari va qurilmalaridan foydalanganda.

Kompyuter tizimidagi nazorat muolajalari avtomatlashtirilmagan tizimdagi aynan shunday muolajalardan bir qator xususiyatlari bilan farq qilishi mumkin. Har ikkala tizimda nazorat maqsadlarining mos tushishiga qaramay, bu maqsadga erishish usuli farq qiladi, va o'z navbatida, auditga kirishishga katta ta'sir o'tkazadi.

Nazorat nosamaradorlik tavakkalchiligini baholash avtomatlashmagan tizimdagi singari amalga oshiriladi. Nazorat muhiti, buxgalteriya hisobi tizimi va nazorat muolajalari to'g'risida to'plangan ma'lumot quyidagi xulosalarni asoslash uchun etarli bo'lishi kerak:

Nazoratning nosamaradorlik tavakkalchiligi past baholanishi mumkin, tizimning auditor tomonidan testdan o'tkazilishi samarali bo'ladi. Xatolarni topish yoki ularning oldini olishga qaratilgan nazorat muolajalarining o'xshashligi «xarajatlar - samaradorlik» usuli bilan tekshirilishi mumkin. Bunday holatda auditorlar nazorat tizimini testdan o'tkazishni davom ettirishlari mumkin.

Nazoratning nosamaradorlik tavakkalchiligi past baholanishi mumkin, lekin audit nazorat tizimini testdan o'tkazgan holatda xarajatlar bo'yicha samarasiz bo'lishi mumkin.

Nazoratning nosamaradorlik tavakkalchiligi yuqori baholanishi mumkin. Nazorat va muolajalar sohasidagi siyosat xatolarni topish yoki ularning oldini olish uchun etarli emasdek ko'rinadi. Bu holda tekshirishning odatdagi muolajalari qo'llaniladi.

Nazoratning qaysi bir bosqichida bo'lishiga qaramay, nazorat tizimining no'xshashligi aniqlansa, tekshirishning odatiy muolajalarini qo'llash kerak bo'ladi.

Oddiy kompyuter tizimining tavsifnomalari.

Oddiy kompyuter tizimlariga ma'lumotlar to'raligicha markaziy kompyuterda qayta ishlanadigan tizimlar kiradi.

Ma'lumotlarni umumiy qayta ishlash, qayta ishlanayotgan yozuvlarning muomalalar turi bo'yicha paketlarga (bo'laklar) guruhlashni ko'zda tutadi. Operator kompyuterining kutubxonasidan kerakli bo'lgan dasturlar va asosiy fayllarni chaqiradi. Tizimni ekspluatatsiya qilish bo'yicha qo'llanmadagi ko'rsatmalarga binoan bir turdagi muomalalar, ayni bir xil dasturlar va asosiy fayllarni qo'llash bilan amalga oshiriladi.

Nazorat umumiy muolajalarning tavsifnomasi.

Kompyuter tizimidagi nazorat muolajalarini ikki - umumiy va ustama bosqichlarga bo'lish mumkin. Nazoratning umumiy muolajalari kompyuter tizimining barcha yoki ko'pchilik funksiyalari uchun qo'l keladi. Bularga, masalan, dasturlar va ma'lumotlar bazasi fayllariga kirishni nazorat qilish kiradi. Nazoratning ustama muolajalari kompyuter hisobining aniq funksiyalari bilan bog'liq, masalan, kirish ma'lumotlarni dasturiy tekshirish bilan bog'liq.

Nazoratning umumiy muolajalari asosan auditorlik tekshirishning boshlang'ich bosqichida ko'rinadi.

Tashkiliy va jismoniy omillar.

Moddiy boyliklarning saqlanishi, yozuvlarning yuritilishi, davriy solishtirish kabi funktsional majburiyatlarining taqsimlanishi kompyuter tizimi uchun, avtomatlashmagan tizimdagi

singari, ahamiyatga ega. Shu bilan birga faqat kompyuter tizimigagina xos bo'lgan bir qator muomalalarning, xususan, tizimda tahlil, dasturlashtirish, kutubxonaning yuritilishi, mashinaviy muomalalarning mavjudligi ularning keyingi taqsimoti maqsadga muvofiqligini shart qilib qo'yadi.

Tizimning rivojlanishi va hujjatlashtirish.

Hujjatlashtirish - bu ma'lumotlarni qayta ishlash tizimidagi asosiy bo'g'inlarning yozma izohlanishidir. Hujjatlashtirishni tahlil qilish auditorlarga tizim mohiyati haqida tasavvurga ega bo'lish va hujjatlashtirishning o'zining mosligini baholash imkonini beradi. Ko'proq qiziqishni quyidagi bo'g'inlar tug'diradi: vazifalarning izohlanishi, dasturning izohlanishi, operatorlar uchun ko'rsatmalar, foydalanuvchi bo'limlar uchun qo'llanma, o'zgarishlar hisobga olinadigan jurnal, nazorat natijalarining bosib chiqarilishi.

Dasturlar va ma'lumotlar fayllarining himoyalanihi hamda nazorati.

Kompyuter tizimini himoya va nazorat qilish nazorat umumiy muolajalarining asosiy qismidir. Buni esa kompyuterda saqlanadigan ma'lumotlar, foydalanuvchilar uchun oson kirishligi, viruslar foydalanuvchilar tomonidan buzilishi yoki umuman o'chirib tashlanishi ruxsatsiz o'zgartirilishi shart qilib qo'yadi. Dasturlar va ma'lumotlar fayllarini himoyalash, kirish fayllariga parol o'rnatish, dasturlar va ma'lumotlar fayllarining rezerv nusxasini olish yoki bosh kompyuterda (server) «oyna» diskini o'rnatish, tizimga joriy ma'lumotlarni faqat ma'lumotlar kiritishning to'g'riliigi tekshirilgandan so'ng kiritish yordamida amalga oshishi mumkin.

Nazoratning ustama muolajalari.

1. Ustama nazorat uch yo'nalish bo'yicha olib boriladi;
 2. Kirish ma'lumotlarining nazorati;
 3. Qayta ishlash jarayonining nazorati;
- Chiqish ma'lumotlarining nazorati.

Kirish ma'lumotlarining nazorat muolajalari.

Kompyuter tizimining eng kuchsiz joyi bu ma'lumotlarni kiritish jarayoni bo'lib, bunda xo'jalik muomalalari to'g'risidagi ma'lumotlar boshlang'ich hujjatlardan dasturiy muhitga o'tkaziladi. Agar ma'lumot noto'g'ri kiritilgan bo'lsa, ular qayta ishlash paytida ko'rilmaligi mumkin, lekin keyinroq topilgan xatoni tuzatish oson kechmaydi. Qayta ishlash jarayonining nazorati asosiy dasturga qurilgan ishdan chiqishning oldini olish yoki topish dasturchalari bilan bog'liq.

Nazoratning eng asosiy sohalari.

Ma'lumotlarning qabul qilinishi va tasdiqlanishi. Hisoblash markazi etarli darajada to'ldirilgan va tasdiqlangan ma'lumotlarnigina qayta ishlash uchun qabul qilishi kerak. Ruxsat olish bu, qoida bo'yicha, kantselyariya (kompyuterning emas) muolajasidir: xo'jalik muomalalari bo'yicha imzolar qo'ydirish yoki pechat bilan tasdiqlash.

Nazorat razryadlari. Nazorat razryadlari kodlashtirish yoki raqamli terishda xatolarni topish maqsadida o'xshash nomerlarni nazorat qilish uchun qo'llaniladi.

Ma'lumotlarni tayyorlash. Ma'lumotlarni mashina o'qiydigan shaklga kirish jarayoni - ko'plab xatolarning manbai bo'lib, bu xatolarni aniqlash uchun nazoratning quyidagi maxsus muolajalarini qo'llash mumkin:

A. Yozuvlar miqdorini hisoblash. Yozuvlar miqdori xo'jalik muomalalari bo'yicha qayta ishlangan hujjatlar miqdori bilan solishtiriladi. Yozuvlar miqdorining qayta ishlangan hujjatlar miqdori bilan farqi yo ma'lumotlarning yo'qotilganligi yoki ayni bir hujjatning ikki marta qayta kiritilganligini bildiradi.

V. To'lov ma'lumotlarining nazorat yig'indisi. Bu muolaja, yuqoridagi «yozuvlar miqdoriga» o'xshash qo'llaniladi. Faqat farqi - nazorat summalari miqdoriy ma'lumotlar bilan bog'liq, masalan, schyotlar guruhi bo'yicha so'mlarda savdoning umumiy miqdori.

S. Ma'lumotlar paketining umumiy nazorat yig'indisi. Masalan, operatorga, ma'lumotlarini tayyorlash uchun berilgan schyotlar nomerining yig'indisi.

Ma'lumotlarni ko'rib chiqish va tekshirish jarayoni. Ma'lumotlarni tayyorlashda qilingan xatolarni topish uchun ko'rib chiqish va nazoratning turli dasturiy vositalardan foydalanish mumkin.

A. Belgilarni to'g'ri joylashtirishning nazorat testlari kirish ma'lumotlarining joylashishini, raqamlarning to'g'ri joylashganligini aniqlash hamda belgilar qatoridan harflarning to'g'ri joylashganligini tekshirishni nazarda tutadi.

V. Ishoralar to'g'riligining nazorat testlari qatorlarida ma'lumotlarning plyus va minus ishoralariga mosligini tekshirishni ta'minlaydi.

S. O'tkazilgan joyning nazorat testlari bo'sh qoldirilgan joylarni aniqlash maqsadida qatorlarni tekshirish imkonini beradi.

D. Ketma-ketlik nazorati testlari ma'lumotlarni qayta ishlashning paketli rejimida, ularni ketma-ket joylashtirish zarur bo'lganda, tartib raqami bo'yicha tekshirishga xizmat qiladi.

E. «Ahamiyatning kengligi va natijasining oqilligi bo'yicha» nazorat testlari - avtomatik muolajalar bo'lib, ular ahamiyatlarining ko'rsatilgan chegaralaridan chiqishini ko'rsatadi. Bu test auditorlik umumiy muolajalarining bir ko'rinishi bo'lib, u xatoni aniqlash uchun ma'lumotlarni tahlil qilishni ko'zda tutadi.

Xatolarni tuzatish va ma'lumotlarni qayta ishlashga qaytarish. Xatolar - nazoratning alohida predmetidir. Odatda, hisoblash markazi faqat o'zi tomonidan kiritilgan tuzatishlar uchungina javobgardir. Shu sababli, boshqa turlardagi, masalan noto'g'ri kodlashtirishdan kelib chiqadi, xatolar tuzatish kiritish uchun foydalanuvchi-bo'limlarga yuborilishi lozim.

Qayta ishlash jarayonining nazorat muolajalari.

Qayta ishlash jarayonini nazorat qilish ma'lumotlarning tashlab ketilmasdan va qaytarib yuborilmasdan qayta ishlanishiga kafolat beradi.

Nazorat yig'indilarining ketma-ketligi ma'lumotlarni bir bo'limdan ikkinchisiga yoki bir dasturdan ikkinchisiga o'tishi bo'yicha tekshirishni ta'minlaydi. Yig'indi ayni bir ma'lumotlar bo'yicha qayta ishlashning har bir bosqichidan so'ng amalga oshirilganligi sababli, u ketma-ket deb ataladi. Olingan summalar, nazorat summalari bilan taqqoslash uchun qayta ishlashning keyingi bosqichiga o'tkaziladi.

Nazorat summalari to'g'risida hisobot tuzish. Yozuvlar, to'lovlar, barcha ma'lumotlar massivi miqdorining nazorat summalarini hisobot holida bosib chiqarish lozim. Ularni qayta ishlashning avvalgi bosqichida olingan nazorat summalari bilan taqqoslash va tekshirish nazorat guruhining majburiyatiga kiradi. Bunday muolaja ma'lumotlarning yo'qolishi yoki takrorlanishini aniqlash imkonini beradi.

Operatorlar va fayllar nazorati. Dasturli vositalar operatorlar tomonidan kiritiladigan komandalarning, ustama dasturlardan foydalanish vaqti va statistikasining «hisob jurnali»ni tashkil qilishi lozim. Bu jurnaldagi ma'lumotlarni nazoratchilar tahlil qilishlari shart.

Ahamiyatining kengligi va natijaning oqilligi bo'yicha nazorat testlari mantiqan noto'g'ri bo'lgan holatlarning oldini oladi. Masalan, qiymatidan yuqori bo'lgan amortizatsiya ajratmalari summasini olish.

Chiqish ma'lumotlarning nazorat muolajalari.

Chiqish ma'lumotlarining nazorati - kompyuterda qayta ishlash natijalari to'g'riligini tekshirishning so'nggi, yakunlovchi bosqichidir. Bu bosqichdagi nazorat muolajalari hisobot haqidagi tasavvurni va fayllarga faqat vakolatli shaxslarning kirishini ta'minlaydi.

Nazorat yig'indisi. Chiqish ma'lumotlarning nazorat yig'indisi ishlash jarayonining barcha yig'indisi ketma-ketligi natijalari bilan taqqoslanadi. Nazorat guruhining majburiyatiga nazorat summalari va chiqish ma'lumotlarining tahlili hamda ularning farq qilish holatlarini tergov qilish kiradi.

Asosiy fayllarga tuzatish kiritish xatolar tarqalib ketishining oldini olish maqsadida qaysi bo'limning tashabbusi bilan dastur asosiga tuzatishlar kiritilgan bo'lsa, shu bo'limga barcha kiritilgan tuzatishlar bo'yicha to'liq hisobot taqdim qilinishi kerak.

Chiqish ma'lumotlarining taqsimlanishi. Tizimda yuzaga keladigan chiqish ma'lumotlari faqat vakolatli shaxslargagina taalluqli bo'lishi lozim. Hisobotlar nusxasini oluvchi abonentlar ro'yxatini kiritish kerak va hisobotlarning tirajini qat'iy cheklash zarur.

Oddiy kompyuter tizimida nazoratning nosamaradorlik tavakkalchiligini baholash.

Nazorat muolajalarining - ma'lumotlarni kiritish, qayta ishlash, chiqarish sohalaridan birining zaif tomonlari auditor tomonidan alohida e'tibor predmeti bo'lib qoladi. Shu bilan birga, ma'lumotlarni kiritish bosqichida nazorat yo'qligi keyingi bosqichlardagi nazorat muolajalari bilan to'ldirilishi mumkin.

Nazoratning nosamaradorlik tavakkalchiligini baholash natijalari bo'yicha auditor ishlab chiqadigan xulosaning tashkiliy qismiga nazorat muolajalarining muhim kamchiliklarini tahlil qilish kiradi.

Ichki nazoratni tahlil qilishdan maqsad - xo'jalik muomalalarining qayta ishlash jarayoni mazmunini tushunish, nazorat muolajalarini rejalashtirishda hisobga olinadigan nazoratning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashdan iboratdir. Dasturlarda nazoratning ustama muolajalari mavjud bo'lganda, faqat ichki nazoratning nosamaradorlik tavakkalchiligini baholash zarur bo'ladi. Nazoratning umumiy ustama muolajalari ularning samaradorligini aniqlash maqsadida auditorlik testlaridan o'tkaziladi.

Ichki nazorat tizimini tekshirishda axborot bilan ta'minlashni tashkil qilish.

Ish yuritishning kompyuter yordamida olib borilishi ikki yangi tushunchaning paydo bo'lishiga olib keldi. Ulardan biri - «kompyuter qamrab olgan» muhitda auditorlik tekshirishi, auditorlik kompyuterni o'zaro bog'lamasdan, ya'ni uni bir buyum sifatida qarab va chiqish ma'lumotlarini boshlang'ich hujjatlar bilan bog'lashga harakat qilgan hamda boshlang'ich hujjatlarning hisobotlargacha bo'lgan harakatini tuzatish hollarida qo'llaniladi. Kompyuter tezkor kalkulyator sifatida qo'llanilganda, bu usul moslik ko'rinishi mumkin. Agar tizim hisoblash va axborotni bosib chiqarish uchun ishlatilsa ham yaxshi natijalar beradi. Shu bilan birga, kompyuter qamrab bo'lgan tizimda auditorlik tekshirish usulini kompyuterda ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonini ekspert baholash o'rniga qo'llashga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Ikkinchi tushuncha - «xususan kompyuter tizimini» auditorlik tekshirishi - muomalalar bajarilish jarayonining ishonchililigini aniqlash maqsadida apparat va dasturiy vositalarni baholashda qo'llaniladi. Xususan, kompyuter tizimini tekshirish audit amaliyotida kengroq tarqalgan, chunki ko'pgina kompyuter tizimlari nafaqat hisoblash, balki muhim nazorat muolajalarini ham bajaradi. Bu sharoitda kompyuterni bir buyum sifatida tasavvur qilish, ichki nazoratning muhim bo'g'inini ajratib qo'yishga olib keladi.

Kompyuter auditi amaliyotiga nisbatan yaqin kunlarda ikki yangi tushuncha kirib keldi: «kompyuter texnikasi qo'llanilmagan audit tekshirish» va «kompyuterdan foydalanilgan audit tekshirish».

Birinchi tushunchaga muvofiq auditorlik yondashish birlamchi ma'lumotlar, xatolar to'g'risida hisobotlarni bosib chiqarish, nazorat bosqichlari to'g'risida ma'lumotlar va chiqish ma'lumotlarining to'liq bosib chiqarilishi kabi materiallarni qabul qilishga asoslanadi. **Ikkinchi tushuncha** esa tekshirilayotgan firma tomonidan muomalalarni bajarish uchun qo'llanilayotgan apparat va dasturiy vositalarni auditorlik tekshirish hamda tekshirish maqsadiga erishish uchun maxsus auditorlik dasturlaridan foydalanish bilan bog'liq.

Ma'lumotlarni paketli qayta ishlashdagi oddiy tizimlarda kompyuter nazorati muolajalarini testdan o'tkazish.

Ma'lumotlarni paketli qayta ishlashdagi oddiy tizimlarida zarur bo'lgan ma'lumotlar ko'p hollarda hisob jurnali va bosib chiqarilgan chiqish ma'lumotlari ko'rinishida mavjud bo'ladi. Bu esa «kompyuter qamrab olgan» muhitda auditorlik tekshirish o'tkazishga imkon yaratadi.

Shu bilan birga, ba'zi hollarda tashqi auditorlar oddiy tizimdagi ustama dasturlarda nazorat muolajalarini testdan o'tkazish vositasi sifatida kompyuterlarni qo'llashlari lozim.

Auditorlar foydalanishi mumkin bo'lgan, kompyuterda testdan o'tkazishning uch yo'nalishi bor:

1. Kompyuter yordamida ba'zi muomalalarni keyinchalik qo'lda tekshirish uchun ajratib olish;
2. Ichki nazorat tizimini o'xshash ma'lumotlar yordamida tekshirish;
3. Ichki nazorat tizimini auditorlarning dasturiy vositalari qayta ishlagan, haqqoniy ma'lumotlar yordamida tekshirish.

Kompyuter ma'lumotlarni ularning oxirgi tasdiqlanishi va qo'lda nazorat qilinishi uchun ajratib olishi mumkin.

O'xshash ma'lumotlar yordamida nazoratning avtomatlashgan muolajalarini auditorlik testidan o'tkazish - nazorat ma'lumotlar usuli deyiladi, bu muolajalarni testdan o'tkazish uchun haqiqiy ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonidan foydalanish esa - parallel modellashtirish usuli deyiladi.

Nazorat ma'lumotlar usuli.

Bu usul kompyuterning ma'lum bir muomalalarni bajarish uchun dasturlashtirilganligi sababli, har safar ularni hech bir o'zgarishsiz bajarishi va shundan kelib chiqib, xatolar bilan o'xshash muomalalarni bajarish cheklanganligi nazorat muolajalarining kompyuter tizimidagi hujjatlashtirish izohiga mosligini aniqlash uchun etarlidir.

Haqiqiy tizimda qayta ishlanadigan ma'lumotlar qatorining mumkin bo'lgan kombinatsiyalarni ajratish - nazorat paketi deyiladi. Nazorat ma'lumotlarini kiritishdan maqsad - nazorat muolajalarining hujjatlashtirish izohlariga mosligini aniqlashdir. Nazorat muomalalari o'z ichiga mavhum ma'lumotlarni olishi mumkin. Eng avvalo, dasturiy vositalar bo'yicha hujjatlarga asosan aniqlangan chiqish ma'lumotlarining ro'yxati ko'rsatilgan jadval tayyorlab olinishi kerak. Shundan so'ng, muomalalar bo'yicha ma'lumotlar mashina o'qiydigan shaklga keltirilib, uni haqiqiy yuritilayotgan dasturda qayta ishlash uchun kiritiladi. Auditor, ma'lumotlarning barcha mumkin bo'lgan kombinatsiyalarni ko'ra bilishi uchun dasturlarni mantiqan fikrlashi, xo'jalik faoliyatining xarakterini yaxshi tasavvur eta olishi kerak. Bundan tashqari, nazorat ma'lumotlarning haqiqiyli bilan qo'shib ketishi hamda fayllarning o'zgarishiga yo'l qo'ymaydigan ehtiyot choralari ham zarur.

Nazorat tizimini auditorlik testidan o'tkazishda kompyuter usullaridan foydalanishning yakuniy maqsadi - kompyuter tizimida nazorat muolajalarning haqiqatda ishga qodirligi to'g'risidagi xulosani chiqarishdir. Bunday xulosa auditorga nazoratning nosamaradorlik tavakkalchiligini baholash va schyotlar bo'yicha qoldiqlarni tekshirish uchun audit muolajalarining vaqtida taqsimlanishi va qamrab olish kengligini hamda auditning mazmunini aniqlashga yordam beradi. Magnit tashuvchi fayllardan foydalanib, auditorlik tekshirishni amalga oshirishning imkoniyatini aniqlagani sababli nazoratning nosamaradorlik tavakkalchiligini baholash kompyuter tizimi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Parallel modellashtirish usuli.


Auditorlar tomonidan parallel modellashtirish uchun maxsus dastur tayyorlanib, bu dastur tekshirilayotgan firma dasturining nazorat muolajalari va mantiqi bilan o'xshash bo'ladi. Auditorlik dasturi yordamida haqiqiy ma'lumotlarni qayta ishlash natijalari shu ma'lumotlarni haqiqiy ustama tizimda qayta ishlash natijalari bilan taqqoslanadi. Bu usulning printsiptial tuzilishi 4.1.14 chizma da keltirilgan.

Kompyuter dasturlarida o'rnatilgan nazorat tizimini testdan o'tkazish muolajalarining uchta stsenariysi mavjud:

1. Tekshirilayotgan firmaning real dasturlaridan foydalangan holda testdan o'tkazish;
2. Firmaning xodimi tomonidan tayyorlangan maxsus auditorlik dasturlaridan foydalanib, testdan o'tkazish;
3. Auditor tomonidan tayyorlangan maxsus dasturdan foydalangan holda testdan o'tkazish.

Nazorat ma'lumotlari usuliga xos ravishda bajariladigan testdan o'tkazishning birinchi stsenariysi yuqorida izohlab o'tildi. Ikkinchi stsenariy bo'yicha testdan o'tkazish tekshirilayotgan firma xodimi tomonidan ishlab chiqilgan auditorlik dasturlarining to'g'riligini tekshirishni talab qiladi.

Parallel modellashtirish usuli



4.1.14-chizma. Parallel modellashtirish usuli

Auditorlarning dasturlashtirish sohasida chuqur bilimga ega bo'lishi yoki xolis dasturchilarni ishga taklif qilish uchinchisi stsenariyni amalga oshirishning zarur sharti hisoblanadi.

Umumiy auditning auditorlik dasturiy vositalari paydo bo'lishi uchinchisi stsenariyning o'ziga xosligini yanada oshirdi. Bu vositalar tarkibiga audit vazifalarining ko'pgina qismini bajarishini ta'minlaydigan, paketlarda birlashtirilgan standart dasturlar kiradi.

Umumiy tayinlangan dasturiy vositalar auditorlarga ma'lumotlarni qayta ishlashning real dasturiy tizimiga o'xshash tizimni yaratish, ayni bir ma'lumotlar faylidan foydalangan holda qayta ishlashni o'tkazish imkonini beradi. Bunday o'xshash tizimga auditor barcha zarur nazorat muolajalarini kiritishi mumkin. So'ngra o'xshash tizimdan olingan chiqish ma'lumotlari real tizimdagi chiqish ma'lumotlari bilan taqqoslanadi.

Parallel modellashtirish usulini qo'llash avvaliga etarli darajada katta xarajatlarni talab qilishi mumkin, lekin bu usulning samaradorligi kompyuter texnikasi qo'llanilmay o'tkazilgan auditorlik tekshirishi samaradorligidan, shuningdek nazorat ma'lumotlari usulining samaradorligidan ma'lum darajada yuqoridir.

Murakkab kompyuter tizimida nazorat muolajalarini auditorlik testdan o'tkazish.

Ko'pgina ishlab chiqilgan buxgalterlik dasturlari o'z ichida nazorat vositalariga ega. Auditorlik tekshirishda qo'llaniladigan vosita va usullari to'rtta guruhga bo'lish mumkin. Bular:

1. Haqiqiy vaqt birligida va haqiqiy ma'lumotlar bilan «on-layn» tartibida;
2. Uzluksiz ma'lumotlar bilan;
3. O'xshash ma'lumotlar bilan;
4. Dasturlarni tahlil qilish asosida ishlaydi.

Haqiqiy ma'lumotlardan foydalanilgan nazorat usullari.

Ko'p hollarda bu usullar dasturlarni ishlab chiqish bosqichlarida quriladigan maxsus auditorlik modullarini yaratishni talab qiladi. Bunday dasturlarning qo'shimcha auditorlik bloklari tekshirish nuqtai nazaridan qiziqishga ega bo'lgan muomalalar to'g'risidagi ma'lumotlarni qayta ishlashdan avval yoki undan so'ng ajratib olish va ularni o'rganish uchun saqlash imkonini beradi.

Muomalalarni belgilash.

Auditor tomonidan muomalalar bo'yicha ajratib olingan fayllar kiritish paytida maxsus indikatorlar yordamida belgilanadi. Bu ma'lumotlarning ustama dasturlarda qayta ishlash barcha

bosqichlarining nazorat yozuvlarini baholash uchun bosib chiqarib yoki fayllar ko'rishida saqlash mumkin.

Auditorlik fayllari.

Belgilangan ma'lumotlar keyingi nazorat uchun maxsus fayllarga guruhlashadi. Auditorlik fayllarini tashkil qilishda ikki usul qo'llanilib, ulardan biri «doimiy nazorat auditorlik fayli» (DNAF) sifatida yaxshi tanish. Belgilangan mezonlar bo'yicha ajratib olingan ma'lumotlarni testdan o'tkazish asosida yig'iluvchi hisobotlar hisob va tahlil uchun bevosita auditorga kelib tushadi. Ichki audit nuqtai nazaridan DNAF usuli alohida e'tiborga ega. Ikkinchi usul - «tanlab olish nazorati auditorlik fayli» (TONAF) avvalgi usul bilan o'xshash bo'lib, ularning farqi shundaki, muomalalar bo'yicha ma'lumotlarni belgilash uchun dasturga doimiy tanlab olish mezonlari emas, balki tasodifiy ajratib olish moduli kiritiladi. Ma'lumotlarning qayta ishlanganligi to'g'risidagi hisobotlar auditorlik tahlil uchun dasturning har bir ish yuritganidan so'ng olinishi mumkin.

Darhol tayyor bo'ladigan fotosurat.

Bu usulning qo'llanilishi muomalalarning boshlanishi va ularning bajarib bo'linganidan so'ng kompyuterda saqlangan ma'lumotlar bazasidagi muomalalar va elementlarning holatini ko'rish imkonini beradi. Bosib chiqarilgan surat tahlil uchun auditorlarga taqdim qilinadi. Masalan, debitorlar hisobi bo'yicha qoldiqlar faylga kiritishdan oldin ham va kiritilgandan so'ng ham saqlanadi. Auditorlar uning natijalariga asoslanib, qayta ishlash jarayonini kuzatish va tekshirishlari mumkin.

Tizim ish yuritishining doimiy nazorati.

Apparat va dasturiy vositalarning ish faoliyatining tahlil qilish maqsadida, odatda, kompyuterga maxsus elementlar quriladi, ularning vazifasi esa - kompyuter ishining samaradorligini aniqlashdir. Bu elementlar tizim modulini kim va qanday muomalalar uchun egallaganligini aniqlash imkonini bergani tufayli audit uchun ham qo'llaniladi.

Kengaytirilgan yozuvlar.

Maxsus dasturlar muomalalarni qayta ishlash uchun qo'llanilgan barcha ustama dasturlarning natijalarini birlashtirib, belgilangan muomalalar bo'yicha nazorat yozuvlarini tashkil qiladi. Olingan yilga ma'lumotlar alohida faylda yoki qo'shimcha yozuv qatorlarida saqlanadi.

Uzluksiz ma'lumotlardan foydalangan nazorat usullari.

Bu usullar, keng ma'noda, auditorlar mashina o'qiydigan fayllardan foydalanish imkonini beradi. Ularga, xususan, avval izohlab o'tilgan, parallel modellashtirish usuli hamda umumiy bo'lgan auditorlik dasturlari kiradi.

O'xshash ma'lumotlar qo'llanilgan nazorat usullari. Bu usullar guruhiga, xususan, avval ko'rib o'tilgan nazorat ma'lumotlari usuli kiradi. Bu usulning murakkab kompyuter tizimlari uchun soddalashtirilgan ko'rinishi - «testdan o'tkazishning integrallashgan usullari» (TO'NU) deb nom olgan.

Odatda, dasturlar hamkorligida qo'llaniladigan bunday vositalardan auditorlar o'z maqsadlari uchun foydalanishlari mumkin. TO'NUdan foydalanish xodimlar, mijozlar, mol etkazib beruvchilar, debitorlar, kreditorlarning to'liq ro'yxati bo'lgan bo'lim maketini yaratishni talab qildi. Asosiy faylning haqiqiy yozuviga yoki ma'lumotlar bazasiga maxsus kod bilan belgilangan yozuvlar kiritiladi, haqiqiy muomalalarga esa o'xshash (ya'ni, nazorat) ma'lumotlar kiritiladi. TO'NU uchun oldindan aniq bo'lgan natijalar haqiqiy qayta ishlash natijalarini nazorat qilish va ustama dasturlar nazorat elementlarining ishga layoqatligini aniqlash imkonini beradi.

TO'NUni qo'llash alohida e'tiborni talab qiladi, chunki bu usul buxgalteriya hisobining haqiqiy tizimiga qalbaki yozuvlar, muomalalar va hisobotlarni kiritish bilan bog'liq. Qalbaki chiqish ma'lumotlarini moliyaviy hisobotdan chiqarib tashlashni kafolatlash zarurdir. Asosiy fayllardagi haqiqiy yozuvlar va hisob raqamlaridagi qoldiqlarning buzilishi yoki xato ko'rsatilishining oldini oluvchi chora-tadbirlar qabul qilish lozim.

Bu paragrafda biz kompyuter tizimi muhitida auditorlik nazorat usullarining avtomatlashtirilmagan buxgalteriyani oddiy auditorlik tekshirish usulidan asosiy farqini ko'rib

chIQdik. Kompyuter qamrab olgan tizimni audit o'tkazish rejasini tuzdik va nazorat usullari hamda bevosita kompyuter tizimini testdan o'tkazishning usullarini ko'rsatib o'tdik.

4.2. Nazorat-maslahatchi auditorlik tizimlari

Nazorat maslahatchi auditorlik tizimlari (NMAT) auditorlik ob'ektlarining quyidagi guruhlariga mo'ljallab tashkil qilinishi mumkin:

- buxgalteriya hisobi qo'lda yuritiladigan ob'ektlar;
- buxgalteriya hisobi kompyuterlar qo'llab yuritiladigan ob'ektlar.

Bu erda, kompyuter fayllarining mazmunini tashkil qiluvchi birlamchi buxgalteriya hujjatlarining asosiy qismi qayta ishlanadi. Bu holatda NMAT mijozning fayllaridan foydalanishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, auditni bajarish uchun qilinayotgan xarajatlarning qisqarishiga, uning aniqligi va operativligini oshirishga imkon beradi.

Agar, mijozning buxgalteriya hisobi avtomatlashtirilgan bo'lsa, u holda auditor o'z vazifalarini bajarishda 11-son O'zbekiston Respublikasi Audit Milliy andozasi «Ma'lumotlarning kompyuter ishlanmasi sharoitida audit» dan foydalanishi lozim.

Xuddi shu andoza NMAT ishlab chiquvchi faoliyatga ham asos qilib olinishi kerak, chunki bu andoza unga avtomatlashtirilgan buxgalteriya tizimining xususiyatlarini to'g'ri hisobga olish imkonini beradi. Bundan tashqari, andoza mijozning hisobga doir ma'lumotlarini kompyuterda qayta ishlashni tashkil qilish shaklini aniqlash bo'yicha ishlarni tartibga solishga yordam beradi. Shu bilan birga bunda ma'lumotlarni qayta ishlashning markazlashgan darajasini aniqlash zarur: ma'lumotlar mahalliy kompyuterlarda yoki tizimga ulangan kompyuterlarda qayta ishlanadi.

Bu savollarga javoblar mijozlarning ma'lum bir guruhlarini to'la tenglashtirib, NMATni tashkil qilishning strategiyasini belgilab beradi. Biroq, auditorlik tizimni tashkil qilishning imkonli strategiyalarini izohlashdan avval, bundan qanday vazifalar oldiga qo'yilishni aniqlash zarur.

Auditorlik tizimi funktsional va ta'minlovchi qismlardan tashkil topgan bo'lishi kerak.

Funktsional qism - bu iqtisodiy-matematik va iqtisodiy-tashkiliy modellar hamda uslublar, auditni amalga oshirish uslubiyoti va usullarining majmuasidir. Ta'minlovchi qism esa birinchi qismda ko'rsatilgan audit jarayonini avtomatlashtirish uchun qaratilgan bo'lib, axborot, dasturiy, texnikaviy va boshqa ta'minotdan tashkil topadi. Bu qismlarni biz quyida to'laroq ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

Audit - spetsifik soha bo'lib, bir tomondan, u moliyaviy va boshqa hujjatlarni tekshirish bo'lsa, ikkinchi tomondan, korxonalar hisobi va moliyaviy-xo'jalik faoliyatini yaxshilash bo'yicha mutaxassislar taklifini berishdir. Boshqacha qilib aytganda, bunday tizimlar nazorat va maslahat berish funktsiyalarini birlashtirishi kerak. Bu, o'z navbatida, ularni ishlab chiqishga qo'shimcha qiyinchiliklar kiritadi. Bunday tizimlar nazorat maslahatchi auditorlik tizimlari (NMAT) deb ataladi.


NMAT qanday vazifalarni amalga oshirishini, ya'ni uning funktsional qismi nimalardan iboratligini aniqlash uchun, tizimdan foydalanuvchilarni guruhlariga ajratish va bu guruhlarning har biri qanday maqsadlarni ko'zlashini aniqlash lozim. Buni biz quyidagi 4.2.15 chizmada ko'rsatishga harakat qilamiz:

Chizmada ko'rinib turibdiki, audit natijalaridan manfaatdor bo'lgan sub'ektlar quyidagilar:

- kasaba qo'mitalari, ishchilar;
- aktsiyadorlar, mulk egalari;
- banklar, kreditorlar;
- soliq va sug'urta qo'mitalari;
- huquq va boshqa davlat organlari.

Ajratilgan guruhlarning har biri audit natijalaridan o'z maqsadlarini ko'zlaydilar. Masalan, kasaba uyushmalari ish joylarining saqlanib qolishi, ish haqining oshirilishidan manfaatdor bo'lsa, aktsiyadorlar va mulk egalari - korxonalar rentabellik darajasining o'sishi va aktsiyalar qiymatining ortishidan, banklar va kreditorlar - korxonaning to'lov qobiliyati va likvidligini aniqlashdan, davlat - tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarining soliq va to'lovlarni o'z vaqtida to'lashidan manfaatdordir.

Maslahat beruvchi audit



4.2.15-chizma. Maslahat beruvchi va nazorat qiluvchi auditning sub'ektlari, maqsadlari va vazifalari.

Tashqi auditning maqsadlarini tahlil qila borib, nazorat qiluvchi auditning quyidagi vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- tayyor mahsulot hisobi va uni sotish auditi;
- ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasining auditi;
- ustav kapitali va ta'sischi bilan hisob-kitoblar auditi;
- mehnat va ish haqi bo'yicha hisoblashuvlar auditi;
- moddiy qimmatliklar hisobining auditi;
- pul mablag'lari hisobining auditi va boshqalar.

Konsultativ-maslahatchi audit vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:


- qarz vositalari strategiyasining auditi;
- moliyaviy barqarorlik auditi;

- dividendlar bo'yicha siyosatning auditi;
- to'lovga qobiliyatlilik auditi;
- kompleks audit.

Bu vazifalar iqtisodiy-matematik modellar bilan ko'rsatilib, odatda, matematik dasturlashtirish va noaniq mantiq uslublari yordamida o'z echimini topadi.

Sanab o'tilgan vazifalarni echishga mo'ljallangan NMATning ta'minlovchi qismini quyidagi 4.2.16 chizmada ko'rib chiqamiz:

Nazorat-maslahatchi auditorlik tizimining tarkibi



4.2.16-chizma. Nazorat-maslahatchi auditorlik tizimining tarkibi.

Chizmada axborot va dasturiy ta'minot umumlashtirib ko'rsatilgan.

Barcha tizim shartli ravishda ikki qismga - nazorat qiluvchi va maslahat beruvchi qismlarga bo'lingan. Quyida biz bu qismlarning har birini alohida ko'rib chiqamiz.

Nazorat qiluvchi qism ikkita umumlashgan moduldan iborat bo'lib, ulardan biri bilimlar manbaini va tuzatish kiritishni, ma'lumot beruvchi va boshqa fayllarni tashkil qilish uchun, ikkinchisi esa - shaxsan auditni bajarish uchun mo'ljallangan.

Bilim olish moduli (1-modul) - bilim manbaini tashkil etishga qaratilgan.

Bilim manbai - NMATning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. U ikki qismdan: qoidalar manbai va haqiqatlar manбайдan iborat.

Qoidalar manbai standart shakldagi bilimlar muolajasini o'z ichiga oladi:

Agar <shart>, u holda <reaktsiya> qoidalar bir necha modifikatsiyalarda mavjud bo'ladi:

a) Ekranga chiqarish <Ekran nomeri>

<1 knopka bosilgan > <1-harakat bajarilsin>

<2 knopka bosilgan > <2-harakat bajarilsin>

:

:

<N knopka bosilgan > <N -harakat bajarilsin>

b) Ekranga chiqarish <Ekran nomeri>

Agar (E1 va E2 vaEN), u holda S

v) Ekranga chiqarish <Ekran nomeri>

Agar (E1 yoki E2 yokiEN), u holda S

g) Ekranga chiqarish <Ekran nomeri>

Agar (E1 yoki E2 va E3EN), u holda S.

Birinchi modifikatsiya (shakl a) auditorning auditorlik tizimi bilan muloqotini tashkil qilish uchun qo'llaniladi.

<Ekran nomeri> parametri - dialog olib borish darchasining nomeri bo'lib, o'zida auditor harakatlariga bo'lgan talablarni jamlagan.

<Knopka bosilgan> parametri - foydalanuvchi tomonidan aktivlashtirilgan harakat nomi (masalan, ha, yo'q).

<Harakat bajarilsin> parametri - keyinchalik qanday qoida yoki tizimning boshqa harakatlari bajarilishi kerakligini aniqlaydi. Bunda tekshirilayotgan hujjatlardagi xatolar qayd qilinib yoki qayd qilinmasdan keyingi qoidaga o'tish amalga oshiriladi. Bunga misol qilib, quyidagi matnni keltirish mumkin:

Agar "Pudrat shartnomasi" dagi "Ishlar hajmi" ko'rsatkichi "Ob'ektni qabul qilish aktidagi" "Bajarilgan ishlar hajmi" ko'rsatkichi bilan mos kelsa, u holda «ha» knopkasini bosib, keyingi qoidaga o'tilsin, aks holda «yo'q» knopkasini bosib, xususiy auditorlik xabarni chaqirib, keyingi qoidaga o'tilsin.

Qolgan modifikatsiyalar noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish uchun qo'llaniladi. Ularning yordamida tizimning u yoki bu xulosalari bo'yicha aniqlik ishonch koeffitsienti hisoblanadi. Xulosalar auditor tomonidan aniqlangan xatolar tabiatiga qanday taalluqli bo'lsa, korxonaning moliyaviy holatini baholash yoki uni yaxshilash yo'llarini izlashga ham shunday taalluqli bo'lishi mumkin. Bu erda shartlar qiyin bo'lib, ular o'zaro turli mantiqiy bog'liqliklar bilan bog'langan bo'ladi. Bunday qoidaga quyidagicha misol keltirish mumkin:

Agar 01 hisobvarag'i bo'yicha oldingi davr oxiriga bo'lgan debet qoldig'i, plyus bosh kitobdagi «debet bo'yicha jami» minus «kredit bo'yicha jami»

va hisobot davridagi debet qoldiq mos kelmasa,
va «Debet bo'yicha jami» noto'g'ri hisoblangan bo'lsa,
yoki «Kredit bo'yicha jami» noto'g'ri hisoblangan bo'lsa,
yoki boshqa davr qoldiqlari hisoblanganda xatolar aniqlangan bo'lsa u holda xatoga bilib
yo'l qo'yilgan bo'ladi.


Har bir qoida shartiga aniq belgilangan koeffitsient yuklatiladi. Xuddi shunday koeffitsient umumiy qoidalar uchun ham ko'rsatiladi. Bu xulosaga ishonch aniqlik koeffitsientining hisoblab chiqish imkonini beradi.

Qoidalar manбайдan foydalanishning ikkita imkoniyati mavjud:

1. auditorдан olingan, talablarga mos keladigan tashqi axborot bilimlar manбайдagi navbatdagi qoidaga asosan qayta ishlanadi va olingan natija esa natijaviy fayllarga yuboriladi;

2. auditorдан olingan, talablarga mos keluvchi tashqi axborot, avvalo, faktlar manbaiga joylashtirilib, u auditorning tizim bilan muloqoti oxiridagina mos qoidalar yordamida qayta ishlanadi. Auditorlik hisoboti bunda qismlar bilan emas, balki butunicha tarkib topadi.

Auditni bajarish moduli (modul 2) - tizim ishini bo'limlarga ajratish, ekranga standart va standart bo'lmagan tuynuklarni chiqarish, auditorlik xulosalarni tashkil qilish va tahrir qilish uchun belgilangan.



4.2.17-chizma. Nazorat-maslahatchi auditorlik tuzilishining o'xshash strategiyalari.

Bu modulni ishlab chiqish auditorlik nazorat funksiyalarini bajarish strategiyasini tanlashni nazarda tutadi. NMATni tashkil qilishda ikkita strategiya mavjud bo'lib, ularni tanlash ikki qarama-qarshi mezonga asoslanadi:

- boshlang'ich ma'lumotlarni kiritishda xarajatlarni minimallashtirish;
- moliyaviy hujjatlarda xato bo'lgan harakatlarni o'tkazish tavakkalchiligini minimallashtirish.

Yuqoridagi ikki strategiyasini quyidagi 4.2.17 chizmada ko'rib chiqishga harakat qilamiz:

Boshlang'ich ma'lumotlarni kiritish uchun talab qilib qilinadigan xarajatlar ko'p hollarda NMATlarni tashkil qilish strategiyasini tanlashda hal qiluvchi ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi. Biz bu xarajatlarni qisqartirishga ikki yo'l bilan erishish mumkin, deb hisoblaymiz:

1. Buxgalterlik ma'nodagi boshlang'ich ma'lumotlarni kiritishdan butunlay yoki qisman voz kechish va testli qoidalar bilan beriladigan «ha», «yo'q» turda ta'kidlanadigan ma'lumotni kiritishi bilan chegaralanish;

2. Mijozning analitik va sintetik hisoblaridagi barcha moliyaviy xo'jalik muomalalari aks etgan birlamchi ma'lumotiga tayanib.

Birinchi yo'l, ya'ni mijozning buxgalterlik hujjatlarini kiritishdan voz kechishni keyingi qismlarda ko'rib chiqamiz. Hozir esa ikkinchi yo'l, ya'ni NMATni tashkil qilishning ikkinchi yo'lini ko'rib chiqamiz.

NMATi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarning kerakli format va kerakli tuzilmada, mashina tashuvchilarda bo'lishi ideal variant hisoblanadi. Biroq, turli mijozlar mazmuni va tuzilishga ko'ra turli fayllarga ega bo'lganliklari sababli, NMAT talab qiladigan tuzilma bilan mos tushmasligi mumkin. Bu erdan esa mijozlar fayllarini NMATning dasturiy qobig'i qabul qiladigan formaga konvertatsiya qilish muammosi kelib chiqadi.

Bu muammoni mijoz fayllarini konvertatsiya qilish o'rniga NMAT dasturlarini mijozlar fayllari bilan ishlash uchun parametrik sozlash yo'li bilan hal qilish mumkin.

NMAT fayllari bilan mijoz fayllarining informatsion mosligiga ikki yo'l bilan:

1. Mijozning buxgalteriya tizimi fayllarini NMATning dasturiy qobig'i qabul qila oladigan fayllarga konvertatsiya qilish bilan;

2. NMATning dasturiy qobig'ini mijozning axborot manbai tizimiga parametrik sozlash bilan erishish mumkin.

Birinchi usul quyidagi omillar ta'sirida turlicha amalga oshirilishi mumkin:

Mijozda NMATdagi hisob tizimining ayni shu dasturiy qobig'idan foydalanish;

Mijozda NMATdan yuqori darajadagi hisob tizimining dasturiy qobig'i mavjudligi;

Mijozda ma'lumotlarni qayta ishlashning markazlashgan yoki tarmoqli shakllardan foydalanish;

Buning ta'sirida turli daraja qiyinlikda bo'lgan axborotlar mosligi muolajalarini yaratish talab qilinadi.

Eng sodda, oddiy - birinchi omil, bir dasturiy tizim ichida fayllarni konvertatsiya qilishini nazarda tutadi.

Turli dasturiy qobiqlarda qayta ishlanadigan fayllarni konvertatsiyalash - ikkinchi omildir.

Uchinchi variant - aralash variant bo'lib, u auditor tomonidan qo'lda kiritiladigan operativ kirish ma'lumotlarni qisman qo'llashga tayanadi.

Auditorlik tekshirishlar amaliyotida alohida birlamchi hujjatlarni kiritishning majburiy zarurati kelib chiqadi. Masalan, tayyor mahsulot uchun haqiqiy bahoni o'tkazishda hisob bahosining og'ish foizini hisoblashni tekshirish. Bu miqdorlarga korxonaning foydasi, demakki, soliqqa tortiladigan ulush bog'liq bo'ladi. Bu tarzda boshlang'ich ma'lumotlarni kiritish zarur, deb hisoblanadi.

Shunday qilib, NMATni tashkil qilishning strategiyasini tanlash quyidagi omillarga bog'liq:

- ushbu korxonada auditorlik firmasining doimiy xizmatidan foydalanadimi?
- mijoz korxonada hisob yuritish kompyuterlashtirilganmi va u qanday darajada;
- ushbu korxonada NMAT ish yuritishi uchun o'z axborot manbaidan foydalanishga rozilik beradimi, agar rozi bo'lsa qay usul (tarmoq bo'yicha yoki bevosita).


Bu savollarga olingan javoblarga bog'liq holda mijozlar tarmog'iga xizmat qiluvchi NMATni tashkil qilishning samarali strategiyasini tanlash mumkin bo'ladi. Quyida biz NMATni tashkil qilishning maqsadga muvofiq strategiyasini tanlash yo'lini ko'rsatishga harakat qilamiz.

Bu erda quyidagilarni ko'rish mumkin:

1.1.-variant. Korxonada auditorlik firmasining doimiy xizmatidan foydalanadi va o'z fayllarini kompyuter tarmog'i yordamida uzatishga rozi.

1.2.-variant. 1.1. variantdagi kabi, lekin korxonada ma'lumotlarni kompyuter tarmog'i yordamida uzatishga rozi emas. Ma'lumotlardan joylarda foydalaniladi.

NMATni tashkil qilishning mumkin bo'lgan variantlari



2.1.-variant. Korxonada auditorlik firmasining doimiy xizmatidan foydalanmaydi, ya'ni firmaning doimiy mijozlari emas. Ma'lumotlarni kiritishdan butunlay voz kechish ko'zda tutiladi. Asosiy ish auditor zimmasiga tushadi.

2.2.-variant. 2.1.-variantdagi kabi, lekin auditor uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan buxgalteriya hujjatlarini qisman kiritish ko'zda tutiladi.

1.1. va 1.2. variantlar minimal auditorlik tavakkalchiligini 2.1.-variant - maksimal, ya'ni yuqori, 2.2. - variant esa - o'rtacha darajadagi tavakkalchilikni kafolatlaydi.

2-modulning tuzilishini ko'rib chiqishni tugallar ekanmiz, shuni ta'kidlash lozimki, vaqt o'tishi bilan bilimlar manbai ham o'zgaradi: yangi bilimlar bilan to'ldiriladi, eskirgan bilimlardan ozod qilinadi. Auditning yangi qoidalarini kiritish yangi qoidalarining eskilari bilan zid bo'lib qolmasligini nazorat qilishni talab qiladi. Yangi bilimlarni kiritish uchun uch bosqichni bajarish zarur:

1. Audit yangi bo'lagining izohi;
2. Audit bo'lagining vazifalari izohi;
3. Har bir vazifa ichida audit qoidalarining izohi.

Auditorlik muolajalarni bajarish turli vazifalar uchun turli miqdorda bo'lgan ma'lumotli axborotlardan foydalanishni nazarda tutadi. Masalan, «ish haqini hisoblash auditini avtomatlashtirish» vazifasi uchun quyidagi ma'lumotli axborot zarur bo'ladi: eng kam oylik ish haqi miqdori; soliqqa tortilmaydigan minimum miqdori; nafaqa fondi va boshqa shu kabilarga ajratmalar foizi.

Maslahat beruvchi qism.

NMATning maslahat beruvchi qismning axborot va dasturlar bilan ta'minoti nazorat qiluvchi qism bilan solishtirganda o'zgacha printsiplarda tuziladi. Bu erda liniyalik dasturlashtirish usullari qo'llaniladi.

Axborot ta'minoti fayllar to'plamidan tashkil topgan operativ ma'lumotlar manbai ko'rinishida tuziladi. Bu fayllar turli davr hisobotlarini o'z ichiga oladi. Operativ ma'lumotlar manbaidan tashqari, NMATning nazorat qiluvchi qismidagi ma'lumotli axborotlardan ham foydalaniladi.

Operativ va ma'lumotli axborotlar manbai ikkita dasturiy modulga xizmat qiladi: mantiqiy baholash moduli (3-modul) va kompleks baholash moduli (4-modul).

Mantiqiy baholash moduli o'zaro kam bog'liq bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichlarni mantiqan hisoblash uchun tuzilgan dasturlar kompleksini o'z ichiga oladi. Bunday ko'rsatkichlar korxonaning

ko'p qirrali faoliyatining bir tomoninigina ta'riflab beradi. Biroq, ular asosida ham keyingi davr uchun qaror qabul qilish mumkin.

Kompleks baholash va qaror qabul qilish moduli - ko'plab o'zaro bog'liq ko'rsatkichlarni hisoblab chiqishning imkonini beruvchi dasturlarni o'zida birlashtiradi. Bu birlashtirish natijalari quyidagi ko'rsatkichlarda namoyon bo'ladi:

- xo'jalik faoliyati natijalari;
- moliyaviy faoliyat natijalari;
- moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari.

Auditorlik xulosalari korxonani boshqarishdagi nafaqat yuqori mahoratlilikni, balki moliyaviy-xo'jalik faoliyatini yanada yaxshilash uchun qanday qadamlar qo'yish kerakligini ham ko'rsatib beradi. Masalan, NMATning qarz vositalarining strategiyasini baholash (4.2.14 jadval) xususidagi xulosa quyidagicha ko'rinishda beriladi:

4.2.14 Jadval

Qarz vositalari strategiyasini baholash

Ko'rsatkich	Hisobot ma'lumotlari		Optimal ahamiyat	Og'ishi, %	Keyingi davr uchun taklif qilingan ahamiyat
	Avvalgi davr	Hisobot davri			
Qarz vositalari	600	500	750	66	900

Yuqorida ko'rib chiqilgan ikkala modul ham o'z faoliyati jarayonida operativ ma'lumotlardan tashqari, soliq stavkalari, moliyaviy va boshqa koeffitsientlarning chegaraviy ahamiyatlari, kredit uchun o'rtacha stavka va shu kabi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan fayllardan foydalanadi.

4.3. Auditorlik tizimlarini shakllantirish taomillari va jarayonlarini modellashtirish

Audit nazariyasi hali amaliy malakalarni umumlashtiruvchi ilmiy asoslar va g'oyalar tizimi sifatida shakllanmaganligi sababli, NMATning nazariyasi haqida ham gapirish erta, deb hisoblaymiz. Bu erda gap faqat NMATni tashkil qilish va ish yuritishining asosi bo'lgan nazariyasining ba'zi bir jabhalari haqidagina borish mumkin.

Auditorlik tizimlarini tashkil qilishning asoslarini ko'rib chiqishdan avval, audit quyidagi faoliyat turlari bilan uzviy bog'liqlikda ekanligini inobatga olish kerak:


- Iqtisodiy tahlil;
- Moliyaviy-xo'jalik faoliyatining taftishi;
- Sud-buxgalteriya ekspertizasi.

Audit umumlashgan fan bo'lib, yuqorida ko'rsatilgan har bir faoliyat turining ish yuritish uslubi va usullarini o'z ichiga qisman oladi.

NMAT qoniqtiradigan asoslarni aniqlash uchun, eng avvalo, aytib o'tilgan faoliyat turlarining predmetini ko'rib chiqish zarur. Bu esa avtomatlashtirish tizimida o'z ifodasini topadigan auditning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rishga imkon beradi. Quyidagi 4.3.18 chizmada auditning boshqa faoliyat sohalari bilan bog'liqlikligini ko'rib chiqamiz.

Korxonalarining samaradorlik nuqtai nazaridan qaraladigan xo'jalik jarayonlari iqtisodiy tahlilning predmeti hisoblanadi. Uning tashkiliy qismlaridan biri - moliyaviy tahlil bo'lib, u faqat buxgalteriya hisobotini qamrab oladi. Bu sharoit moliyaviy tahlilni korxonaga qiziqishi bo'lgan kontragentlar bilan tashqi aloqa sohasiga olib chiqadi.

Auditning qo'shilgan faoliyat turlari bilan bog'liqligi



4.3.18-chizma. Auditning qo'shilgan faoliyat turlari bilan bog'liqligi.

Moliyaviy-xo'jalik faoliyatning taftish predmeti bo'lib, qonuniylik nuqtai nazaridan qaraladigan jarayonlar hisoblanadi. Oxirgi vaqtlarda auditorlik firmalari tomonidan amalga oshiriladigan nazoratning yangi ko'rinishlari paydo bo'ldi, biroq moliyaviy-xo'jalik faoliyatini taftish qilish nazoratning asosiy shakllaridan biri bo'lib qolmoqda. Taftishning asosiy vazifasi korxonalar faoliyatining barcha bo'limlarini batafsil va chuqur tekshirish hisoblanadi.

Nazorat-taftish ishining uslublari o'ziga xos bo'lib, ularni bir necha guruhga ajratish mumkin:

- tasdiqlovchi hujjatlar va yozuvlarni tekshirishga mo'ljallangan uslublar;

- ro'yxatdan o'tkazish va nazorat tekshirish uchun qo'llaniladigan uslublar;
- taftishchilarning tahliliy ish usublari.

Sud-buxgalteriya ekspertizasining predmeti bo'lib, noqonuniy hatti-harakatlarga yo'l qo'yilganligi haqidagi hujjatlar xizmat qiladi.

Bunday ekspertizaning o'ziga xosligi shundayki, taftish davrida taftishchi oldiga jinoyiy ish predmeti bo'lib, qolgan hujjatlarni o'rganish vazifasi qo'yiladi.

Aytib o'tganimizdek, auditning predmeti - hisobotning haqqoniyligi va uning qonuniyligini tasdiqlash, shuningdek, korxonada faoliyatining haqiqiy sharoitini aniqlash hisoblanadi. Shunday qilib, audit faoliyatining bu turlari bilan nafaqat bevosita bog'liq, balki ularning farqi ham bor. Bu farqlarni ko'rib chiqamiz.

Audit va iqtisodiy tahlil. Iqtisodiy tahlilning asosiy vazifasi - korxonada sharoitini ob'ektiv baholash, shu sharoitga tushishiga sabab bo'lgan omillarni aniqlash, haqiqiy ko'rsatkichlarning rejasidan og'ishini hisoblashdan iborat. Auditor esa bu vazifasini nafaqat bajarish, balki korxonada moliyaviy-xo'jalik faoliyatini yaxshilash uchun yo'l ko'rsatishi, korxonada xodimlariga keyingi davrda ularni hatti-harakatlari qanday bo'lishi kerakligi haqida maslahat berishi zarur.

Audit va iqtisodiy tahlilning umumiy sohasi foydalanuvchilarni moliyaviy faoliyatni yaxshilash bo'yicha ma'lumotlar bilan ta'minlashga qodir bo'lgan NMATni yaratishni ob'ektiv talab qiladi.

Audit va taftish. Taftish predmeti - ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini qonuniy va haqqoniy aks ettirishdir. Audit predmeti taftish bilan solishtirganda sal kengroq bo'lib, bu mulk va moddiy zaxiralari bilan bog'liq muomalalarning nafaqat qonuniyligi, balki soliqqa tortish, pensiya ta'minoti, mol-mulkni baholash, xo'jalik yuritishning samaraliligi masalalari hamdir. Auditor doimo u yoki bu muomalaning qonuniyligi faktini qayd qilib emas, balki xo'jalik muomalalari jarayonlarini mijozga yordam nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi.

Audit va sud-buxgalteriya ekspertizasi. Sud-buxgalteriya ekspertizasi taftishning bir qismi bo'lgani sababli, audit bilan nazorat muolajalarining yanada kamroq miqdori bilan to'qnash keladi. Ekspertiza xo'jalik faoliyatini hujjatlarda rasmiylashtirishning qonuniyligi buzilish faktlarini qayd qilishga ustuvor yo'naltirilgan, shu bilan birga chegaralangan va yopiqdir. Audit haqida esa bunday fikr yuritish mumkin emas.

Shunday qilib, audit faoliyatning bir necha turlari ichiga, ularning uslublari va tashkil qilish asoslarini sintezlashtirib kirib boradi.

Auditda, iqtisodiy tahlilda, taftish va sud-buxgalteriya ekspertizasida umumiy sohalarning mavjudligi, barcha ko'rsatib o'tilgan tavsiflarga ega bo'lgan NMATni tashkil qilishni talab qiladi.

Bunday turdagi tizim tashkiliy tuzilma nuqtai nazaridan, bajarish vazifalari turlicha bo'lgan ikkita qismdan tashkil topishi lozim. Iqtisodiy tahlil va taftish turli maqsadlarni ko'zlagani kabi, NMAT ham bir tomondan, nazorat qilish, ikkinchi tomondan esa maslahat berish uchun mo'ljallangan. Bunda NMAT tashkil qilish asoslari shunday bo'lishi kerakki, uning qismlaridagi qarama-qarshi maqsadlarga samarali erishish ta'minlanishi kerak. Bunday asoslarga:

- Umumtuzim qismini yaratish uchun:

a) komplekslilik;

b) axborot saqlashning yagona tizimi;

- Nazorat qiluvchi qismni yaratish uchun:

a) auditorlik xatolari paydo bo'lishi tavakkalchiligining eng kamligi (minimumi);

b) ma'lumotlarni minimal, lekin etarli darajada kiritish;

v) auditorlik hisobotlarini tashkil qilish sxemalarining birligi va kelishilganligi;

- Maslahat beruvchi qismni yaratish uchun:

a) natijalarni taqqoslash;

b) natijalarning maqsad sari yo'naltirilishi;

v) natijalar noaniqligining minimumi kabilar kiradi.

Komplekslilik printsipli turli axborot tizimini tashkil qilishda umumqabul qilingan bo'lib, real jarayonlar (bu sharoitda audit modelini) umumiy modelini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Umumiy model tizim tuzilishining asosiy maqsadlarini, chegaralarini, xo'jalik jarayonlarini buxgalteriya hujjatlarida qayd qilish usullarini aks ettirishi lozim. Umumtizim modelining mavjudligi audit vazifalari, nazorat muolajalari va uslublari, birlamchi buxgalteriya hujjatlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatish imkonini beradi.

Ma'lumotlarni saqlashning yagona tizimi printsipti barcha axborot tizimlari uchun ajralmas xarakteristika, ya'ni ma'lumotni kiritish bir marta va undan ko'p marotaba foydalanishga ahamiyat qaratadi. Yagona axborot bazasi turli vazifalarga xizmat ko'rsatish bilan birga, ma'lumotlarga tuzatish kiritish uchun qilinadigan xarajatlarni qisqartirish imkonini beradi.

V BOB. AMALIY AUDITNING USLUBIY ASOSLARI

Tashqi auditorlar tashqi moliyaviy hisobotlarni qanday tekshirsalar, ichki auditorlar ichki hisobotlarni xuddi shunday nazorat qiladilar. Shu sababli, ichki auditorlik tekshirishlarni o'tkazish, asosan, avvalgi boblarda ko'rsatib o'tilgan tekshirishlardek amalga oshiriladi. Ammo, ichki auditorlarning ba'zi faoliyat turlari amaliy audit deb ataladi.

5.1. Amaliy (operatsion) audit va xo'jalik faoliyatining nazorati

Turli iqtisodchi olimlar tomonidan amaliy auditga turlicha ta'riflar berilgan. Masalan, Dj.Robertson amaliy auditga quyidagicha ta'rif beradi: «Amaliy audit - auditorlar tomonidan kompaniyaning resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyanomalar berish maqsadida kompaniya amaliyotini o'rganishdir»¹.

E.A.Arens va Dj.Lobbek esa o'zlarining «Audit» nomli kitobida amaliy auditni shunday ta'riflashadi: «Amaliy audit - u yoki bu xo'jalik tizimining, u yoki bu qismi unumdorligi va samaradorligini aniqlashdir»².

Bu masala yuzasidan Toshkent Moliya instituti professori Yu.M.Itkin o'zining «Problemi stanovlenie audita» nomli monografiyasida quyidagicha fikr bildiradi: «Ichki auditorlar tomonidan amalga oshiriladigan boshqaruv va ishlab chiqarish auditi davlat korxonalarida samarali qo'llanilmoqda. Shu jumladan, auditning bu varianti nodavlat korxonalarida boshqaruv rejalarini va tashkiliy faoliyatni tekshirishda ham qo'llash mumkin»³.

Albatta, rivojlangan mamlakatlarda bir necha o'n yildirki buxgalteriya hisobi ikki qismga ajratib yuritiladi. Bu moliyaviy va boshqaruv hisobidir. Negaki, hisob tijorat tili bo'lib bormoqda, ya'ni kompaniyaning ish faoliyati bilan faqat ma'muriyat emas, balki mehnat jamoalari, aktsiya egalari va boshqa juda ko'plab tashqi foydalanuvchilar qiziqib boradi. Agarda boshqaruv hisobining maqsadi - daromad va uni oshirish uchun omillar ta'sirining hisobi va tahlili bo'lsa, moliyaviy hisobning maqsadi - bu umumiy natijalarni aniq chiqarib berish va undan foydalanuvchilarning asosiy manfaati, bu qo'yilgan sarmoyalarga olinadigan dividendlar miqdorini bilishdir.

Yuqoridagilarni inobatga olganda, boshqaruv hisobi va amaliy audit o'rtasida dialektik-falsafiy bog'liqlik borligi seziladi. Ya'ni, amaliy audit tannarxni pasaytirishga zamin yaratuvchi sozlangan ishlab chiqarish va bundan kelib chiqib, yuqori foyda olish darajasiga erishish yo'llarini nazoratini amalga oshiradi hamda ko'rsatib, tahlil qiladi. Shu sababli, bizning fikrimizcha, professor Dj.Robertsonning talqini belgilangan muammoni aniq ifodalaydi va samaradorlik hamda umumiy mehnat unumdorligini aniq hisoblash bo'yicha uslubiyotni yaratish zarur, deb hisoblaymiz. Shu bois bu masalani alohida paragrafda yoritishga qaror qildik.

Maqsadga erishish uchun, avvalambor, audit umumiy uslubiyotiga taalluqli bo'lgan shartlarni o'rganib chiqishni lozim topdik.

Agar audit oldiga xo'jalik tizimiga yuqori samaradorlik va mehnat unumdorligi darajasiga chiqish uchun yordam berish maqsad qilib qo'yilgan bo'lsa, ichki xo'jalik auditorlarining kuchi bilan ichki xo'jalik nazorati usullarining samaradorligini testdan o'tkazish amaliy auditning elementini tashkil qiladi. Masalan, xodimlarning kvalifikatsiya darajasini tekshirish - bu ham amaliy audit, agar masala faqat kompaniya o'z

¹ Dj.Robertson. «Audit», perevod s angliyskogo. Moskva, 1993, 467- bet.

² E.A.Arens, Dj.Lobbek. «Audit». Moskva «FiS». 1995, 536- bet.

³ Yu.M.Itkin. «Problemi stanovlenie audita». Moskva, «FiS», 1992, 139- bet.


mahsulotini samarali va unumli ishlab chiqarayotgan yoki yo'qligini aniqlashga qaratilgan bo'lsa.

Amaliy audit bilan moliyaviy hisobot auditi o'rtasida uchta asosiy farq mavjud. Buni quyidagi 5.1.19 chizmada ko'rish mumkin:

Quyida ko'rib o'tiladigan farqlardan tashqari, yana shuni aytish kerakki, moliyaviy hisobot auditi o'tgan davrni hisobga olib ish yuritsa, amaliy audit xo'jalik faoliyatining kelajagiga taalluqli bo'ladi. Masalan, amaliy audit tufayli xom-ashyolarni sotib olishda xarajatlarni kamaytirish uchun, biron-bir mahsulot minimal narxda xarid qilinayotganligi yoki yo'qligini baholash mumkin.

Ichki xo'jalik nazoratni baholashda moliyaviy hisobot auditi bilan amaliy audit o'rtasida ikkita muhim farq mavjud:

1. Ichki xo'jalik nazoratni testdan o'tkazish va baholash maqsadlaridagi farq;
2. Ularning ish ko'lamidagi farqi.




5.1.19-chizma. Amaliy audit bilan moliyaviy hisobot auditi o'rtasidagi farqlar.

Moliyaviy hisobot auditida ichki xo'jalik nazorat tizimini baholashdan asosiy maqsad - bu tekshiruv masshtablarini aniqlashdir. Amaliy audit uchun esa bu maqsad shu nazorat tizimining unumdorligi va samaradorligini baholashdan hamda ma'muriyat uchun tavsiyanomalar berishdan iborat.

Ichki xo'jalik nazoratini baholash moliyaviy hisobot auditida moliyaviy hisobotning aniqligiga ta'sir etuvchi savollarga javoblar bilan chegaralangan bo'lsa, amaliy auditda nazoratning

har qanday turi samaradorlik va unumdorlikka ta'sir etishi ko'rib chiqiladi. Masalan, amaliy auditda mahsulotlarning reklama kataloglaridan foydalanish oqibatidagi haqiqiy unumni aniqlash uchun marketing bo'limlari foydalanadigan hisob siyosati va muolajalarini o'rganib chiqish mumkin.

Unumdorlik va samaradorlik nuqtai nazaridan ichki xo'jalik nazoratiga baho beruvchi amaliy auditning uchta asosiy kategoriyalari mavjuddir. Amaliy auditning turlarini quyidagi 5.1.20 chizmada ko'rsatishga harakat qilamiz:



5.1.20-chizma. Amaliy auditning turlari.

Yuqori ko'rsatib o'tilgan farqlarni quyidagicha izohlash mumkin:

Funksional audit – faoliyat turlarini vazifalar bo'yicha tasniflash mumkin. Masalan, ishlab chiqarish funktsiyasi va etkazib berish funktsiyasi bor. Funktsiyalarni tasnif qilishning ko'plab usullari mavjud, masalan buxgalteriya hisobining funktsiyalari. Biroq, pul mablag'larini qabul qilish va xarajat qilish, hisob-kitoblarni amalga oshirish funktsiyalari ham mavjud.

Funksional audit, o'z nomidan kelib chiqib, xo'jalik tizimining bir yoki bir qancha funktsiyalari uchun tegishli bo'ladi. Masalan, uning yordamida biron-bir bo'lim yoki umuman kompaniya bo'yicha pul hisobotlari funktsiyasini tekshirish mumkin.

Funksional auditning e'tiborli tomoni shundaki, u auditorlarning ixtisoslashishiga imkon beradi. Ba'zi ichki xo'jalik auditorlari ishlab chiqarish texnologiyasi kabi sohalarda yuqori darajali bilimga erishishlari bilan, ular o'zlarining vaqtlaridan shu sohaning audit uchun samarali foydalanishlari mumkin. Funksional auditning kamchiligi shundan iboratki, bunda funktsiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni baholash imkoni yo'q. Zero, o'sha ishlab chiqarish texnologiyasi tayyor mahsulot ishlab chiqarish funktsiyasi va xo'jalik tizimining boshqa funktsiyalari bilan o'zaro uzviy bog'liq.


Tashkiliy audit. Odatda, xo'jalik tizimining amaliy auditida uning belgilangan bir tarmog'i yoki tashkiliy bo'limi: bo'lim, tarmoq yoki qaram kompaniya o'rganiladi. Tashkiliy auditda asosiy e'tibor funktsiyalarning o'zaro qanchalik mahsuldor va samarali ekanligini aniqlashga qaratiladi. Auditning bu turi uchun faoliyatning tashkiliy rejasi va muvofiqlashtirish usuli juda muhimdir.

Maxsus audit. Amaliy auditning maxsus vazifasi ma'muriyat ehtiyoji bilan aniqlanadi. Bunday audit nihoyatda turli-tumandir. Misol qilib, ma'lumotni elektron qayta ishlash tizimining samarasizlik sabablarini aniqlashni, biron-bir bo'limda jinoyat yuz berishi mumkinligini o'rganishni ishlab chiqarilayotgan mahsulotning tannarxini pasaytirish bo'yicha tavsiyanomalar taklif qilishni ko'rsatish mumkin.

Ma'lumki, bizning korxonalar faoliyatida bu funktsiyalarning asosiy qismi iqtisodiy bo'limlarga yuklatilgan edi. Bozor iqtisodi sharoitiga o'tish bilan O'zbekistonda bu sohada ham ancha o'zgarishlar yuz berdi. Bunga muvofiq yuqori davlat nazorat organi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Nazorat inspeksiyasi tashkil etildi. Bu organ ob'ektlari bo'lib, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ma'muriy va moliyaviy nazorat bo'yicha komissiya va qo'mitalar hamda nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika Kengashi a'zolari hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib biz quyidagi 5.1.21 chizmada O'zbekiston sharoitida nazorat tizimini ko'rsatishga harakat qilamiz.

Biz monografiyada asosan mustaqil auditni rivojlantirish va uning uslubiy asoslarini ishlab chiqishga harakat qilganimiz sababli, ko'proq mustaqil audit xususida to'xtalamiz. 1992 yil 9 dekabrda «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonun qabul qilinganidan so'ng, respublikamizda 239 ta auditorlik firmalari faoliyat ko'rsata boshladi, 2500 ta auditorlar maxsus dastur asosida o'qitilib, sertifikatlar berildi. Bir nechta auditorlik milliy andozalari ishlab chiqildi va qabul qilindi.



5.1.21-chizma. Moliyaviy nazorat tizimi.

Biroq, olib borilgan ishlarga qaramay, nazoratning auditorlik firmasi bo'yicha o'rganishni talab qiladigan ko'proq masalalar borki, bular fikrimizcha, auditning maqsadi va vazifalarini aniqlash; auditorlik faoliyatini tashkil qilishning xususiyatlari; audit uslubiyotini ishlab chiqish; tashqi auditorlar tomonidan ichki nazoratchilarning hisobotlari va ishchi hujjatlaridan foydalanishdir.

Shu bilan birga, O'zbekistonda auditorlik qo'mitalarini tashkil qilish hali qo'llanilayotgani yo'q. Bundan tashqari ichki auditning samaradorligi masalasiga ham etarli e'tibor berilmayapti.

Auditni amaliy tashkil qilish masalalari va uslublarining zaifligini hisobga olib, o'z ishimizda auditning uslubiy asoslarini takomillashtirish borasida, jumladan amaliy audit uslubiy asoslarini ishlab chiqishga harakat qildik.

Buning uchun quyidagi muammolar hal qilinishi lozim, deb hisoblaymiz:

- amaliy auditni kimlar amalga oshiradi;
- amaliy auditning mustaqilligi va ma'suliyat darajasi;
- baholash mezonlari;
- amaliy audit qirralari.
- Amaliy audit asosan quyidagi uch guruh mutaxassislaridan biri tomonidan amalga oshiriladi:

- 1) ichki xo'jalik auditorlari;
- 2) hukumat auditorlari;
- 3) auditorlik firmalarining xolis buxgalterlari.

Ichki xo'jalik auditorlari amaliy audit ishida alohida o'rin tutishadi, chunki ba'zilar uchun «ichki xo'jalik auditorlari» va «amaliy audit» terminlari bir-birini o'zaro almashtiruvchidir. Lekin, har qanday amaliy auditni ichki xo'jalik auditorlari o'tkazishadi va ichki xo'jalik auditorlari faqat amaliy auditni bajarishadi, degan xulosaga kelish noto'g'ri bo'ladi. Ichki xo'jalik auditorlari bilan shug'ullanuvchi ko'pgina bo'limlar ham amaliy audit bo'yicha, ham moliyaviy hisobot auditorlari bo'yicha ish bajarishadi. Amaliy auditni bajaruvchi auditorlarning ustunligi shundaki, ular o'zlarining vaqtlarini asosan audit qilayotgan kompaniya uchun sarflaydilar. Shu bilan birga

kompaniya va uning faoliyati xususida chuqur bilimga erishadilar, bu esa samarali amaliy audit uchun juda muhimdir.

O'z faoliyatining samaraliligini maksimallashtirish uchun ichki xo'jalik audit bo'limi kompaniyaning prezidenti yoki direktorlar kengashiga xulosa taqdim qilishi lozim. Bundan tashqari ichki xo'jalik auditorlari direktorlar kengashining auditorlik qo'mitasidan ketayotgan va kelayotgan ma'lumotlaridan foydalanish imkoniga ega bo'lishlari kerak. Tashkiliy tizim ichki xo'jalik auditorlarining mustaqil bo'lib qolishlariga yordam beradi. Masalan, agar ichki xo'jalik auditorlari bosh hisobchi oldida hisob beradigan bo'lsa, u holda ularning mustaqil baho berishi va hatto bosh buxgalter bajarayotgan muomalalarning samarasiga taalluqli ma'muriyat uchun tavsiyanomalarni berish qiyinlashadi.

Ichki xo'jalik auditi sohasida faoliyat yurituvchi tashkilot - ichki xo'jalik auditorlari instituti amaliyotchilarni boshqaruv materiallari bilan ta'minlash maqsadida 1978 yilda «Ichki xo'jalik auditining amaliy andozalari»ni nashr qildi. Ichki xo'jalik auditorlarining bajarishi lozim bo'lgan ishlar miqdoriga taalluqli bo'lim - bu andozaning muhim qismini tashkil etdi. Bu miqdorni quyidagicha izohlash mumkin:

- ichki xo'jalik auditorlari moliyaviy va amaliy axborot hamda vositalarning haqiqiyliги va to'liqligi haqida qisqacha ma'lumot berishlari kerak;
- ichki xo'jalik auditorlari ichki xo'jalik nazorat tizimini ko'rib chiqib, uning siyosat, reja, muolajalar, qonun va ko'rsatmalar bilan mosligini aniqlashlari lozim;
- ichki xo'jalik auditorlari resurslardan foydalanishning iqtisodi va unumdorligini baholashlari kerak;
- ichki xo'jalik auditorlari rejalarning bajarilishi ko'zda tutilgandek amalga oshirilayotganligini tasdiqlash uchun muomalalar va dasturlarni ko'zdan kechirib, tekshirishlari lozim.

Hukumat auditorlari. Hukumat auditorlari tomonidan amalga oshiriladigan amaliy audit - moliyaviy hisobot auditining bir bo'lagidir.

Auditorlik firmalari. Auditorlik firmalari moliyaviy hisobot auditini bajarayotganda amaliy faoliyatning kamchiliklarini aniqlash va mijozga foyda keltirishi mumkin bo'lgan tavsiyanomalar berish auditning alohida bo'laklari hisoblanadi. Audit davomida tashqi auditorning mijoz faoliyatiga asos bo'ladigan bilimlari, unga amaliy faoliyat bo'yicha tavsiyanomalarni shakllantirish uchun muhim ma'lumotlarni to'plashga yordam beradi. Masalan, auditor mijozning tovarlar zaxirasi aylanishi joriy yilda sekinlashganini aniqladi. Auditor buning sababini ham aniqlashi mumkin. Bu jarayonda auditor amaliy sabablarni ko'rsatishi mumkin, masalan, tovarlar zaxirasini to'ldirish bo'yicha siyosatning samarasizligi; xuddi shu sababga auditor rahbariyatning e'tiborini qaratishi mumkin.

Mijoz ko'pincha o'z faoliyatining bir yoki bir necha maxsus tarmoqlarining amaliy auditini o'tkazish uchun auditorlik firmasi bilan shartnoma tuzadi. Odatda, bunday shartnoma kompaniya o'z shtatida ichki xo'jalik auditorlariga ega bo'lmasa yoki ichki xo'jalik auditi mutaxassislari u yoki bu tarmoq auditi tajribasiga ega bo'lmasa tuziladi. Bunday maslahatlar berishni ma'muriyat ichki xo'jalik auditorlariga emas, balki mustaqil auditorlik firmalariga buyurtma beradi. Masalan, kompaniya auditorlik firmasiga o'z kompyuter tizimining unumdorligi va samaradorligini baholashni buyurtma berishi mumkin.

Amaliy auditni bajarishda ikki muhim sifat - bu mustaqillik va mas'uliyat darajasidir.

Auditor xulosani kimga taqdim qilishi haqidagi masala tekshirish va tavsiyanomalar hech bir og'ishsiz amalga oshirilayotganligini kafolatlash uchun juda muhimdir. Auditorlik firmalarida odatda mustaqillikni ta'minlash u darajada qiyin emas, chunki unda ishlovchi xolis buxgalterlar audit o'tkazilayotgan kompaniyaning xodimlari hisoblanmaydilar.

Amaliy auditorlarning javobgarlik jihatlari ham ularning mustaqilligiga ta'sir qilishi mumkin. Auditor agar samarasiz va unumsiz muomalalar aniqlangan bo'lsa, kompaniyaning amaliy funksiyalari uchun javobgar emas. Masalan, agar auditorlar ma'lumotlarini elektron qayta ishlash

tizimining ishlab chiqarilishi uchun javobgar hamda audit davomida undagi kamchiliklarni aniqlab tuzatish kiritsalar, u holda ularning mustaqillik darajasi pasaygan bo'lardi.

Auditor muomalaga o'zgartirish kiritishni maslahat berishi mumkin, lekin mas'ul xodim bunday tavsiyanomani qabul qilish yoki rad etish huquqiga ega bo'lishi kerak. Agar auditorlar o'zlari bergan maslahatlarning amalga oshirilishini talab qilish huquqiga ega bo'lganlarida, ular bajarilgan ishlar uchun keyingi auditda javobgar bo'lib qoladilar. Shunday qilib, mustaqillik chegaralanib qolgan bo'lardi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkin, ya'ni mustaqillikni ta'minlovchi maxsus talablar quyidagilardir:

1) Auditorlar o'z auditorlik faoliyatlarida mustaqil bo'lishlari zarur. Bu talab auditorlar o'z ishlarini erkin va ob'ektiv bajarishlari bilan ta'minlanadi. Mustaqillik auditorlarga turli ta'sirlardan erkin va ob'ektiv bo'lgan fikrlarni berib, xulosa taqdim qilish imkonini beradi. Bu esa audit uchun juda muhimdir. Bunga ob'ektivlik va tashkiliy mavqe tufayli erishiladi.

2) Tashkiliy mavqe audit davomida aniqlangan kamchiliklar asosida samarali harakatlar hamda tavsiyanomalar berish, chuqur tekshirishni, sohaning keng auditini ta'minlash uchun etarli bo'lishi lozim.

3) Ob'ektivlik. Ob'ektivlik ichki xo'jalik auditorlaridan o'z vazifalarini mustaqil, yuqori malakada haqqoniy bajarishlarini talab qiladi.

Amaliy qiyinchiliklarni aniqlash va kerakli tavsiyanomalar kiritish uchun auditorlarga chuqur bilimlilik darajasi juda muhimdir. Bu - amaliy audit keng qamrovli amaliy muammolar bilan bog'liq bo'lgan asosiy muammodir. Chunki ishlab chiqarishda biror jarayonning unumdorligi yoki bo'lmasa reklama dasturlarining samaraliligini baholay oladigan malakali ichki xo'jalik auditorlarini topish qanchalik oson emasligini tasavvur qilish qiyin emas. Shuning uchun, ichki xo'jalik auditorlari shtatiga ishlab chiqarish bilan tanish bo'lgan yoki marketing bo'yicha etarli tayyorgarlikka ega bo'lgan xodim kirishi lozim.

Amaliy audit jarayonida duch kelinadigan asosiy qiyinchilik - bu unumdorlik va samaradorlikni baholash uchun maxsus mezonlarni tanlashdir.

Amaliy audit uchun mezonlarni aniqlash usullaridan biri - bu korxonada faoliyatining u yoki bu tarmog'i uchun erishilgan samaradorlik va unumdorlik darajasini oshirish mumkinligini aniqlash imkonini beruvchi tasdiqdir.

Maxsus mezonlarni ishlab chiqish uchun foydalaniladigan manbalardan quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- Mezonlarning sodda majmuasi o'tgan davrning haqiqiy natijalariga asoslanadi. Bu mezonlar asosidagi fikr faoliyatning u yoki bu turi taqqoslanganda «yaxshi» yoki «yomon»lashganligini aniqlashdan iborat bo'ladi. Bu mezonlarning e'tiborli tomoni shundaki, ularni aniqlash oson, biroq, ular audit qilinayotgan xo'jalik tizimi yaxshi yoki yomon faoliyat olib borayotganligi haqidagi chuqur tushunchani berish imkoniga ega emas.

- Taqqoslama unumdorlik. Birlashma doirasida yoki undan tashqarida ko'plab o'xshash xo'jalik tizimlari mavjudligi sababli audit qilinayotgan ob'ektlar o'z tabiatiga ko'ra yagona emasdir. Bunday hollarda taqqoslanuvchi xo'jalik sub'ektlarining unumdorligi haqidagi ma'lumotlar mezonlari ishlab chiqish uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

- Amaliy audit shartnomalarining ko'plab turlari uchun injenerlik andozalariga asoslangan mezonlarni ishlab chiqish mumkin va maqsadga muvofiqdir. Masalan, mahsulot ishlab chiqarish me'yorini aniqlash uchun yarimfabrikatlar harakat marshrutini va vaqtini o'rganib chiqish. Bunday mezonlarni ishlab chiqishga ko'p vaqt va mablag' sarflanadi, chunki muhim ekspertiza talab qilinadi. Shunga qaramay, bu mezon ishlab chiqarishning muhim muammosini hal qilishda g'oyat samarali bo'lib, qilingan xarajatlarni qoplashi mumkin.

- Muhokama va kelishuv. Ba'zan ob'ektiv mezonlarni ishlab chiqish qiyin bo'ladi. Bunday hollarda ular muhokama va kelishuv yo'li bilan qabul qilinadi. Bu jarayonda esa audit qilinayotgan mijoz ma'muriyati, amaliy auditor hamda auditorlik xulosasi taqdim qilinishi kerak bo'lgan tashkilot yoki shaxslar ishtirok etadilar.

Amaliy audit qirralari. Amaliy auditning uch qirralari mavjud: rejalashtirish; ma'lumotlar to'plash va baholash; xulosa yasash va uni taqdim qilish.

Rejalashtirish. Moliyaviy hisobot auditida bo'lgani kabi, amaliy auditor shartnoma sohasini aniqlab, mijozga ma'lum qilishi lozim.

Amaliy auditni rejalashtirish bilan moliyaviy hisobot auditini rejalashtirish o'rtasidagi asosiy farq - bu amaliy audit jarayonidagi tekshirishlarning xilma-xilligidir. Shuning uchun, amaliy auditning aniq maqsadlari to'g'risida biror echimga kelish juda qiyin. Bu maqsadlar berilgan shartnoma uchun ishlab chiqilgan mezonlar asosida aniqlanadi. Bu maqsadlar esa aniq sharoitlardan kelib chiqadi. Masalan, kassalar ustidan ichki xo'jalik nazorat tizimi samaraliligining amaliy audit maqsadlari rivojlanish va tadqiqot bo'limining mehnat unumdorligi audit maqsadlaridan tubdan farq qiladi.

Ma'lumotlar to'plash va baholash. Ichki xo'jalik nazorat tizimi va amaliy muolajalar amaliy auditning nozik qismini tashkil qilgani sababli, odatda mijozlar fikrini so'rash va kuzatish, hujjatlaridan foydalanish qabul qilingan. Amaliy audit uchun arifmetik aniqlik u darajada muhim emas, chunki aniqlik - amaliy auditning maqsadi emas.

Xulosa yasash va uni taqdim qilish. Amaliy audit bilan moliyaviy hisobot audit o'rtasidagi ikki asosiy farq amaliy audit bo'yicha xulosaga o'z ta'sirini o'tkazadi. **Birinchidan,** amaliy auditda xulosa, odatda, faqat ma'muriyatga taqdim qilinsa, uning nusxasi qaysi tashkilot uchun audit o'tkazilgan bo'lsa, o'sha tashkilotga yuboriladi. Uchinchi tomonning, ya'ni foydalanuvchilarning yo'qligi amaliy audit xulosalarida standart sharhlar zaruriyatini chegaralaydi. **Ikkinchidan,** bu tipdagi auditda amaliy tekshirishlarning xilma-xilligi xulosaning shunday tuzilishini talab qiladiki, u o'z ichiga audit sohasi to'g'risidagi ma'lumotni, topilgan kamchiliklar va tavsiyanomalarni olishi kerak.


Yuqoridagilardan shunday xulosa chiqadiki, xulosa yozish ko'p vaqt talab qiladi, chunki u o'z ichida audit davomida aniqlangan haqiqat va tavsiyanomalarni ma'lum qilishi zarur.

5.2. Operatsion audit jarayonida mehnat unumdorligini baholash va bu ko'rsatkichni hisoblab topish usulini takomillashtirish

Operatsion audit - iqtisodiy samaradorlik va uning mezonini bo'lgan to'la mehnat unumdorligiga baho berish maqsadida xo'jalik tizimi bo'g'inlarining faoliyatini tekshirishni o'z ichiga oladi, deb mazkur monografiyaning birinchi bob birinchi paragrafida aytilgan.

Ayrim olimlarning fikricha, auditor o'z xulosasini to'g'ri va asosli qilib berishi uchun har qanday holda ham xo'jalik faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish lozimligi uqtirilmoqda. Masalan, M.Pardaevning fikricha «audit va tahlil bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda. Ularning bog'liqligi quyidagi chizmada o'z aksini topgan 5.2.22 chizma»¹.

Audit va tahlilning o'zaro bog'liqligi



5.2.22-chizma. Audit va tahlilning o'zaro bog'liqligi.

Lekin, shuni qayd etib o'tish kerakki, auditning turlaridan kelib chiqib qaraladigan bo'lsa, iqtisodiy tahlil moliyaviy hisobot auditidan ko'ra operatsion auditning vazifasi ekanligi namoyon bo'ladi. Chunki tekshirilayotgan korxonada yoki firmaning iqtisodiy ahvolini o'rganib, unga maslahat berish uchun xo'jalik faoliyatini tahlil qilish usullaridan foydalaniladi. Mehnat unumdorligi mezonlarini aniq belgilash va bu ko'rsatkichdan korxonada iqtisodiy ahvoriga baho berish uchun foydalanish iqtisodiy tahlil qilishda keng qo'llaniladi.

Amerika Qo'shma Shtatining «Audit» bo'yicha darsliklarida mehnat unumdorligi ko'rsatkichi operatsion audit o'tkazishda asosiy o'rinni egallashi belgilanadi. Jumladan, E.A.Arens va Dj.K.Lobbekning fikricha, «Operatsion auditni bajarishdan avval unumdorlikni aniq ifodalab beruvchi maxsus mezonlarni belgilab olish kerak»²ligi qayd etilgan.

Operatsion audit mezonini ham uning maqsadidan kelib chiqib unumdorlikni oshirish uchun mavjud bo'lgan rezervlarni aniqlab topishdan iborat bo'ladi.

Operatsion auditning ko'rinishlari, ichki nazorat tizimi bilan aloqasi, kimlar tomonidan amalga oshirilishi, bosqichlari kabi masalalarni ko'rishdan avval mehnat unumdorligi ko'rsatkichi ustida to'xtashni lozim topdik.

Real mavjudlikni abstrakt sonlar ko'rinishida ifodalash statistik hisob-kitobda etarli ishlab chiqilmagan bo'lib, bu mehnat unumdorligi ko'rsatkichiga ham taalluqlidir. Statistik kuzatishdagi bu kamchiliklar ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlarni boshqarishda amaliy qo'llashni murakkablashtiradi.

Operatsion audit boshqaruvchilar uchun zarurligidan kelib chiqadigan bo'lsak, har qanday rejalashtirish, rag'batlantirish, tashkil qilish kabi boshqaruv funksiyalarining realizatsiyasi uchun

¹ Pardaev M.Q. «Iqtisodiy tahlil nazariyasi». –Samarqand, Zarafshon, 2001.

² E.A.Arens, Dj.K.Lobbek «Audit». – M.: Finansi i statistika, 1995, 537- s.

ob'ekt holatini modellashtirish, ya'ni uning asosiy xarakteristikalarini sonlar tiliga o'tkazish zarur bo'ladi.

Miqdoriy ma'lumotga asoslangan holda boshqaruv qarorlarini qabul qilish quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

1. Ob'ektni rivojlanish maqsadini hisobga olgan holda ochib beradigan belgilarni ajratib olish.
2. Ajratib olingan belgilarni o'lchash.
3. Sonlarni o'lchash natijasida olingan matematik usullar yordamida real ob'ekt holatini modellashtirish.
4. Avvalgi bosqichlarda olingan miqdoriy baholashlar yordamida boshqaruv qarorlari qabul qilish.

Auditorlarning inobatga olishi kerak bo'lgan jarayonlar qatoriga boshqaruv samaradorligiga ta'sir etadigan omillarni o'rganish va belgilash zarurligi kiradi, ular quyidagilardir:

1. Boshqariladigan ob'ektni zarur holatiga etishish nuqtai nazaridan ajratib olinadigan reprezentativ belgilar.
2. Ob'ekt tomonidan sonlarni o'zlashtirish usuli - o'lchash shkalasini tanlash va bu o'lchashning aniqligi, ya'ni birlamchi ma'lumotning sifati.
3. Boshlang'ich ma'lumotning matematik aniqlanganligi. Aniqlanganlik deganda matematik operatsiyalarning o'zini amalga oshirish sifati tushuniladi.
4. Boshqaruv qarorlari qabul qilish bosqichida, miqdoriy tahlilning avvalgi pog'onalarida yo'l qo'yilgan taxminiyliklarni nazardan chiqarmaslik kerak. Chunki bular modelni real ob'ektdan uzoqlashtiradi. Auditor nazarda tutishi kerak bo'lgan holat - bu yaxshi ma'lumot har doim ham ko'pgina sondan iborat bo'lishi emas, balki bu sonlarning olinish mexanizmi va ularga berilgan izohlardan iborat bo'lishidir.

Mehnat unumdorligini baholashdan oldin yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, albatta, boshlang'ich ma'lumotlarni olish mexanizmini ko'rib chiqish zarur, chunki boshqaruv qarorlarining sifati boshlang'ich ma'lumotlarning ishonchligiga bog'liqdir.

O'lchash - bu o'rganilayotgan yoki boshqarilayotgan ob'ektga belgilangan qoidalarga asosan sonlar berish bo'lib, bu qoidalar o'lchash shkalasi deyiladi. Aniqroq qilib aytilsa, shkala - bu real dunyo empirik munosabatlar tizimini sonlar munosabati tizimiga aylantirishdir.

Ob'ektlarga son berish funktsiyalari cheksiz bo'lib, asosiylarini ajratish mumkin:

Tartib shkalasi - ob'ektga faqatgina tenglik munosabati taalluqli bo'lmay, tartib munosabati ham taalluqli, ya'ni ular o'sish yoki kamayish belgilariga qarab joylashishi mumkin (ranjirlash).

Masalan, korxonada rejani bajarishiga binoan ranjirlash: rejani bajarmagan korxonaga (1) soni, bajarganiga (2) soni va rejani orttirib bajargan korxonaga (3) soni beriladi. Bu erda sonlar soni qancha katta bo'lsa, korxonaning ishlari yaxshi hisoblanadi.

Afsuski, tartib shkalasida xarajatning arifmetik namoyoni aniq bo'lmaydi, shu jumladan o'rtacha kattaliklarni aniqlash ham.

Quyidagi ma'lumotlarga (5.2.15 jadval) moslanib, korxonalarda rejaning bajarilishiga baho berib bulmaydi, chunki $(2,3 > 2,0)$

$$X = \frac{\sum x_m}{\sum m} = \frac{2 \times 10 + 3 \times 12 + 1 \times 4}{10 + 12 + 4} \approx 2,3$$

5.2.15 Jadval

Reja darajasi

Ko'rsatkich	Korxonalar soni	Belgi darajasi
Rejani bajarmagan	4	1
Rejani bajargan	10	2
Rejani oshirib bajargan	12	3

Auditor uchun har bir korxonaning qay darajada rejani bajarishini bilmay turib, o'rtacha reja bajarilishi haqida fikr bildirishi qiyin.

Munosabatlar shkalasi - agarda o'lchov birligi kiritilsa, munosabatlar shkalasiga o'tiladi va quyidagi asosiy bo'lgan tenglik amal qiladi:

$$u = ax$$

Bu erda:

u - o'lchanuvchi kattalik;

a - o'lchov birligi;

x - o'lchanuvchi kattalikning sondagi ifodasi.

Mazkur shkala yordamida olinadigan ma'lumotlar variatsiya qatorlari uchun qo'llaniladigan statistik baholashning jami ko'rinishlariga taalluqli bo'ladi: bular barcha ko'rinishdagi o'rta korrelyatsiya va regressiya koeffitsientlari uchun qo'llaniladi, ya'ni, t, F-, X^2 va boshqa statistik mezonlar uchun va boshqalar.

Mazkur shkala mutloq nol mavjudligini belgilaydi. Agarda ob'ektning son ko'rsatkichi 0 va belgi biron kattalikka ega bo'lsa, interval shkalasi deb nomlanuvi, $u=ax+v$ ko'rinishdagi tenglik bilan aloqa qilamiz. Lekin mazkur ko'rinishdagi shkala iqtisodiy hodisalarni ifodalash uchun etarli emas.

Har qanday o'lchashning boshlang'ich nuqtasi ob'ektlar tasnifidan iborat, shu sababli nominal shkaladan foydalanish ko'p uchraydi. Ammo bu shkala ob'ektlarni miqdoriy baholash va ular o'rtasidagi munosabatlarni aks ettirish uchun kam imkoniyat beradi.

Yuqorida keltirilgan o'lchashning asosiy formal nazariyasi haqidagi ayrim fikrlar quyidagi ikki bildirishni belgilash uchun xizmat qiladi:

Birinchidan, hech qanday ko'rsatkichlar tizimi mutloq bo'lishi mumkin emas, negaki, har bir ob'ekt (jarayon) uchun mos ravishda turli miqdorda son ko'rsatkichlari qo'yilishi mumkin. Auditorga ma'lum bir ko'rsatkichning zarurligi, avvalambor, amaliy vazifalardan kelib chiqib belgilanadi. Ma'lum bir ko'rsatkichdan unumli foydalanish va uni boshqaruv tizimiga ta'siri shu tizimni tashkil qiluvchi bo'g'inlarga sonlarni berish metodikasi bilan qay darajada auditorlar tanishligidan, ya'ni empirik tizimdan nominal tizimga o'tishni qanday amalga oshirilishidan kelib chiqadi.

Ikkinchidan, ko'p holda auditorlar munosabatlar shkalasida baholash aniq, deb hisoblab foydalanishadi. Ammo aniq fanlarga nisbatan ijtimoiy fanlarda bu har doim ham to'g'ri bo'lavermaydi. Munosabatlar shkalasida aniq natija olish uchun o'lchov birligini aniq ajratish zarur, bu murakkab holatlarni o'rganish oson vazifa emas. Bu borada R.Mayson va E.Svenson ta'kidlab o'tganidek «aniq fanlardagi an'anaviy o'lchash usullari birinchi navbatda ob'ektning yoki voqeaning real tabiatini son signallari qay darajada aks ettiradi, degan savolga javob beradi. Boshqarish manfaatlari uchun o'lchash son signallari foydalanuvchilar va ularning manfaatlari qay darajada etib boradi va ta'sir qiladi, degan savolga javob beradi. Boshqaruv manfaatlari uchun


o'lchashning aniqligi boshqaruv jarayonlaridan kritik nuqtalarni ajrata bilish va qaror qabul qiluvchilarni vujudga kelayotgan natijalardan boxabar qilish uchun zarur»¹.

Tez o'zgaruvchan texnologik o'lchash sharoitida mehnat unumdorligini hisoblashni o'rganish, hatto tartib shkalasida baholash to'g'ri boshqaruv qarorlari qabul qilish imkonini beradi. Chunki mazkur shkala boshqalariga nisbatan bir qator tejamlidir.

Mehnat unumdorligi - keng iqtisodiy ma'nodagi tushuncha bo'lib, har qanday tushuncha kabi mazmun va hajm bilan xarakterlanadi (5.2.23 chizma).

Hajmi bo'yicha mehnat unumdorligi umumiy iqtisodni qamrab oladi, ya'ni tarmoq, korxonalar, ish o'rni, alohida mehnat turi. Mazmuni bo'yicha esa bir ishchiga to'g'ri keladigan yalpi mahsulot, sof mahsulot yoki bir ish soatiga to'g'ri keladigan detallar soni bo'lishi mumkin. Iqtisodi yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar, jumladan AQSh va bizning amaliyotda mehnat unumdorligi ko'rsatkichining talqini hajmi bo'yicha bir xil, ya'ni bir ishchidan to tarmoqqacha bo'lgan yo'nalish (vertikal yo'nalish), lekin gorizontal yo'nalish bo'yicha, ya'ni AQSh va Evropa davlatlarida nafaqat mahsulot yaratuvchi ishchining, balki boshqaruv xodimlarining (oq yoqalar) ham mehnat unumdorligi hisoblab topiladi. Masalan bizda, moddiy boyliklar yaratish sohasida xom ashyoga bevosita ta'sir qiluvchi ishchining (tokar, slesar, shaxter, tikuvchi) unumdorligi aniqlansa, injener-texnik xodimlar, boshqaruv apparati yoki ilmiy-tekshirish bo'g'inida bunday ko'rsatkichni aniqlash qabul qilinmagan.

Mazmun: belgilar



5.2.23-chizma. Mehnat unumdorligining mazmuni va hajmi.


Operatsion audit nuqtai nazaridan qaraganda, albatta, ishni bajarish shartnomaga bog'liq bo'ladi. Mehnat unumdorligini hisoblashga faqat mahsulot yaratuvchilar mehnatini hisoblab, xulosa berish mumkin. Lekin jonli va jonsiz mehnatni bir texnologik jarayonga birlashtiruvchi mehnatni tashkil qiluvchilar unumdorligini hisoblash yuqori texnologiyalar sharoitida muhim o'rin kasb etadi. Bunday birlashishga ishlab chiqarish tashkiliy tizimi, rag'batlantirish usullari, texnologik qarorlar qabul qilish orqali samara berishiga mehnat unumdorligining shunga javob beruvchi ko'rsatkichlari orqali baho berish mumkin.

Umuman olib qaraganda, mehnat unumdorligini topishdan asosiy maqsad, uni oshirish zahiralarni aniqlash bo'lib, hozirgi kunda bu zahira jismoniy mehnatni bajaruvchi alohida ishchining mahoratida emas, balki ishlab chiqarish jarayonini boshqaruvchilar bilimdonligida, alohida korxonalar miqyosida va hatto xo'jalikning yirik bo'g'inlarida texnik holatga javob beruvchi injener-texnik xodimlar ustaligidadir.

Shuni alohida qayd etib o'tish kerakki, agarda mehnat unumdorligini bitta ko'rsatkich bilan ifodalash mumkin bo'lsa, umumiy vazifa mehnat unumdorligi tushunchasini aniq ifodalab beruvchi belgini aniqlashdan iborat bo'ladi. Agarda mehnat unumdorligi bir ko'rsatkich bilan ifodalanmasa, u holda bir qator belgilarni aniqlash yoki bir necha ko'rsatkichni, sharoitdan kelib chiqib, bitta ko'rsatkichga birlashtirish zarur bo'ladi. Aks holda auditor oldida xo'jalik qarorlarini qabul qilish bo'yicha maslahat berish bir necha miqdoriy baholashlar asosida amalga oshiriladi.

¹ Mason R.O., Swanson E.B. Measurement for management decision. -Addison-Wesley Publishing Company, Mass., 1981.

Bu borada iqtisodchilarning fikrlari turlicha. Masalan, AQSh olimlari S.Sink¹ ettita asosiy ko'rsatkichni ajratadi va ular bir biri bilan o'zaro bog'liq, deb ifodalaydi. D.Arzur² esa mehnat unumdorligini umumlashtiruvchi kategoriya deb qaraydi va korxonada faoliyatini umumlashtiruvchi ko'rsatkich sifatida ifodalaydi (5.2.24 chizma).



5.2.24-chizma. Mehnat unumdorligi umumlashtiruvchi ko'rsatkich sifatida.


Bizning fikrimizcha, mehnat unumdorligi turli mulkchilik sharoitida olinadigan foydaga nisbatan qaralishi kerak. Bu borada biz S.Sink fikriga qo'shilamiz va korxonada faoliyatiga baho berishda ko'rsatkichlar tizimini ifodalashga harakat qilamiz (5.2.25 chizma).

S.Sink fikridan kelib chiqsak, mehnat unumdorligi shunday kategoriyaki, uning amaliy ahamiyati boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan. Ikkinchi holda esa mehnat unumdorligiga yangi iqtisodiy kategoriya sifatida qaralib umumiy holatga baho beruvchi ko'rsatkich, deb izohlanadi. Bundan kelib chiqib, «oq yoqalar» mehnat unumdorligini aniqlash uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi, deb xulosa qilish mumkin.

Korxonada faoliyatiga baho berish ko'rsatkichlari tizimi

Agar korxonada
ijobiy

Shu bilan birga uzoq vaqt faoliyat
ko'rsatish uchun ma'lum sharoitlarga rioya
qilish kerak



¹ Sink D.S. Productivity management: planning, measurement and evaluation, control and improvement.-N.Y.John Wiley and Sons, 1985.

² Managing white collar productivity.-Arthur D. Little, Inc. 1981.

5.2.25-chizma. Korxonada faoliyatiga baho berish ko'rsatkichlari tizimi.

Korxonada miqyosida «oq yoqalar» mehnat unumdorligini hisoblab topish quyidagi sabablari bilan bog'liq:

1. Umumiy mehnatga layoqatlilar miqdorida bunday kategoriyadagi ishchilar sonini, ya'ni bozor iqtisodi sharoitida moddiy mahsulotga bevosita ta'sir qilmaydigan ishchilar sonini oshib borishi.


2. Ishlab chiqishda avtomatlashtirishning kengayishi ma'lumotni qayta ishlashni talab qiladi va buni bajarish uchun ma'lum miqdorda xizmatchilar kerak bo'ladi. AQShda mahsulotga bevosita ta'sir qiladigan ishchilar umumiy personal tarkibida atigi uchdan bir qismni tashkil qiladi.

3. Raqobatning oshib borishi, ya'ni arzon ishchi kuchi mavjud regionlarda yuqori malakali boshqaruvchi xodimlarning mehnat unumdorligi foyda olishni garovi bo'ladi.

Inkor etib bo'lmaydiki, «ofis ishchilarining» mehnat unumdorligini hisoblash o'lchash muammolari bilan bog'liq bo'lib, uni echmay turib tashkilot o'z resurslaridan qay darajada foydalanayotganini aniqlab bo'lmaydi. Bu borada rivojlangan mamlakatlar kompaniyalari «oq yoqalar» mehnat unumdorligini hisoblash va oshirish dasturlarini samarali joriy qilmoqdalar.

Xizmat ko'rsatish sohalari va amalga moddiy boyliklar yaratish sohalari «oq yoqalar» qatoriga hamma xodimni ham olib borib bo'lmaydi. Ularning ulushini taxminan 5.2.26 chizma da ko'rsatamiz.

Bandlik miqdorida «oq yoqalar» ulushi



5.2.26-chizma. Bandlik miqdorida «oq yoqalar» ulushi.

Auditor firmalarida auditorlar mehnat unumdorligini hisoblash masalalarini 5.3 paragrafda ko'rib chiqamiz. Operatsion audit nuqtai nazaridan moddiy boyliklar yaratish sohasida «oq yoqalar» unumdorligi ustida to'xtalish maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblab, buni yuqori texnologik tarmoqlar sonini oshishi bilan izohlaymiz.

Shuni alohida qayd etib o'tish kerakki xorijiy adabiyotlardan farqli, bizning adabiyotlar va nutqimizda noishlab chiqarish sohasi ishchilari, xizmat ko'rsatish ishchilari, bilvosita mehnat, aqliy mehnat xodimlari, boshqaruv xodimlari deb ishlatiladi.

«Oq yoqalar» tasnifini quyidagi jadvalda (5.2.16 jadval) aniq ko'rish mumkin.

5.2.16 Jadval

AQShda «oq yoqalar» tarkibiga kiruvchi ishchilarning tarkibi va xarakteristikasi¹

№	Kasb	«Oq yoqalar» umumiy tarkibidagi ulushi, %	Ish haqi fondidagi ulushiga, %	Strategik muhimligi	Soni, ming kishi
1.	Klerklar (hisobchilar, kotiblar)	36	25	past	18,187
2.	Sotuvchilar	12	11	o'рта	6,291
3.	Professional va texniklar (injener, yurist, vrach, auditor)	31	27	yuqori	16,055
4.	Boshqaruvchilar va ma'muriyat xodimlari	21	27	yuqori	11,315
		100	100		51,848

5.2.1 jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, «oq yoqalar» tarkibiga kiruvchi ishchilar bajaradigan vazifasiga nisbatan turlicha, lekin ular faoliyati ayrim xususiyatlari bo'yicha umumiylikka ega: bir biriga bog'liqlik; ish bir xil sharoitda bo'lmaydi; va asosiysi mehnat unumdorligini hisoblash murakkabdir. Bunday mehnatga baho berishda uning natijasini belgilash va ajratib olish muammo tug'diradi hamda shu sababli mehnatni tashkil qilishda olimlar tomonidan bunday faoliyat unumdorligi juda kam o'rganilgan.

AQSh mehnat statistikasi byurosining ma'lumotiga ko'ra, 1982 yil AQSh iqtisodida «oq yoqalar» ishchi kuchining 53% va ularning ish haqi 70%ni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich XX asr oxiri va XXI asr boshida 90%ga etganligi qayd etilmoqda. Ko'rinib turibdiki, kuchli raqobat sharoitida yutib chiqish uchun firmalardagi «oq yoqalar»ning mehnat unumdorligini oshirish dolzarb masala bo'lib qoladi.

Umuman auditorlar mehnat unumdorligini hisoblab topish boshqa sohalardagi «oq yoqalar»ning mehnat unumdorligini hisoblash usuli bilan aksariyat mos tushishini hisobga olib, bu masalani keyingi paragrafda yoritamiz.

Mulkning turli ko'rinishlari mavjud sharoitda boshqarish shakl va usullari o'zgargan sharoitda mehnat unumdorligi dinamikasi haqida o'ylash zaruriyati vujudga keldi. Bizning fikrimizcha, korxonalarda mehnat unumdorligini oshirish dasturlari ishlab chiqilishi kerak. Bu dasturlar firma yoki tashkilotning xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Quyida bu dasturlar qanday yo'nalishda bo'lishini keltiramiz:

1. Ishlab chiqarish jarayonining texnik tomonlarini hisobga olgan dasturlar (avtomatlashgan ish o'rni, avtomatlashgan ofis).

2. Ijtimoiy dastaklarga asoslangan dasturlar (oddiy ishchilarni ham boshqaruv qarorlari qabul qilish jarayoniga jalb qilish, mehnatni boyitish tadbirlari).


3. Moddiy rag'batlantirishga asoslangan dasturlar (mehnat unumdorligini oshirishga qarab ish haqining oshishi, ya'ni Improshav).

Bu dasturlarning umumiyliigi mehnat unumdorligini hisoblab topish usulidadir. Amaliy natijalarini ko'rsatishicha, hozirgi kunda firmalarda rahbariyat qarorlari qabul qilish uchun nazariyotchilardan farqli mehnat unumdorligini aniqlash uchun oddiy usullarni qo'llashmoqda. Bu usullar ularning asosiy maqsadi, ya'ni foyda olishga bog'langanligi ular uchun kifoya bo'lmoqda.

¹ Managing white collar productivity. – Arthur D. Little, Inc. 1981.

Masalan, ayrim rahbarlar mehnat unumdorligi ko'rsatkichi sifatida o'z vaqtida jo'natilgan mahsulot, foyda normasi yoki joriy davrdagi nazorat qilinuvchi bozor nisbati bazis davrdagi nazorat qiluvchi bozor nisbati kabi ko'rsatkichlarni keltirishgan. Ammo inflyatsiya sharoitida foydaga firmaning barqarorligiga baho beruvchi asosiy ko'rsatkich sifatida qaralishi maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Mehnat unumdorligi esa korxonada faoliyatini inflyatsiyadan qat'iy nazar aniq baholab beradi. Maqsad mehnat unumdorligini foyda ko'rsatkichi bilan bog'lashdadir. Raqobat oshib borayotgan sharoitda bugungi foyda normasi emas, balki ertangi kungi unumdorlikni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, mehnat unumdorligi modifikatsiyasini 5.2.27 chizmada ko'rsatamiz.


Korxonada bozor samaradorligini hisobga olgan holda mehnat unumdorligi kontseptsiyasi



5.2.27-chizma. Korxonada bozor samaradorligini hisobga olgan holda mehnat unumdorligi kontseptsiyasi.

Unumdorlikni o'lchashdagi asosiy muammo shundaki, foydaga ta'sir qiladigan omillarni aniqlashdir, ya'ni firma tomonidan nazorat qilinadigan va firma nazorat qila olmaydigan omillar nazarda tutilmoqda. Bu erda moliyaviy natijaga ta'sir qiladigan va firma tomonidan qilinadigan omil mehnat unumdorligidir.

Foydalilik tashkiliy texnologik unumdorlik va bozor ta'siri bog'liqligi natijasi sifatida




5.2.28-chizma. Foydalilik tashkiliy texnologik unumdorlik va bozor ta'siri bog'liqligi natijasi sifatida.

Ikkinchi, ya'ni firma nazorat qila olmaydigan omil bu bozor sharoitlari bo'lib, asosan, bahoni o'z ichiga oladi. Muammo grafik ko'rinishida 5.2.28 chizmada ko'rsatilgandek bo'ladi.

5.2.28 chizmadagi nisbatning ma'nosini 5.2.29 chizmada ifodalashga harakat qilamiz.

Alohida korxonada faoliyatining ayrim sifat ko'rsatkichlariga ta'sir qiluvchi omillar



5.2.29-chizma. Alohida korxonada faoliyatining ayrim sifat ko'rsatkichlari ta'sir qiluvchi omillar.

5.2.29 chizmani indeks ko'rinishida 5.2.30 chizmada ifodalaymiz.

Moliyaviy natijani ichki va tashqi qismlarga ajratish

$$\begin{array}{ccc}
 \boxed{I_q = \frac{\sum q_1 p_0}{\sum q_0 p_0}} \quad (\times) & \boxed{I_p = \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_1 p_0}} \quad (=) & \boxed{I_{pq} = \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_0 p_0}} \\
 \circledast & \circledast & \circledast \\
 \boxed{I_z = \frac{\sum z_1 c_0}{\sum z_0 c_0}} \quad (\times) & \boxed{I_c = \frac{\sum z_1 c_1}{\sum z_1 c_0}} \quad (=) & \boxed{I_{zc} = \frac{\sum z_1 c_1}{\sum z_0 c_0}} \\
 \circledast & \circledast & \circledast \\
 \boxed{I_E} \quad (\times) & \boxed{I_{REC}} \quad (=) & \boxed{I_R}
 \end{array}$$

5.2.30-chizma. Moliyaviy natijani ichki va tashqi qismlarga ajratish.

Bu erda:

0,1 – bazis va hisobot davri;

I_q – ishlab chiqarilgan mahsulotning jismoniy miqdori indeksi;

I_p - baho indeksi;

I_{pq} - ishlab chiqarish indeksi;

I_z - xarajatlar jismoniy hajmi indeksi;

I_c - bir dona mahsulotga ketgan xarajatlar indeksi;

I_{zc} - xarajatlar qiymati indeksi;

I_E - mehnat unumdorligi indeksi;

I_{REC} - tannarxga nisbatan bahoning yuqori bo'lishi indeksi;

I_R - rentabellik indeksi yoki moliyaviy unumdorlik;

q - natural ko'rinishdagi mahsulot;

p - bir dona mahsulot bahosi;

z - natural ko'rinishdagi xarajatlar.

Mazkur tahliliy chizma quyidagi taqqoslashlar uchun ishlatilishi mumkin:

Reja;

Avvalgi davr;

Boshqa firmalar bilan.

Quyidagi misolda 5.2.17 jadval ma'lumotlarini tahlil qilib ko'ramiz. Bu erda taklif qilinayotgan model auditor uchun keng tahlil sharoitini yoritib boradi, ya'ni foyda ko'rsatkichi mehnat unumdorligi va tashqi baholar ta'siri ostida o'zgarishini aniq o'rganish imkonini beradi.

Stol ishlab chiqarish indeksi:

$$I_0 = q_1/q_0 = \frac{160}{200} = 0.8$$

Jami induvidual ko'rsatkichlar: ishlab chiqarish, xarajat, baho bo'yicha ham shu tariqa.

Ishlab chiqarish jismoniy ko'rinishdagi umumiy indeksi, qiymat bo'yicha baho va ishlab chiqarish indeksi:

$$I_q = \frac{\sum q_1 p_0}{\sum q_0 p_0} = \frac{92000}{90000} = 1,0222^1;$$

$$I_p = \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_1 p_0} = \frac{99600}{92000} = 1,0826;$$

$$I_{pq} = I_0 \cdot I_p = 1,0222 \cdot 1,0826 \cdot 1,1067.$$

Jismoniy ifodadagi material xarajatlarning umumlashgan indeksi:

$$I_{ZM} = \frac{\sum z_1 c_0}{\sum z_1 c_1} = \frac{22148}{21200} = 1,0447.$$

Bir kishi/soatiga ish haqining umumlashgan indeksi:

$$I_{SL} = \frac{\sum z_1 c_1}{\sum z_1 c_0} = \frac{38720}{29200} = 1,326.$$

Asosiy kapitalga qilingan xarajatlarning umumlashgan indeksi:

$$I_{ZSK} = \frac{\sum z_1 c_1}{\sum z_0 c_0} = \frac{33710}{32400} = 1,0404$$

Moliyaviy natijani ichki va tashqi bo'linuvchilarga ajratish

1		Miq dor	Baho	Qiymat	Miq dor	Baho	Qiy mat					Foydaning ko'payishi					
2		q ₀	p ₀	q ₀ p ₀	q ₁	p ₁	q ₁ p ₁	q ₁ p ₀	$I_{pq} = I_q \cdot I_p$			$I_R = I_E \cdot I_{REC}$	Jami	Unumdor lik hisobiga	Baho oshirish hisobiga		
3	Jami																
a	Stullar	1000	50	50000	1220	55	66000	60000	1,3200	1,200	1,1000						
b	Stollar	200	220	40000	160	210	33600	32000	0,8400	0,8000	1,0500						
v	Jami			90000			99600	92000	1,1067	1,0222	1,0826						
4		z ₀	c ₀	z ₀ c ₀	z ₁	c ₁	z ₁ c ₁	z ₁ c ₀	$I_{zc} = I_z \cdot I_c$ Δ			$R = \Delta E + \Delta REC$					
5	Moddiy xarajat:																
a	Yog'och	20000	1	20000	21000	1,2	25200	21000	1,2600	1,0500	1,2000	0,8783	0,9735	0,9022	-3067	-556	-511
b	Lak	100	10	1000	100	12	1200	1000	1,2000	1,0000	1,2000	0,9222	1,0222	0,9022	-93	22	-115
v	Bolt	200	1	200	148	1,08	160	148	0,8000	0,7400	1,0800	1,3834	1,3814	1,0014	61	56	5
g	Jami			21200			25560	22148	1,2528	1,0447	1,1992	0,8834	0,9785	0,9028	-3099	-478	-2621
6	Ish kuchi:																
a	Duradgor	4000	6	24000	3800	8	30400	22800	1,2667	0,9500	1,3333	0,8737	1,0760	0,8120	-3840	1733	-5573
b	Ishchi	1000	8	8000	800	10,4	8320	6400	1,0400	0,8000	1,3000	1,0641	1,2778	0,8328	533	1778	-1245
v	Jami			32000			38720	28200	1,2100	0,9125	1,3260	0,9146	1,1202	0,8165	-3307	3511	-6818
7	Energiya:																
a	Elektr	30000	0,1	3000	27000	0,14	3780	2700	1,2600	0,9000	1,4000	0,8783	1,1358	0,7733	-460	367	-827
8	Asosiy kapital:																
a	Pul	8000	0,075	600	7000	0,08	560	525	0,9333	0,8750	1,0667	1,1857	1,1682	1,0150	104	88	16
b	Qarz	24000	0,075	1800	24000	0,08	1920	1800	1,0667	1,0000	1,0667	1,1429	1,0222	1,1180	72	40	32
v	Zahira	12000	0,075	900	10125	0,08	810	760	0,9000	0,8438	1,0667	1,2296	1,2115	1,0150	186	161	25
g	Amor-ya	300000	0,050	15000	300000	0,051	15300	15000	1,0200	1,0000	1,0200	1,0850	1,0222	1,0614	1300	333	967
d	Foyda	300000	0,047	14100	315000	0,048	15120	14805	1,0723	1,0500	1,0213	1,0320	0,9735	1,0601	485	-392	877
e	Jami			32400			33710	32890	1,0401	1,0151	1,0249	1,0637	0,9878	1,0768	2147	-230	1917
9	Boshqa xarajat																
a	Soliq va sug'urta	1000	1,4	1400	1000	1,5	1500	1400	1,0714	1,0000	1,0714	1,0329	1,0222	1,0105	49	31	18
10	Jami			90000			104210	88338	1,1586	0,9815	1,1804	0,9552	1,0415	0,9171	-4670	3661	-8331

Jismoniy ifodaga ega xarajatlar umumiy indeksi:

$$I_z = \frac{\sum \sum z_1 c_0}{\sum \sum z_0 c_0} = \frac{88338}{90000} = 0,9815.$$

Ishlab chiqarish indeksi:

$$I_R = I_{pq} : I_{zc} = \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_0 p_0} : \frac{\sum \sum z_1 c_1}{\sum \sum z_0 c_0} = \frac{1,1067}{1,1586} = 0,9552;$$

$$I_E = I_p : I_z = \frac{1,0222}{0,9815} = 1,0415.$$

$$I_{REC} = I_p : I_c = \frac{1,0826}{1,1804} = 0,9171.$$

Mehnat unumdorligi o'sish hisobiga foydaning umumiy o'sish quyidagicha bo'lgan:

$$\begin{aligned} \Delta E &= (\sum q_1 p_0 - \sum q_0 p_0) - (\sum z_1 c_0 - \sum z_0 c_0) = \\ &= (92000 - 90000) - (88337 - 90000) = 3661. \end{aligned}$$

Ishlab chiqarilgan mahsulot va xom ashyo o'rtasidagi bahoning o'zgarishi hisobiga yo'qotishlar:

$$\begin{aligned} \Delta REC &= (\sum q_1 p_1 - \sum q_1 p_0) - (\sum z_1 c_1 - \sum z_1 c_0) = \\ &= (996000 - 92000) - (104270 - 88338) = -8332. \end{aligned}$$

Foydaning kamayishi quyidagicha bo'lgan:

$$\begin{aligned} \Delta R &= 3661 + (-8332) = -4671 = \\ &= (\sum q_1 p_1 - \sum q_0 p_0) - (\sum z_1 c_1 - \sum z_0 c_0). \end{aligned}$$

Har bir omil bo'yicha hisob-kitoblar quyidagicha amalga oshiriladi:

$$\begin{aligned} \Delta R &= \sum z_0 c_0 \cdot I_{pq} - \sum z_1 c_1; \\ \Delta E &= \sum z_0 c_0 \cdot I_q - \sum z_1 c_0; \\ \Delta RES &= \Delta R - \Delta E. \end{aligned}$$

Bu erda:

ΔR - xarajatlarni qiymat o'lchovidagi mahsulot ishlab chiqarishga proporsional o'sishi mumkinligi va haqiqiy xarajatlar o'rtasidagi farq.

ΔE - xarajatlarni doimiy baholardagi mahsulot ishlab chiqarishga proporsional o'sishi mumkinligi va doimiy baholardagi haqiqiy xarajatlar o'rtasidagi farq.

ΔRES - bahoning o'zgarishi oqibatida foydaning o'sishi va boshqa turli xarajatlar.

Masalan:

1) Materiallar bo'yicha:

$$\Delta R = 21200 \cdot 1,1067 - 26560 = 3099;$$

$$\Delta E = 21200 \cdot 1,0222 - 22148 = 478;$$

$$\Delta RES = 3099 - 478 = 2621;$$

2) Ishchi kuchi bo'yicha:

$$\Delta R = 32000 \cdot 1,1067 - 38720 = -3307;$$

$$\Delta E = 32000 \cdot 1,0222 - 29200 = +3511;$$

$$\Delta RES = -3307 - 3511 = -6818;$$

3) Jami xarajatlar bo'yicha:

$$\Delta R = 90000 \cdot 1,1067 - 104210 \approx -4670;$$

$$\Delta E = 90000 \cdot 1,0222 - 88338 \approx + 3661;$$

$$\Delta RES = -4670 - 3661 = -8331.$$

Materiallardan samarali foydalanish hisobiga ($\Delta E = 478$), materiallar va ishlab chiqarilayotgan mahsulotga bo'lgan narxlar nisbatining qulay bo'lishi hisobiga ($\Delta RES = 2621$) korxonada $\Delta R = 3099$ miqdorida foyda olgan.

Bir birlik ish kuchiga nisbatan xarajatlarning o'sishi ($\Delta RES = -6818$) undan bir qator samarali foydalanishga ($\Delta E = 3511$) qaramay, umumiy foydaning $\Delta R = -3307$ qisqarishiga olib kelgan.

Audit jarayonida mehnat unumdorligi ko'rsatkichiga e'tiborni qaratish texnika va texnologiyalar rivojlanib borayotganda katta ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, boshqarishda ob'ektga baho beruvchigina modelni yaratish emas, balki unga resurslar cheklanganligi sharoitida ta'sir qila oladigan qo'shimcha ma'lumot olish imkonini beruvchi modelni yaratish zarur. Boshqaruvchi uchun miqdoriy ma'lumot ob'ektni berilgan taraqqiyot parametriga olib chiqsa, u sifatli hisoblanadi.

Mehnat unumdorligi kuchli inflyatsiya sharoitida "xo'jalikning maqsadi - foyda" degan tushunchani to'ldirishi kerak, aks holda bozor iqtisodi strategiyasini amalga oshirish uchun raqobatchilar oldida zaif bo'lib qoladi. Shuni alohida qayd etib o'tish kerakki, ko'p omilli modelni qo'llashda nazariyotchilarning fikri amaliyotchilar tomonidan kam e'tiborga olinadi. Keltirilgan ko'p omilli model qo'llash uchun qulay bo'lib, bu ko'rinishdagi modellardan hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarning etakchi firmalari samarali foydalanilmoqda. Albatta, ko'p korxonada menejerlarida bunday murakkab hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun etarli boshlang'ich asos bo'lmasligi mumkin va ular oddiy hisoblab topiladigan ko'rsatkichlardan foydalanishni ma'qul ko'rishadi. Lekin, yangi texnika va auditorlik firmalari mutaxassislari malakasining oshishi korxonalar darajasini aniqlashga ko'p omilli modellarning kirishini tezlashtirmoqda. Yana shuni qayd etish kerakki, murakkab modellar ko'p hollarda boshqaruvchilarga strategik rejalashtirish uchun zarur va bunday ko'p omilli modellardan asosan yirik boshqaruv tizimlari uchun foydalaniladi. Eng quyi tizim alohida olingan zavod yosh fabrika bo'lishi mumkin.

5.3. Auditorlik firmalarining foydalilik darajasi va auditorlar mehnat unumdorligini aniqlash

Audit bu jarayon bo'lib, ob'ektga maqsadli ta'sir o'tkazish, ya'ni ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgandir. Bu yo'nalishni kuzatish va auditorlik funksiyalarini realizatsiya qilish uchun ob'ekt holatini modellashtirish, ya'ni uning asosiy tavsiflarini belgilar tiliga, birinchi navbatda sonlarga o'tkazish zarur. Real ob'ektlarga sonlar berish jarayoni o'lchash deyiladi. O'lchash yo'li bilan olingan sonlar (ko'rsatkichlar) ob'ekt holatini ob'ektning o'ziga bevosita murojaat qilmasdan o'rganish imkonini beradi.

Audit ma'lumotlaridan foydalanib, miqdoriy ma'lumotga tayangan holda boshqaruv qarorlarini qabul qilish sharti quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

Maqsaddan kelib chiqib ob'ektga baho berish uchun cheklangan belgilar miqdorini aniqlash;

- ajratilgan belgilarni o'lchash;

- o'lchash jarayonida olingan sonlar yordamida real ob'ektning matematik modelini yaratish;

- avvalgi bosqichda aniqlangan miqdoriy baholash asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish.

Audit natijalaridan foydalanib, qarorlar qabul qilish va bu qarorlarni qaydnomasida samarali ekanligi juda ko'p omillarga bog'liq, shulardan biri va asosiysi, albatta, auditorlarning mehnat unumdorligi bo'ladi. Lekin mehnat unumdorligi juda ham keng iqtisodiy tushunchadir.

Mazmuni jihatdan mehnat unumdorligi hajmi bo'yicha butun iqtisodni, tarmoq, korxonalar, ish o'rni, alohida mahsulot turini qamrab oladi. Mohiyati bo'yicha oldingi paragrafda ko'rib o'tganimizdek belgilangan vaqt ichida olingan mahsulot bilan namoyon bo'ladi. Lekin bizni izlanish predmeti sifatida bu ko'rsatkichning boshqa tarafi qiziqtirib, hozirgi kundagi vertikal, ya'ni ishlab chiqarish sohasidan farqli gorizontal, ya'ni xizmat ko'rsatish sohasidagi o'rnini o'rganishni maqsad qilib qo'ymoqdamiz, chunki buning iqtisodimizdan mehnat unumdorligini o'lchash va bundan foydalanish vertikal jihatdan yirik rivojlangan mamlakatlar amaliyoti bilan mos keladi. Gorizontal jihatlari O'zbekiston iqtisodiyotida va ilmiy davralarda ham etarli o'rganilmagan (5.3.31 chizma).

AQSh va O'zbekiston iqtisodiy sohasida mehnat unumdorligini o'lchash

	Moddiy ishlab chiqarish sohasi	Xizmat ko'rsatish sohasi
Boshqaruv apparati, ITX, ilmiy xodimlari	AQSh iqtisodida hisobga olinadi	AQSh iqtisodida hisobga olinadi
Mahsulot ishlab chiqarishda bevosita qatnashuvchi ishchilar	AQSh va O'zbekiston iqtisodida hisobga olinadi	AQSh iqtisodida hisobga olinadi

5.3.31-chizma. AQSh va O'zbekiston iqtisodiy sohasida mehnat unumdorligini o'lchash.

Auditorlar mehnat unumdorligini hisoblab chiqarishning zarurligi, avvalambor, quyidagi sabablar bilan bog'lanadi:

- O'zbekiston iqtisodida islohotlarni amalga oshirish juda tez sur'atlar bilan olib borilayaptiki, bunday sharoitda auditorlik firmalari o'z o'rnini aniq belgilab olishi kerak;
- Auditorlik faoliyatida inson omili birinchi o'rinda turadi, chunki tavakkalchilikni inson amalga oshiradi va audit natijalaridan ham insonlar qaror qabul qilishi uchun foydalanadi;
- Raqobat sharoitida auditorlik firmalari uchun ishlatilmayotgan, yashirinib yotgan rezervlarni topish zarur;
- Auditorlik faoliyatida samarali rag'batlantirish va mehnatga haq to'lash tizimini yaratish uchun;
- Auditorlik faoliyatida jonli va jonsiz mehnat resurslari o'rtasidagi mutanosiblikni tartibga solish uchun;
- Auditorlik firmalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun;
- Foydalanuvchi va xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasidagi munosabatlarni moliyaviy boshqarish tizimini barpo qilish va boshqalar.

Auditorlik firmalarida mehnat unumdorligi ikki ko'rinishda baholanishi mumkin:

1. Erishilgan natija;
2. Ko'rsatilgan xizmatlar.

Ma'lumki, yuqorida ko'rib o'tilganidek auditorlik firmalari bir qator xizmatlarni amalga oshiradilar va har bir xizmat so'nggi natija bilan yakunlanishi kerak. Lekin buni o'lchash bir qator qiyinchiliklar bilan kechadi. Erishilgan natija bo'yicha mehnat unumdorligini hisoblash auditorlik firmalari uchun bir muncha to'g'ri kelmasligi yoki aniq bo'lmasligi mumkin, negaki tekshirish natijalari turlicha bo'lishi mumkin va audit jarayonida bir qator tavakkalchilikka yo'l qo'yiladi.

Ko'rsatkichlarning ikkinchi guruhi - ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha, ya'ni mijozga qanday xizmatlar amalga oshirildi? degan savolga javob beradi. Bu erda bir nechta asosiy xizmatlarni olish mumkin: audit xizmatlari, soliq xizmatlari, buxgalteriya hisobini tiklash xizmatlari va konsalting. Xizmatlarning asosiysi bu moliyaviy xo'jalik faoliyatining auditidir va uni mehnat unumdorligi nuqtai nazaridan quyidagi jadval №5.3.18 da ko'rsatilgan tarkibiy qismlarga ajratish mumkin. Bu tarkibiy qismlar asosida hisoblangan ko'rsatkichlar bo'yicha auditorlik firmalari o'rtasida samaradorlikni baholash mumkin (5.3.18 jadvaldagi ko'rsatkichlar O'zbekiston Respublikasidagi ilg'or auditorlik firmalari misolida ishlab chiqildi).

O'zbekiston Respublikasi auditorlik firmalari faoliyati natijalarini o'lchashda inobatga olinadigan xizmat turlari va ular agregatlashgan yuk

Baholanadigan xizmat turlari	Hisoblanadigan indeks tartibi	Yuk (kuzatilgan auditorlik firmalarida mijoz to'lagan haqdan protsent hisobida)
Auditorlik xizmatlari		
1. Kassa va kassa muomalalarini tekshirish	Tekshirish uchun ketgan vaqt va hujjatlar soni	7,08
2. Bank muomalalarini tekshirish	Tekshirish uchun ketgan vaqt va hujjatlar soni	8,48
3. Mahsulot tannarxini tekshirish	Tekshirish uchun ketgan vaqt va hujjatlar soni	14,27
4. Laboratoriya tahlili	Mahsulotning texnologik jihatlarini tekshirish	2,83
5. Xronometraj	Ish vaqtini o'lchash	2,66
6. Asosiy vositalarni tekshirish	Inventarizatsiya	8,52
7. Konsultatsiya	Soliqlar bo'yicha	4,21
8. Buxgalteriya hisobining holatini tekshirish	Hisobotlar va analitik hisob	51,95
		100

Bu tartibdagi izlanishlarning so'nggi natijasi quyidagi savollarga javob bo'lishi mumkin:

- o'rtacha ko'rsatiladigan xizmatlar bo'yicha auditorlik firmalari o'rtasidagi farq;
- mijozlarga to'lanayotgan haqlarni o'rganish natijasida o'zgarish tendentsiyasi kuzatiladi;
- olingan natijalarni auditda qatnashgan ishtirokchilar soniga olib borib, ularga to'langan haq va ular ishlagan soatlar bilan taqqoslab, mehnat unumdorligiga o'xshash ko'rsatkichni olish mumkin;
- olingan natijalarni auditda qatnashgan ishtirokchilar soniga olib borib, ularga to'langan haq va ular ishlagan soatlar bilan taqqoslab, mehnat unumdorligiga o'xshash ko'rsatkichni olish mumkin;
- taqqoslash natijasida qaysi tartibga ko'proq e'tibor qaratish lozimligi ham o'rganilib, tahlil qilish imkonini beradi.

Tarmoqlar bo'yicha ayrim tekshirish turlari spetsifik jihatdan o'zgarishi mumkin.

Hozirgi kunda ko'plab rivojlangan mamlakatlarda, jumladan AQShning ko'plab firmalari xizmat ko'rsatish sohasida mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan maxsus dasturlar joriy qilmoqdalar (birinchilar qatorida bu ishni IBM amalga oshiradi)¹. Boshqa tomondan - ko'plab ilmiy tashkilotlar uchun bunday dasturlar ishlab chiqish va joriy qilish asosiy faoliyat turiga aylanib qolmoqda. Bu turdagi taniqli tashkilotlardan biri 1977 yilda tashkil topgan va AQShning yirik firmalariga xizmat ko'rsatadigan (jumladan Djeneral-Daynemiks, IBM, Eksson, Mak-Donnel Duglas, Rokuell Interneshnl va boshqalar) Amerika ishlab chiqarish markazidir (ARS).

Auditorlik firmalarida xodimlarning mehnat unumdorligini hisoblab topish metodikasini bayon qilishdan avval quyidagi fikr va mulohazalarni keltirishni lozim topdik:

Bu toifadagi ishchilarning mehnat unumdorligiga turli nuqtai nazardan qarash mumkin. Birinchidan, bu belgilangan guruh oldida turgan vazifani hal qilish aniq operatsiyani bajarish

¹ Strategies for productiuity: international perspectives. – VMPVB. 1984 y, 69-81 betlar.

samaradorligi sifatida qaraladi, lekin har bir bo'linma maqsadlari firmaning umumiy strategik vazifalari bilan kelishilishi zarur. O'zining ayrim jihatlari bo'yicha ilmiy nuqtai nazardan torliligiga qaramay, bunday yondoshish aniq guruhlarining mehnatini tashkil qilish va rag'batlantirish tizimini so'nggi natija bilan bog'lash imkonini beradi.

Ayrim mualliflar xizmat ko'rsatadigan xodimlarning mehnat unumdorligini firmaning umumiy faoliyatiga ko'rsatadigan ta'siriga qarab o'lchash tarafdoridirlar. Bu yondoshish P.Strassman va P.Draker uchun xarakterlidir. Nazariy jihatdan bu metodika yaxshi, lekin amaliy jihatdan murakkabdir. Mantiq jihatdan U.Rach kontsepsiyasi maqsadga muvofiqroq, u xizmat ko'rsatishda xodimlarni bajaradigan ishining og'irligiga qarab ajratadi va bajaradigan funktsiyasini so'nggi natijaga ta'sirini belgilashni oladi hamda har bir guruh uchun alohida mehnat unumdorligini baholash usulini taklif qiladi¹.

Auditorlik firmalari uchun mehnat unumdorligini oshirish dasturini 5.3.19 jadvalda keltirishga harakat qilamiz. Dastur olti bosqichdan iborat bo'lib, har bir bosqich to'la ishlangan.

Eng birinchi bosqichda asosiy faoliyat turi, ya'ni tekshirishlar olinadi; amalga oshiriladigan operatsiyalar taftish qilinadi; xizmat ko'rsatuvchi va mijoz o'rtasidagi aloqalar tahlil qilinadi.

Ikkinchi bosqichning asosiy vazifasi - guruhning maqsadlarini kompaniyaning umumiy strategik belgilashlari bilan bog'lanishini ta'minlash bo'lib, ko'rsatilayotgan xizmatni faqat odatiylik tuslanishidan chetlatishdir. Bu erda mazkur bo'g'inning zarurligi va mehnat unumdorligini oshirish yo'llariga e'tibor qaratiladi.

Oxirgi uchta bosqichda e'tibor xizmatlar sifatini yaxshilash shartlari bo'lgan texnik, tashkiliy va psixologik jihatlarni barpo qilishga qaratilgan.

Auditorlik firmalarining mehnat unumdorligini oshirish dasturi boshqa xizmat ko'rsatish sohalaridan, birinchidan, shu bilan farq qiladiki, unda asosiy maqsadga erishish o'zgargandir. Ya'ni xizmat ko'rsatish uchun xarajatlarni kamaytirish o'rniga birinchi o'ringa xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash va o'z vaqtida amalga oshirish kiradi. Buning uchun tez o'zgaruvchan bozor sharoitiga ko'nikish uchun doimiy innovatsiyalar zarur va yuqoridagi dastur, avvalambor, kasbiy samaradorlikka yo'naltirilgan.

¹ Ruch W. A. Measuring knowledge worker productivity. – In: Dimensions of productivity research, ed. Bu Hogan J.D. – ARS, 1980.


Auditorlik firmalarida mehnat unumdorligini oshirish dasturi sxemasi

Audit xizmati ko'rsatish bo'lagining iqtisodiy holati diagnozi	Maqsadni belgilash	O'lchash	Xizmatlar konsultatsiyasi	Mehnat unumdorligini oshirish komandalarini tuzish	Xizmat ko'rsatish protsessi texnologik ko'rsatkichlarini yaxshilash
1. Mazkur bo'g'inlarning so'nggi mahsuloti nimadan tashkil topishini aniqlash.	1. Mazkur bo'g'inning tashkil bo'lishi maqsadini aniqlash.	1. Samaradorlikka ta'sir qiladigan choralalar.	1. Xizmatlar qanday amalga oshirilashi to'g'risida aniqlik.	1. Mazkur bo'g'in ichida-i ishchilar o'rtasida va boshqa funktsional guruhlar bilan teng munosabatlar o'rnatish.	1. Xizmat ko'rsatish texnik asosiga e'tibor.
2. Foydalanuvchi-ni ko'rsatilgan xizmatning hajmi va sifati bo'yicha talabi va taklifini belgilash.	2. Bo'g'in oldida turgan maqsadga erishish perspektiva larini barpo qilish.	2. Ma'lumot-lar yig'ish usuli.	2. Mazkur bo'g'in oldida turgan maqsadga xizmatlar mos tushishi kerak.	2. O'zaro almashish va bir-birini straxovka qilish bo'yicha kelishish.	2. Og'ir va mayda ishlarni samarali bajarish
3. Mehnat unumdorligini oshirish mumkin bo'lgan nuqtalarni belgilash.	3. Bo'g'inning maqsadlarini ko'rsatilayotgan xizmatlar bilan bog'lash	3. Ishdagi ijobiy ta'sir qilayotgan ma'lumotlar ni yig'ish.	3. Xizmatlarni yaxshilash uchun imkoniyatlar topish. 4. Ofisda yangi texnologiya joriy qilish uchun imkon topish.	3. Kooperatsiya va faol ishtirok etishni rag'batlantirish.	3. Kommunikatsion oqimlarni rivojlantirish.

Ikkinchidan, boshqa sohalarda mehnat unumdorligini oshirish har bir ishchining faoliyati samaradorligiga qaratilgan bo'lsa, keltirilgan dasturda guruh samaradorligiga qaratilgan. Shu bilan birga guruh uchun ham samaradorlik butun firmaning faoliyat nuqtai nazaridan qaralgan. Mehnat unumdorligini oshirish uchun foydalanilgan tashkiliy-texnik usullar ham turlichadir. Masalan, boshqa sohalarda bu ish joyini texnik ta'minlanishi va texnik jihozlanishini oshirish bo'lsa, keltirilgan audit firmalari mehnat unumdorligini oshirish dasturiga binoan xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasida kooperatsiyani rag'batlantirish, ma'lumot almashish kanallarini rivojlantirish texnik jihozlashni oshirish bilan birga xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligini oshirish manbai bo'ladi.

Uchinchidan, keltirilgan dastur konsultantlar emas, balki shu guruhning maxsus tayyorgarlikdan o'tgan biron ishtirokchisi joriy qiladi. Va nihoyat, dastur ma'lum bir «bo'sh» tizimni yaxshilash uchungina emas, balki jamoani xizmatlari sifatini va unumdorligini oshirishga qaratilgan. Keltirilgan dasturni joriy qilishning murakkab elementlaridan biri bu o'lchash muolajalaridir (5.3.32 chizma).

Mehnat unumdorligini yaxshilash rejasi



5.3.32-chizma. Mehnat unumdorligini yaxshilash rejasi.

Hozirgi kunda AQSh iqtisodida va ilmiy dargohlarida xizmat ko'rsatish sohasi xodimlarining mehnat unumdorligini o'lchashning analitik usullarini qo'llashni cheklash va ozaytirish kompaniyasi olib borilmoqda. Lekin qo'yilgan maqsadga son ko'rsatkichlarida qanday erishish mumkinligi usullari taklif qilinmagan.

Shu tufayli boshqaruv tizimida va amaliyotda chuqur o'lchash muomalalarini qo'llamay iloji yo'q, auditorlar mehnat unumdorligini oshirish ham shular jumlasidan. Albatta, aniqlik metallurg yoki slesar mehnat unumdorligini o'lchashdagidan farq qiladi (5.3.20 jadval).

5.3.20 Jadval

Turli tarmoqlarda mehnat unumdorligini baholash aniqligi

Tarmoq	Qishloq xo'jaligi	Qayta ishlash tarmog'i	Xizmat ko'rsatish
Ishchilarning asosiy tartibi	Asosiy ishchilar		Xizmatchilar
Mehnat unumdorligini baholash	Natural	Qiymat	Natural va qiymat ko'rsatkichlari yig'indisi
Baholashning aniqligi	Juda aniq	Aniq	Taxminiy baholash

Moddiy boyliklar yaratish sohasidagi ishchilar va xizmat sohasidagi xizmatchilar mehnat unumdorligini o'lchashda ham bir qator printsiplial farqlar mavjud:

1) Moddiy boylik yaratish sohasidagi ishchilar faoliyati jonsiz mehnat, ya'ni mashina va mexanizmlar bilan bog'liq.

2) Moddiy boylik yaratish sohasidagi ishchilar unumdorligini har bir ishchining individual mehnat unumdorligiga kollektiv funktsiyalarni bajarish bilan bog'liq. Bu erda individual unumdorlik to'g'risida gapirish qiyin.

Shu bilan birga o'lchash va hisoblash muolajalarini chetlab o'tishning imkoni bo'lmayapti, chunki har qanday dasturning samarali amal qilishi uchun zarur ma'lumotlar kerak.

Umuman mehnat unumdorligini hisoblash uchun (shu jumladan xizmatchilarni ham) natijani ajrata bilish kerak. Agarda moddiy boylik yaratuvchining unumdorligi tashqi xarakterga ega bo'lib, uni mutaxassislar aniqlasa, masalan normalashtiruvchilar xizmatchilarning mehnat unumdorligi shu xizmatchi xizmat qilayotgan bo'g'in yoki guruh xizmatchilarining faol ishtirokida aniqlanadi.


Guruh xizmatchilarining o'zlarini baholash ko'rsatkichlarini ishlab chiqishga jalb qilish jarayoni parallel ikkita muhim masalani hal qilish imkonini beradi:

1) Guruhlarni rag'batlantirish: insonlar doimo o'zlari ishtirok etgan rejalashtirishni yaxshi bajaradilar;

2) Guruh oldida turgan so'nggi maqsadni ishtirokchilarning o'zlari aniq belgilashadi.

Auditorlar mehnat unumdorligini hisoblashning eng birinchi xususiyati ham yuqoridagilardan iborat bo'lib, hisoblash jarayoni ketma-ketligini quyidagi 5.3.33 chizmada ko'rsatishga harakat qilamiz.

Auditorlar mehnat unumdorligini hisoblash jarayoni



5.3.33-chizma. Auditorlar mehnat unumdorligini hisoblash jarayoni.

Ikkinchi xususiyat shundan iboratki, auditorlik xizmatlari turlicha bo'lganligi sababli, konveyer ishchisidan farqli, ularning mehnat unumdorligi bir nechta ko'rsatkich bilan ifodalanishi mumkin. Unumdorlik avvalambor xizmat sifati, o'z vaqtida amalga oshirilishi va resurslar xarajati bilan aks etishi kerak.

Shunday qilib, yuqoridagilarni umumlashtirgan holda boshqa xizmat turlaridan farqli auditorlar mehnat unumdorligini hisoblash uchun quyidagi muolajalar taklif etiladi.

5.3.21 Jadval

Auditorlar mehnat unumdorligini hisoblash muolajalari

№	Boshqa xizmat ko'rsatish sohalari uchun	№	Auditorlik firmalari uchun
1.	Choralar faoliyatini aks ettiradi	1.	Xizmat natijasini aks ettiradi
2.	Choralar tashqaridan belgilanadi	2.	Auditorlarning faol ishtirokida belgilanadi
3.	Har bir xizmatchi uchun	3.	Xizmatchilar guruhi uchun
4.	Xarajatlarni cheklashga qaratilgan	4.	Xarajatlar vaziyatdan kelib chiqib belgilanadi
5.	Yagona mezon	5.	Bir nechta ko'rsatkich
6.	O'zini boshqalar bilan taqqoslash	6.	O'zini bir necha davr davomida taqqoslash
7.	Nazorat tashqaridan, jazolashga qaratilgan	7.	Nazorat ishtirokchilarning o'zi bilan birga tashqaridan, muammoni hal qilishga qaratilgan

Hozirgi kundagi xizmat sohasida mehnat unumdorligini hisoblash faoliyat jarayonini baholashga qaratilgan bo'lib, guruh tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar chetda qolmoqda. Masalan: sekretarlar o'z ishini qabul qilingan hujjatlar, bajarilgan nusxa olishlar, telefon qo'ng'iroqlari soni orqali, menejerlar - majlislar, xizmat xatlari, topshirilgan ariza va boshqalar bilan baholaydi. Bular inson faoliyatining ko'rinishi bo'lib, so'nggi natijani ifodalamaydi. Bu tizim kam hollardagina istemolchining manfaatlariga javob beradi. Ishchilar soni, sarflangan soatlar kabi ko'rsatkichlardan foydalanish ular hisoblashga moyil bo'lgani uchun qo'llaniladi. Lekin faqatgina natijani emas, balki so'nggi natija sifatida foydalanuvchilarga nafi tegadigan natijani hisoblash zarur. Samaraga e'tibor berish samaradorlikdan farqli innovatsiyalarga jalb qiladi, xizmatlar sifatini va o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Rivojlangan mamlakatlarda ilmiy doiralar «samara» va «samaradorlik» kategoriyalarini chuqur o'rganishmoqda. Bu kategoriyalar rejasi iqtisod davrida ham chuqur o'rganilgan, lekin mulkiy munosabatlar chiqarilgan ilmiy xulosalarga doimo mos kelavermaganligi sababli ulardan olingan nafni baholash mushkul. Shuni qayd etib o'tish kerakki, samaradorlik foydalilikni belgilab beradi va shuning uchun bozor sharoitida yaxshi qabul qilinadi, lekin xorijiy iqtisodchilar bu kontseptsiyani tanqid ostiga olishmoqda. Ayniqsa, xizmat sohasida mehnat unumdorligini oshirish borasida bu yondoshish bo'shdir. Bu fikrni, ya'ni harakatlar va progressiv choralar bilan taqqoslash misolida ko'rish mumkin (5.3.22 jadval).


5.3.22 Jadval

Auditorlik firmalari mehnat unumdorligini hisoblashga ikki xil yondoshish

№	Funksiya	Xizmat	Mehnat unumdorligi choralari	
			an'anaviy	taklif qilinadi
1.	Amaliy audit	Audit natijasi, xulosa	Rejaga nisbatan haqiqiy qilingan xarajat	Muvaffa qiyatli innovatsiya
2.	Marketing va xizmatli sotish bo'limini boshqarishning funktsional majburiyatlarini ishlab chiqish	Firma taqdim etadigan ma'lumot tizimi	Rejaga nisbatan haqiqiy qilingan xarajat	Firmaning bozor munosabatlariga erishishi
3.	Uskunalar to'plash	Firmaning maqsadga erishishi uchun uskunalar xarid qilish	Rejaga nisbatan haqiqiy qilingan xarajat	Uskunalar ning texnik imkoniyat lari

Yaxshi hisoblash tizimi eng avvalgi o'ringa samarani qo'yadi. Mehnat unumdorligini o'lchash choralari tizimining konstruksiyasi auditorlik firmalari uchun quyidagicha bo'lishi mumkin (5.3.34 chizma).

Unumdorlik choralari belgilash chizmasi



5.3.34-chizma. Unumdorlik choralari belgilash chizmasi.

Masalan: Soha – Audit.

Xizmat: Moliyaviy audit - kompaniya tomonidan amalga oshirilgan muomalalarning auditi. Talab darajasidagi baho chegarasida foydali natija berishi kerak. Har bir auditni aniqlik darajasi hajm va tavakkalchilik bilan qayta o'lanishi kerak.

Maqsad: 1. Audit belgilangan vaqtda tugatilishi kerak.

2. Audit sifatini oshirish kerak.

Chora: 1. Audit o'tkazish uchun ajratilgan soatlar

Audit o'tkazishga sarflangan soatlar.

2. Audit sharoitining nazorati natijalari.

Ayrim hollarda firma faoliyati bir qator ko'rsatkichlar bilan baholanishi mumkin. Bunda statistik usuldan foydalanish tavsiya etiladi (5.3.23 jadval).

5.3.23 jadvalda kerakli ma'lumotlar va mehnat unumdorligining oshishi o'rtacha arifmetik tarzda keltirilgan. Hozirgi kunda bunday statistik hisob-kitoblar rivojlangan yirik auditorlik firmalarida mehnat unumdorligini rejalashtirish uchun qo'llanilmoqda.

Lekin shuni alohida qayd etish kerakki, sonlar va raqamlar yordamida ma'lum bir ko'rsatkichni statistik yo'l bilan hisoblab topishga ko'p ham qiziqib bo'lmaydi. So'nggi natija har bir ko'rsatkichga berilgan og'irlik bilan belgilanadi. Agarda muolaja takrorlansa, mavjud bo'lishi mumkin. Har holda imkon qadar og'irlikni belgilashga ob'ektiv yondoshish zarur.

3.23 Jadval

Auditorlik firmasining bo'g'inlari uchun mehnat unumdorligining tortilgan indeksi

Mehnat unumdorligiga baholash ko'rsatkichlari	Mos o'lchov birligida ko'rsatkich hajmi		Ko'rsatkich indeksi	Ko'rsatkichga berilgan og'irlik darajasi	Tortilgan natija	Bo'g'inlarga berilgan og'irlik darajasi	Bo'g'inlar bo'yicha tortilgan unumdorlik indeksi (umumiy)
	Bazis yili	Hisobot yili					
1	2	3	4=3:2	5	6=4x5	7	8=6x7
Bo'g'in A							
Ko'rsatkich a ₁	120	160	1,33	0,30	0,40		
Ko'rsatkich a ₂	70	80	1,14	0,20	0,23		
Ko'rsatkich a ₃	150	190	0,76	0,50	0,38		
				1,00	1,01	0,60	0,61
Bo'g'in V							
Ko'rsatkich v ₁	60	70	1,17	0,70	0,82		
Ko'rsatkich v ₂	4	3	0,75	0,30	0,22		
				1,00	1,04	0,40	0,42
						1,00	1,03

Buning uchun quyidagicha yondoshishni taklif etamiz: ya'ni:

Birinchidan, texnik nominal guruhlar tashkil etish zarur bo'ladi. Ular nostandart vazifalarni kollektiv yordamida hal qilish imkonini beradi. «Nominal» deyishdan maqsad guruhdagi har bir shaxs qaror qabul qilishda individual fikrga egadir. Bunda guruh rahbari belgilanadi va u faoliyat bilan yaxshi tanish bo'lishi kerak. Guruh hajmi 6-12 kishi bo'ladi;

Ikkinchidan, hisoblash tizimining maqsadi xizmat jarayonini baholashdan iboratdir. Xizmat ko'rsatishda eng ko'p muammo chiqqan bo'g'inni muhokama qilish zarur. So'ng natijani hisoblash kerakligi va ishtirokchilar xizmat ko'rsatishda bir birlari bilan bog'liqligi alohida qayd etiladi;

Uchinchidan, har bir ishtirokchi hech bo'lmaganda bitta mehnat unumdorligini oshirish chorasini taklif qilishi kerak;

To'rtinchidan, fikrlar jamlangach, muhokama qilinadi va har bir ishtirokchi har bir chorani tushunishi zarur;

Beshinchidan, guruh o'nta ko'rsatkichni tanlaydi va ovoz berish o'tkaziladi.

Ovoz berish quyidagi tartibda o'tkaziladi. Har bir ishtirokchi o'ziga ma'qul bo'lgan 7-10 ta chorani tanlaydi va ma'qullik darajasi bo'yicha tikadi (teradi). Masalan, eng muhim chora uchun 8 soni va kamroq muhimlikdagi choralarga 7, 2, 1 va hokazo sonlar beriladi (5.3.24 jadval).

5.3.24 Jadval

**Auditorlik firmasi uchun texnik nominal guruhning unumdorlik choralarini belgilanishi
(ishtirokchilar soni – 12, ko'rsatkich - 8)**

№	Ajratib olingan choralar	Ovozlar	Ovozlar va ochkolar
1.	Xizmatni o'lchash, resurslardan foydalanish	8, 8, 8, 8, 8, 8, 8, 7, 4, 8, 5, 1	$\frac{12}{81}$
2.	O'z vaqtida bajarilgan vazifalar foizi	7, 7, 7, 6, 6, 7, 4, 3, 5, 4, 5	$\frac{11}{81}$
3.	Byudjet chegarasida o'z vaqtida bajarilgan loyihalar	7, 7, 6, 7, 5, 3, 8, 7, 5	$\frac{9}{55}$
4.	Muvaffaqiyatli bajarilgan loyihalar foizi	7, 6, 6, 6, 5, 4, 3, 1	$\frac{8}{38}$
5.	Mijozlar guruhga necha marta yordam so'rab murojaa qildi	7, 6, 6, 6, 5, 4, 3, 1	$\frac{8}{38}$
6.	Mijozning qoniqishini kuzatilishi	1, 3, 7, 6, 6, 6	$\frac{6}{29}$

Choralar ajratib olingandan so'ng guruh a'zolariga savollar beriladi:

Ajratib olingan ko'rsatkichlar qo'yilgan maqsadni to'la qamrab oladimi?

Ajratib olingan choralarda sifat va boshqa muhim omillar hisobga olinganmi?

Turli xizmatlar uchun ajratilgan choralar bir ko'rsatkichga jamlanadimi?

Xizmat ko'rsatish jaryonida haqiqatda choralar kritik nuqtani aks ettiradimi?

Bu savollardan so'ng, albatta, amaliyotda etishmaydigan choralarni ham qo'llashga majbur bo'lindi;

Oltinchidan, jami ko'rsatkichlar auditorlik firmasi rahbariga taqdim etiladi va u ajratilgan ko'rsatkichlar ichidan 3-5 chorani tanlab oladi. Mehnat unumdorligini baholash uchun shu ko'rsatkichlar asos qilib olinadi.

Bozor iqtisodi sharoitida auditorlar mehnat unumdorligini hisoblash raqobat kuchli bo'lganligi tufayli muhim rol o'ynaydi va keltirilgan takliflar o'rinli bo'ladi, deb hisoblaymiz.

VI BOB. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR AUDITI

Valyuta tizimi bu ikki element, ya'ni valyuta mexanizmi va valyuta munosabatlarini o'z ichiga oladi. Valyuta mexanizmi deganda valyuta bilan bog'liq milliy va xalqaro darajadagi huquqiy normalar tushuniladi. Tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga solishda bu mexanizm ustidan nazoratni olib borish zarur.

Tashqi iqtisodiy munosabatlar hamkorlikning markaziy sohalaridan biri hisoblanadi. Turli mamlakatlar bilan iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalarni har tomonlama rivojlantirish va faollashtirish ular o'rtasidagi do'stona munosabatlarni mustahkamlashning muhim omili bo'lib, u iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishga ta'sir ko'rsatadi.

6.1. Valyuta muomalalarining auditi

Tashqi iqtisodiy munosabatlarni samarali amalga oshirish xo'jalik tarmoqlarining keng rivojlanishiga, sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining takomillashishiga, ayrim tarmoqlar va ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va texnologiya bilan qurollantirishga, tabiiy-jo'g'rofiy sharoitlardan, mineral xom ashyo va inson resurslaridan yanada samaraliroq foydalanishga imkon beradi. Samarali amalga oshirilayotgan munosabatlar mamlakat oldida turgan ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishga yordamlashadi.

Xalqaro iqtisodiy aloqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etish uchun jahonning yuksak talablariga javob beradigan hisob va hisobot tizimini shakllantirish zarur, chunki har qanday iqtisodiy aloqani samarali amalga oshirish zamirida ishtirokchilarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan tanishishlari turadi. Albatta, bu tanishish korxonalar moliyaviy hisobotlarini o'qish orqali amalga oshib, ishtirokchilar bu hisobotlarning haqqoniyligi va to'g'ri tuzilganligiga ishonch hosil qilishlari kerak bo'ladi. Bunday ishonch mezoniga hisobotning auditorlik nazoratidan o'tganligi va qanday xulosalanganligiga qarab erishiladi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasiga investitsiyalarni amalga oshirish va qo'shma korxonalar ochish uchun, asosan, O'zbekiston Respublikasining firmalari faqat xalqaro auditorlik firmalari xizmatidan foydalangandagina taqdim etgan hisobotlari inobatga olinayapti. Bu mahalliy auditorlik firmalarining mavqeini oshirishni taqozo etadi.

Kassadagi valyuta mablag'larining nazorati uchun test jadvali

№	Savol	Javob			Izoh
		Javob yo'q	ha	yo'q	
Nazorat o'tkazish					
1	Choraklar bo'yicha qoldiqlar inventarizatsiyasi o'tkaziladimi?			+	
2	Kassada to'satdan inventarizatsiya o'tkaziladimi?		+		
3	Kassadagi qoldiqni topshirishda bosh buxgalter ishtirok etadimi?			+	
4	Kassir hisobotlarini bosh buxgalter tekshiradimi?			+	
5	Yil oxiriga valyuta mablag'lari qoldig'ining inventarizatsiyasi o'tkaziladimi?			+	
Mablag'larning saqlanishi					
6	Valyuta mablag'lari yonmaydigan seyfa saqlanadimi?			+	
7	Kassa xonasida signalizatsiya bormi?			+	
8	Idoraviy qo'riqlash tashkiloti bilan shartnoma bormi?			+	
9	Kassirni bankdan pul olib kelishida himoyasi tashkil qilinganmi?			+	
Haqiqatda					
10	Valyuta mablag'lari bo'yicha kirim va chiqim hujjatlari rasmiylashtiriladimi?	+			
11	Kassa hisobotini tuzish: a) har kuni b) hujjatlarning to'planishiga qarab	+		+	
12	Valyuta yo'nalishi bo'yicha alohida kassa hisobotlari tuziladimi?			+	
To'lalilik					
13	Kassaga kelib tushgan valyuta tushumining hammasi bankka topshiriladimi?	+			
Hal qilish					
14	Kassadan berilayotgan valyutani aks ettiruvchi hujjatlarda ikkita imzo bo'lishi shartmi?			+	
Tasniflash					
15	«Chet el valyutasi kassasi» schyoti bo'yicha berilgan korxonalar uchun xarakterli schyotlar korrespondentsiyasi ishlab chiqilganmi?			+	
Hisob					
16	Buxgalteriyada moddiy boyliklar realizatsiyasi va ish xizmatlar bo'yicha kelib tushgan valyuta mablag'lari hisobi bilan taqqoslanadimi?			+	
17	Qaydnoma jurnallarida kassa kirim va chiqim orderlari ularda ko'rsatilgan sana bo'yicha qayd etiladimi?			+	
18	Valyuta kassasi bo'yicha kassir har kuni buxgalteriyaga hisobot topshiradimi?			+	
19	Kassadagi valyuta mablag'lari bo'yicha kurslar farqi muomala amalga oshgan kundan O'zRMB o'rnatgan kurs bo'yicha amalga oshiriladi?		+		

O'zbekiston Respublikasida tuzilayotgan auditorlik firmalarining xalqaro talab darajasiga ko'tarilishi va auditorlik xizmatlarini jahon standartlari darajasida olib borishi uchun audit metodikasini hamda moddiy-texnik bazasini yaxshilash bilan bir qatorda valyuta muomalasining auditi masalalarini ishlab chiqish zarur bo'ladi.

Valyuta muomalalari auditi masalalari kassadagi mablag'lar auditidan boshlanadi. Auditni boshlashdan avval auditor buxgalteriya xodimlaridan kerakli ma'lumotni olib, ichki nazorat tizimini baholaydi va kassadagi valyuta mablag'larini tekshirish uchun test savollarini ishlab chiqishi zarur bo'ladi. Taxminiy ichki nazorat testlarini 6.1.25 jadvalda ko'rsatamiz.

6.1.25jadvalda keltirilgan misoldagi anketa savollaridan shunday xulosa qilish mumkinki, tekshirilayotgan korxonada pul mablag'lari harakati ustidan nazorat past darajada bo'lgan va umuman nazoratning yo'qligi to'g'risida xulosa qilsa bo'ladi.

Albatta, shunday hollarda kassa yoppasiga tekshirilishi shart. Bankdan olingan valyuta mablag'larini o'z vaqtida va to'la kirimini tekshirish uchun auditor bir qator testlarni o'tkazgani ma'qul bo'ladi. Quyida keltirilgan ish jadvali yordamida pul mablag'larini kirim qilinishini tekshirishni taklif qilamiz (6.1.26 jadval).

Keltirilgan 6.1.26 jadval tekshirish davriga tuziladi, bu jadval bo'yicha pul mablag'larini maqsadga muvofiq ishlatilishi, o'z vaqtida kirim qilinishi hisobining haqqoniyligini qisman tekshirib chiqish mumkin. Jadvalda chek nomerlari to'la yoziladi va chekning qismi bo'yicha to'ldiriladi, ishdan chiqqan chek raqamlari to'g'risiga «annulirovano», ya'ni «bekor qilingan» deb ko'rsatiladi. Jadvalni auditor to'ldiradi va bu to'la kassa muomalalarini tekshirishga zamin bo'ladi. Bunday tekshirish auditorlik tavakkalchiligini minimal darajaga olib keladi.

6.1.26 Jadval.

Pul mablag'lari kirim va chiqimini tekshirish jadvali

№	Chek №	Chek bo'yi cha ariza	Bank ko'chi rmasi sana	Kassa kirim order sana	Kirim				Boshqa kirim			Jami kirim
					Ish haqi	Nafa qa	Hi sob dor shaxs	Mayda huj jat	To'1 ov	His shaxs	Har xil	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13

davomi

Chiqim							Jami chiqim	Jad val bo'yicha qoldiq	Bux. hisobi bo'yicha qoldiq	O'zgarish	
Ish ha qi	Nafa qa	Hisob shaxs	Mayda xarajat	Har xil	Har xil	Har xil				-	+
14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25

Shuni qayd etib o'tish kerakki, jadvalni to'ldirish jarayonida kassa hisobotiga ilova qilinayotgan hujjatlarning haqqoniyligini ham tekshirish zarur bo'ladi. Kassa muomalalarining nazoratida quyidagilar tekshiriladi:

- kassa hisobotlarining o'z vaqtida topshirilishi va qabul qiluvchi shaxsning imzosi;
- bankdan olingan mablag'larni maqsadga muvofiq ishlatish;
- valyuta tushumi o'z vaqtida bankdagi tranzit schetga topshirilishi belgilangan tartibda majburiy valyuta sotishlarini amalga oshirilishi;
- valyuta mablag'larining hisobini ajratib olib borish ta'minlanganligi;
- kassa hujjatlarini maxsus shtamplar bilan belgilanishi;
- xarajatga chiqarilayotgan valyuta mablag'larining haqqoniyligi va zarur balans schyotlariga to'g'ri olib borilishi.

Qaysi holatlarda qanday testlar o'tkazish kerakligini bilgan holda auditor kassadagi pul mablag'larining yo'nalishi muomalalarini tekshirish bo'yicha auditorlik dasturini tuzadi (6.1.27 jadval).

6.1.27 Jadval.

Valyuta mablag'larini yo'nalishi bo'yicha nazorat o'tkazish dasturi

№	Dastur savollari	Ma'lumot manbai	Izoh (qo'llaniladigan usullar)
1	Kassa inventarizatsiyasi	Kassir hisoboti, registrlar, valyuta miqdori	Sanash, taqqoslash
2	Valyuta mablag'larini o'z vaqtida kassaga kirim qilinishi: a) bank muassasasidan b) tovarlar, ish va xizmatlar sotishdan	Bank ko'chirmasi, kassir hisoboti Realizatsiya hisobi vedomosti, kassir hisoboti	Ko'rib chiqish, taqqoslash, sanash Sanash, ko'rib chiqish
3	Kassadan berilayotgan valyutaning maqsadga muvofiqligi (hujjatlar bilan tasdiqlanishi)	Kassir hisobotlari	Tasdiqlash, ko'rib chiqish
4	Valyuta kursi bo'yicha farqlarni aniqlashni tekshirish	Kirim, chiqim orderlari, Markaziy bank o'rnatgan kurslar	Sanash, ko'rib chiqish
5	Muomalalarning buxgalteriya schetlarida aks ettirilishi	Buxgalteriya hisobi registrlari, kassir hisobotlari	Ko'rib chiqish, o'rganish

Valyuta mablag'lari kirimini taqqoslash va o'z vaqtida to'g'ri aks ettirilishini tekshirish quyidagi jadval shaklida amalga oshirilsa, maqsadga muvofiqdir (6.1.28 jadval).

Jadval ma'lumotlaridan korxonada ichki nazorat tizimining *sifatligi* haqida xulosa qilish mumkin, ya'ni 250 AQSh dollari kam kirim qilingan bo'lib, bu miqdor O'zbekiston valyutasida 100000 so'mni tashkil qilgan.

6.1.28 Jadval

**Valyuta mablag'larini o'z vaqtida va to'g'ri kirim qilish
Auditorning F.I.Sh.**

№ T/N	Bank ko'chirmasi bo'yicha				Kassir hisoboti bo'yicha				O'zgarish			
	Sana	Ko'-chir- ma №	Valyu- ta, (AQSh dolla- ri)	So'm	Sana	Ko' chir ma №	Valyu ta, (AQSh dollari)	So'm	Valyuta		So'm	
									+	-	+	-
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
1	19.01	27	1200	4800000	19.01	26/1	1200	480000	-	-	-	-
2	17.02	30	1500	600000	17.02	32/1	1500	600000	-	-	-	-
3	22.03	31	2000	800000	22.03	22/3	2000	800000	-	-	-	-
4	26.04	33	3650	1460000	22.03	36/4	2000	800000	-	-	-	-
5	21.05	36	4000	1600000	21.05	26/5	4000	1600000	-	-	-	-
6	12.06	37	1000	400000	12.06	17/8	750	300000	-	250	-	100000
7	17.07	38	2000	800000	17.07	32/7	2000	800000	-	-	-	-
va hokazo												
Jami			15350	6140000			15100	6040000	-	250	-	100000

Chet el valyutasiga savdo qilish huquqini olgan litsenziyasi mavjud korxonalarda valyuta tushumini kirim qilishda ko'zbo'yamachiliklarga yo'l qo'yilishi mumkin. Kirim qilishning to'laligini tekshirish uchun tovarlarni jo'natish hujjatlari pulni kassaga qabul qilinishi hujjatlarini ko'rib chiqish mumkin (6.1.29 jadval).

6.1.29 Jadval

**Tovarlar realizatsiyasi bo'yicha valyuta tushumi va to'laligi
Auditorning F.I.Sh.**

№	Sana	Shakl №	Tovarlar nomi	Qiymat		Kassaga kirim			O'zgarish
				doll	so'm	sana	doll	summa	
1	10.05	163	Televizor	300	120000	03.05	300	120000	-
2	20.05	162	Xolodilnik	500	200000	30.05	300	120000	-80000

Tovarlar realizatsiyasi bo'yicha tushumni o'z vaqtida kirim qilinishini tekshirish jarayonida kassirni pul mablag'larini faqat kassir tomonidan yoziladigan kirim orderlari bo'yicha kirim qilish hollari bor yoki yo'qligini aniqlash kerak. Bunday qo'pol xatolar mavjud bo'lsa, auditor, albatta, o'z xulosasida qanday sharh berish kerakligi haqida o'ylab ko'rishi va kam chiqqan pul mablag'larini kamomadlar schyotida aks ettirilishini talab qilishi mumkin bo'ladi (6.1.29 jadval).

Auditorning bosh maqsadi yuqorida aytib o'tilgandek, ko'zbo'yamachiliklarni aniqlash emas, balki moliyaviy hisobotning haqqoniyligini aniqlashdir. Buning uchun pul mablag'lari yo'nalishini va uning buxgalteriya hisobida aks ettirilishini tekshiriladi. Ayrim hollarda buxgalter daromadni yashirish va byudjetga to'lanadigan soliqlarni kamaytirib ko'rsatish maqsadida schyotlar korrespondentsiyasini noto'g'ri amalga oshirishi mumkin.

Kassadagi valyuta mablag'lari qoldig'i hisobot tuzish sanasiga qayta baholanishi kerak. Kurslar bo'yicha farqni tekshirish uchun ish jadvali taklif etiladi (6.1.30 jadval).

Bozor iqtisodi sharoitida O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan valyuta bozorini yanada takomillashtirish borasidagi ishlar samaradorligini va qiymatini oshirishda auditorlik xizmatining vazifalari yanada oshib boradi, chunki valyuta muomalalarining asosiy qismi kassa orqali amalga oshirilishi tufayli audit usullarini ishlab chiqish O'zbekiston iqtisodi uchun hozirgi kunda dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu bilan bir qatorda valyuta schyotlari bo'yicha bank muomalalari auditi masalalarining ayrim muammolari ustidan to'xtalishni lozim topadi.

6.1.30 Jadval

Kassadagi valyuta mablag'lari muomalalar va qoldiq bo'yicha kurs farqlarini belgilanishini tekshirish

№	Sana, h. k/s №	Summaga nisbatan AQSh dollari kursi	Kassadan berildi, qoldiq		Auditor ma'lumoti bo'yicha, so'm	O'zgarish	Aks ettirilishi kerak	
			AQSh dollari	so'm			Debet	Kredit
1	2	3	4	5	6	7	8	9
1	01.01.02	400	1000	400000	400000	-	-	-
2	08.01.02 h. k/s 1	425	1000	400000	425000	+25000	4420	9540
3	01.02.02	435	250	106250	108750	+2500	5020	9540
4	10.02.02	435	1500	652500	652500	-	-	-
5	12.02.02 h. k/s	450	1500	652500	675000	+22500	4420	9540
6	va hokazo					+50000	X	X
	Jami	X	X					
Shu jumladan								
						47500	4420	9540
						2500	5020	9540

Valyuta schyoti bo'yicha bank muomalalari auditi, asosan, qaysi bankda qanday schyotlar ochilganligini aniqlashdan boshlanadi. Agarda tekshirilayotgan firmaning bir nechta schyoti bo'lsa, ulardan bir-biriga valyuta o'tkazish hollari bor yoki yo'qligi aniqlanadi. Valyuta muomalalari nazorati bo'yicha ichki auditorlar va buxgalterlar ish samaradorligini tekshirish uchun quyidagi test savollari taklif etiladi (6.1.31 jadval).

6.1.31 Jadval

Valyuta muomalalari nazorati bo'yicha nazorat testlari

№	Mazmuni	Javob
I. Nazoratni amalga oshirish		
1	Bosh buxgalter tomonidan bank ko'chirmalari yillik tekshiruvdan o'tkaziladimi?	
2	Bank ko'chirmalari va ularga ilova qilingan hujjatlar solishtiriladimi?	
3	Bosh buxgalter bankdagi schyotdan olib kelingan valyuta kirimini tekshiradimi?	
4	Boshqa banklarda valyuta schyotlari ochilganmi?	
II. Haqiqiy holat		
5	Valyuta o'tkazish, bankdan olish uchun rahbar tomonidan avvaldan imzolangan talabnomalar mavjudmi va seyfda saqlanadimi?	
6	Valyuta o'tkazish uchun arizalar, bankdan olish uchun talabnomalar akkreditiv ochish uchun arizalar qayd etiladimi?	
7	Chet ellik sheriklarga to'lovlar kontrakt asosida amalga oshiriladimi va kontraktlarning nusxasi buxgalteriyada saqlanadimi?	
III. Ruxsat berish		
8	Rahbar va bosh buxgalterdan tashqari ularning muovnlari bank muomalalari amalga oshirishga ruxsat beradimi? Va buning doimiyligi qanday?	
9	Mol etkazib beruvchilarga oldindan ham to'lash uchun schyotlarga rahbar tarafidan imzolash amalda qo'llanadimi?	
IV. Tasniflash		
10	Balansdagi «Valyuta schyoti» bo'yicha korxonada vujudga keladigan <i>tiniq</i> muomalalarga xarakterli schyotlar korrespondentsiyasi ishlab chiqilganmi?	
V. Hisob		
11	Bank ko'chirmalari o'z vaqtida qayd etilib, hisobda aks ettiriladimi?	

Bank ko'chirmasida aks ettirilgan har bir muomala zarur birlamchi hujjat bilan asoslanishi kerak. Tekshirish natijasida hujjatsiz hisobdan chiqarish yoki bir maqsad uchun hisobdan chiqarilgan valyuta mablag'ini asoslash uchun boshqa maqsadga ajratilgan birlamchi hujjat bilan asoslash hollarini aniqlash mumkin. Bank muomalalari hisobda aks ettirilishining haqqoniyligi, asosan, qoldiqlarni tekshirishni o'z ichiga oladi va quyidagi ish jadvali asosida amalga oshiriladi (6.1.32 jadval).

6.1.32 Jadval

Valyuta schyoti bo'yicha muomalalar nazorati

Sana	Bank ko'chirmasi bo'yicha			Buxgalteriya hisobi bo'yicha			O'zgarish					
	s-do	oborot		S-do	s-do	oborot		s-do	s-do	oborot		s-do
		d-t	k-t			d-t	k-t			d-t	k-t	
01.01.01	1000	200	300	900	1000	200	300	900	-	-	-	-
03.01.01	900	-	500	400	900	-	500	400	-	-	-	-
05.01.01	400	700	100	1000	400	700	100	1000	-	-	-	-
va hokazo	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-

Valyuta mablag'larining harakati bo'yicha audit dasturi ishlab chiqilishi zarur bo'ladi. Taxminiy dasturni 6.1.33 jadvalda ko'rsatishni ma'qul topdik.

6.1.33 Jadval

Valyuta schyotlari bo'yicha auditorlik nazorati dasturi

№	Dastur savollari	Ma'lumot manbai	Izoh (qo'llaniladigan usullar)
1	Bankdan olib kelingan va kirim qilingan valyuta nazorati	Bank ko'chirmasi, kassir hisoboti j/o №2-1	Ko'rib chiqish, taqqoslash
2	Bank ko'chirmalari va ularga ilova qilingan hujjatlarni tekshirish	Bank ko'chirmasi, ilova qilingan hujjatlar	Tasdiqlash, ko'rib chiqish
3	Import tovarlarining to'la kirim qilinishi va haq to'lanishi o'rtasidagi mutanosiblik	Bank ko'chirmalari, tovarlarni kirim qilishga asos hujjatlar	Tanlov, ko'rib chiqish
4	QQS o'z vaqtida o'tkazib berilishi	Bank ko'chirmasi, to'lov talabnomasi	Ko'rib chiqish, taqqoslash
5	Valyuta xarid qilishning maqsadga muvofiqligi va hisobda aks ettirilishi	Bank ko'chirmasi, xarid qilish uchun arizalar	Tasdiqlash, ko'rib chiqish
6	Valyutani saqlagani uchun bank foizlarining o'z vaqtida hisoblanishi va to'lanishi	Bank xizmatini ko'rsatish bo'yicha shartnoma, bank ko'chirmasi	Ko'rib chiqish, taqqoslash
7	Kurslar bo'yicha farqni aniqlashning nazorati	Bank ko'chirmalari	Hisob-kitob
8	Hisoblangan qoldiqlarning milliy valyutada aks ettirilishi	Bank ko'chirmalari	Hisob-kitob
9	Korxonalar va tashkilotlarga o'tkazilayotgan summalarining maqsadga muvofiqligi va haqiqiyliigi	Schyot-faktura, shartnoma, to'lov talabnomalari, kirim hujjatlari, boshqa tashkilotlarning bajargan xizmatlari	Ko'rib chiqish, taqqoslash
10	Akkreditivlarning maqsadga muvofiqligi, ularning kontraktda ko'zda tutilishi. Turli hisob kitob usullarini qo'llashning maqsadga muvofiqligi	Kontraktlar, akkreditiv uchun arizalar	Tasdiqlash, tahlil usullari

Alohida shuni qayd etib o'tish kerakki, tovarlar eksporti jarayonida ustama xarajatlar vujudga keladi. Bu xarajatlar tranzit valyuta schyotidan korxonaning joriy valyuta schyotiga majburiy valyuta sotish amalga oshirgunga qadar o'tkazilishi kerak. Bularni inobatga olgan holda auditor tranzit valyuta schyotidan sotiladigan valyutaning to'laligi va haqqoniyligini aniqlashi kerak.

Ikki xo'jalik yurituvchi tashkilot o'rtasidagi vositachi firmalar tranzit valyuta schyotiga kelib tushayotgan valyuta tushumini eksport qilayotgan tashkilotning tranzit valyuta schyotiga komission rag'batlantirish summalarini ushlab qolib o'tkazib beradi. Vositachi firmalar uchun komission rag'batlantirish summalari valyuta tushumi hisoblanadi va bir qismi majburiy sotilishi kerak.

Eksport operatsiyalarida hisob-kitoblarning eng foydali va ishonchli shakli hujjatli akkreditivdir. U eksporterga eksport tushumini o'z vaqtida olishni kafolatlaydi. Hujjatli akkreditivni qo'llash shartlari (akkreditiv turi, hisob-kitoblarda ishtirok etayotgan banklar, eksporter tomonidan akkreditiv talabnomasini olish uchun bankka taqdim qilinadigan hujjatlar ro'yxati) eksport va import orasida tuziladigan kontraktda maxsus ko'rsatib o'tiladi.

Hisob-kitoblarning bunday shaklda hujjatlar aylanishi bankda eksporter foydasiga akkreditiv ochilishidan boshlanadi. Akkreditiv importerning (buyruq beruvchining) arizasiga ko'ra

ochiladi. Importer bunday arizani bankka eksporterdan tovarning jo'natish uchun tayyorligi haqida ma'lumot olgandan keyin taqdim qiladi.

Importerning akkreditiv ochish haqidagi arizasida akkreditivning barcha shartlari ko'rsatib o'tiladi. Importerning banki - emitent akkreditivni ochadi va bu haqida eksporterning bankiga xabar beradi. Bu xabar bevosita importerning bankidan eksporterning bankiga va shuningdek boshqa (avizo beruvchi) bankka jo'natilishi mumkin. Avizo beruvchi bankka akkreditiv bo'yicha hujjatlarni qabul qilish va importerning bankiga jo'natish vakolati beriladi. Akkreditivda uning amal qilish muddati, summasi, akkreditiv bo'yicha pulni olish va eksporterning hisobiga o'tkazish uchun lozim bo'lgan hujjatlar ro'yxati ko'rsatiladi. Eksporterga hujjatni akkreditiv haqida uning banki xabar beradi.

Agar eksporter akkreditiv shartlariga rozilik bildirsa, u akkreditivda ko'rsatilgan muddatda tovarni jo'natishi shart.

Tovarlarni jo'natilgani, ishlar bajarilgani, xizmatlar ko'rsatilganidan keyin eksporter o'z bankiga transport va akkreditivda ko'rsatilgan boshqa hujjatlarni taqdim etadi.

Hujjatli akkreditivda hujjatlar bankka akkreditivning muddati doirasida va tovar jo'natilgandan keyin 21 kundan kechikmasdan taqdim qilinadi. Eksporterning banki taqdim qilgan hujjatlarning akkreditiv shartlariga mosligi va to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshiradi. Hujjatli akkreditiv bo'yicha eksport tushumini o'z vaqtida olish akkreditiv shartlarga to'liq rioya qilish bilan uzviy bog'liqdir.

Akkreditivlar bilan hisob-kitoblar tekshirilganda ular ochilishining zarurligi aniqlanadi. Akkreditivlarning ishlatilmagan summalari xaridorga qaytariladi. Ishlatilmagan valyuta mablag'lari qaytarilishining to'raligi va qaytarish muddati qanday akkreditiv turi ochilganligiga bog'liq.

Auditorning vazifasi ochilayotgan akkreditivlarni kontrakt shartlari bilan solishtirishdan iborat bo'lib, korxonada akkreditivlarni ishlatish muddatlari bo'yicha hisobni tashkil qilinishi ham aniqlanadi.

Ayrim hollarda akkreditivlardan to'lash bitta summa emas, balki bir nechta summa bilan amalga oshiriladi va buxgalterlarning e'tiborsizligi yoki atayin harakatlari tufayli ayrim summalar hisobdan chiqarilmay qoladi. Buning natijasida «Akkreditivlar» schyotida noreal saldo vujudga keladi. Bunday hollarda auditor akkreditiv ochilgan joyga, ya'ni mol etkazib beruvchiga xizmat ko'rsatuvchi bankka so'rovnoma jo'natishi kerak bo'ladi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi valyuta munosabatlarini tartibga solishda auditorlik nazoratining o'rni muhimligidan kelib chiqib, yuqoridagi takliflar o'rinli bo'lishi aniqdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, valyuta operatsiyalari bu nafaqat xorijiy valyuta bilan oldi-sotdi qilish jarayoni, balki o'ziga xos faqat o'z qonunlariga bo'ysunuvchi kichik dunyodir. Bu jarayonning aniq ifoda qilinishi ustidan o'tkaziladigan tekshirish valyuta konvertatsiyasining erkinlashuvi, joriy operatsiyalar bo'yicha erkin konvertatsiyaning cheklovlari, kapitallar harakati bo'yicha cheklovlar kabi muammolarni echishda zarurdir.

6.2. Eksport muomalalarining auditi

O'zbekiston Respublikasi mustaqilikka erishgandan so'ng chet davlatlar bilan iqtisodiy munosabatlar o'rnatish tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish, respublikaga chet el investitsiyalarini jalb qilish, tashqi savdo oborotida markazlashgan eksport va import ulushini kamaytirish, mijozlarga valyuta xizmatini ko'rsatadigan tijorat banklari sonini kengaytirish, xalqaro hisob standartlarini to'la joriy qilib, auditning progressiv usullarini qo'llash eng dolzarb vazifalardan bo'lib qolmoqda. Bu masalalarning muqobil hal etilishidan ko'zlangan asosiy maqsad O'zbekistonning eksport potentsialini oshirish, xom ashyo eksportini tayyor mahsulot va xizmatlar eksporti bilan almashtirish, so'mning erkin konvertirlanishiga erishish, pirovard natijada esa O'zbekiston aholisining turmush darajasini oshirishdir.

Valyuta muomalalarini o'tkazish davomida valyuta qonunchiligiga rioya qilinishi valyuta nazoratining organlari va agentlari tomonidan nazorat qilinadi. Valyuta nazoratining asosiy yo'nalishlari quyidagilardir:

- o'tkazilayotgan valyuta muomalalarining amaldagi qonunchilikka muvofiqligi va ularni o'tkazish uchun barcha zarur litsenziya va ruxsatnomalarning mavjudligini aniqlash;
- rezidentlar tomonidan valyutani ichki bozorda sotish bo'yicha va davlat oldidagi majburiyatlarining bajarilishini tekshirish;
- chet el valyutasidagi to'lovlarning asosli ekanligini tekshirish;
- valyuta muomalalari va nerezidentlarning so'mdagi muomalalari bo'yicha hisob va hisobotning to'liqligi hamda haqqoniyligini tekshirish.

Valyuta nazoratining organlari bo'lib, O'zbekiston Markaziy banki va O'zbekiston Respublikasi hukumati hisoblanadi.

Valyuta nazorati vazifasini valyuta nazoratining agentlari bajaradilar, masalan: Markaziy bankka hisobot beruvchi vakolatli banklar, Davlat Bojxona qo'mitasi va uning tarkibiy tuzilmalari valyuta qimmatliklarining O'zbekiston Respublikasi chegaralaridan o'tishini nazorat qiladi. Pul muomalasini, shu jumladan valyuta muomalasini tartibga solish maqsadida pul-kredit siyosati bo'yicha respublika komissiyasi tuzilgan valyuta qonunchiligi talablarining bajarilishini, shuningdek Davlat Soliq qo'mitasi nazorat qiladi, lekin nazoratning bozor infratuzilmasidan kelib chiqib amalga oshiriladigan shakli bu auditdir.

Tovarlar, ish va xizmatlar bo'yicha auditning maqsadi quyidagilarni tekshirishdan iborat bo'lmog'i lozim:

- eksport tovarlari yo'nalishi bo'yicha ichki nazorat samaradorligini aniqlash;
- eksportga chiqarilgan tovar-moddiy boyliklarning saqlanishi;
- tovarlar eksporti bo'yicha so'mda va chet el valyutasida amalga oshirilgan ustama xarajatlarning miqdori va maqsadga muvofiq ekanligi;
- buxgalteriya qoidalariga rioya qilishni tekshirish;
- tovarlar, ish va xizmatlar eksporti bo'yicha moliyaviy natijaning haqiqiy aks ettirilishi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar qayd etish soni, imzolash joyi va sanasi ko'rsatilgan kontrakt asosidan amalga oshiriladi. Kontrakt bo'yicha nizolar vujudga kelsa, ularni imzolangan joy sudi hal qiladi (London, Toshkent va boshqalar).

Xalqaro iqtisodiy shartnomalar ishtirokchilari uchun yuzaga keladigan tavakkalchiliklardan biri valyuta tavakkalchiligi bo'lib, uning asosiy sabablari sifatida quyidagi omillarni ko'rsatishimiz mumkin:

- ochiq valyuta pozitsiyasining mavjudligi;
- kontraktida valyuta sifatida chet el valyutasidan foydalanish;
- shartnoma tuzilgan vaqt bilan uning amalga oshirilish vaqti orasida ma'lum muddatning mavjudligi.

Valyuta tavakkalchiligi kontrakt tuzilgan kun bilan to'lovning amalga oshirilish kuniga bo'lgan davr mobaynida milliy valyuta kursining kontrakt valyuta kursiga nisbatan aniqlanadi.

Valyuta kurslari qanchalik nobarqaror bo'lsa, valyuta tavakkalchiligi shunchalik yuqori bo'ladi. Valyuta xavf-xatari tashqi iqtisodiy shartnomalar ishtirokchilari uchun real valyuta yo'qotishlariga olib kelishi mumkin. Bu turdagi valyuta tavakkalchiligida rejalashtirilgan tashqi iqtisodiy muomalalarning natijalari amalga oshirilgan muomalalar natijalaridan farq qiladi. Buxgalteriya hisobi nuqtai nazaridan qaraganda bunday holat sintetik hisobda va moliyaviy hisobotlarda ham aks ettirilmaydi. Masalan, «tuzilgan shartnomalar, lekin amalga oshirilmagan» degan modda hech joyda uchramaydi. Valyuta tavakkalchiligining bu turi faqatgina analitik hisoblar tuzishidagini hisoblanishi mumkin.

Tashqi savdo shartnomalari bilan bevosita bog'lanmagan valyuta tavakkalchiligi balansning chet el valyutasida ifodalangan aktiv va passiv moddalarini qayta baholagan vaqtda, shu jumladan, chet eldagi filiallarning milliy valyutadagi foydalarini qayta baholaganda yuzaga keladi. Albatta, bu turdagi tavakkalchilik buxgalteriya hisobda aks ettiriladi va shuning uchun buxgalteriya tavakkalchiligi, deb atash mumkin. Bizning fikrimizcha, buxgalteriya tavakkalchiligining yuzaga kelishiga quyidagilar sabab bo'ladi:

- chet el valyutasidagi aktivlarning balansda milliy valyutada aks ettirilishi;
- chet el valyutasidagi aktiv va passiv moddalar summalarining har bir valyutaga nisbatan mos tushmasligi;
- balansning chet el valyutasidagi moddalari holatini kurs o'zgarishlari davomida o'zgartmasligi.

Yuqoridagilarni inobatga olganda auditor:

- valyuta xavf-xatarlari darajasini aniqlashi va o'lchashi;
- tavakkalchilikni boshqarish strategiyalarini tanlashi;
- valyuta tavakkalchiligini kamaytirishi;
- valyuta tavakkalchiligini sug'urtalash va boshqa masalalar yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami va bajarilish darajasini aniqlashi zarur.

Tashqi xaridorga eksport tovarlarini etkazib berish uchun kontraktni tuzgach, eksportyor ikki nusxada bitim pasportini rasmiylashtiradi va bankga topshiradi. Bu mazkur kontrakt bo'yicha eksport tushumini nazorat qilish uchun zarurdir.

Jo'natilgan tovar bo'yicha eksportyor bojxona deklaratsiyasini to'ldiradi va bitim pasportining nusxasi bilan O'zbekiston Respublikasining bojxonasiga tovarlarni bojxonada rasmiylashtirilgunga qadar jo'natadi. Bojxona eksport tovarlarini jo'natish bo'yicha ma'lumotlarni jamlagan hisob kartochkalarini ochadi va ular asosida reestr tuzib, ikki nusxada kerakli bankka jo'natadi.

Hujjatlarning haqiqiyliigi va to'ldirilishining to'g'riligini tekshirar ekan, auditor ayrim hollarda shu hujjatlarni to'ldirgan shaxslarni imzolarini to'g'riligi va hujjatning haqiqiyliigini tasdiqlab berish uchun chaqirtirishi mumkin. Tovarlar eksporti bo'yicha tuzilgan hujjatning to'g'riligini aniqlagach, hujjatlarning qonuniyligi aniqlanadi. Belgilangan qonunchilikka binoan eksportyor korxonasi sertifikat, kvotasiz eksportga jo'natish mumkin bo'lmagan muhim va strategik ahyolar ro'yxatiga kirgan tovarlar uchun litsenziyaga ega bo'lishi kerak.

Litsenziya olgandan so'ng eksporterlar tovarlarni jo'natadi. Litsenziyalangan tovarlarning olib chiqib ketilishi ustidan nazorat Davlat Bojxona qo'mitasiga yuklatilgan. Bu muomalalarning qonuniyligi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1998 yil 8 aprelda 422-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan «O'ziga xos tovarlarning eksporti va ularning O'zbekiston Respublikasi hududiga importni litsenziyalash tartibi to'g'risida»gi Nizom bilan tasdiqlandi.

Bu Nizomga asosan O'zbekiston Respublikasi hududida litsenziyalashning yagona rejimi amal qiladi, litsenziyalanadigan tovarlarning yagona ro'yxati, litsenziyalarni berishning yagona tizimi bunday rejimning negizi hisoblanadi.

Litsenziyalar eksportchilar yoki importchilarning namunaviy blanklardan taqdim etilgan buyurtmalar asosida beriladi. Buyurtma beruvchi tashkilot buyurtma bilan birgalikda majburiy tartibda Tashqi Iqtisodiy Aloqalar agentligining tegishli bo'linmasiga Vazirlar Mahkamasining farmoyishini, xaridor bilan sotuvchi imzolagan kontraktni va tovarlarning ishlab chiqarilganligi

haqidagi sertifikatni taqdim qiladi. Buyurtma beruvchilar litsenziya berilishi uchun arizalarning ko'rib chiqilishi maqsadida taqdim qilinadigan ma'lumotlarning haqiqiyliги uchun javob beradilar. Kontraktning asosiy shartlari o'zgarganda berilgan litsenziyalar qaytadan rasmiylashtirilishi kerak bo'ladi. Auditor kontrakt shartlarida ko'zda tutilgan xaridor yoki sotuvchining o'zgarishi, narxlar, etkazib berish muddatlari, to'lovlar turlarining o'zgarishi kabi shartlarga alohida e'tibor berishi kerak.

Litsenziyalar bitimni amalga oshirish uchun zarur muddatga, lekin bir yildan ortiq bo'lmagan muddatga beriladi. Buyurtmachining asoslangan iltimosnomasiga ko'ra litsenziyaning amal qilish muddati uzaytirilishi mumkin.

Tovarlarning yuklab jo'natilishi faqat belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan litsenziya olingandan so'ng amalga oshiriladi. Arizachida litsenziya berilishi haqidagi qaror qabul qilinguniga tuzilgan kontraktning mavjudligi litsenziyani berish va yukni O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqib ketish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Olingan litsenziyaning ko'chirma nusxasi bojxona yuk deklaratsiyasiga ilova qilinadi va litsenziyalanadigan tovarlarning chegara orqali olib o'tishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Eksport muomalalari bo'yicha ichki nazorat tizimi holatini aniqlash uchun auditor test o'tkazishi zarur bo'ladi. Taxminiy test savollarini 6.2.34 jadvalda ko'rsatamiz. 6.2.34 jadvalda ishlab chiqilgan testlar asosida auditor eksport tovarlar yo'nalishi bo'yicha ichki nazorat tizimining samaradorligini aniqlaydi.

Agarda hisob tovarlar yo'nalishining har bir bosqichida joylashishini va ortiqcha xarajatlarga yo'l qo'yilmay mol oluvchiga etib borishini ta'minlasa, nazorat yaxshi tashkil qilingan, deb hisoblash mumkin.

Tovarlar eksporti bo'yicha ichki nazorat testlari

№	Mazmuni	Javoblar		Izoh
		Ha	Yo'q	
I. Nazorat o'tkazish				
1.	Tovarlarning yo'nalishi bosqichi bo'yicha hisob yuritiladimi?			
2.	Yo'nalishning har qanday bosqichida tovarlarning joylashgan eri ma'lummi?			
3.	Portlar, omborlar va bazalarda MDH va xorijiy davlatlarning boshqa punktlarida turib qolgan tovarlar tahlili o'tkaziladimi?			
II. Haqiqatda				
4.	Tovarlar tabiiy yo'qotish chegaralarida hisobdan chiqariladimi?			
5.	Xorijiy sherikning qabul qilish natijalari asosida tovarlar hisobdan chiqariladimi?			
6.	Tabiiy yo'qotish chegarasida hisobdan chiqarish tovarlar yo'nalishining har bir bosqichida amalga oshiriladimi?			
7.	Tovarlar bo'yicha farqlari tuzilgan aktlar kamomad aniqlangan kunda tuzilib, shu kun bilan sana qo'yiladimi?			
III. Talablar				
8.	Tovarlar eksporti talablar asosida amalga oshiriladimi?			
IV. Hal qilish				
9.	Xorijda va MDH davlatlari portlarida tovarlarning turib qolishi quyidagilar bilan bog'liq a) korxonaning talablariga binoan; b) tovarlarni tashish uchun transportning yo'qligi; v) fors-major holatlari			
10.	Tovarlarni eksportga jo'natish kontrakt asosida amalga oshiriladimi?			
V. Tasniflash				
11.	Korxonaga uchun xarakterli bo'lgan schyotlar korrespondentsiyasi ishlab chiqilganmi?			
VI. Buxgalteriya hisobi				
12.	Eksport muomalalari bo'yicha analitik hisob ularning turi bo'yicha yuritiladimi?			

Ichki nazorat tizimining holatini aniqlagach, auditor eksport operatsiyalari bo'yicha dastur ishlab chiqishi kerak.

Auditorlik tekshiruv dasturida amalga oshiriladigan tadbirlar ro'yxati va ma'lumot manbalari ko'rsatiladi. Bunda amalga oshirilgan jarayonlar to'la aks ettirilishi kerak (6.2.35 jadval).

Kontraktlarning to'g'ri rasmiylashtirilishi va miqdorini tekshirar ekan, auditor korxonaga tomonidan valyuta tavakkalchiligini sug'urta qilinishini aniqlashi kerak. Valyuta tavakkalchiligi bu valyuta kursining o'zgarishidan ko'riladigan zarardir.

O'zbekiston Respublikasida valyuta tavakkalchiligidan sug'urtalash vakolatli banklar, moliya-kredit muassasalari, sug'urta tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Valyuta tavakkalchiligidan sug'urtalashning ikki usuli qo'llaniladi:

- valyuta sharhlari yoki izohlari;
- forvard muomalalari.

Valyuta izohlari o'zida shartnoma matni tarkibiga kiritiladigan qo'shimcha shartlarni namoyon qiladi. Valyuta izohi to'lov valyutasi kursi izoh valyutasi kursiga nisbatan o'zgarganda, to'lov summasi shunga proporsional ravishda qaytadan ko'rib chiqilishi kerakligini talab qiladi.

6.2.35 Jadval

Eksport muomalalarini tekshirish uchun audit dasturi

№	Muomalalar ro'yxati	Ma'lumot manbalari	Amalga oshirish usuli
1.	Kontraktlar miqdori va to'g'ri rasmiylashtirilganligi	Kontraktlar	Tasdiqlash
2.	Tovarlarni eksportga jo'natish bo'yicha muomalalarining to'g'ri va o'z vaqtida rasmiylashtirilishi	Tovar-transport nakladnoylari, schyot-faktura, konosament	Tasdiqlash
3.	Eksport muomalari qonuniyligini tekshirish	Yo'riqnoma, qonun, litsenziyalarning mavjudligi	Tasdiqlash
4.	Eksport muomalalarini amalga oshirishdagi ustama smeta xarajatlari me'yorlarini tekshirish	Me'yorlar, smetalar, ustama xarajatlar bo'yicha analitik schyotlar	Analitik tadbirlar
5.	Mahsulot, ish va xizmatlarni eksport kategoriyasiga olib borilishi	Eksport bo'yicha hujjatlar	Tasdiqlash
6.	Eksport muomalalarini soliqqa tortish: QQS, aksizlar	Buxgalteriya hisobi ma'lumotlari, eksport bo'yicha birlamchi hujjatlar	qayta hisoblash
7.	Eksport muomalalari bo'yicha hisob-kitoblarning o'z vaqtida amalga oshirilishi, debitorlik va kreditorlik qarzlarning to'g'riligi	Xorijiy xaridorlar bilan hisob-kitoblarning analitik hisobi	Tasdiqlash
8.	Kurslar bo'yicha aniqlash va buxgalteriya hisobi va hisobotlarda aks ettirilishining to'g'riligi	Xorijiy xaridorlar bilan hisob kitoblarning analitik hisobi, MB ma'lumotlari	Qayta hisoblash, kuzatish

Valyuta izohlari valyuta va tovar bozorlaridagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda to'lanadigan to'lov hajmini belgilaydi. Bu valyuta xavf-xatarlaridan sug'urtalanishning eng ko'p tarqalgan usulidir.

Valyuta izohlari egri va to'g'ri valyuta izohlariga bo'linadi. Egri valyuta izohi tovar bahosi xalqaro hisob-kitoblarda keng tarqalgan valyutada qayd qilingan, to'lov esa boshqa pul birligida, odatda, milliy valyutada amalga oshirilgan vaqtda qo'llaniladi. Izoh teksti taxminan quyidagicha bo'lishi mumkin:

«Qayd qilingan baho AQSh dollarida, to'lov Yaponiya ienasida. Agar AQSh dollari kursi Yaponiya ienasiga nisbatan to'lov kuni kelgan vaqtda shartnoma belgilangan kundagi kurslariga qaraganda o'zgarsa, shunga munosib ravishda shartnomadagi tovar bahosi va to'lov summasi ham o'zgaradi».

To'g'ri valyuta izohi shartnoma valyutasi va to'lov valyutasi bir xil bo'lgan vaqtda qo'llaniladi. Ammo to'lov hajmi shartnoma valyutasining kursi boshqa bir barqaror valyuta kursiga nisbatan o'zgarishi asos qilib olingan holda belgilanadi. Bunday barqaror valyuta izoh valyutasi, deb ataladi. To'g'ri valyuta izohi valyutani sotib olish qiymatini avvalgi holda ushlab turish uchun qo'llaniladi. Bunday izoh matni taxminan quyidagicha:

«Qayd qilingan tovar bahosi va to'lovi AQSh dollarida. Agar to'lov muddati kelgan vaqtda Nyu-York valyuta birjasida dollar kursi Yapon ienasiga nisbatan shartnoma belgilangan kundagiga qaraganda past bo'lsa, shunga munosib ravishda AQSh dollaridagi tovar bahosi va to'lov summasi oshadi».

Valyuta tavakkalchiligini sug'urtalashning yana bir turi bu forvard muomalalaridir. Bunda forvard qoplanishi, ya'ni baho xavf-xatarga qarshi sug'urtalanishini bildiradi. Forvard qoplash operatsiyalari valyuta kursining o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan xavf-xatarlarni sug'urtalash maqsadida o'tkaziladi.

Forvard valyuta operatsiyalari ikki ish kunidan kam bo'lmagan vaqtda amalga oshiriladi. Valyuta bozorida forvard bitimlari amalga oshirilishining quyidagi standart muddatlari mavjud: 1 hafta; 1 oy; 3 oy; 9 oy; 12 oy.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, valyuta xavf-xatarlarini sug'urtalashda forvard valyuta shartnomalaridan foydalaniladi.

Masalan, amerikalik eksporter angliyalik importerga 30 kun mobaynida to'lash sharti bilan 1000000 funt sterling mahsulot sotayapti. Shu paytda «spot» kursi - 1900, forvard kursi esa - 18500 funt sterling. 30 kundan keyin haqiqatdagi almashuv kursi - 18700 dollar/funt sterling, shartnoma tuzilgan vaqtda eksporterning buxgalteriya hisobida 1900000 dollar debitorlik qarzi sifatida aks ettiriladi. Lekin eksporterni valyuta risklari tashvishga soladi. Shuning uchun u forvard bitimini tuzishi, ya'ni 18500 dollar/funt sterling kurs bilan konvertirlanadigan dollardagi summaga ega bo'lishi mumkin. Shunday qilib, u 50000 dollar sarflab (valyuta tavakkalchiligini himoyalash uchun), 1850000 dollar mablag'ga ega bo'ladi. Firma summani to'laligicha inkassatsiya qilib yana 30 kun kutishi va almashuv kursi yuqoriroq bo'lgan vaqtda ko'proq daromad olishi mumkin.

Agar (60 kundan keyin) haqiqatdagi kurs 18700 dollar/funt sterling deb oladigan bo'lsak, eksporter boshlang'ich summadan (1900000 dollardan) bir qancha kam bo'lgan va forvard shartnomasidagi mablag' (1850000 dollar)dan ko'p bo'lgan 1870000 dollarga ega bo'ladi. Dollar kursi 18000 dollar/funt sterlingga oshib ketgan taqdirda forvard shartnomasi orqali eksporter yanada yaxshiroq samaraga erishgan bo'lar edi.

Valyuta tavakkalchiligini oldini olishning yana bir turi bu valyuta opsiyonlaridan foydalanishdir. Valyuta opsiyon bu qimmatbaho qog'oz bo'lib, u o'z egasi ma'lum miqdordagi valyutani belgilangan kurs bo'yicha belgilangan vaqtda sotish yoki sotib olish huquqini beradi. Forvard bitimlaridan farqli ravishda valyuta opsiyonlari o'z egasiga majburiyat yuklaydi. Valyuta opsiyonining ikki turi mavjud:

1. Kol opsiyon;
2. Put opsiyon.

Kol opsiyon valyutani sotib olish huquqini beradi. Put opsiyon esa valyutalarni sotish huquqini beradi.

Opsiyonning ikki xil standarti mavjud:

1. Evropacha opsiyon, bunda opsiyon egasi muddati tugagandan so'nggina uni ishlatish huquqiga ega bo'ladi;
2. Amerikacha opsiyon, bunda opsiyon egasi opsiyondan bitim davri mobaynida qolgan vaqtda foydalanishi mumkin.

Valyuta tavakkalchiligini bartaraf qilishda valyuta opsiyonidan foydalanila boshlanganiga hali ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Valyuta opsiyonidan foydalanishni quyidagi misolda ko'rishimiz mumkin.

Aytaylik, amerikalik eksporter almashuv kursi 19000 dollar/funt sterling bo'lgan vaqtda angliyalik importerga 1000000 funt sterling summadagi tovarni sotishga qaror qildi. Xuddi shu paytda Filadelfiya fond birjasiga keldi va ularga funt sterlingni sotib evaziga dollar olish bo'yicha opsiyon shartnomasini imzoladi va 25000 dollar miqdorida haq to'ladi. Importerdan 1000000 f.st. olish vaqtida eksporter opsiyonni (unga) sotish yoki sotmaslikni hal qilish kerak. Agar joriy almashuv kursi 1.9000 dollar/f.st.dan yuqori bo'lsa, eksporter opsiyondan voz kechadi, chunki u f.st.ni bozor kursida konverterlab, ko'proq mablag'ga ega bo'ladi. To'g'ri u 25000 dollar yo'qotadi, lekin bu summa sug'urta rolini bajaradi. Agar almashuv kursi 1.9000 dollar/f.st.dan tushib ketsa,

olaylik 1.8000 dollar/f.st. eksporter opsiyondan foydalanadi va funt sterlingni kelishilgan kurs bo'yicha, ya'ni 1.9000 dollar/f.st.dan almashtiradi. Uning schyotiga 25000 dollar haq to'langanligi hisobiga 1.900.000 dollar kelib tushadi.

Audit jarayonida e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan holat shundan iboratki, agarda tushumlar qancha va qachon kelib tushishi aniq bo'lsa, forvard bitimlaridan foydalanilishi kerakligi va aks holda opsiyondan foydalanish kerakligidir. Lekin opsiyon forvard shartnomalariga qaraganda qimmatroq moliyaviy vosita hisoblansada, O'zbekiston sharoitida ulardan foydalanish hozirgi valyuta bozorlari nobarqaror bo'lgan holatlarida maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Shuni alohida aytib o'tish kerakki, eksport muomalalari bo'yicha moliyaviy natijaga ustama xarajatlar ham ta'sir qiladi. Bu boradagi auditorning vazifasi bunday xarajatlarning qonuniyligi va maqsadga muvofiqligini aniqlashdir. Ustama xarajatlar miqdor mazmunini o'rganish har bir moddaning smeta va baza davriga nisbatan mutloq va nisbiy o'zgarishini taqqoslash tahlili orqali o'tkazishdan boshlanadi (6.2.36 jadval).

6.2.36 Jadval

Ekport muomalalari bo'yicha ustama xarajatlar tahlili*

№	Xarajatlar	Smeta bo'yicha, ming so'm	Haqiqiy xarajatlar, ming so'm	O'zgarish	
				Mutloq, so'm	Nisbiy, %
1.	Chegaragacha (port) tovarlarni avtotransportda tashishi, ming so'm	85,000	97,500	+12500	114
2.	Yuk oboroti, t/km	242857	242860	+3	
3.	O'rtacha qiymat, t/km	3,5	4,0	+0,5	114
4.	Temir yo'l tarifi, ming so'm	75000	89000	+14000	118
5.	Yuk tayyorlash	12350	15000	+2650	121
6.	Saqlash:				
	a) bog'lovchi baza, so'm	25000	26300	+1300	105
	b) portlarda, ming so'm	15000	15005	+5	100
7.	Me'yor chegarasidagi tovarlar kamomadi, so'm	7350	2800	24500	38
8.	Vositachi firmalar uchun komission rag'batlantirish	126000	13700	+11000	108
*Ko'rsatkichlar, shartli					

Bunday tahlilni eksport bo'yicha alohida so'mlarda va chet el valyutasida o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mutloq va nisbiy o'zgarishlar tahlili auditorga qaysi modda bo'yicha muhim o'zgarishlar bo'lganligini aniqlashga imkon beradi.

Eksport tovarlari bo'yicha ustama xarajatlar miqdorining mutloq oshishi quyidagi o'zgarishlar oqibatida ro'y berishi mumkin:

- tashishning olisligi;
- tashilayotgan yuk miqdori;
- bir tonna tashilayotgan yukning o'rtacha qiymati va hokazo.

Ustama xarajatlarning moddalari bo'yicha o'zgarishlarni bilgan holda auditor qaysi moddani chuqurroq tekshirishi kerakligini aniqlab oladi. Shu bilan birga shuni nazarda tutish kerakki, eksport muomalalarini amalga oshirish jarayonida boshqa xarajatlar ham vujudga kelishi mumkin, ya'ni ular qatoriga xaridorlar, transport-ekspeditorlik va boshqa tashkilotlarga to'lanadigan jarimalar, penya, neustoykalar kirib, iqtisodiy mazmuniga ko'ra ular eksport bo'yicha noishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga kiradi va 9430-«Boshqa operatsion xarajatlar» schyotida aks ettirilib, soliqqa tortiladigan bazaga qaytarib qo'shiladi.

Ustama xarajatlarni tekshirganda auditor moddalar tarkibiga ham e'tibor berishi kerak. Biz ko'rsatgan misolda 1 tonna eksportga jo'natilgan tovarga to'g'ri keladigan temir yo'l tarifi kamaygan, lekin mutloq «temir yo'l tarifi» moddasi 14000 ming so'mga oshgan. Audit tadbirlarini o'tkazish (har bir yozuvga isbot topish, hujjatlar mavjudligi, ularning mazmuni) auditorga shu modda bo'yicha «temir yo'lga» to'langan 10950 ming so'm miqdorida asoslanmagan jarimalar borligini aniqlash imkonini berdi. Auditor bu borada soliqqa tortish bazasiga qo'shilishi kerak bo'lgan summani qayta ko'rib chiqishi kerak bo'ladi va kerakli maslahatlar berishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi «Boj tarifi to'g'risida»gi qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksida belgilangan tegishli bojxona rejalari doirasida bojxona nazorati ostida O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga vaqtincha olib kiriladigan yoki undan vaqtincha olib chiqiladigan tovarlarga;

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq chet elda investitsiya sohasidagi hamkorlik ob'ektlarini qurish uchun butlovchi buyumlar tarkibida olib chiqiladigan tovarlarga;

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan davlat ehtiyojlari uchun eksportga ajratilgan hajmlarda olib chiqiladigan tovarlarga;

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining chet el korxonalarining ustav fondlariga ulush sifatida olib kiriladigan tovarlarga, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq mahsulotni taqsimlash to'g'risidagi buyurtmalarda nazarda tutilgan hollarda shunday korxonalar olib chiqib ketadigan o'zlari ishlab chiqargan tovarlarning ayrim turlariga nisbatan ilgari to'langan bojni qaytarish, boj stavkasini kamaytirish va alohida hollarda bojdan ozod qilish kabi tarif imtiyozlari berilishiga yo'l qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 26 avgustdagi PF-1831-sonli «Xorijiy sarmoyalari bo'lgan korxonalar ishlab chiqaradigan mahsulot eksportini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoniga binoan - o'zi ishlab chiqargan mahsulotga eksport boj to'lovlari bekor qilingan. Eksport ichki bozordagi narxlardan pastroq narxlarda amalga oshirilgan taqdirda ular uchun soliqqa tortiladigan baza eksport mahsulotini sotishning amaldagi narxidan kelib chiqqan holda hisob-kitob qilinadi.

Auditor o'zida ishlab chiqargan mahsulotini haqiqatda shunday ekanligini aniqlashi zarur bo'ladi. Buning uchun bunday mahsulot quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- korxonada shunday faoliyat bilan shug'ullanish uchun maxsus ruxsatnoma bo'lishi kerak;
- moddiy va moliyaviy resurslar sifatida shaxsiy aylanma mablag'lari va asosiy vositalardan foydalanish, ilg'or texnologiyani ishlatish va bular, albatta, auditor tomonidan tasdiqlanishi kerak.

Imtiyozlar berishda quyidagi investitsiyalar hisobga olinadi:

- chet el investorlarining korxonaga kapitaliga qilgan ulushi;
- chet el kreditlari, ya'ni korxonaga kapital qo'yilma sifatida berilsa;
- mahsulot ishlab chiqarish loyihasi bo'yicha korxonaga tomonidan mazkur loyihaga reinvestitsiya qilinadigan foyda.

Kapital qo'yilmalar qoplanish davrini quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$T = Kq (F+A)$$

Bu erda: T-qoplanish davri;

Kq - korxonaga faoliyati davrida kapital qo'yilmalar;

A - korxonaga faoliyati davrida mahsulot ishlab chiqarishga ajratiladigan amortizatsiya xarajatlari;

F - balans foydasi.

Auditor imtiyozlardan foydalanish darajasini va qoplanish davridan so'ng tarmoqlararo komissiyaga so'nggi hisob-kitoblarni topshirilishini tekshirishi kerak. Bojxona imtiyozlari moliyaviy natijaga ta'sir ko'rsatadi. Imtiyozlardan noqonuniy foydalanish asoslanmagan tarzda foydani ko'paytiradi.

Korxonalar mahsulot, ish va xizmatlar eksporti bilan bog'liq bo'lmagan xorijiy davlatlarda daromadga ega bo'lishi mumkin, bu kapital eksporti bilan bog'liq. Bunday eksportga quyidagilar kiradi:

- chet el korxonalarini nizom kapitaliga qo'yilmalar;
- qimmatli qog'ozlarni sotib olish;
- binolar, inshootlar va boshqa mulk, shu jumladan er va er osti boyliklari, shu davlatga tegishli ko'chmas mulk bo'yicha mulk huquklarini olish;
- ko'chmas mulk bo'yicha boshqa huquqlar;
- tovarlar, ish va xizmatlar eksporti bo'yicha 180 kundan oshirilgan to'lov muddatini uzaytirishlari.

Noqonuniy kelishuvlar oqibatida olingan daromadlar O'zbekiston Respublikasining «Valyutani tartibga solish to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq davlat foydasiga o'tkaziladi, shu tufayli auditorning vazifasi xorijda olingan daromadlarni qonuniyligini tekshirishdan iborat.

Auditor xorijiy xaridor va buyutmachilar bilan hisob-kitoblar shaklini, to'lov muddatini, eksport bo'yicha kredit va kredit to'lovlari stavkalarini o'rganadi. Eksportga jo'natilgan tovarlar bo'yicha debitorlik qarzlarni tahlil qiladi.

Debitorlik qarzlarni tasdiqlash auditorlik jarayonining asosiy bosqichlaridan hisoblanadi. Tasdiqlashning quyidagi shakllari taklif qilinadi:

- so'rovnoma;
- hujjatlashtirish.

So'rovnoma ikki xil bo'lishi mumkin: pozitiv va negativ. Pozitiv - debitorlik qarzi realligi haqida auditor aniq ma'lumotga ega, lekin muddati va miqdorini aniqlash kerak. Auditor debitorlik qarzini tasdiqlash haqida so'rovnoma berishi mumkin, xaridor esa so'rovnomada ko'rsatilgan summa faqat uning hisobida yo'q bo'lsa, javob berishi kerak. Agarda xaridor javob bermasa, auditor eksporter hisobidagi debitorlik qarzini to'g'ri deb hisoblaydi va javob faqat summa tasdiqlamasagina kelishini inobatga olib, bunday so'rovnomalarni «negativ» deb hisoblaymiz.

Eksport bo'yicha tovarlar, ish va xizmatlar uchun debitorlik qarzining haqiqiylikini «hujjatli tasdiqlash» kabi audit tamoyili orqali aniqlash mumkin. Hujjatli tekshirish so'rovnoma «negativ» bo'lgan hollarda amalga oshiriladi.

Amaliyotda eksportga jo'natilgan tovarni hisobda ikki marta aks ettirish hollari uchraydi. Buning uchun auditor hisob yozuvlarini sinchkovlik bilan tekshirishi zarur. Masalan, eksport bo'yicha kontraktlar va hisob vedomostlari solishtiriladi.

Eksport muomalalari bo'yicha hisob-kitoblarning samaradorligi tahlili o'tkazilishi kerak. Bizning fikrimizcha, eng samarali hisob-kitob usullaridan biri vekselar bilan hisoblashdir, chunki mol etkazib beruvchi bunday holda chet el valyutasida daromad olishi mumkin. Bunday muomalalarni (6.2.37 jadval) tekshirish uchun misol tariqasida ish jadvali taklif qilinadi.

6.2.37 Jadval

Veksellar bo'yicha hisob-kitoblar samaradorligi

№	Xorijiy sherik	Veksel sharti, %	Veksel muddati	To'lov muddati	Summa, dollar		Daro madlar %i, dollar	Jamlangan foizlar, yil oxiriga dollar 2002 yil
					31.12.01	31.12.01		
1.	Kompaniya A	10	04.01.2000	04.01.2001	100000	-	5000	-
2.	Kompaniya B	15	05.03.2001	05.03.2002		50000	7500	7500
3.	Kompaniya V	10	20.04.2001	20.04.2002		10000	1000	1000
4.	Kompaniya G	10	20.05.2001	20.05.2002		150000	15000	15000
	Jami:				100000	210000	28500	23500
Hisobni tuzdi					Sana 01.12.2002 y.			
Tekshirdi					Sana 16.12.2002 y.			

6.2.37 jadvaldan ko'rinib turibdiki, veksel bilan hisob-kitoblar bir necha marta samarali ekan. Debitorlik qarzini bir yil davomida aks etib turishiga qaramasdan, eksport muomalalari bo'yicha hisob-kitob muomalalari asosida qo'shimcha 23500 dollar yoki 11,1% 31.12.2002 yilga debitorlik qarzidan qo'shimcha daromad olingan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasida eksport muomalalarini amalga oshirishda sifatli auditorlik nazoratini tashkil qilish va uni jahon andozalari darajasiga olib chiqish zarur. Bunda yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, valyuta xavf-xatarini hisobga olish, ichki nazorat testlarini ishlab chiqish, eksport muomalalari auditi dasturini yaratish va samarali hisob shakllarini qo'llashning metodologik jihatlariga asoslangan holda olib borilishi muqarrar bo'lib, ularning ayrim jihatlarini asoslashga harakat qilindi.

6.3. Import muomalalari va tovarlar bojxona qiymatini auditi

O'zbekiston o'z mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq tashqi savdo aloqalarini sezilarli darajada faollashtirdi. Bu aloqalar respublika savdo balansida ijobiy saldogga erishish, import va eksport tuzilishini yaxshilashga yo'naltirilgan edi.

1998 yilda respublikaning yalpi tashqi savdo oboroti 6816,9 mln. AQSh dollari tashkil etadi (6.3.38 jadval).

Respublikamizda tashqi savdoni rivojlantirishning muhim muammolaridan biri eksport va import tuzilishini tubdan o'zgartirish hisoblanadi.

6.3.38 Jadval

O'zbekiston Respublikasi eksport va importining tovar tuzilishi*

№	Ko'rsatkich	Mln. AQSh dollari	Jamiga nisbatan %
1	Eksport, jami	3528,2	100,0
2	Shu jumladan, paxta tolasi	1361,9	38,6
3	Mineral o'g'itlar, kimyo mahsulotlari	52,9	1,5
4	Mashinalar va asbob-uskunalar	148,2	4,2
5	Qora va rangli metallar	179,9	5,1
6	Boshqa tovarlar	1474,8	41,8
7	Xizmatlar	310,1	8,8
8	Import jami	3289,7	100,0
9	Shu jumladan, oziq-ovqatlar	513,0	15,6
10	Mashina va asbob-uskunalar	1552,3	++
11	Mineral o'g'itlar va kimyo mahsulotlari	407,8	12,4
12	Qora va rangli metallar	302,5	9,2
13	Boshqa tovarlar	348,6	10,6
14	Xizmatlar	164,8	5,0

*O'zbekiston Respublikasining 1999 yil yanvar-iyundagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari. Qisqa statistik to'plam. Toshkent-1999 yil.

6.3.38 jadvaldan ko'rinib turibdiki, eksport tuzilishida mashina va asbob-uskunalar hissasi sezilarli darajada yuqori bo'lishiga qaramay, hali ham xom-ashyo va materiallarining hissasi ko'proq. Bular ichida paxta tolasi va boshqa tovarlar oldingi o'rinni egallaydi. Sanoatning qayta ishlovchi tarmoqlarini kelajakda rivojlantirish respublikadan chetga mahsulotlarni olib chiqishda, engil va og'ir sanoatdagi tayyor buyumlar hissasini tezda ko'tarishga va eksport tuzilishini yaxshilashga imkon beradi.

Agarda 1998 yil 1999 yilning yanvar iyun oylariga nazar tashlasak, eksportga nisbatan import salmog'ining ayrim tovarlar guruhi bo'yicha kamayganligini ko'ramiz, jumladan oziq-ovqat mahsulotlarining importi 17,4% dan 13,7 % ga tushgan (6.3.39 jadval).

6.3.39 Jadval

Tashqi savdo aylanmasi tarkibi*
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)

№	Ko'rsatkich	Yanvar - iyun	
		1998 yil	1999 yil
1	Tashqi savdo aylanishi	100	100
2	Eksport	52,9	51,8
3	Import	47,1	48,2
4	Eksport tarkibi	100	100
5	Paxta tolasi	45,0	28,3
6	Kimyo mahsulotlari, plastmassa va undan yasalgan buyumlar	1,4	3,4
7	Qora va rangli metallar	5,3	3,7
8	Mashina va asbob-uskunalar	6,6	1,8
9	Oziq-ovqat mahsulotlari	3,0	5,7
10	Elektr-energiya manbalari	7,6	9,7
11	Xizmatlar	6 m	10,0
12	Import tarkibi	100	100
13	Oziq-ovqat mahsulotlari	17,4	13,7
14	Kimyo mahsulotlari, plastmassa va undan yasalgan buyumlar	12,1	12,4
15	Qora va rangli metallar	9,2	8,7
16	Mashina va asbob-uskunalar	46,9	44,6
17	Elektr energiya manbalari	0,5	0,6
18	Xizmatlar	5,1	8,8

***O'zbekiston Respublikasining 1999 yil yanvar-iyundagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari. Qisqa statistik to'plam. Toshkent-1999 yil.**

MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy mamlakatlar tashqi savdodagi salmog'iga nazar tashlansa, 1999 yilda MDH mamlakatlari bo'yicha import 26,1% ni va boshqa xorijiy mamlakatlarda 73,9% ni tashkil qildi.

Import tarkibida mashina va asbob-uskunalar, oziq-ovqat mahsulotlari va ularni ishlab chiqarish uchun xom ashyoning hissasi yuqoridir.

Import hajmida mashina va asbob-uskunalarining yuqori hissasi iqtisodiy qayta qurish va yalpi korxonalarini barpo qilish davrida bu mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojning keskin o'sishi bilan izohlanadi. Kelajakda importga oziq-ovqat hissasini kamaytirish ko'zda tutilmoqda. Bu respublikada amalga oshirilayotgan oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlash siyosati bilan bog'liqdir.

Import muomalalari samaradorligini oshirish ko'p jihatdan hisob, hisobot va audit tamoyillarini qo'llash bilan bog'liq bo'lib, ularning metodologik asoslari bir qator o'zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etadi, chunki mustaqil O'zbekiston iqtisodining negizi tubdan o'zgartirildi va bozor iqtisodi infratuzilmasi barpo qilina boshlandi.

Har qanday jarayon, shu jumladan audit metodologik asoslari maqsadini belgilab olishni o'z ichiga oladi va import muomalalari auditining maqsadi quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- yo'ldagi import tovarlari yo'nalishi ustidan ichki nazorat samaradorligini tekshirish;

- import tovarlari bo'yicha ustama xarajatlar miqdori va asoslanganligini tekshirish;
- import muomalalari bo'yicha moliyaviy natijaning realligi;
- «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga rioya qilinishi.

Auditorlik tekshirishning asosiy bosqichlaridan biri - bu import tovarlari bo'yicha nazoratning zaif va kuchli tomonlarini aniqlashdir. Import muomalalari bo'yicha nazoratning zaif tomonlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- yo'ldagi import tovarlari yo'nalishi bo'yicha hisob va nazoratning yo'qligi;
- saqlash va tashish joylarida hisob va nazoratning yo'qligi;
- tovarlarni kirim qilish qoidalarining buzilishi va boshqalar;

Agarda import muomalalari bo'yicha nazorat tizimi kuchli bo'lsa, auditorning vazifasi uni baholashdan iborat bo'lib, zaif nazorat tizimida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni topishi kerak.

Tovarlar importi bo'yicha ichki nazorat testlari

№	Mazmuni	Javob		Izoh
		Ha	Yo'q	
I. Nazorat o'tkazish				
1	Bosqichlar bo'yicha tovarlar yo'nalishi hisobi yuritiladimi?		Yo'q	
2	Chegaraga kelgan import tovarlari ma'lumotnoma asosida shu oyda qirim qilinadimi?		Yo'q	Korxonaga kelishiga qarab
3	Import tovarlari jami saqlash joylarida inventarizatsiya qilinadimi?		Yo'q	
II. Haqiqat				
4	Tovarlarni yo'qolishi oqibatida hisobdan chiqarish hollari bormi? a) yo'lda b) saqlash joyida	Ha Ha		
5	Yo'qotishlarni hisobdan chiqarish akti yo'qotish aniqlangan kun bilan akt tuzib imzolanadimi?	Ha		
6	Xorijiy mol jo'natuvchi inyoyslari kontraktlar va korxonaning kirim nakladnoylari (aktlari) bilan solishtiriladimi?		Yo'q	
III. Sharoit				
7	Import kontraktlari «Inkoterms» (ularni ko'rsatish) sharoitlari bilan tuziladimi?	Ha		
8	Import tovarlari bo'yicha hisobot ombor mudiri tomonidan buxgalteriyaga topshiriladimi? Ta'minot va tarqatish bo'limiga topshiriladimi?	Ha	Yo'q	
IV. Hal qilish				
9	Xorijda va MDH davlatlari portlarida tovarlarning turib qolishi quyidagilar bilan bog'liq a) korxonaning talablariga binoan; b) tovarlarni tashish uchun transportning yo'qligi; v) fors-major holatlari	Ha Ha	Yo'q	
V. Aniqlik				
10	Qabul qilib olingan import tovarlari sifati va miqdorini qabul qilish bosqichida aniqlanadimi?	Ha		
11	Har oyda mol etkazib beruvchilarning ma'lumotlari ularning kreditorlik qarzlari schyotlari bilan taqqoslanadimi?		Yo'q	
12	Buxgalterlar tomonidan schyot-fakturalar miqdor, sifat, baho va kontraktlarning bajarilishi muddatlari bilan taqqoslanadimi?		Yo'q	
VI. Tasniflash				
13	Mol etkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblar yuzasidan korxonaga uchun xarakterli schyotlar korrespondentsiyasi ishlab chiqilganmi?		Yo'q	
VII. Hisob				
14	Xorijiy mol etkazib beruvchilar bilan hisob kitoblar yuzasidan analitik hisob doimo sintetik hisob bilan taqqoslab turiladimi?		Yo'q	
15	Import tovarlari bo'yicha analitik hisob ularning bosqichlardagi yo'nalishi bo'yicha olib boriladimi?		Yo'q	

Buning uchun nazorat testlarini ishlab chiqish zarur bo'ladi (6.3.40 jadval). Xalqaro iqtisodiy aloqalarni tartibga solishning asosiy usullaridan biri bojxona tariflarini aniqlashdir. Ularning qo'llanilishi asosida esa tovarlar bojxona qiymatini aniqlash qoidalari yotadi.

Boj hisoblash uchun import qilinayotgan tovarlar qiymatini aniqlab olish jarayonini eng murakkab bosqichlardan biridir. Uni aniqlash esa to'g'ri va egri xarajatlar bilan tasdiqlangan

ma'lumotlarga asoslanishi lozim. O'zbekiston Respublikasi «Boj tarifi to'g'risida»gi qonunining 14-moddasida tovarlarning bojxona bahosi ustidan nazoratni amalga oshirishda bojxona organining huquq va majburiyatlari keltirilgan bo'lib, unda jumladan quyidagilar aks etgan:

- deklarant e'lon qilgan tovarning bojxona qiymati to'g'ri yoki noto'g'riligi haqida qaror qabul qilish;

deklarant e'lon qilgan tovarning bojxona qiymati to'g'ri aniqlanganligini tasdiqlovchi dalillar mavjud bo'lmasa yoki deklarant taqdim etgan ma'lumotlarni noto'g'ri yoki to'liq emas, deb hisoblash uchun asoslar mavjud bo'lsa, o'zida bor ma'lumotlarga asoslanib, ushbu qonunga muvofiq tuzatishlar kiritish yo'li bilan bojxona qiymatini aniqlash usullarini birin ketin qo'llagan holda deklaratsiya borilayotgan tovarning bojxona qiymatini aniqlash va boshqalar.

Lekin shuni alohida qayd etib o'tish kerakki, yuqorida ko'rsatilgan tovarning bojxona qiymati to'g'ri yoki noto'g'riligi bojxona qiymati tomonidan faqatgina qisman aniqlanishi mumkin. Bu masala borasida to'g'ri qaror qabul qilish uchun esa taqdim etilayotgan invoys va transport hujjatlarini audit jarayonidan o'tkazish zarur bo'ladi. Faqatgina audit uslublarini qo'llagan holdagina samarali va oqilona natijaga erishish mumkin.

O'zbekiston Respublikasida Bojxona nazoratini amalga oshirish borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Bojxona kodeksining ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi buning yaqqol misoli bo'ladi. Shu kodeksning 39-moddasida bojxona nazorati shakllari aniq keltirilgan bo'lib, eng birinchi o'rinda bojxona maqsadlari uchun zarur bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarni tekshirish turadi. Yuqorida aytib o'tilganidek, bu tekshirishning asosiy usullaridan biri ham, albatta, audit tamoyillarini qo'llash bo'lmog'i dardkor.

Bu boradagi ishlarni jonlantirish va muammolarni hal qilish uchun O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi tarkibida yirik nazorat va taftish boshqarmasi tashkil qilindi hamda hozirgi kunda quyida keltirilgan ish va masalalar shu boshqarma tomonidan rejalashtirilib, muvaffaqiyatli hal qilinmoqda. Jumladan:

- qo'mita hududiy bo'linmalarini to'la taftish o'tkazish;
- qo'mitaning hisobga olish va hisobot tizimini tekshirish;
- bojxona nazoratidan o'tkazilishi lozim bo'lgan tovarlar va transport vositalari turishi mumkin bo'lgan yoxud nazorat qilish bojxona organlari zimmasiga yuklatilgan faoliyat oshirilayotgan hududlar, binolar va boshqa joylarni;
- tushayotgan xabarlar hamda imkoniyatlar yuzasidan tematik taftishlar o'tkazish va boshqalar.

Audit o'tkazish va tovarlar O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga kirib kelganda soliq va ajratmalarni to'g'ri hisoblash uchun bojxona qiymatining asosligini inobatga olib, import muomalalari bo'yicha quyidagi (6.3.41 jadval) auditorlik nazoratining dasturini taklif etamiz.

Keltirilgan (6.3.41 jadval) dasturdagi asosiy qismlardan biri ham, albatta, boj qiymatini aniqlashning to'g'riligini tekshirish bo'ladi. Buning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- tovarlar qiymatining sun'iy ravishda oshirilishi (yoki kamaytirilishi)ga qarshi kurash vositasi sifatida bojxona organlari zimmasiga yuklangan boj, yig'imlar va boshqa to'lovlarni undirishni hisoblash uchun real negiz (asos)ni aniqlash;
- valyuta nazoratini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborotni to'plash va tahlil qilish;
- boshqa bojxona maqsadlarida, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan bojxona ishiga doir huquqni buzishlar uchun sanksiya qo'llashlarning mavjudligi.

6.3.41 Jadval

Import muomalalarini tekshirish uchun audit dasturi

№	Tadbirlar mazmuni	Ma'lumot manbai	Amalga oshiriladigan ishlar
1	2	3	4
1.	Kontraktlar soni va to'g'riligi	Kontraktlar	Tasdiqlash
2.	Tovarlar, ish va xizmatlar yuzasidan kelib tushish va kirimni o'z vaqtida rasmiylashtirish	Bojxona deklaratsiyasi, kirim nakladnoylari	Tasdiqlash
3.	Bojxona qiymatini aniqlashning to'g'riligini auditi	Bojxona deklaratsiyasi O'zbekiston Respublikasi «Boj tarifi to'g'risida»gi qonun «O'zbekiston Respublikasiga olib kirilayotgan tovarlarning boj qiymatini aniqlash bo'yicha» yo'riqnomasi	Qayta baholash
4.	Import tovarlarini soliqqa tortish: QQS, aktsiz	Bojxona deklaratsiyasi, import bo'yicha birlamchi hujjatlar	Qayta hisoblash
5.	Import tovarlar bo'yicha kreditorlik qarzlarning realligini aniqlash	Mol etkazib beruvchilarning schyot-fakturalari	Hujjatlash tirish
6.	Kreditorlik qarzlarni aks ettirishda debet yozuvlari klassifikatsiyasining to'g'riligi	Mol etkazib beruvchilarning schyot-fakturalari, buxgalteriya hisobi registrlari	Kuzatish, ko'rib chiqish
7.	Tovarlar kirim qilinishining to'raligi va xorijiy mol etkazib beruvchiga to'lovlarni tekshirish	Schyot-faktura, kirim nakladnoylari	Ko'rib chiqish, taqqoslash
8.	Import tovarlar realizatsiyasini tekshirish: a) so'mga b) xorijiy valyutaga va uning qonuniyligi	Tovar-transport nakladnoylari, kassir hisobotlari	Kuzatish, tasdiqlash
9.	Kurslar bo'yicha farqni to'g'ri aniqlanganligini va buxgalteriya hisobida aks ettirilishini tekshirish	Hisobot shakllari, buxgalteriya registrlari	Taqqoslash, qayta hisoblash

Bojxona organiga taqdim etilgan quyidagi hujjatlar audit o'tkazish uchun asos bo'ladi:

- tovar bojxona to'lovining to'ldirilgan deklaratsiyasi (BTD yoki BTD-2 shakllari);
- bojxona yuk deklaratsiyasi (BYuD);
- ta'sis hujjatlari;
- shartnoma (kontrakt, bitim) va unga qo'shimcha bitimlar (agar ular nazarda tutilgan bo'lsa);
- hisobvaraq-faktura (invoys) yoki hisobvaraq-proforma (noqiyamat bitishuvlari uchun);
- transport xarajatlari hisobvaraq-fakturaga kiritilmagan hollarda transportda tashish uchun to'lovnoma yoki transport xarajatlari kalkulyatsiyasi;
- import qilish belgilangan tartibga muvofiq litsenziyalar bo'yicha amalga oshiriladigan tovarlar uchun olib kirishga litsenziya.

O'zbekiston Respublikasining «Boj tarifi to'g'risida»gi qonuni boj qiymatini aniqlash uchun oltita usulni belgilaydi:

- olib kelingan tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab baholash (1-usul);
- aynan bir xil tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab baholash (2-usul);
- o'xshash tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab baholash (3-usul);
- qiymatlarni chegirib tashlash asosida (4-usul);
- qiymatlarni qo'shish asosida (5-usul);
- rezerv usul (6-usul).

Yuqoridagilardan kelib chiqib, boj qiymatining auditi mavzusi bo'yicha quyidagi umumiy dasturni taklif qilamiz:

1. Asosiy usullar.
2. Maxsus usullar.
3. Bojxona qiymati bo'yicha mijoz qarorlari sharoiti.

Keltirilgan audit rejasi modeli bojxona qiymatini aniqlash ustidan o'tkaziladigan nazorat tamoyillarining boshlang'ich bosqichi hisoblanadi.

Asosiy usullar jumlasiga 1-usul kirib, undan foydalanilganda auditor e'tibor qilishi kerak bo'lgan shartlar qatoriga quyidagilar kiradi:

Birinchi shart:

- deklarant bayon qiladigan bojxona qiymati va uning belgilanishiga doir ma'lumotlar ishonchli, miqdoriy jihatdan belgilab bo'ladigan va hujjatlar asosida tasdiqlanishi kerak;
- bojxona qiymati faqat uning bojxona qiymati deklaratsiyasida ko'rsatilgan hamma elementlari tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangandagina 1-usulga ko'ra aniqlanishi mumkin, shu jumladan:
 - a) bitim narxi - tovar etkazib beriladigan tovarga ham to'lash uchun hisobvara-q-faktura orqali;
 - b) bitim qiymatiga qo'shimcha ilova qilinadigan, tijoratchilik hujjatlari orqali;
 - v) xarajatlarning hisobdan chiqariladigan (chiqarib tashlanadigan) summalari - to'lov, tovarga ilova qilinadigan tijoratchilik, bojxonaga doir hujjatlar orqali.
- 1-usul hujjatlar asosida tasdiqlanmaydigan hollarda qo'llanilishi mumkin emas.

Tovarlarni u eksport qilingan mamlakatdan chegara orqali O'zbekiston Respublikasiga olib o'tilishi va xaridordan ana shu tovar o'rniga pullik hisob-kitoblar (to'lovlar)ning qabul qilingan shakllariga muvofiq keladigan pul summasini yoki tovarni olish uchun asos bo'ladigan, qiymatga doir baholash yoki uning hisob-kitob usulini o'z ichiga olgan shartnoma (kontrakt)ning mavjudligi 1-usulning qo'llanish sharti hisoblanadi.

Xaridorlar qatori mavjudligida bojxona qiymatini belgilashni misol tariqasida ko'rib chiqamiz:

Sotuvchi:	1-xaridor:	2-xaridor:	3-xaridor:
A(Xitoy)	B(Kanada)	V(AQSh)	S(O'zbekiston)
10000\$	15000\$	20000\$?

Tovar Xitoydagi sotuvchidan Kanada va AQShdagi sotuvchilar orqali O'zbekistonga kelib tushadi va erkin muomalaga chiqarish uchun deklaratsiya qilinadi. Bunda bitim narxi quyidagi tarzda o'zgaradi:

A dan Bga	----	10000 AQSh dollari.
B dan Vga	----	15000 AQSh dollari.
V dan Sga	----	20000 AQSh dollari.

Xaridorlar qatori mavjudligida tovarni O'zbekiston Respublikasining hududida erkin muomalaga o'tkazadigan shaxsning xarid narxi bitim narxi sifatida olinadi. Ushbu misolda 3(S)—xaridorning 20000 AQSh dollariga teng xarid narxini bitim narxi sifatida qabul qilinadi.

Agarda tashqi iqtisodiy bitim qiymatiga doir negizga ega bo'lmasa, bitim qiymatiga asosan boj qiymatini aniqlash mumkin emasligi audit jarayonida alohida ko'rib chiqishni taqozo etadi, masalan:

agarda tashqi iqtisodiy bitimlar qiymatga doir negizga ega bo'lmasa, bitim qiymatiga asosan boj qiymatini aniqlash mumkin emasligi audit jarayonida alohida ko'rib chiqishni taqozo etadi, masalan:

- a) tovarning bepul etkazib berilishi (namuna sifatida);
- b) tovarning konsignatsiya shartlari asosida etkazib berilishi;
- v) tovarning vositachiga sotmasdan, vositachi orqali etkazib berilishi;
- g) tovarning barter yoki kompensatsion operatsiyalar doirasida etkazib berilishi, agar tovarlar narxi ko'rsatilmagan bo'lsa;
- d) tovarlarning ijara shartnomalari (lizing) bo'yicha etkazib berilishi;
- e) tovarlarning vaqtinchalik olib kelish maqsadida etkazib berilishi;
- j) tovarlarning kontraktida nazarda tutilgan kafolatlar hisobiga etkazib berilishi.

Ikkinchi shart: xaridorning tovarlarni tasarruf etishida yoki ulardan foydalanishida quyidagilardan tashqari cheklashlar bo'lmaganida:

- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan cheklashlar;
- xaridorning tovarlarni keyinchalik qayta sotish (begonalashtirish) mumkin bo'lgan jo'g'rofiy mintaqaviy cheklashlar;
- tovarning narxiga jiddiy ta'sir qilmaydigan cheklashlar.

Import qiluvchining olib kelinadigan tovarlarga doir huquqlariga nisbatan muayyan cheklashlar mavjud bo'lganida 1-usul qo'llanilmaydi. Shu sababli auditor qo'llanilishiga imkon bermaydigan cheklashlarni va ushbu usulning qo'llanishi ruxsat qilinadigan cheklashlarni aniq farqlay bilishi zarur.

Qonunchilikka ko'ra xaridorning baholanayotgan tovarlarga doir huquqlariga nisbatan cheklashlar mavjud bo'lganida ham 1-usulning qo'llanilishi ruxsat etiladigan cheklashlarning faqat uchta turi belgilangan:

a) O'zbekiston Respublikasi qonunlariga ko'ra belgilangan cheklashlar. Bunday holda quyidagi tarzda cheklashlar nazarda tutiladi. Masalan: muayyan tovarni import qilish huquqiga ega bo'lgan shaxslar doirasiga nisbatan cheklashlar va hokazo.

b) tovarlar qaytadan sotilishi mumkin bo'lgan jug'rofiy mintaqaga doir cheklashlar. Bunday holda tovarning qaytadan sotilishi bo'yicha ayrim shaxslar uchun hududiy cheklashlar nazarda tutiladi.

v) tovar qiymatiga jiddiy ta'sir qilmaydigan cheklashlar. Agar narxga jiddiy ta'sir etadigan shart mavjudligi haqida bayon qilinsa, unda 1-usulning qo'llanishi faqat bunday shart natijasida narxning miqdoriy o'zgarishi hujjatlar asosida belgilangan holdagina mumkin bo'ladi. Agar narxga miqdoriy ta'sir qilishni belgilash va hujjatlar asosida tasdiqlash mumkin bo'lmasa, unda baholashning boshqa usullariga o'tish kerak bo'ladi.

Uchinchi shart: tovarlarning sotilishi yoki narxi baholanayotgan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlab bo'lmaydigan holga olib keladigan qandaydir shartlar yoki fikrlarga sabab bo'lmasa, sotuv yoki narx bojxona qiymatining belgilanishiga to'siqlik qiladigan qandaydir shartlar yoki mulohazalar predmeti bo'la olmaydi.

Bunday holda bitim shartlarini ko'rib chiqishda, shuningdek, umumiy qabul qilingan tusga ega bo'lgan va tashqi iqtisodiy faoliyatning barcha qatnashchilariga tegishli bo'ladigan (yoki ularga taqdim etilishi mumkin bo'lgan) etkazib berish shartlarini va tanlangan tusdagi hamda umumiy qabul qilinmagan etkazib berish shartlarini farqlay bilishi auditorning asosiy vazifasidir. Masalan: sotuvchi tibbiy apparatni xaridor undan O'zbekiston Respublikasida faqat xayriya maqsadlarida foydalanadi, degan shart bilan sotadi.

Bunday holda 1-usul qo'llanishi mumkin emas, chunki xaridorning tovaridan foydalanish huquqiga nisbatan cheklash mavjud va bu xildagi shart bitim qiymatiga ta'sir qilishi mumkin. Shuning uchun baholashning boshqa usullari qo'llanilishi kerak.

Bunday shart shuni nazarda tutadiki, tovar narxining uning sotilishi yoki etkazib berilishidagi tovarning qiymatiga ta'siri belgilash mumkin bo'lmagan shartlarga bog'liq bo'lmaydigan hollarda ham 1-usul qo'llanilishi mumkin.

Quyida tashqi iqtisodiy faoliyatda mavjud bo'lgan, 1-usul qo'llanishi ruxsat etiladigan tovar etkazib berishning umumiy qabul qilingan shartlari keltirilmoqda:

- tovar etkazib berishning barcha umumiy qabul qilingan shartlari (avvalo, INKOTERMS-1990 ga kiritilgan etkazib berish shartlari);
- bitimlarni tuzish va tovar etkazib berilishini amalga oshirishning «ekspertni jalb etish (ekspert xulosasi mavjudligi) sharti bilan xarid qilish» singari umumiy qabul qilingan shartlar;
- xaridorning sotuvchiga O'zbekiston Respublikasida tayyorlangan texnik ishlanmalar yoki chizmalarni taqdim etishi;
- xaridorning u import qiladigan tovarlarning sotilishiga doir qandaydir harakatlarini o'z hisobidan amalga oshirishi, masalan, xaridor haqini to'laydigan reklamaga oid faoliyat.

Bitim qiymatining bojxona maqsadlari uchun qabul qilinishiga to'sqinlik qiladigan shartlar bitim shartlari sifatida ilgari surilgan bo'lsa, bunday holda 1-usulni qo'llash mumkin bo'lmaydi. Quyidagilar ana shunday shartlarga kiradi:

- sotuvchi import qilinadigan tovarlarga narxni xaridor, shuningdek, muayyan miqdordagi boshqa turdagi tovarlarni ham tovarning har bir turiga narx ko'rsatilmasdan sotib oladi, degan shart asosida belgilaydi. Masalan, 5000 pul birligi summasidagi charm buyumlari etkazib berilayapti. Etkazib beruvchi import qiluvchining qiymati noma'lum bo'lgan 2000 juft poyabzalni ham qo'shimcha ravishda sotib olishni shart qilib qo'yadi;
- import qilinadigan tovarlar narxi ana shunday tovarlar xaridorning import tovarlarning sotuvchisiga sotadigan boshqa tovarlarning narxi yoki narxlariga bog'liq bo'ladi;
- narx import qilinadigan tovarlarga aloqasi bo'lmagan haq to'lash shakli negizida belgilanadi;
- oldi-sotdi shartnomasi faqat ushbu sotuvchidan sotib olish shartini nazarda tutadi;
- oldi-sotdi shartnomasi bitim qiymatini tovarlarni o'zaro sotish (etkazib berish) sharti asosida belgilaydi.

Bunday shartlar mavjud bo'lganda auditorning vazifasi ularning bitim qiymatiga ta'sir qilgan yoki qilmaganligini va bunday ta'sirni miqdoriy jihatdan belgilash mumkin yoki mumkin emasligini aniqlashi kerak. Faqat shartning qiymatga ta'siri miqdoriy jihatini belgilash mumkin bo'lsa va bayon qilingan narx haqiqatda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan narx bo'ladigan bo'lsagina, 1-usulni qo'llash mumkin.

To'rtinchi shart: xaridor va sotuvchi bir-biriga bog'liq shaxslar bo'lmasa.

Auditorning vazifasi o'zaro bog'liqlik mavjud bo'lgani yoki bo'lmaganini aniqlashdir.

Shuni hisobga olish kerakki, bojxona organi o'zaro bog'liqlik mavjudligi va uning bitim qiymatiga ta'siri yuzasidan etarli asoslangan shubhalar bo'lmaganida firmani maxsus nazorat ostiga olib qo'yishi mumkin. Bunday nazorat firmaning boshqa bitimlarini rasmiylashtirishdagi faoliyatini kuzatish uchun kerak.

2-usulning qo'llanilishida ayni bir xil tovarlar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab bojxona qiymatini belgilash uchun baza sifatida qabul qilinadi.

«Boj tarifi to'g'risida»gi qonunning 19-moddasiga binoan baholanadigan tovarlar bilan hamma jihatlariga ko'ra, shu jumladan, quyidagi belgilari bo'yicha bir xilda bo'lgan tovarlar, xuddi shunday tovarlar deb tushuniladi:

- fizik xususiyatlari;
- sifati va bozordagi qadri;
- qaysi mamlakatda ishlab chiqarilgani;
- ishlab chiqaruvchi.

3-usulning qo'llanilishida import qilinadigan tovarlarga o'xshagan tovarlarga doir bitim qiymati bojxona qiymatini belgilash uchun baza sifatida qabul qilinadi.

Tovarlarning bir-biriga o'xshashligini belgilashda quyidagi jihatlar hisobga olinadi:

- sifat, tovar belgisining mavjudligi va bozordagi qadri;
- qaysi mamlakatda ishlab chiqarilganligi;
- ishlab chiqaruvchisi.

4-usul bo'yicha bojxona bahosini chiqarish uchun baholanadigan aynan bir xil yoki o'xshash tovarlar O'zbekiston Respublikasining ichki bozorida dastlabki holati o'zgartirilmasdan sotiladigan sotish narxi bojxona qiymatini belgilash uchun asos qilib qabul qilinadi.

Bojxona qiymatini ichki narx asosida hisoblash mumkin bo'lishi uchun faqat ichki bozorga xos bo'lgan elementlarni, ya'ni ushbu tovarlar importidan keyin amalga oshiriladigan xarajatlar chegirib tashlanishi zarur.

5-usuldan foydalanilganda, tovarning:

a) baholanayotgan tovarni ishlab chiqarish munosabati bilan tayyorlovchi tomonidan sarflangan materiallar qiymatini va boshqa xarajatlarni;

b) aynan bir turdagi tovarlarni olib chiqilayotgan mamlakatdan O'zbekiston Respublikasida sotishga xos bo'lgan umumiy xarajatlarni, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasida o'tish joyigacha transportda tashib keltirish, yuklash va tushirish, sug'urtalash xarajatlarini;

v) aynan bir xil yoki o'xshash tovarlarni O'zbekiston Respublikasiga etkazib berish natijasida eksportyor tomonidan, odatda, olinadigan foydani qo'shgan holda chiqariladigan bahosi bojxona qiymatini belgilash uchun asos sifatida qabul qilinadi.

Bu usulga ko'ra bojxona qiymati faqat O'zbekiston Respublikasidan tashqarida olish mumkin bo'lgan axborot asosida belgilanadi. Shuningdek, xaridor bilan sotuvchi o'zaro bog'langan bo'ladi va ishlab chiqaruvchi O'zbekiston Respublikasining bojxona organlariga ishlab chiqarish xarajatlari haqidagi zarur ma'lumotlarni taqdim etish va keyinchalik o'tkazilishi lozim bo'lgan ularning auditi uchun tayyor bo'ladi.

Auditorlarning tekshirish jarayonida e'tiborga olishi lozim bo'lgan asosiy shart quyidagidan iborat, ya'ni xarajatlar haqidagi ma'lumotlar baholanayotgan tovarlarning ishlab chiqarilishiga tegishli, ishlab chiqaruvchi tomonidan yoki uning nomidan taqdim etiladigan ma'lumot asosida belgilanishi lozim. Bunday axborot ishlab chiqaruvchining tijoratiga oid hisobotlarida, bunday hisobotlar tovarlar ishlab chiqarilgan mamlakatda qabul qilingan hisobga olishning umumiy qabul qilingan qoidalariga muvofiq keladigan shart bilan asos topgan bo'lishi kerak.

Mabodo bojxona qiymati deklarant tomonidan ko'rsatilgan beshta usulni izchillik bilan qo'llash natijasida belgilanishi mumkin bo'lmasa, unda baholanayotgan tovarlarning bojxona qiymati 1-5 baholash usullarini bir muncha qayishqoqlik bilan qo'llanish yo'li orqali belgilanadi va asoslanadi.

Rezerv usulni (ya'ni 6-usulni) qo'llashda bojxona organlari deklarantga o'zlarining ixtiyorida mavjud bo'lgan narxlarga oid ma'lumotlarni taqdim qiladilar.

Quyidagilar 6-usulga ko'ra bojxona qiymatini belgilash uchun baza sifatida qo'llanilishi mumkin emasligi auditor tomonidan alohida e'tiborga olinish kerak:

- a) O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan o'xshash tovarning sotuv narxi;
- b) ikki va undan ortiq muqobil qiymatlarning eng yuqorisi;
- v) tovarning olib chiqilgan (eksport qilingan) mamlakat ichki bozoridagi bahosi;
- g) olib chiqilgan (eksport qilingan) mamlakatdan uchinchi mamlakatlarga etkazib berilgan tovarning bahosi;
- d) eng past bojxona qiymatlariga, shuningdek, tovarlarning o'zboshimchalik bilan qo'yilgan yoki o'z ishonchli tasdig'ini topmagan soxta qiymatlariga.

Izlanishlar natijasini umumlashtirib, quyidagi xulosani chiqarish mumkin:

- bojxona auditi bo'yicha xalqaro tajribani, me'yoriy-huquqiy bazani atroflicha o'rganish va uning asosida tovarlarning bojxona qiymati ustidan samarali nazoratni ta'minlash uchun tashqi

iqtisodiy faoliyat qatnashchilarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati tekshiruvini hisobga oluvchi bojxona auditi tizimini yaratish;

- bojxona qiymatini aniqlashda xatoga yo'l qo'yilsa va bu bojni to'lovchilar schyotida mablag' bo'lmasa, deklaratsiya tayyorlovchi firmalar (deklarantlar) javobgarligini oshirish;
 - haqiqiy nazorat o'tkazish uchun audit rejalari va izlanishlarini ishlab chiqish zarur.
- Umumiy rejada esa har bir qism bo'yicha bojxona qiymatini aniqlash uchun alohida elementlar bo'yicha tekshirish o'tkazish ko'zda tutilishi kerak.

Asosiy va maxsus usullar quyida keltirilgan audit o'tkazish metodologiyasi bilan to'ldirilishi mumkin:

- inventarizatsiya;
- tijorat faoliyatidagi turli munosabatlar darajasini aniqlash;
- statistik ma'lumotlarni taqqoslash;
- invoys va tovarlar bir vaqtda kelib tushgan holda umumiy schyotlarni, registrlarni tekshirish;
- boshlang'ich qoldiqni tekshirish va boshqalar.

Auditning asosiy va muhim bosqichlaridan biri bu import qilingan tovarlar, ish va xizmatlar yuzasidan debitorlik va kreditorlik qarzlarning realligini aniqlashdir. Buning uchun auditor, hisobda kirim bo'yicha hujjatlarni aks ettirilishining to'laligini

tekshirishi zarur, chunki korxonalar import bo'yicha daromadni hisobga olishga ko'proq e'tibor berishadi, majburiyatlar esa kamroq e'tiborda bo'ladi.

Shunday ekan, mol etkazib beruvchilarning hisobga olinmagan schyotlari aniqlanishi kerak.

Xorijiy mol etkazib beruvchiga kreditorlik qarzining realligi va to'laligini tekshirish natijasini quyidagi ish jadvalida (6.3.42 jadval) ko'rsatishga harakat qildik.

6.3.42 Jadval

Xorijiy mol etkazib beruvchilarning hisobga olinmagan to'lovlari va schyotlarni aniqlash

№ huj.	Mol etkazib beruvchi	Hisob ma'lumotlari		Audit ma'lumotlari	
		Sana	Summa, \$	Sana	Summa, \$
2380	Kompaniya A	20.02.2001	3100	20.01.2001	3500*
2395	Kompaniya B	30.04.2001	25000	23.04.2001	25650*
2450	Kompaniya V	10.01.2001	10000	-	-**
2798	Kompaniya G	-	-	12.12.2001	125000***

*-Tovarning qiymati noto'g'ri hisobga olingan 400 dollar va 650 dollar kam kirim qilingan.

**-Tovarlar schet yo'qligiga qaramay, kirim qilingan, audit jarayonida tovar qabul qilingani va kirimga olingani aniqlandi.

***-125000 dollarlik tovarlar kirimga olinmagan, hisobda ular fevral oyida aks ettirilgan, bu tovarlarning bir qismi 6 dekabrda realizatsiya qilinganini hisob kitob schetiga pul kelib tushganligidan bilsa bo'ladi.

Buxgalteriya schetlarida tuzatishlarni amalga oshirish tavsiya etiladi. 1050 dollar tovarlar qiymatidagi farq aybdor shaxslarga olib borilishi kerak.

Bajarildi _____
Sana _____
Tekshirildi _____
Sana _____

Audit jarayonida kreditorlik qarzlari qoldig'ining realligi aniqlanadi. Buning uchun aniq bir mol etkazib beruvchi bo'yicha qarz oxirgi schet-faktura va to'lov bilan taqqoslab aniqlanadi (6.3.43 jadval).

Kreditorlik qarzlarning realligi

№	Mol etkazib beruvchi	Saldo 1.12.2001 yil, so'm	Oxirgi schet bo'yicha summa, so'm	Oxirgi schet bo'yicha o'zgarish, +
1	Kompaniya A	55650350	50350128	+5300222*
2	Kompaniya V	283470000	42350000	-14003000**

*- qoldiqlar kurs bo'yicha farq va noyabr oyida olingan tovar uchun qarzni to'lamaganligi sababli oshgan.

**-so'm qiymatida 13350000 so'mlik tovarlar noyabr oyida olingan va kirim qilinmagan va 11.12ga kurslar o'rtasidagi farq 653000 so'm miqdorda ko'rsatilmagan.

Bajarildi _____

Sana _____

Tekshirildi _____

Sana _____

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tashqi iqtisodiy aloqalar, jumladan import muomalalari auditini tashkil qilishning metodologik asoslarini yaratishda sintetik va analitik hisob ma'lumotlarini taqqoslash orqali bir qator ish jadvallaridan foydalanish zarur bo'ladi, bundan tashqari xarajatlarning belgilanish, boj qiymatining aniqlanish usullarini qo'llanishida audit uslublaridan foydalanish zarurligini keltirish mumkin.

Auditni tashkil qilish va rejalashtirish, ish hujjatlari va audit dasturini ishlab chiqish bo'yicha metodologik takliflar kiritildi. Bundan tashqari xo'jalik muomalalarining testlari, kurslar farqi, valyuta xatari va kreditorlik qarzlari realligini aniqlash bo'yicha metodologik takliflar ishlab chiqildi va misollar yordamida ochib berildi.

Xulosa

O'zbekiston iqtisodini va g'arb, shu jumladan AQSh iqtisodi bilan hozirgi kunda uyg'unlashtirish mumkin emas. Bu yo'nalishda hali katta ishlarni amalga oshirish kerak. Shuning uchun bizning vazifamiz g'arb mamlakatlari bozor iqtisodi ilg'or texnologiyalarining elementlari va uning ajralmas qismlaridan biri bo'lgan auditni tadqiq etishdan, uning iqtisodiy asoslarini o'rganishdan iboratdir. Mavzuning yoritilishi va ilmiy xulosalar quyidagilarga asos bo'ldi:

Birinchidan, O'zbekistonda boshlangan malaka attestatsiyasi va mutaxassis auditorlar hamda auditorlik firmalarini legitim litsenziyalashtirishni tartibga solishda asos bo'ladi.

Ikkinchidan, rivojlangan mamlakatlardagi moliyaviy nazorat tizimini tahlil qilish asosida O'zbekiston iqtisodining o'ziga xos rivojlanish usullarini inobatga olib, auditning mohiyati, xususiyatlari va amal qilish sohasini belgilashga harakat qilindi va bu infratuzilmaning tashkiliy asoslari ochib berildi.

Uchinchidan, auditning asosiy turi, albatta, moliyaviy hisobot bilan bevosita bog'liqligi sababli xulosa berish bilan yakunlanadi va bu ma'lumot uzatishning muhim elementi hisoblanadi. ilmiy izlanishlar shuni shuni ko'rsatadiki, xulosada aniq ifodalanishi kerak bo'lgan ma'lumotlar bo'lib, ular umumiy sir saqlash talablariga rioya qilgan holda berilishi kerak. Bu va boshqa hollar 1972 yil, 1-son «Audit standartlari bo'yicha yo'riqnoma»ning (Statement on Auditing Standards - SAS) taxminan yarim standartlarida keltirilgan. Agarda xulosa erkin holda yozilsa, foydalanuvchilarga uning ma'nosini tushunish juda mushkul bo'ladi, chunki undagi har bir holatni yuridik jihatdan aniq, lekin ma'lumotni sir saqlagan holda ochib berish kerak. Shu sababli, bizning fikrimizcha, auditorlik xulosalari bir xil ko'rinishda bo'lishi kerak, lekin moliyaviy hisobotni kuzatib boruvchi xulosalarning turlarini ajratish zarur bo'ladi.

Monografiyada auditorlik xulosalarida foydalaniladigan jumlar ishlab chiqilgan. Ular umumiy jihatdan aksariyat bir xil bo'lib sharoitdan kelib chiqib turli ko'rinishdagi xulosalar tuzishda foydalanishi mumkin.

To'rtinchidan, O'zbekistondagi ko'p ukladlilik iqtisodiy xilma-xillik bo'lib, u tomorqa va norasmiy iqtisodiyotdan iborat bozor merosini ham inobatga oladi. «O'zbek modeli» asosida xususiylashtirish pullik, bosqichma-bosqich, davlat nazorati ostida yuz beradi, nodavlat sektori uchun moliyaviy resurs hosil etishni ko'zda tutadi va bular, o'z navbatida, auditorlik firmalariga boshqa turdagi ma'lumotlar, ya'ni ishonch darajalarini o'zgaruvchan bo'lishi va boshqa turdagi xulosalar berishni taqozo etmoqda. Yuqorida keltirilgan fikrlar asosan tugallangan moliyaviy hisobotga taalluqli ekanligini hisobga olib ilmiy ishda tasdiqlash xizmatlarining faoliyat doirasi, umumiy tizimi ochib borildi va vazifalari belgilandi.

Beshinchidan, mohiyati jihatdan audit mustaqil nazorat shakli ekanligini hisobga olsak, bu faoliyatning sifat nazorati masalasi vujudga keladi. Ilmiy ishda bu masala to'la tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki: birinchidan, auditorlik firmalari umumiy qabul qilingan audit standartlariga rioya qilinayotganini kafolatlashi kerak; ikkinchidan, sifat nazorati har bir audit uchun va butun auditorlik firmasiga joriy qilinishi kerak; uchinchidan, qanday muolajalar qo'llash kerakligi firmaning hajmidan kelib chiqadi; to'rtinchidan, auditorlik firmalari tizimida o'z-o'zini nazorat qilish mexanizmi yaratilishi kerak, shu sababli firma o'z siyosati va muolajalarini ishlab chiqishi uchun umumiy sifat nazorat elementlarini yaratishi zarur bo'ladi. Yuqoridagilarni inobatga olib, sifat nazoratining to'qqizta elementi taklif qilindi. Har bir element uchun qisqa talablar ishlab chiqildi va bu talablarga rioya qilish uchun namunaviy muolajalar keltirildi.

Oltinchidan, O'zbekistondagi ko'p ukladli tuzilma davlat, xususiy, jamoa va aralash ukladlarning uzviy yaxlitligidan tashkil topgan, ular makroiqtisodiy tsirkulyatsiyada o'zaro muntazam bozor aloqalariga kirishgan holda milliy iqtisodiyotni tashkil etishlarini inobatga olsak, auditorlik nazoratining maqsadi va auditni segmentlarga ajratishning o'ziga xos bo'lgan yondoshishini yaratish zarur bo'ladi. Bu borada, bizning fikrimizcha, auditning umumiy maqsadi va vazifalari moliyaviy hisobot bo'yicha fikr berishdan iborat bo'lmog'i va bu maqsadga erishish

uchun moliyaviy hisobotni bir qator mayda elementlarga ajratib olish kerak bo'ladi. Auditning segmentlanishi va moliyaviy hisobotni elementlarga ajratish uchun bosqichma-bosqich yondoshish usuli ishlab chiqildi va metodologik jihatdan asoslandi. Umumiy maqsadga erishishda yuqoridagilardan kelib chiqib, har bir element uchun haqiqiy ma'lumot yig'ish jarayonining tartibi taklif qilindi.

Izlanishlar natijasida ichki nazorat tizimining samarali ishlashi auditorlik riskini pasaytirishi mumkinligi aniqlandi. Albatta, bu natija chet el auditorlik firmalari va adabiyotlarining keng tahlil qilish usuli bilan ham isbotlandi. Bizning fikrimizcha, asosiy masala «bunga qanday erishiladi?» degan savolga javob topish va ilmiy asoslashdan iborat bo'lmog'i lozim. Auditorlik riski modelida nazorat tizimidan qanday foydalanishini tushunish uchun ichki nazorat tizimini amalga oshirishning asosiy printsiplarini aniq ajratib berish zarur bo'ladi. Monografiyada ichki xo'jalik nazoratining ahamiyati va maqsadiga mijoz va auditor nuqtai nazaridan qaralgan. Auditorlar uchun ichki xo'jalik nazorati tizimi elementlaridan foydalanish metodologiyasi ishlab chiqildi va ob'ektda ishlash andozasi talablari bilan uyg'unlashtirildi. Berilayotgan takliflarga binoan ichki xo'jalik nazorati tizimining o'zgarishi to'rtta asosni belgilovchi kontseptsiyaga tayanadi, ya'ni ma'muriyat javobgarligi; ishonch darajasining etariligi; mavjud cheklashlar; ma'lumotni qayta ishlash usullari. Ilmiy ishda bu kontseptsiyalar to'la o'rganib chiqildi va asoslandi. Shuni alohida qayd etib o'tish kerakki, hozirgi kundagi buxgalteriya hisobini isloh qilish sharoitida, ya'ni boshqaruv hisobi va moliyaviy hisob tizimlarini tashkil qilish, albatta, samarali hisob tizimi bo'lmog'i lozim, lekin xatolarni audit orqali qidirib topish arzonga tushsa ham kompaniyalar o'z ichki xo'jalik nazorat tizimlarini talab darajasida bo'lishini ta'minlashlari kerak.

Har qanday iqtisodiy mexanizm, ayni mavzudagi ichki nazorat tizimini mexanizmi ham unga ma'muriy buyruqbozlik usulisiz faoliyat ko'rsatishi kerak. Buning uchun uning vazifasi va maqsadlari aniq belgilanishi zarur bo'ladi.

Monografiyada korxonada ichki xo'jalik nazorat tizimining bozor infratuzilmasini rivojlanib borishida, boshqaruv usullarining erkinlashuvi sharoitida maqsadi aniqlashtirilgan bo'lib, unga erishish usullari tizimi yaratildi.

Bizning fikrimizcha, ichki nazorat tizimi elementlari bu uch kategoriyadan iborat uslub va muolajalarni o'z ichiga oladi, bular nazorat muhiti, hisob tizimi va nazorat muolajalaridir. Monografiyada bu kategoriyalar ma'muriyat tomonidan to'la ochilib foydalanishi va shu bilan birga nazorat maqsadlariga erishilganligini to'la kafolatlashi zarurligi ta'kidlangan. Shu bilan birga auditorni qiziqtiradigan masala bu keltirilgan metodikalar qay darajada moliyaviy hisobotdagi buzilishlar va noaniqliklarni oldini olish hamda bartaraf etishi mumkinligi darajasi bilan bog'liq. Monografiyada qo'llanilgan metodikalarning samaraliligini aniqlash tartibi ishlab chiqildi.

«Nazorat muhiti» degan tushunchani kiritish zarurligi to'la asoslandi va bu tushuncha tarkibiga ma'muriyatning yuqori bo'g'inlari, tashkilotning egalari va direktorlarning nazoratga bo'lgan munosabatlarini aks ettiruvchi usul va muolajalar kiritilishi belgilandi. Nazorat muhitini tushunish va baholash uchun auditor o'rganishi zarur bo'lgan elementlar majmui taklif qilindi. Bu elementlarning asosiylaridan biri bo'lgan ichki xo'jalik auditi funktsiyalari va boshqaruv tizimidagi o'rni qanday bo'lishi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar ichki xo'jalik nazorati tizimini metodologik asoslash bilan birga uning asosiy qismi bo'lgan ichki xo'jalik auditining O'zbekiston Respublikasida samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashda asos bo'ladi.

Amaliyot natijalarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda hozirgi kunda ichki audit samaradorligi masalalari va auditorlik qo'mitalarini tashkil qilish yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Audit o'tkazish maqsadida mijozning ichki auditi materiallaridan foydalanish to'g'risidagi standartning kiritilishiga qaramay, tashqi auditorlar kafolat yo'qligi tufayli va ma'lumotlarning haqqoniy emasligi uchun ichki auditorlarning ish materiallaridan kam foydalanayaptilar. Muallifning fikricha, yuqorida taklif etilgan mulohazalar va uslubiyot bu muammoga barham berishga va bir qator audit samaradorligini oshirib, unga ketadigan xarajatlarni pasaytirishga olib keladi. Bundan tashqari shuni xulosa qilib aytish mumkinki, nazorat muhiti ma'muriyatning nazoratga bo'lgan munosabatini ham aks ettiradi, ya'ni boshqaruvning yuqori bo'g'inini nazorat zarur, deb

hisoblamasalar, bu narsa quyi bo'g'inlarda o'z aksini topadi, boshqacha qilib aytganda agar ishchilar yuqori eshelon nazoratga munosabati pastligini bilsalar, ichki nazoratning maqsadga erishishidan samara bo'lmaydi.

Auditorlik qo'mitalarini tashkil qilishni hozirgi kundagi O'zbekiston Respublikasida qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi taqozo etmoqda. Chet mamlakatlardagi auditorlik qo'mitalarining tashkiliy tuzilmalarini tahlil qilish asosida auditorlik qo'mitalarining kontseptual asoslari ishlab chiqildi va tashkiliy muammolar bo'yicha bir qator takliflar ilmiy asoslandi. Auditorlik qo'mitalarining samarali ishlashi ularning tashqi va ichki xo'jalik auditorlari bilan uzviy aloqada ish olib borishda ekanligi, bunday aloqalarni amalga oshirish qanday jabhalarda olib borilishi kerakligi belgilandi va bu borada vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolar o'rganildi.

Ichki xo'jalik auditi vazifalarini tashqi audit maqsadlari bilan bog'liqligi masalalari yuqorida zikr etilgan tashkiliy muammolar bilan bog'liq bo'lib, monografiyada bu bog'lanishning asosiy elementlari ishlab chiqildi va tadbiq qilish yo'llari taklif qilindi.

Hozirgi kunda ko'pchilik iqtisodiy sub'ektlar turli xildagi kompyuter tizimini qo'llashmoqda, shu sababli ilmiy ishda oddiy hamda kompyuterlashtirilgan buxgalteriyani tekshirish metodikasi o'rtasidagi farqni aniqlash, korxonalarining kompyuter tizimidagi hisobni audit qilish metodi va aniq usulini topish, rejalashtirish metodikasi taklif qilindi.

Kompyuter tizimini audit qilish metodikasi, uning kompyuter tizimi ishlari samaradorligini baholash uchun qo'llanilishi, ichki nazoratni takomillashtirish uchun aniq ko'rsatmalar ishlab chiqildi.

Kompyuter qamrab olgan tizimni auditdan o'tkazish rejasi yaratildi, nazorat usullari va bevosita kompyuter tizimini testdan o'tkazish usullari ko'rsatib o'tildi.

Monografiyada rejalashtirishdagi quyidagi muammolar to'la o'rganildi: Ma'lumotlarni paketli qayta ishlashdagi oddiy tizimlarda kompyuter nazorati muolajalarini testdan o'tkazish; parallel modellashtirish; nazorat ma'lumotlari usuli; murakkab kompyuter tizimida nazorat muolajalarini auditorlik testdan o'tkazish; haqiqiy ma'lumotlardan foydalanilgan nazorat usullari; muomalalarni belgilash; darhol tayyor bo'ladigan fotosurat; uzluksiz ma'lumotlardan foydalangan nazorat usullari va boshqalar.

Asosiy masalalardan biri tavakkalchilikni baholash bo'lib, kompyuter tizimida bu masalaning muhim harakatlari belgilab berildi.

Audit iqtisodiy tahlil, moliyaviy-xo'jalik faoliyatining taftishi va sud-buxgalteriya ekspertizasi kabi faoliyat turlari bilan uzviy bog'liqlikda ekanligini inobatga olib, nazorat maslahatchi auditorlik tizimlari (NMAT) qoniqtiradigan asoslarni aniqlashda yuqoridagi faoliyat turlari predmeti va taklif qilinayotgan tizim o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilindi.

Shunday qilib, audit faoliyatining bu turi va keltirilgan yo'nalishlar nafaqat bevosita bog'liq, balki ularning farqlari ham mavjud. Ilmiy ishda bu farqlar to'la o'rganilib, audit, iqtisodiy tahlil, taftish va sud-buxgalteriya ekspertizasida umumiy sohalarining mavjudligi barcha ko'rsatib o'tilgan tavsiflarga ega bo'lgan nazorat maslahatchi auditorlik tizimlarini (NMAT) tashkil qilishni talab qiladi.

Monografiyada NMATni tashkil qilishning strategiyasi belgilab berildi va qanday vazifalar oldiga qo'yilishi aniqlandi. Bularni echishga mo'ljallangan NMATning ta'minlovchi qismi, ya'ni axborot va dasturiy ta'minot umumlashtirilib, bu yangicha yondoshish ko'rsatiladi.

Shuni alohida qayd etib o'tish maqsadga muvofiqi, NMATni tashkil qilishda ikkita strategiya mavjudligi asoslandi va ularni tanlashning mezonlari ishlab chiqildi.

NMATning maslahat beruvchi qismini axborot va dasturlar bilan ta'minoti nazorat qiluvchi qism bilan solishtirilganda ularni o'zga printsiplar asosida tuzilishi kerakligi aniqlandi. Buning uchun liniyali dasturlashtirish usuli ishlab chiqildi va taklif qilindi, ya'ni operativ va ma'lumotli axborotlar manbai ikkita dasturiy modulga xizmat qilishi belgilandi, ular:

- mantiqiy baholash moduli;
- kompleks baholash modullaridir.

Keltirilgan modullarning zarurligi, ahamiyati, vazifasi va tanlash metodikasi ilmiy jihatdan asoslandi.

Iqtisodiy tahlil va taftish maqsadlarini ko'zlagani kabi, NMAT ham bir tomondan nazorat qilish, ikkinchi tomondan esa maslahat berish uchun mo'ljallangan bo'lib, uning umumtuzim qismini yaratish uchun asosiy tamoyillar belgilab berildi.

Monografiyada operatsion audit xo'jalik tizimiga tegishli bir funktsiyaning sharhi sifatida xarakterlanadi, uning samaradorligi va unumdorligini baholash uslubiyoti, shu jumladan ilk bor moliyaviy hisobot auditi va operatsion audit o'rtasidagi farq hamda o'xshashlik tomonlari O'zbekiston iqtisodining ko'p ukladlilik sharoitida ilmiy jihatdan tahlil qilindi.

Operatsion audit talqiniga turli olimlar tomonidan qarashlar umumlashtirildi, ya'ni «operatsion audit» jumlasini o'rniga «boshqaruv auditi» yoki «xo'jalik faoliyati auditi» degan termini qo'llash maqsadga muvofiq degan fikrlar tahlil qilindi va «operatsion audit» jumlasini xo'jalik faoliyati tizimini uning samaradorligi va unumdorligi nuqtai nazaridan to'la o'rganildi, degan fikrga kelindi.

Operatsion auditning ko'rinishlari, ichki nazorat tizimi bilan aloqasi, kimlar tomonidan amalga oshirilishi, bosqichlari kabi masalalarni ko'rish bilan birga ularning tub mohiyatida yotuvchi mehnat unumdorligi ko'rsatkichi ustida izlanish olib borish zarurligidan kelib chiqib, bu ko'rsatkichni aniqlashda zarur bo'ladigan metodikalar o'rganildi va audit nuqtai nazaridan talqin qilindi. Boshqaruv samaradorligiga ta'sir etadigan omillar jonli va jonsiz mehnat unumdorligining birlikdagi aloqasi sifatida tahlildan o'tkazildi.

Mehnat unumdorligini baholashdan avval, yuqoridagi izlanishlardan kelib chiqib, boshlang'ich ma'lumotlarni olish mexanizmi uning ishonchli bo'lish nuqtai nazaridan takomillashtirilgan holda taklif qilindi, ya'ni tez o'zgaruvchan texnologik o'lchash sharoitida mehnat unumdorligini hisoblashni o'rganish va tartib shkalasida baholash to'g'ri boshqaruv qarorlari qabul qilish imkonini beradi.

Mehnat unumdorligi - keng iqtisodiy ma'nodagi tushuncha bo'lib, ilmiy ishda operatsion audit nuqtai nazaridan uning yangi qirralarini ochib berishga harakat qilindi, ya'ni uning amaliy ahamiyati boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilishi nuqtai nazaridan yondoshildi. Asosiy ilmiy izlanish nafaqat mahsulot yaratuvchi ishchining, balki boshqaruv xodimlarining ham mehnat unumdorligini hisoblab baho berishga yo'naltirildi. Mehnat unumdorligi aniqlab, baho berilishi kerak bo'lgan xodimlar qatoriga injener-texniklar, boshqaruv apparati va ilmiy tekshirish bo'g'ini xodimlari kiritilib, ularni shartli ravishda «oq yoqalar» deb belgilandi.

Monografiyada korxonada miqyosida «oq yoqalar» mehnat unumdorligini hisoblab topish sabablari keltirildi, amalga oshirish dasturi taklif qilindi va yo'nalishi belgilandi. Yangi texnika va auditorlik firmalari mutaxassislari malakasining oshishi korxonalar darajasini aniqlashga «oq yoqalar» unumdorligini hisobga oluvchi ko'p omilli modellarning kirishini taqozo etmoqdaki, ishda bunday modeldan foydalanish operatsion audit talabidan kelib chiqib o'rganildi.

Moddiy boyliklar yaratish sohalarida «oq yoqalar» mehnat unumdorligini hisoblash muammolari bilan birga, xizmat ko'rsatish sohalarida xodimlari unumdorligini aniqlash dolzarbligini hisobga olib, bu muammoga alohida e'tibor berildi. Umuman auditorlar mehnat unumdorligini hisoblab topish boshqa xizmat ko'rsatish sohalaridagi «oq yoqalar»ning mehnat unumdorligini hisoblash usuli bilan aksariyat mos tushishi bu muammoni o'rganishni taqozo etadi. Auditorlar mehnat unumdorligini hisoblab topishning O'zbekiston iqtisodidagi zarurligining sabablari o'rganildi va hal qilish yo'llari taklif etildi. Auditorlik firmalarida mehnat unumdorligini baholash metodikasi taklif qilindi va asoslandi. Auditorlik firmalari uchun ilmiy jihatdan asoslangan mehnat unumdorligini oshirish dasturi ishlab chiqildi. Yaxshi hisoblash tizimi eng avvalgi o'ringa samarani qo'yishini inobatga olib, auditorlik firmalari uchun mehnat unumdorligini o'lchash choralari tizimining konstruksiyasi yaratildi.

Sonlar va raqamlar yordamida ma'lum bir ko'rsatkichni statistik yo'l bilan hisoblab topishga alternativ ravishda texnik nominal guruhlar tashkil etish va nostandart vazifalarni jamoa yordamida hal qilish taklif etildi. Guruhdagi har bir shaxs qaror qabul qilishda individual fikrga ega bo'lishi zarurligi uqtirildi.

Bozor iqtisodi sharoitida auditorlar mehnat unumdorligini hisoblash raqobat kuchli bo'lganligi tufayli muhim rol o'ynaydi va keltirilgan takliflar o'rinni bo'ladi, deb hisoblaymiz.

Xalqaro iqtisodiy aloqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etish uchun jahonning yuksak talablariga javob beradigan hisob va hisobot tizimi shakllantirilishi zarur, chunki har qanday iqtisodiy aloqani samarali amalga oshirish zamirida ishtirokchilarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan tanishishlari turadi. Albatta, bu tanishish korxonalar moliyaviy hisobotlarini o'qish orqali amalga oshirib, ishtirokchilar bu hisobotlarning haqqoniyligi va to'g'ri tuzilganligiga ishonch hosil qilishlari kerak bo'ladi. Bu kabi ishonch mezoniga hisobotning auditorlik nazoratidan o'tganligi va qanday xulosalanishiga qarab erishiladi. Bunday auditning asosiy qismlaridan biri muomalalarining auditidir.

Monografiyada valyuta kassalarini nazoratdan o'tkazish uchun zarur bo'lgan test savollari ishlab chiqildi va kassadagi muomalalarni to'la tekshirishdan o'tkazish uchun zarur ish jadvali tavsiya etildi.

Valyuta mablag'lari kirimini taqqoslash va o'z vaqtida to'g'ri aks ettirilishini, kurs bo'yicha farqni tekshirish uchun maxsus ish jadvallari ishlab chiqildi.

Qaysi holatlarda qanday testlar o'tkazish kerakligini bilgan holda auditor kassadagi pul mablag'larining yo'nalishi muammolarini tekshirish bo'yicha auditorlik dasturlarini tuzishi zarur bo'ladi. Bu dastur besh qismdan iborat holda taklif etildi va uning asosida valyuta schyotlari bo'yicha auditorlik nazorati dasturi alohida ishlab chiqildi.

Valyuta operatsiyalari jarayonining aniq ifoda qilinishi ustidan o'tkaziladigan tekshirish valyuta konvertatsiyasining erkinlashuvi, joriy operatsiyalar bo'yicha erkin konvertatsiyaning cheklovlari, kapitallar harakati bo'yicha cheklovlar kabi muammolarni echishda zarurdir.

Valyuta nazoratining asosiy yo'nalishlari belgilandi va bu nazoratni amalga oshirish valyuta nazorati organlari hamda agentlari tomonidan amalga oshirilishi qayd etildi, lekin nazoratning bozor infratuzilmasidan kelib chiqib amalga oshiriladigan shakli bu auditdir.

Xalqaro iqtisodiy shartnomalar ishtirokchilari uchun yuzaga keladigan tavakkalchiliklardan biri bu valyuta tavakkalchiligi bo'lib, uning asosiy omillari o'rganib chiqildi. Bizning fikrimizcha, buxgalteriya tavakkalchiligi asosiy omillardan hisoblanib, uning yuzaga kelishi sabablari belgilandi va ilmiy izlanishlar natijasi auditorga bu masalalar yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami va bajarilish darajasini aniqlashga yordam beradi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga solishda va iqtisodni barqarorlashtirish uchun eksport muomalalari auditining o'rni muhimdir. Shu sababli bu muammoga salmoqli o'rin ajratildi, ya'ni eksport kontraktini tuzish va kontrakt bo'yicha tushumni nazorat qilish masalalarini samarali o'tkazish yo'llari taklif etildi.

Eksportyor korxonalar sertifikat, kvotasiz eksportga jo'natish mumkin bo'lmagan muhim va strategik ashyolar ro'yxatiga kirgan tovarlar uchun litsenziyalashtirilish tartibi o'rganilib, bu tizimda auditni tashkil qilish va o'tkazish usullari belgilandi. Auditor kontrakt shartlarida ko'zda tutilgan xaridor yoki sotuvchining o'zgarishi, narxlar, etkazib berish muddatlari, to'lov turlarining o'zgarishi kabi shartlarga alohida e'tibor berishi kerakligi aniqlandi.

Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, ichki nazorat tizimi holatini aniqlash tashqi audit uchun yirik dastak hisoblanadi, shu sababli ilmiy izlanishning keyingi eksport muomalalari bo'yicha ichki nazorat tizimi holatini aniqlash uchun testlar o'tkazish vazifasiga qaratildi. Bu borada muallif tomonidan VI blokdan iborat bo'lgan nazorat testlari taklif qilindi, ularning umumiy soni 12 savoldan iborat. Har bir savol bo'yicha amaliy tekshirish yo'llari to'la tahlil qilindi va eksport operatsiyalari bo'yicha dastur ishlab chiqildi. Dasturda amalga oshiriladigan tadbirlar ro'yxati va ma'lumot manbalari ko'rsatib berildi, amalga oshiriladigan jarayonlar to'la aks ettirildi. O'zbekiston Respublikasining strategik yo'nalishi bo'lgan eksport muomalalarining amalga oshirilishi bir qator masalalarni o'rganib chiqishni taqozo etmoqda, bulardan biri valyuta tavakkalchiligidan sug'urtalashdir. Respublikada valyuta tavakkalchiligidan sug'urtalash vakolatli banklar, moliya-kredit muassasalari, sug'urta tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Olib borilgan tadqiqotlar bir qator valyuta tavakkalchiligidan sug'urtalashning ikki usulini o'rganishga qaratildi. Valyuta tavakkalchiligini oldini olishning hozirgi kundagi progressiv usullaridan biri valyuta opsiyonlaridan foydalanishdir. Tahlillar ishni ko'rsatadiki, audit jarayonida e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan holat shundan iboratki, agarda tushumlar qancha va qachon kelib tushishi

aniq bo'lsa, forvard bitimlaridan foydalanish kerakligi va aks holda opsiyonlardan foydalanish kerakligidir.

Lekin opsiyon forvard shartnomalariga qaraganda qimmatroq moliyaviy instrument hisoblansada, O'zbekiston sharoitida ulardan foydalanish hozirgi valyuta bozori nobarqaror bo'lgan holatlarda maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Eksport bo'yicha valyuta tushumi va moliyaviy natija ko'p jihatdan ustama xarajatlarga ham bog'liqdir. Shuning uchun alohida so'mlarda va chet el valyutasida tahlil o'tkazildi. Mutloq va nisbiy o'zgarishlar tahlili auditorga qaysi modda bo'yicha muhim o'zgarishlar bo'lishini aniqlashga imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan eksport muomalalarini amalga oshirishda bir qator imtiyozlar berilgan bo'lib, ularning tabiati to'la o'rganib chiqildi va bu borada tashqi auditor e'tibor berishi kerak bo'lgan holatlar belgilanib, ularning darajalari monografiyada batafsil bayon etildi. Albatta, imtiyozlardan noqonuniy foydalanish asoslanmagan tarzda foydani ko'paytiradi, ammo nisbiy ravishda foydadan soliqlar imtiyozdan olingan foydani qoplamaydi va oqibatda davlatga zarar etkaziladi.

Auditor xorijiy xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar shaklini, to'lov muddatini, eksport bo'yicha kredit va kredit to'lovlari stavkalari o'rganish hamda eksportga jo'natilgan tovarlar bo'yicha debitorlik qarzlarni tahlil qilishi kerakligi qayd etilib, bularni amalga oshirish yo'llari ko'rsatildi. Eng samarali hisob-kitob usullaridan biri veksellar bilan hisoblashishlar ekanligi isbotlandi va debitorlik qarzi mavjud bo'lishiga qaramay, bu hisob-kitob usulida qo'shimcha daromad olish mumkinligi ko'rsatildi.

Xulosa shuki, O'zbekiston Respublikasida eksport muomalalarini amalga oshirishda sifatli auditorlik nazoratini tashkil qilish va uni jahon standartlari darajasiga olib chiqish zarur. Monografiyada berilgan takliflar valyuta xavf-xatarini hisobga olish, ichki nazorat testlarini ishlab chiqish, eksport muomilalari auditi dasturini yaratish va samarali hisob shakllarini qo'llashning metodologik jihatdan asoslangan yo'larini ochib beridi.

Monografiyadagi asosiy maqsadlardan biri import tovarlari bo'yicha nazoratning zaif va kuchli tomonlarini aniqlashdan iborat bo'lib, bunga erishish uchun nazorat testlari ishlab chiqildi. Testlar VII yirik blokdan iborat bo'lib, 15 savolni o'z ichiga oladi. Bu savollarni ishlab chiqish jahon standartlari talablari asosida amalga oshirildi va har bir savol yuzasidan nazorat muolajalari taklif qilinib, ular asosida import muomalalarini tekshirish uchun audit dasturi yaratildi.

Keltirilgan dasturdagi asosiy qismlardan biri boj qiymatini aniqlashning to'g'riligini tekshirishdan iborat, negaki boj qiymatining to'g'riligi bojxona organlari tomonidan faqatgina qisman aniqlanishi mumkin. Bu masala borasida to'g'ri qaror qabul qilish uchun esa hujjatlarni audit jarayonidan o'tkazish zarur bo'ladi. Faqatgina audit uslublarini qo'llagan holdagina samarali va oqilona natijaga erishish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, boj qiymati auditi mavzusi bo'yicha umumiy dastur ishlab chiqildi. Dasturga asosan har bir qism bo'yicha tekshirish o'tkazish ko'zda tutilgan. Asosiy va maxsus usullar audit o'tkazish metodologiyasi bilan to'ldirildi.

Import muomalalari auditini tashkil qilishning metodologik asoslarini yaratishda sintetik va analitik hisob ma'lumotlarini taqqoslash orqali bir qator ish jadvallaridan foydalanish zarur bo'ladi, bundan tashqari xarajatlarning belgilanishi, boj qiymatining aniqlanishi usullarining qo'llanilishida audit uslublaridan foydalanish zarurligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, «Audit iqtisodi» tushunchasi O'zbekistonda buxgalteriya hisobi, audit va tahlil yo'nalishi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan olimlar orasida munozara tug'dirishi mumkin. Bunga sabab O'zbekistonda iqtisodiy bilimlarni sohalarga ajratib yo'naltirilishidir. Ammo har qanday iqtisodiy yo'nalishning u moliya, bank, kredit, audit, buxgalteriya hisobi bo'lishidan qat'iy nazar iqtisodiy asoslari mavjud. Bundan tashqari har qanday yo'nalish iqtisodiy samara berish nuqtai nazaridan ham o'rganilmog'i lozim.

Muallif monografiya yuzasidan bildirilgan fikr va mulohazalarni, takliflarni minnatdorchilik bilan qabul qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Karimov I.A. «O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li». T.: «O'zbekiston». 1992, 71-bet.
2. Karimov I.A. «O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura» T.: «O'zbekiston» 1993, 264-bet.
3. Karimov I.A. «Iqtisodiy islohot. Mas'uliyatli bosqich». T.: «O'zbekiston» 1994.
4. Karimov I.A. «Yo'limiz mustaqil davlatchilik va taraqqiyot yo'li». T.: «O'zbekiston» 1994.
5. Karimov I.A. «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida». T.: «O'zbekiston» 1995, 272- bet.
6. Karimov I.A. «Bizdan ozod va obod vatan qolsin» T.: «O'zbekiston» 1996.
7. Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». T.: «O'zbekiston» 1997, 328- bet.
8. Karimov I.A. «Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi» T.: «O'zbekiston» 1997.
9. Karimov I.A. «O'zbekiston buyuk kelajak sari». T.: «O'zbekiston» 1998, 682-bet.
10. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasidagi ma'ruza. 2000 yil, 23 yanvar.
11. Karimov I.A. «Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma'sulimiz» T.: «O'zbekiston» 2001, 432- bet.
12. Karimov I.A. «Kamolot yoshlarimizning chinakam suyanchi va tayanchi bo'lsin» T.: «O'zbekiston» 2001, 48- bet.
13. «Islohotlar strategiyasi – mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishdir». Prezident I.Karimovning 2002 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2003 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 2003 yil 18 fevral.
14. «Erishgan marralarimizni mustahkamlab, islohotlar yo'lidan izchil borish – asosiy vazifamiz» /Prezident I.Karimovning 2003 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari, iqtisodiy islohotlarning borishini baholash va 2004 yilda iqtisodiy islohotlarni yanada erkinlashtirishning asosiy yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi// Xalq so'zi, 2004 yil 10 fevral.

II. Qonunlar, qarorlar va yo'riqnomalar.

15. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston», 2002.
16. O'zbekiston Respublikasining «Mulkchilik to'g'risida»gi qonuni. T.: «O'zbekiston» 1992 .
17. O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risida»gi qonuni. T.: «O'zbekiston» 1992 .
18. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonuni. T.: «O'zbekiston» 1996. O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyat ko'rsatish mexanizmi to'g'risida»gi qonuni. T.: «O'zbekiston» 1996.
19. O'zbekiston Respublikasining «Aktiyadorlik jamiyatlari va aktiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonuni. T.: «O'zbekiston» 1996 .
20. O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi qonuni. T.: «O'zbekiston» 1997.
21. O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonuni. T.: «O'zbekiston» 2000.
22. O'zbekiston Respublikasining «Ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi Kodeksi. 1994 yil 22 sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan tasdiqlangan.
23. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. 1997 yil 24 apreldagi O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan tasdiqlangan.
24. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 1997 yil 24 apreldagi O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan tasdiqlangan.
25. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi. T.: DSQ, 1996.
26. O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi «Davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi. qarori.// Xalq so'zi, 1997 yil. 18 sentyabr.
27. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 18 martdagi «O'zbekiston Respublikasining soliq va bojxona qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi. PF-795-son Farmoni
28. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 20 apreldagi. «Eksport operatsiyalari bo'yicha valyuta nazoratini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-837-son Farmoni.
29. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 8 avgustdagi «Tekshirishlarni tartibga solish va nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirishni takomillashtirish to'g'risida»gi PF-1503-son Farmoni.
30. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 9 avgustdagi «Byudjetlar bilan hisob-kitoblar uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-1504-son Farmoni.
31. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 5 fevraldagi «Xo'jalik sudlarining qarorlari ijrosini ta'minlashga oid chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni.
32. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 26 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2001 yildagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat byudjetining prognozi to'g'risida»gi 500-son qarori.
33. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 22 avgustdagi «Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi 347-son qarori.
34. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 25 oktyabrdagi «Ichki valyuta bozorida almashuv kurslarini bir xillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 422-son qarori
35. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 25 oktyabrdagi «Respublika iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 423-son qarori
36. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlari.- O'zR MV, Toshkent, «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2001.
37. «2003 yil 1 yanvardan boshlab yuridik va jismoniy shaxslarni soliq solish tartibiga kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risidagi to'plam» -O'zRes.DSQ, 2003.
38. O'zbekiston Respublikasi milliy audit standartlari. - O'zR MV, Toshkent, «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2004.

III. Maxsus adabiyotlar

39. Abdukarimov I.T. «Moliyaviy hisobotni qanday o'qish va tahlil qilish kerak». - Toshkent, «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 1998. 190 bet.
40. Abdullaev Yo.A. «Bozor iqtisodiyoti asoslari». - Toshkent, «Mehnat», 1997. 220 bet.
41. Abdullaev Yo.A., Yahyoev Q.A. «Soliq: 100 savol va javob». - Toshkent, «Mehnat», 1997. 150 bet.
42. Abdullaeva Sh.Z. «Bank ishi». - Toshkent, «TMI», 2000. 160 bet.
43. Adams R. «Audit». - Moskva, «Infra-M», 1997. 480 s.
44. Aksenenko A.F., Babijanov M.S. «Uchet rasxodov po mestam formirovaniya zatrat i sferam otvetstvennosti na predpriyatiyah v usloviyah rinochnoy ekonomiki». - Moskva. «Znanie», 1991. 310 s.
45. Alimov X.R. «O'zbekiston Respublikasining ma'muriy huquqi».- Toshkent, «IIV akademiyasi», 1995. 300 bet.
46. Alborov R.A. «Audit v organizatsiyax promishlennosti, torgovli i APK»,- Moskva, «YuNITI», 2000. 430 s.
47. Anderson G., Nidlz B., Kolduell J. «Printsipi buxgalterskogo ucheta». - Moskva, «Finansi i statistika», 1996. 400 s.
48. Arens E.A., Lobbek Dj.K. «Audit».- Moskva, «Finansi i statistika», 1995. 560 s.
49. Baykunusov B.T., To'laxodjaeva M.M. «Metodicheskoe posobie o poryadke provedeniya auditorских proverok finansovo-xozyaystvennoy deyatel'nosti». - Tashkent, MF RUz, 1997. 120 s.
50. Bakanov M.I., Sheremet A.D. «Teoriya ekonomicheskogo analiza».- Moskva, «Finansi i statistika», 1995. 340 s.
51. Bakaev A.S., Shneydman L.Z. «Uchetnaya politika predpriyatiya». - Moskva, «Buxgalterskiy uchet», 1994. 140 s.
52. Barishnikov N.N. «Buxgalterskiy uchet, otchetnost i nalogooblojenie».- Moskva, «Filin Rilant», 2000. 448 s.
53. Belobjetskiy I.A. «Buxgalterskiy uchet i vnutrenniy audit». - Moskva, «Finansi i statistika», 1994. 350 s.
54. Beluxa N.T. «Kontrol i reviziya v otraslyax narodnogo xozyaystva». - Moskva, «Finansi i statistika», 1992. 320 s.
55. Bernstayn L.A. «Analiz finansovoy otchetnosti». - Moskva, «Finansi i statistika», 1996. 390 s.
56. Bely I. N. «Reviziya i kontrol v APK». - Minsk, «Urojay», 1998. 320 s.
57. Butakov D.D. «Osnovi mirovogo Nalogovogo kodeksa». - Moskva, «Finansi i statistika», 1996. 240 s.
58. Butikov I.L. «Qimmatli qog'ozlar bozori». - Toshkent, «Konsauditinform», 2001. 420 bet.
59. Vasileva G.V. «Zakonodatel'stvo ob administrativnix pravonarusheniya». - Moskva, «Znanie», 1989. 128 s.
60. Vohidov S.V. «Xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari». - Toshkent, «Mehnat», 1993. 160 bet.
61. Vohobov A., Ibrohimov A. Moliyaviy tahlil -T.: Sharq, 2002. 180 bet.
62. Gavrilov R.V. «Proizvoditelnost truda: pokazateli planirovaniya i metodi izmereniya». - Moskva. «Ekonomika», 1985. 118 s.
63. Gadoev E.F., Yugay A.P. «Buxgalterskiy uchet v voprosax i otvetax».- Tashkent, «Mir ekonomiki i pravo», 1996. 160 s.
64. Gasanov M., Sokolov E. «Mehnat shartnomasi (kontrakt)». 3-jild. -Toshkent, «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 1998.
65. Gataulin Sh.K., Li A.A., Stasko V.N., Xvan L.B. «Soliqlar va soliqqa tortish». - Toshkent, O'zR DSQ, 1996. 310 bet.
66. Gluxarev L.I. «Evropeyskoe soobshchestvo v poiskax novoy strategii».- Moskva, «Mejdunarodnie otnosheniya», 2000. 320 s.

67. Grigori Menkyu «Makroekonomika». - «MGU», 1994. 736 s.
68. Grishin V.D. «Aksionernie obshchestva: Finansi, kommertsiya, uchet, reviziya». - Moskva, «Mir», 1991. 280 s.
69. Guttsayt E.M. «Pravila (standarti) auditorской deyatel'nosti».- Moskva, «Yurayt M», 2000. 340 s.
70. Danilevskiy Yu.A. i dr. «Audit».- Moskva, «YuNITI», 2000. 544 s.
71. Danilevskiy Yu.A. «Audit: Voprosi i otveti». - Moskva, «Buxgalterskiy uchyot», 1993. 170 s.
72. Danilevskiy Yu.A. «Audit: organizatsiya i metodika provedeniya».- Moskva, «Buxgalterskiy uchet», 1992. 120 s.
73. Derx Stoun., Kloud Xitching. «Buxgalterskiy uchet i finansoviy analiz». - Sankt-Peterburg, «YuNITI», 1994. 350 s.
74. Dodj R. «Kratkiy rukovodstva po standartam i normam audita».- Moskva, «Finansi i statistika», «YuNITI», 1992. 190 s.
75. Druri. «Vvedenie v upravlencheskiy i proizvodstvenniy uchet». - Moskva, «YuNITI», 1994. 783 s.
76. Dj. K. Van Xorn. «Osnovi upravleniya finansami». - Moskva, «Finansi i statistika», 2000. 800 s.
77. Djek K. Roberston. «Audit», Moskva, 1993. 496 s.
78. Djumamuratov J.Ya. «Primenenie spetsialnix ekonomicheskix poznanii na predvaritel'nom sledstvii». -Tashkent, «Uzbekistan», 1991. 175 s.
79. Zubov V.M. «Kak izmeryaetsya proizvoditelnost truda v SShA».- Moskva, «Finansi i statistika», 1990. 144 s.
80. Ibrohimov A.T. «Moliyaviy tahlil». - Toshkent, «Mehnat», 1995. 150 bet.
81. Ibrohimov A. «Ijara va kichik korxonalarda buxgalteriya hisobi hamda iqtisodiy nazoratni tashkil qilish». - Toshkent, «Mehnat», 1992. 150 bet.
82. Ibrohimov A., Karimov A. «Qo'shma korxonalarda buxgalteriya hisobi».- Toshkent, «O'zbekiston», 1994. 160 bet.
83. Ibrohimov A., Karimov A. «Xorij sarmoyalari buxgalteriya hisobi».- Toshkent, «O'zbekiston», 1999. 160 bet.
84. Itkin Yu.M., Sotivoldiev A.S. «Buxgalterskiy uchet v usloviyax rinochnoy ekonomiki Uzbekistana». - Toshkent, «ABA RUz», 1997. 210 s.
85. Itkin Yu.M. «Organizatsiya finansovogo kontrolya v perexodniy period k rinochnoy ekonomike». - Moskva, «Finansi i statistika», 1991. 200 s.
86. Itkin Yu.M. «Problemi stanovleniya audita».- Moskva, «Finansi i statistika», 1992. 230 s.
87. Itkin Yu. M., Tulaxodjaeva M. M. «Kontrol i reviziya v neftesnabjenii». - Toshkent, «O'qituvchi», 1992. 220 s.
88. Karimov A., Islomov F., Avloqulov A. Buxgalteriya hisobi. –T.: «Sharq» NMAK, 2004. 592 bet.
89. Karpova G.P. «Upravlencheskiy uchyot». – Moskva, «YuNITI», 2002. 350 s.
90. Kachalin V.V. «Finansoviy uchet i otchetnost v sootvetstvii so standartami SAAR». - Moskva, «Delo», 2000. 400 s.
91. Kempbell R. Makkonnell., Stenli L. Bryu. «Ekonomiks». - Moskva, «Respublika», 1-2 tom, 1993. 399s, 400 s.
92. Kovalev V.V., Volkova O.N. «Analiz xozyaystvennoy deyatel'nosti predpriyatiya». – Moskva, «Prospekt», 2001. 424 s.
93. Kozlova E.T., Galanina E.N. «Buxgalter i nalogoviy inspektor. Problemi i resheniya». - Moskva. «Finansi i statistika», 1993. 230 s.
94. Kondrakov N.P. «Buxgalterskiy uchyot». - Moskva, «Infra – M», 2001. 640 s.
95. Krayuxin R.A., Gurore A.D., Ikromov M.A., Kuskova T.A. «Malie predpriyatiya v usloviyax rinka». -Tashkent, «Uzbekistan», 1992. 210 s.
96. Klas Eklund. «Effektivnaya ekonomika. Shvedskaya model». – Moskva, «Ekonomika», 1991. 340 s.

97. Lamikin I.A., Malshkin A.I. «Uchyot proizvodstva v agropromishlennix formirovaniyax». – Moskva, «Agropromizdat», 1987. 320 s.
98. Leontev V. «Ekonomicheskoe esse. Teoriya, issledovaniya: fakti i politika». – Moskva, «Politizdat», 1990. 350 s.
99. Levin V.S. «Kontrol izderjek proizvodstva v usloviyax normativnogo uchyota», – Moskva, «Finansi i statistika», 1990. 210 s.
100. Lutts Krushvits. «Investitsionnie rascheti». – Moskva, Sankt-Peterburg, Xarkov, Minsk, «Piter», 2001. 432 s.
101. Linnaks E.A. «Finansovie uchyot aktsionernogo obshchestva v SShA». – Moskva, «Finansi i statistika», 1991. 350 s.
102. Lyubshin N.P., i dr. «Analiz finansovo-ekonomicheskoy deyatel'nosti predpriyatiya». – Moskva, «Infra - M», 2001. 471 s.
103. Malikov T.S. «Moliyaviy qaror qabul qilish asoslari». – Toshkent, «Sharq», 1996. 140 bet.
104. Mayer E. «Kontrolling kak sistema mishleniya i upravleniya». – Moskva, «Finansi i statistika», 1993. 190 s.
105. Makareva V.I. «Uchyot v usloviyax rinka». – Moskva, «Finansi i statistika», 1991. 210 s.
106. Montgomeri R. «Audit». – Moskva, «Infra-M», 1998. 380 s.
107. Mirzakovskiy E.A., i dr. «Novie obekti buxgalterskogo ucheta: aktsii, obligatsii, vekselya». – Moskva, «Finansi i statistika», 1993. 210 s.
108. Nidlz B.I., i dr. «Printsiipi buxgalterskogo ucheta». – Moskva, «Finansi i statistika», 1997. 360 s.
109. Novodvorskiy V.D., i dr. «Buxgalterskaya otchetnost: sostovlenie i analiz». – Moskva, «Buxgalterskiy uchet», 1994. 310 s.
110. Nochevikina L.P. «Strukturnaya perestroyka ekonomiki vedushchix kapitalisticheskix stran // Ekonomicheskoe polojenie kapitalisticheskix i razvivayushchixsya stran». – Moskva, «Pravda», 1985. 30 s.
111. Ososkov V.V. «Buxgalterlar, auditorlar, menedjerlar, moliyachilar, iqtisodchilar uchun maslahatchi». – Toshkent, «Mehnat», 1995. 60 b.
112. Ostonaqulov M. «Buxgalteriya hisobi nazariyasi». – Toshkent, «O'zbekiston», 1993. 220 bet.
113. Pavlova E.S. «Primenenie sudey mer administrativnogo vziskaniya». – Moskva, «Yuridicheskaya literatura», 1997. 80 s.
114. Paliy V.F. «Mejdunarodnie standarti po buxgalterskomu uchetu». – Moskva, «Finansi i statistika», 1990. 210 s.
115. Pardaev M.Q. «Iqtisodiy tahlil nazariyasi». – Samarqand, «Zarafshon», 2001. 272 bet.
116. Pardaev M.Q. «Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarda foyda va rentabellik tahlili». – Samarqand, «SKI», 1996. 50 bet.
117. Pardaev M.Q., Muxammadiev M.D. «Korxonalar moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili». – Samarqand, «SKI», 2000. 52 bet.
118. Podolskiy V.I. «Audit». – Moskva, «YUNITI», 2001.
119. Pushkar M.S. «Buxgalterskiy uchet v sisteme upravleniya». – Moskva, «Finansi i statistika», 1991. 210 s.
120. Rahmonqulov. H. va boshqalar. «O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharhlar». – Toshkent, «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 1999. 110 bet.
121. Rizakulov A. «Qishloq xo'jaligi tizimidagi turli mulkchilikka asoslangan, korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning moliyaviy xo'jalik faoliyatini taftish qilish to'g'risida uslubiy qo'llanma». – Toshkent, «DITAF», 1995. 166 bet.
122. Rizakulov A. «Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobi». – Toshkent, «Qatortol-Kamolot», 1998. 130 bet.
123. Sanaev N.S. «Audit va taftish». – Toshkent, «FAN», 1997. 140 bet.
124. Sanaev N.S., Narziev R. «Auditorlik faoliyati bo'yicha me'yoriy hujjatlar va ularga sharhlari bilan o'quv qo'llanma». – Samarqand, «SQXI», 2001. 65 bet.

125. Sotivoldiev A.S. «Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi».- Toshkent, «Mehnat», 1991. 310 bet.
126. Tulaxodjaeva M.M. «Audit finansovogo sostoyaniya predpriyatiya».- Toshkent, «Mir ekonomiki i prava», 1996. 160 s.
127. Tulaxodjaeva M.M. «Spravochnik auditora». - Tashkent, «ABA», 1997. 150s.
128. Tulaxodjaeva M.M. «O'zbekiston Respublikasi Moliyaviy nazorat tizimi».- Toshkent, «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» , 1998. 170 bet.
129. Tkach V.I. «Mejdunarodnie sistemi uchyota i otchetnosti». - Moskva, «Finansi i statistika», 1991. 160 s.
130. Umarova M., Eshboev U., Axmadjonov K. «Buxgalteriya hisobi».- Toshkent, «Mehnat», 1998. 210 bet.
131. O'lmasov A., Sharifxo'jaev M. «Iqtisodiyot nazariyasi». - Toshkent, «Mehnat», 1995. 400 bet.
132. O'lmasov A. «Iqtisodiyot asoslari».- Toshkent, «Mehnat», 1997. 280 bet.
133. Qodirxonov S. «Sanoat korxonalarida buxgalteriya hisobi».- Toshkent, «O'qituvchi», 1993. 220 bet.
134. Chetirkin E. M. «Finansoviy analiz proizvodstvennix investitsiy».- Moskva, «Delo», 2001. 280 s.
135. Chjen V.A. «Pul va moliya bozorlari». - Toshkent, «Biznes katalog», 1996. 120 bet.
136. Hamdamov Q.S. «Mikroiqtisod». - Toshkent, «TDIU», 2001. 162 bet.
137. Hamdamov B.Q. «Audit: umumiy nazariya». - Toshkent, «O'zR DSQ», 2001. 90 bet.
138. Xashimov B.A. «Razvitie buxgalterskogo ucheta na osnove mejdunarodnix standartov v Respubliki Uzbekistan». - Vashington, «IER», 1996. 70 s.
139. Xashimov B.X., Tulaxodjaeva M.M. «Organizatsiya buxgalterskogo ucheta i kontrolya v kooperativax, obshchestvennix organizatsiyax, sovместnix i malix predpriyatiyax Uzbekistana». - Toshkent, «TFI», 1993. 120 s.
140. Xorngren Ch.T., Dj.Foster. «Buxgalterskiy uchets: Upravlencheskiy aspekt». - Moskva, «Finansi i statistika», 2000. 416 s.
141. Sharifxo'jaev M., Abdullaev Yo. «Menejment». - Toshkent, «O'qituvchi», 2001. 704 bet.
142. Shaulov D.I., Kan U.T. «Osnovi nalogovogo zakonodatelstva».- Tashkent, «Mir ekonomiki i prava», 1999. 464 s.
143. Sheremet A.D., Suyts V.P. «Audit», Moskva, «Infra-M», 2001. 352 s.
144. Sheremet A.D., Sayfulin R.S., Negashev E. V. «Metodika finansovogo analiza». - Moskva, «Infra-M», 2001. 208 s.
145. Yahyoev Q.A. «Soliq nazariyasi va amaliyoti». - Toshkent, «Mehnat», 2000. 150 bet.
146. Yahyoev Q.A. «O'zbekistonning soliqlari va soliqsiz to'lovlari».- Toshkent, «TMI», 1994. 60 bet.
147. Qurbonov Z.N. «Soliqlarning moliyaviy hisobi». - Toshkent, «O'zR DSq», 2001. 76 bet.
148. Qurbonov Z.N., Yo'ldashev P. «Tadbirkorlik faoliyatida buxgalteriya hisobi va auditning huquqiy asoslari».- Toshkent, «Adolat», 2002. 28 bet.
149. Entoni R., Dj. Ris. «Uchet: situatsii i primeri». - «Moskva «Finansi i statistika», 1993. 560 s

IV. Ro'znoma va jurnallar

150. Akromov T.A. «Povedenie firmi v usloviyax perexodnoy ekonomiki». -Moskva, //«Vestnik Moskovskogo universiteta», 2001. Seriya 6 ekonomika , №6, 66-83 s.
151. Vaxobov A. V. «XXI asr korxonasi - bu xalq korxonasidir».- //«Bozor, pul, kredit», 2000. №3, 5-8 betlar.
152. Olimjonov O., «Larzalardan xoli iqtisodiyot. //«Xalq so'zi».-2002. №25
153. Tulaxodjaeva M.M. «Rinok i problemi ekonomicheskoy informatsii». - Tashkent, //«Ekonomika i statistika, №5-6. 14-16 s.
154. Tulaxodjaeva M.M. «Kriterii professionalnoy chesti. Kodeks etiki vnutrennix auditorov». - Tashkent, //«Nalogovie i tamojennie vesti», 1998. №33.
155. Tulaxodjaeva M.M. «Standarti vnutrennego audita». - Tashkent, //«Nalogovie i tamojennie vesti», 1998. №34-35.
156. Tulaxodjaeva M.M. «Bolshe doveryay, chetche proveryay». - Tashkent, //«Nalogovie i tamojennie vesti», 1998. №37.
157. Sindorov Q., Mirzayorov U. «Hisobini bilmagan hamyonidan ayriladi».- //«O'zbekiston qishloq xo'jaligi» 2001. №6, 16-18 betlar.
158. Shulomov S.S., Hamdamov Q.S. «Qishloq xo'jaligi va er solig'i».- //«Iqtisod va hisobot», 1993. №8, 10-18 betlar.
159. Hamdamov Q.S, Mahmudov E.X. «Yangicha yo'llar, muvaffaqiyatlar va muammolar». //«O'zbekiston qishloq xo'jaligi», 2001. №6, 16-18 betlar.
160. Hamdamov B.Q. «Moliyaviy nazorat va audit (yoki uni tashkil qilish muammolari)». //«Iqtisod va hisobot», 1993. №4, 46-47 betlar.
161. Hamdamov B.Q. «Audit - islohotlar ravnaqi yo'lida». //«Iqtisod va hisobot», 1997. №5, 40-41 betlar.
162. Hamdamov B.Q. «Audit rejasi va uslubiyoti». //«Iqtisod va hisobot», 1998. №5, 51-53 betlar.
163. Xamdamov B.K. «Problemi audita v ekonomiki Uzbekistana».- //«Xozyaystvo i pravo», 1997. №4, 87-90 s.
164. Hamdamov B.Q. «O'zbekiston iqtisodida audit muammosi». - //«Xo'jalik va huquq», 1997. №4, 36-39 betlar.
165. Xamdamov B.K. «Tamojennaya stoimost i audit». //«Xozyaystvo i pravo», 2001. №10, 77-80 s.
166. Hamdamov B.Q. «Bojxona qiymatini aniqlashda audit muammosi». //«Soliq va bojxona xabarlari», 2001. № 28.
167. Hamdamov B.Q. «Bojxona auditi istiqbollari». //«Soliq va bojxona xabarlari», 2001. №42.
168. Xamdamov B.K. «Perspektivi tamojennogo audita». //«Nalogovie i tamojennie vesti», 2001, №43.
169. Xamdamov B.K. «Audit tamojennoy stoimosti». -Moskva, Trudi molodix uchyonix i aspirantov Rossiyskoy Federatsii, MGU im Lomonosova, «MAKS-PRES» 2001. 86-91 s.

V. Ilmiy tezis va avtoreferatlar

170. Vahobov A.V. «Bozor munosabatlariga o'tish bosqichidagi ko'p ukladli iqtisodiyot va uning takroran hosil bo'lishi». -Toshkent.: Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2001. 39 bet.
171. Tulaxodjaeva M.M. «Organizatsiya i metodi finansovogo kontrolya v Respublike Uzbekistan». –Moskva, Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchebnoy stepeni doktora ekonomicheskix nauk. 1998. 46 s.
172. Tulaxodjaeva M.M. Rol buxgalterskogo ucheta v protsesse privatizatsii. -Samarkand: Sbornik tezisov dokladov. SKI. 1994. 80 s.
173. Hamdamov B.K. Import muomalalari auditi. -Toshkent: Ilmiy Amaliy Anjuman. Buxgalterlar va auditorlar uyushmasi. 2001. 160-bet.
174. Hamdamov B.K. Sotsialno-ekonomicheskie faktori rosta proizvoditelnosti truda. -Moskva. Tezisi dokladov. Vsesoyuznoy nauchno-teoreticheskoy konferentsii molodix uchenix i spetsalistov «Razvitie kooperatsii i sovershenstvovanie xozyaystvennogo mexanizma v APK». Moskva, 1990. 208-209 s.
175. Hamdamov B.K. Problemi refomirovaniya finansovogo kontrolya v usloviyax Uzbekistana. -Toshkent. Materiali mejdunarodnoy konferentsii po buxgaletrskomu uchetu, analizu xozyaystvennoy deyatelnosti i auditu. Tashkent, 1992. 87-89 s.
176. Hamdamov B.K. Razvitie audita v Uzbekistane. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida marketing muammo va echimlar. -Toshkent. TDIU va Rossiya iqtisod Akademiyasi. Xalqaro ilmiy amaliy konferentsiya materiallari. 1997. 133-140 betlar.
177. Hamdamov B.K. Mesto i rol audita v sisteme finansovogo kontrolya. -Toshkent. Mejdunarodnaya nauchno prakticheskaya konferentsiya. «Aktualnie voprosi sovershenstvovaniya bankovsko-finansovoy sistemi Respubliki Uzbekistan.» BFA RUz. 1999. 67-70 s.
178. Qo'ziev I.N. «Paxtachilikda ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va nazoratini takomillashtirish». -Toshkent. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. 2001. 22-bet.
179. Xamdamov B.K. Soliq organlari kadrlarini tayyorlash tizimida ta'lim jarayoniga yangi pedogogik texnologiyani joriy etishning ilmiy asoslari. -Toshkent. Xalqaro-ilmiy amaliy konferentsiya. «Investitsiya,audit va iqtisodiy taraqqiyot.» O'zR DSQ Soliq Akademiyasi 2003y. 210-211 betlar.
180. Xamdamov B.K. Iqtisodni erkinlashtirish sharoitida soliq tizimi va sug'urta faoliyatini takomillashtirish yo'llari. -Toshkent. Xalqaro-ilmiy amaliy konferentsiya materiallari. «Valyuta muomalalari auditi». O'zR DSQ 2004y. 456-bet.

VI. Xorijiy adabiyotlar va internet saytlari

182. Advanced topics in capital budgeting. Lectures of University of Texas at Dallas School of Management. September 1999. 482 p.
183. Alon Brav, Campbell R. Harvey, Stephen Gray and Ernst Maug. Text of the lecture. Global Financial Management. Valuation of Cash Flows. Investment decisions and capital budgeting. 532 p.
184. Ahmed, Priscilla A. Project finance in developing countries: IFC's lessons of experience. IFC, Washington, D.C. 1999. 254p.
185. Bernstein. Financial Statement Analysis: Theory, Application, and nterpretation, fifth edition 1997, 325p.
186. Bernstein and Masky Cases. Cases in Financial statement reporting and Analysis. second edition Boatsman, Griffin, Vickrey and Williams 1999, 395 p.
187. Bockholdt. Accounting Information Systems, fourth edition, 1996, 298p.
188. Bridger G.A. and J.T. Winpenny. Planning development projects: a practical guide to choice and appraisal of public sector investments. London, England: Overseas development administration. 346p.
189. Bruner R. What is Capital Budgeting? New York, 1999.
190. Capital budgeting. Lectures of University of Texas at Dallas School of Management. September, 1999. 214p.
191. Calvin Engler, Ph.D., CPA Iona College, Leopold A. Bernstein, Ph.D., CPA Baruch College of the City University of New York. Advanced Accounting. Third edition 1995, 354p.
192. Dixon J.A. and Hufschmidt M.M. Economic valuation techniques for the environment: a case study workbook. Baltimore, Maryland: John Hopkins University Press. 328 p.
193. Investment decision rules. Lectures of University of Texas at Dallas School of Management. September 1999. 492p.
194. Introduction to Project Analysis. A training manual for Central Asia in English and Russian. Vol.5 – Readings in Project Analysis. 342p.
195. Irvin, George. Modern Cost-Benefit methods. An introduction to financial, economic and social appraisal of development projects. London, UK: Macmillan. 678p.
196. Ferris. Financial Accounting and Corporate Reporting: A casebook fourth edition, 1999, 326p.
197. James McMaster. Urban Financial Management. A Training Manual. The Economic Development Institute of the World Bank, Washington, D.C.1994. 464p.
198. Little, I.M.D., and Mirrlees J.A. Project appraisal and planning for developing countries, NY: Macmillan. 298p.
199. Mishan, E.J. Cost-Benefit Analysis (3rd edition). London, UK: Allen & Unwin. 344p.
200. Mveller, Gernon and Meek. Accounting: An International Perspective. Third edition 1993, 586p.
201. Pany and Whittington. Auditing. 1999, 524 p.
202. Pratt and Kulsrud. Corporate, Partnership, Estate, and gift taxation, 1996 edition 695 p.
203. Pratt and Kulsrud. Individual Taxation, 1996 edition, 532 p.
204. Risk and return. Lectures of University of Texas at Dallas School of Management. September 1999. 352p.
205. Robert N. Antheny, James S. Reece. Accounting Principles 1995. 456r.
206. Roger H. Hermanson James Don Edwards, Michel W. Maher. Accounting a Business Perspective. Sixth edition 1995. 369p.
207. Robert Libby, Patricia A. Libby, Daniel G. Short. Financial Accounting. Miami University Press, 1998. 524p.
208. The Work Of SEC. U.S. Securities and Exange Comission, 1999. 216p.

209. Securities Regulation in THE Unite States. NASD. Washington, 2000. 454p.
210. Uzbekistan Enterprise Institution Building Loan Project. 1998. World Development Report, The World Bank, Washington, D.S.
211. Uzbekistan, Central Asia Economic Conference presented by EBRD. 2001.
212. <http://www.apb.org.uk>
213. <http://www.nao.gov.uk>
214. <http://www.iaa.org.uk>
215. <http://www.iasc.org.uk>
216. <http://www.aicpa.org/index.htm>
217. <http://www.uza.us.apb>.
218. <http://www.uzperort.som>.
219. <http://www.referat.uz>.
220. <http://www.uzbekistan.uz>
221. <http://www.frtib.gov/>.
222. <http://www.worldbank.org/icid>.
223. <http://www.ici.org/>.
224. <http://www.ebrd.com>
225. <http://www.accountingweb.com>